

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

G'O'ZA GENETIKASI



Guliston - 2015

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta‘lim vazirligi
O‘zbekiston Milliy universiteti
Guliston davlat universiteti

M. Ergashev, Sh. Turabekov, T. Kuliyev

G’o’za genetikasi
(uslubiy qo’llanma)

Guliston – 2015

Tuzuvchilar:

M. Ergashev - GulDU o'qituvchisi.

Sh.Turabekov - b.f.n., O'zMU., katta ilmiy xodim.

T. Kuliyev- b.f.n., GulDU dotsenti

Taqrızchilar:

I.O'razbaev – GulDU., dotsenti, b.f.n.

F.Abdullayev – O'zFA Genetika va O'EB ITI, b.f.n.

Qo'llanma universitetlarning biologiya ta'lim yo'nalishi talabalariga o'qiladigan "G'o'za genetikasi va seleksiyasi" fanining dasturi bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulot darslarini o'tishga mo'ljallab yozilgan. Unda g'o'za genetikasi va seleksiysi fanining predmeti, vazifalari va tadqiqot metodlari, xalq xo'jaligidagi ahamiyati, kelib chiqishi va sistematikasi, g'o'za o'simligi belgilarining irsiylanishi va ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik qonuniyatları, g'o'za seleksiyasining genetik asoslari yoritilgan. Mavzularning bayon etilishida bu soxada fanning yutuqlari, shuningdek O'zbekiston Milliy universiteti "G'o'za genetikasi va genkolleksiya" laboratoriyasining ilmiy hodimlari tomonidan g'o'za genetik kolleksiysi liniyalari ustida olib borilgan bir necha yillik tadqiqot natijalaridan foydalanilgan. Qo'llanmadan biologiya yo'nalishida ixtisoslashayotgan magistrlar ham foydalanishi mumkin.

Qo'llanmada D.A. Musayev (1979,2008); V.E.Endrizzi, E.L.Turkotte, R.Kohel (1985); D.A.Musayev, M.F.Abzalov (1972); M.F.Abzalov, G.N.Fatxullaeva (1979); Sh.To'rabekov va M.M.Ergashev (2012) kabi ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan genlarning quyidagi simvollaridan foydalanildi.

| | | |
|---------------------------------|---|---|
| $S - s$ | — | sympodia – hosil shox |
| $R_p - r_p$ | — | red(antocian) plant – o'simlikning antotsian (qizil) rangi |
| $R_{st}^v - r_{st}^v$ | — | red stem and red vein leaf – poya va barg tomirlarining antotsian (qizil) rangi |
| $Y_1 - y_1$ | — | yellow petals – gultojbarglarning sariq rangi |
| $P_1 - p_1$ | — | pollen color – changlarning rangi |
| $R_2 - r_2$ | — | red petal spot–gultojbarglar asosidagi qizg'ish dog' (<i>G. hir.</i>) |
| $Fg - fg$ | — | frego – gulyonbarglar shakli |
| $O_L - o_L$ | — | okra (kesik), leaf (barg) – kesik barg |
| $In^L - in^L$ | — | Integri (yaxlit), L-leaf (barg) – yaxlit barg |
| $Gl_1 - gl_1$ | — | gossypol glands – poya va ko'saklardagi gossipol bezlari |
| $F_r^{Br} - F_r^{br}$ | — | Fiber (tola), brown (qo'ng'ir) – qo'ng'ir tola |
| $F_r^A - f_r^A$ | — | tolaning polimer oligogenlari |
| $F_r^D - f_r^D$ | — | |
| $Fr_1 - fr_1$ | — | tolaning odatdagи polimer genlari |
| $Fr_2 - fr_2$ | — | |
| $Fr_3 - fr_3$ | — | |
| $Ft - ft$ | — | F-fuzz (tuk), t-tuft – chigitning mikropile qismidagi tuklar |
| $Fc - fc$ | — | c – complementary (qo'shimcha) |
| $I - i$ | — | inhibitor (bosib turuvchi) |
| $Ne_1 - ne_1, Ne_2 - ne_2$ | — | nectariless - nektardonlar |
| $R_p R_p R_{st}^v R_{st}^v$ | — | barg plastinkasining antotsian (qizg'ish) rangi |
| $r_p r_p r_{st}^v r_{st}^v$ | — | barg plastinkasining yashil rangi |
| $r_p^y r_p^y r_{st}^y r_{st}^y$ | — | barg plastinkasining sarg'ish-yashil rangi |

KIRISH

G‘o‘za gulxayridoshlar oilasi, *Gossypium* turkumiga kiradi, 3 ta kenja turkumi (*Eugossypium*, *Karpas*, *Sturtia*) mavjud. Bir yillik, ko‘p yillik buta, daraxt, o‘t sifatida Yer sharining tropik poyasida tarqalgan 50 ta turi ma’lum. Bu turkumga diploid sondagi ($2n=26$) va tetraploid sondagi ($2n=52$) xromosomaga ega turlar kiradi.

Tolali o‘simlik sifatida ekiladigan hindi-xitoy, afrika-osiyo, meksika, peru g‘o‘zalari mavjud. G‘o‘za qimmatli texnika ekini hisoblanadi. Eramizdan avvalgi 3 minginchi yillarda g‘o‘za Hind vodiysida ekilgan va undan material tayyorlaganlar. Misrda eramizdan avvalgi 10-asrda g‘o‘za ekib o‘stirilgan. Xitoyda eramizdan avvalgi 7–9 asrlarda ekilgan. 10-asrda Ispaniyaga olib kelingan. AQSHda 17-asrdan boshlab g‘o‘za ekila boshlangan. Ammo u arning mahalliy aholisi ega eramizdan avvalgi 3–2 asrlarda paxtachilik bilan shug‘ullangan. O‘rta Osiyoda eramizdan avvalgi 6–5 asrlarda ekib o‘stirila boshlangan.

Paxtachilik mustaqil O‘zbekiston iqtisodining asosini tashkil etuvchi tarmoqlardan biri. Shu sababli Respublika Prezidenti, Hukumati respublikamizda paxtachilikni yanada rivojlantirish ishlariga katta ahamiyat berib kelmoqda. Buning tasdig‘i sifatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 25 noyabrda qabul qilgan “1999-2000 yillarda paxta navlarini yangilash va joylashtirish dasturi to‘g‘risida”ga qarorini keltirish mumkin. Qarorda genetika, seleksiya va urug‘chilik masalalari bilan shug‘ullanuvchi ilmiy muassasalarining sa'y-harakatlari 1999-2000 yillarda tolashning sifati yuqori, ekahon bozori talablariga javob beruvchi tezpishar, yuqori hosilli, kasaliklarga, zararkunandalarga va ekstremal sharoitlarga chidamlı navlar yaratish uchun yuqori samarali usullar va texnologiyalarni ishlab chiqish va ulardan foydalanishga jamlansinlar deb ko‘rsatildi.

Shuni e’tiborga olgan holda bu o‘simlikning kelib chiqishi, sistematikasi, biomorfologiyasi haqida oliy o‘quv yurtlarining talabalari etarli darajadagi bo‘limlarga ega bo‘lishlari kerak.

G‘o‘za genetikasi fanining predmeti va vazifalari. G‘o‘za genetikasi fanining asosiy predmeti g‘o‘za belgilarining irsiylanishi hamda o‘zgaruvchanligining qonuniyatlarini yaratishdan iborat. Bu fan oldida turgan eng muhim vazifanar qo‘yidagilar hisoblanadi:

1. G‘o‘za navlari dunyo kolleksiyasining xilma-xil namunalari va ularning yovvoyi, yarim yovvoyi ajdodlarini seleksion nuqtai nazardan genetik o‘rganish.

2. Morfologik – sifat marker belgilarning fenotipik namoyon bo‘lishi va irsiylanishining genetik boshqarilishiini o‘rganish, pirovard natijada ularning genotiplarini aniqlash. Tadqiqotlar natijasida sifat belgilarning kolleksiyasi yaratiadi hamda bu o‘simlik genetikasini fundamental tadqiq qilishni rivojlantirishda undan foydalanish metodlarini ishlab chiqish.

3. O‘simlik o‘sish tiplarining rivojlanish, shuningdek, o‘simlik tupi strukturaviy belgilarining rivojlanish va ularning irsiylanish xarakterini o‘rganish.

4. G‘o‘zaning ertapisharlik belgisining rivojlanish va genetik boshqarilishligini o‘rganish.

5. Tola hosildorligi belgilarining rivojlanishi va irsiylanishining genetik nazoratini o‘rganish va bu muhim xo‘jalik belgisining allel genlarining har xil birikmasidan tashkil topgan gomozigotali liniyalarining genetik kolleksiyasini yaratish.

6. *G.hirsutum L.* g‘o‘za turiga mansub o‘rta tolali g‘o‘za navlarining tola sifatini yaxshilashning genetik–seleksion aspektlarini o‘rganish. Tolaning yuqori texnologik sifat ko‘rsatkich genlarining donorlari bo‘lgan sintetik introgressiv liniyalarning kolleksiyasini yaratish.

7. Yangi navlar chigitining moylilik darajasining sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini oshirishning biokimyoviy va genetik asoslarini o‘rganish. Genetik kolleksiyaning ayrim liniyalari chigitining moyliligini tadqiq etish.

8. G‘o‘za mutatsion genetikasining muammolarini o‘rganish va uning yordamida yangi navlar yaratish.

9. Molekulyar genetika va gen-hujayra injeneriyasi muammolarini o‘rganish va g‘o‘za transgen formalarining kolleksiyasini yaratish.

10. G‘o‘zaning kasallik va zararkunandalarga chidamliligin oshirishning genetik–seleksion aspektlarini o‘rganish.

11. Ekologik muhitnin har xil ekstremal omillariga nisbatan g‘o‘za chidamlilik muammolarini o‘rganish.

12. G‘o‘zaning diploid va tetraploid turlari o‘rtasida sintetik turlararo duragaylar olish, turlararo chatishishga to‘sinqinlik qiluvchi to‘sqliari bartaraf etishlikning metodlarini ishlab chiqish va amaliyatga joriy etish.

13. G‘o‘za sitogenetikasini o‘rganish. G‘o‘zaning monosom va translokatsion liniyalarining genetik kolleksiyasini yaratish.

14. Genetik kolleksiyaning xromosomalari genetik va sitologik markerlangan gomozigotali liniyalaridan foydalangan holda g‘o‘za xromosomalarining genetik va sitologik xaritalarini, shuningdek, *G.hirsutum L.* turkumining sistematikasini tuzishda foydalanish.

Ilmiy-tekshirish metodlari. Barcha tirik organizmlar irsiyati va o‘zgaruvchanligining qonuniyatlarini o‘rganishdagi kabi g‘o‘za genetikasida ham “Genetik tahlil” deb atalgan metodlar majmuasidan foydalaniladi. Bu metodlar majmuasi yordamida organizm belgi va xossa, xususiyatlarining rivojlanish bo‘yicha organizmlar o‘rtasidagi farqlar o‘rganiladi, bu farqlarni belgilovchi genlar soni aniqlanadi va genlar orasidagi o‘zaro aloqadorlikning xarakteri belgilanadi.

“Genetik tahlil” metodlar majmuasida etakchi o‘rinni duragaylash metodi egallaydi. Metodlar majmuasi tarkibiga duragaylash metodidan tashqari sitogenetik, molekulyar-genetik, populyasion-statistik, mutatsion, aneuploid va boshqalar kiradi.

G‘o‘zaning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati.

G‘o‘zaning asosiy mahsuloti chigitning ustida rivojlanadigan tolasidir. Tola keng ko‘lamda xilma-xil maqsadlar uchun ishlatiladi. To‘qimachilik sanoatida ishlatiladigan tolanning 60 %i paxta tolassiga to‘g‘ri keladi.

Paxta tolasidan har xil iplar yigirilib, ulardan ip gazlamalar tayyorланади. Ip gazlamalardan kiyim-kechaklar, trikotaj mahsulotlari va boshqalar ishlab chiqariladi. Bundan tashqari paxta tolasidan baliq ovlash to‘rlari, harakatga keltiruvchi va transporter tasmalari, sun’iy ipak, fotokinoplyonkalar, lak, linoleum, a’lo navli yozuv qog‘ozlari tayyorланади.

100 kg paxta xom ashysidan 62 kg chigit, 37 kg tola, 11 kg yog‘, 22 kg kunjara, 3,5 kg momiq (lint), 3,5 kg kalta momiq, 17 kg sheluxa, 32 kg yigiriluvchan tola, 3 kg momiq paxta olinadi. 1 kg paxta tolasidan 20 m batist yoki 4-140 ta g‘altak ip tayyorlash mumkin.

G‘o‘zaning chigiti (urug‘i) – qimmatli mahsulotlarning manbaidir. Chigitning tarkibida 20-25 % yog‘, 18-20 % oqsil; kraxmal, fitin, gossipol va boshqa birikmalar uchraydi. Shuningdek, chigitda ko‘plab har xil vitaminlar ham mavjud. Masalan, 1 kg chigitida 3,1-3,2 mg B₁ (tiamin), 15-28 mg B₂ (riboflavin), 11 mg B₆, 11 mg B₃, 16-32 mg B₅, (PP) va boshqalar uchraydi. Bu vitaminlar insonning normal hayotiy faoliyatini ta’min etadilar. Masalan, tiamin uglevodlar almashinuvida, riboflavin, oqsil, yog‘ va uglevodlar almashinuvida qatnashadilar.

Chigit tarkibida eng qimmatli moddalardan biri – paxta yog‘i uchraydi va u ovqatga ishlatiladi. Paxta yog‘i iste’mol qilish hajmiga ko‘ra soya, kungaboqar, eryong‘oq yog‘laridan so‘ng to‘rtinch o‘rinda turadi. Paxta chigiti yog‘ ishlab chiqarish sanoatining muhim xom ashysi hisoblanadi. Yog‘ ekstraksiya zavodlarida chigitni ekstraksiyalash yoki presslash yo‘li bilan 1tonna texnik chigitdan 170-180 kg xom yog‘ olinadi. Yog‘ sanoatining chigitlaridan mollar uchun oziqa sifatida beriladigan sheluxa, kunjara tayyorланади.

Tozalanmagan xom yog‘ qizg‘ish-qo‘ng‘ir, ba’zida qoramitir rangda bo‘lib o‘ziga xos yoqimsiz hidga ega hamda ta’mi achchiq bo‘ladi. Yog‘ har xil aralashmalardan tozalanadi yoki rafinatsiya qilinadi. Shu tariqa tozalangan paxta yog‘i muhim oziqa mahsuloti bo‘lib xizmat qiladi.

Paxta yog‘ining muhim xususiyatlaridan biri uning tarkibida linolein kislotasining bo‘lishligidir. Bu kislota inson qonidagi xolesterinni kamaytiradi, aksincha uning yig‘qilib qolishi aterosklerozga olib keladi. Paxta yog‘idan texnik maqsadlarda ham foydalaniladi. Maxsus metodlar yordamida u glitserin va yog‘ kislotalariga aylantiriladi. Glitserin meditsina va parfyumeriya sanoatida ishlatiladi.

Chigitning yadrosi oqsilga ham boy. Yer shari aholisi sonining tobora ortib borishi oqsil muammosini ko‘ndalang qilib qo‘ymoqda. Mutaxassislarining hisobiga ko‘ra yiliga Yer shari aholisiga 15 mln. tonna oqsil etmaydi.

Inson va hayvonlar uchun zarur oqsilning 80 %i qishloq xo‘jalik ekinlariga, 15 %i baliqchilik va boshqa dengiz ovchiligidagi to‘g‘ri keladi. Yuqori sifatli oqsil olishning manbalaridan biri – g‘o‘za o‘simgilidir. Chigitdagi oqsilning foizi

bo'yicha (18-20%) u kungaboqar (20%), kunjut (25%) va loviya (17-27%) kabi o'simliklarga tenglasha oladi. Gossipol moddasidan xom bo'lgan chigit yadrosidan tayyorlangan un ma'lum ulushda bug'doy uniga qo'shimcha, undan tayyorlangan nonlarning to'yimliligi ancha ortadi.

Sheluxani mollarga oziqa sifatida berishdan tashqari, qayta ishlanib undan har xil kimyoviy mahsulotlar olinadi. Bu mahsulotlar o'z navbatida turli sanoat tarmoqlarining xom ashyosi bo'lib xizmat qiladi. 1 tonna sheluxani qayta ishlab 85 litr spirt, 20 kg. uksus kislotasi, 300 kg. qurilish lignoliti, 75 kg. furfurol olinadi. Furfurol sintetik tolalar-kapron, neylon ishlab chiqarishda foydalaniladi.

G'o'za barglari muhim kimyoviy xom ashyo hisoblanadi. G'o'za bargida 17 xil organik kislotalar-limon, olma, askorbin, uksus, yantar, valerian, chumoli va boshqalar mavjud.

Bargda organik kislotalarning eng ko'p yig'ilishi vegetatsiya davrining oxiriga (20-sentabrdan so'ng) to'g'ri keladi, bu davrda fotosintez deyarli to'xtagan bo'ladi. Shuni ham qayd etish kerakki, bargdag'i organik kislotalarning miqdori poyaning yuqori yaruslaridan pastki yaruslariga tomon orta boradi. G'o'za turiga qarab kislotalarning uchrashi ham farq qiladi. Masalan, ingichka tolali g'o'za navlarining barglarida limon va olma kislotalari o'ita tolali nav barglarinikiga nisbatan ikki marta kam uchraydi. Limon kislotasi ayniqsa gul yon barglarda ko'p bo'ladi. Limon va olma kislotalari xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida qo'llaniladi: oziq-ovqat sanoatida alkogolsiz ichimliklar, konditer mahsulotlari, konservalar, vino tayyorlashda, fototexnika, radioaktiv moddalar bilan ishlaydigan labaratoriyalarda ishlatiladi. G'o'za barglari aminokislotalar, karotin, inozit va riboflavin kabi vitaminlarga boy.

G'o'za o'simligida gossipol moddasi maxsus pigment ($C_{30}H_{30}O_8$) ko'rinishida uchraydi. O'simlik to'qima va organlarida bu modda bir xilda uchramaydi. Gossipol moddasi chigit yadrosida eng ko'p, gul va barglarda undan kamroq uchraydi. Gossipol moddasi yog', sheluxa, kunjara sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga gossipoldan smola va uning qayta ishlangan mahsulotlari xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida ishlatiladi. Gossipol moddasidan odamlarda buyrakni ko'chirib o'tkazishda foydalaniladigan batriden degan dori ham tayyorlanadi.

G'o'za poya ham muhim xom ashyo hisoblanadi. Uning tarkibida 40% selluloza, 17-18% pentozan, lignin (20%), aminokislotalar (12%) va boshqalar uchraydi. G'o'zapoya kulida fosfor, oltingugurt, xlor, kremniy, kalsiy, magniy, kaliy, natriy, temir, marganets, bor, mis kabi kimyoviy elementlar uchraydi. Gidroliz zavodlarida g'o'zapoyani qayta ishlab furfurol, gidroliz spirti; mebel fabrikalarida-yog'och tolali plitalar ishlab chiqariladi. 1 tonna quruq g'o'zapoya qayta ishlansa, 66 kg furfurol va 40-50 kg gidroliz spirti olinadi.

Pirovardida g'o'zaning eng muhim asal beradigan ekinlardan biri ekanligini ham aytib o'tish lozim. Shunday qilib, universal madaniy o'simlik bo'lgan g'o'za hamda paxtachilik mahsulotlarini qayta ishlash bilan 1200 ga yaqin har xil mahsulotlar tayyorlanadi.

20-asrning 20-yillaridan boshlab O'zbekistonda 800 dan ortiq g'o'za navlari yaratildi, shundan 130ga yaqini tumanlashtirildi (rayonlashtirildi). O'rta tolali navlardan 80 ta, ingichka tolali navlardan 50 ta. 1990 yildan boshlab ekilayotgan asosiy navlar: o'rta tolali g'o'za navlaridan *C-4727*, *C-6524*, *175-F*, *AN-Boyovut 2*, *Namangan 77*, *Oqoltin*, *AN-O'zbekiston 3*, *Toshkent 6*, *Chimboy 3010*, *138-F*, *Qiriziston 3*, *Yulduz*, *Buxoro 6* va boshqalar; ingichka tolali navlardan *Termiz 24*, *Termiz 31*, *Surxon 5*, *6249-V*, *9883-U*, *9871-U*, *C-6037*, *6465-V* va boshqalar.

Paxtachilik bilan dunyoning 80 dan ortiq davlati shug'ullanadi. Yangi hosildorlik va ekin maydonlarining kattaligi jihatidan eng yirik paxtachilik davlatlari - Xitoy, AQSH, Hindoston, Pokiston, Braziliya, O'zbekiston, Misr, Turkiya, Meksika hisoblanadi.

G'o'za-genetik tadqiqotlar ob'ekti sifatida.

G.hirsutum L. turkumida F.M.Mauer klassifikatsiyasi bo'yicha 35 tur bor. Ulardan to'rttasi madaniy turlar hisoblanadi. Ulardan ikkitasi – *G.herbaceum L.* (afrika-osiyo g'o'zasi) va *G.arboreum L.* (hindi-xitay g'o'zasi xromosomalar to'plami diploidli ($2n=26$). Qolgan ikkitasi - *G.hirsutum L* (meksiqa g'o'zasi); *G.barradense L.* (peru g'o'zasi) allotetraploid, xromosomalar to'plami ($2n=52$) ga teng. Allotetraploid turlar diploidlarga qaraganda hosildorligi, boshqa morfologik, xo'jalik belgilari bo'yicha ustun turadilar. Shu sababli bu turlar dunyo paxtachilik davlatlarining 90% ekin maydonini egallaydilar. Qolgan diploid turlar, shu jumladan 31 ta yovvoyi va 2 madaniy turlar genetik-seleksion tadqiqotlarda adaptiv va ba'zi bir xo'jalik belgilarining donor genlari sifatida foydalananiladi. Allotetraploid turlar genetik tadqiqotlar ob'ekti sifatida qo'yidagi xususiyatlari bilan xarakterlanidilar:

a) G'o'zaning boshqa amfidiploid turlari singari *G.hirsutum L.* uzoq davlom etgan evolyusion jarayon va tanlash natijasida funksional diploid xossasiga ega bo'lган. *G.hirsutum L.* da meyoz asosan diploid turlarga xos ravishda amalga oshadi. Meyozda 26 ta bivalent hosil bo'ladi, xromosomalar qutblarga normal tarqaladi.

b) Bu turning forma va navlarining areali juda keng. Bu arealning tuproq-iqlim, agrotexnik sharoitlari juda xilma-xil bo'lganligi sababli bunday sharoitlarga moslashgan organizmlar, tabiiyki, xilma-xil bo'lishga majbur bo'lganlar. SHu sababli bu tur doirasida barcha muhim morfologik, biologik, xo'jalik belgilari bo'yicha polimorfizm kuzatiladi.

v) Boshqa madaniy turlarda bo'lgani kabi *G.hirsutum L.* forma va navlarida ham bir yillik, ham ko'p yillik belgilari jamlangandir. Ular hayotining birinchi yilidayok reproduktiv fazaga kiradi, shu bilan birga ma'lum sharoitlar yaratilganda ular hayotini bir necha yil davom ettirishi mumkin.

g) G'o'zaning gullash, urug'lanish jarayonlarining o'ziga xos xarakterga ega ekanligi.

G'o'za o'z-o'zidan changlanish bilan birga, chetdan ham changlanish moyil o'simlik hisoblanadi. Shu sababli duragaylash ishlarida chatishtirish uchun ota-onasifatida olinayotgan o'simliklar o'rgalayotgan belgi bo'yicha gomozigota

bo‘lishligi lozim. Aks holda ko‘zda tutilgan qonuniyatlarni aniqlab bo‘lmaydi. Ilmiy-tadqiqotlarining muvaffaqiyatli va samarali chiqishligi boshlangich materialning tozaligiga bog‘lik. Shu sababli g‘o‘zaning genetik tadqiqotlarida boshlangich material sifatida Genetik kolleksiya liniyalaridan foydalanish mumkin.

Akademik D.A.Musayev o‘z shogirdlari bilan hamkorlikda O‘zbekiston Milliy universitetida g‘o‘zaning morfologik va strukturali belgilarining genetikasini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazgan ko‘p yillik ilmiy-tadqiqot ishlarning natijasi o‘laroq *G.hirsutum L.* g‘o‘za turiga mansub gomozigotali izogen liniyalarning Genetik kolleksiyasi yaratilgan. Mana shu genetik kolleksiya liniyalaridan foydalanilgan holda tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

G‘o‘zaning genetik kolleksiyasi. Genetikaning molekulyar, biokimyoviy, fiziologik, evolyusion yo‘nalishlardagi muvaffaqiyati - o‘simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlar xususiy genetikasini o‘rganishdagi natijalarga bog‘liq. Xususiy genetikaning masalalarini xal etishda tadqiqotlarni yo‘lga qo‘yish va genetik tahlillarni o‘tkazish uchun esa o‘rganilayotgan ob‘ektning genetik kolleksiyasi zarur bo‘ladi.

Genetik kolleksiya botanik va madaniy o‘simliklarning xilma-xil kolleksiyalaridan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi.

1. Belgilar genetikasini o‘rganish uchun mo‘ljallangan genetik kolleksiyalar mumtoz (klassik), mutatsion, molekulyar genetika va sitogenetika usullaridan foydalanilgan holda ko‘p yillik ilmiy tadqiqotlar natijasida yaratiladi.

2. Genetik kolleksiya liniyalari - muayyan belgilarni nazorat qiluvchi allel gen kombinatsiyalari bo‘yicha gomozigot genotipli.

3. Genetik kolleksiya liniyalari – fenotip jihatdan genotipni o‘zida aks ettira olgan, belgilarning kontrast namoyon bo‘lishiga ko‘ra tavsiflanadi.

4. Genetik kolleksiya liniyalari – poligenlarning murakkab o‘zaro ta’siri natijasida turli xil genotipga ega bo‘lishlari bilan birga, fenotipik o‘hhash bo‘lishiga ko‘ra tavsiflanadi.

O‘simliklar genetikasini o‘rganishdagi nazariy tadqiqotlarining jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, genetik kolleksiyaning izogen, monosom, translokatsion va boshqa xil liniyalari seleksiyaning genetik asoslari, fenogenetika, qiyosiy genetika, sitogenetika, mutatsion, biyokimyoviy, molekulyar genetika, gehujayra injenerligida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar uchun model ob‘ekt hisoblanadi.

Jahon ilmiy manbalarining tahliliga ko‘ra, yana ta’kidlash mumkinki, no‘xat, arpa, makkajo‘xori, suli, pomidor va bug‘doy singari o‘simliklarning genetik kolleksiyasining mavjudligi, bu o‘simliklarning xususiy genetikasini o‘rganishda juda katta imkoniyatlar yaratib bergen.

G‘o‘za o‘simligining genetikasini o‘rganishga ta’luqli ilmiy manbalar ko‘p sonli bo‘lishiga qaramay, o‘simlik genetik jihatdan mukammal o‘rganilgan ob‘ekt hisoblanmaydi. Uning asosiy sababi madaniy vakilning amfidiploid kelib chiqish tarixiga ega ekanligi, o‘rganilayotgan belgilari bo‘yicha genetik kolleksiyadagi

izogen liniyalarning to‘liq seriyali allellariga ko‘ra gomozigot genotiplilarining yo‘qligidir.

G‘o‘za genetikasiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar 1960 yildan O‘zMU ga qarashli Genetika va sitoembriologiya kafedrasi, G‘o‘za genetikasi laboratoriyasi, hamda 1992 yildan O‘zRFA qarashli “Genetika va o‘simpliklar eksperimental biologiyasi” instituti bilan hamkorlikda amalga oshirilgan.

Ilmiy tadqiqotlar *G. hirsutum L.*-g‘o‘za turiga ta’luqli allotetraploid genetik liniyalari va madaniy navlarda olib borilgan. Shuningdek boshlang‘ich manba sifatida akad. N.I. Vavilov va uning xodimlari tomonidan yaratilgan xilma-xil toifadagi madaniy jahon kolleksiya namunalarini (VIR- Umum Rossiya O‘simplikshunoslik) va O‘zbekiston O‘simplikshunoslik ilmiy tadqiqot institutining kolleksiya namunalaridan foydalanilgan.

Ilmiy tadqiqotlarni nazariy jihatdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va genetik kolleksiyani yaratish maqsadida akad. N.I. Vavilovning mulohazalari, hamda LDU (Sobiq ittifoq davrida Leningrad Davlat universiteti hozirda Sank-Peterburg DU) professorlari M.S.Lobashev va T.I.Fadeevalarning takliflari asosida O‘zMU ga qarashli G‘o‘za genetikasi laboratoriyasida g‘o‘za o‘simpligining 500 dan ortiq izogen liniyalari akad. D.A.Musayev va uning shogirtlari tomonidan yaratilgan.

Genetik kolleksiya yaratishdagi asosiy yo‘nalishlari: 1. Sifat va miqdoriy belgilarni nazorat qiluvchi gomozigota genotipli izogen liniyalar yordamida genetik kolleksiyani yaratish va uni boyitish.

2. Muhim sifat va miqdoriy belgilarini genetik nazoratini, genlarning ta’siri va o‘zaro ta’siri natijasida belgilarning duragay avloddagi fenotipik namoyon bo‘lishini o‘rganish.

3. G‘o‘zaning genetik kolleksiyasi liniyalarida spontan va eksperimental mutagenez muammolarini nazariy va amaliy o‘rganish.

4. Yangi monosom va translokant izogen liniyalar yordamida o‘simplik xromosomasidagi genlarni lokalizatsiyalash.

I-606. GOSSYPIUM TURKUMINING GENOM TARKIBI.

Bitta turning kariotipidagi xromosomalar xiliga genom deb ataladi. Diploid xromosomali g‘o‘za turlarida genom n=13 ga teng. Tetraploid g‘o‘zalarda esa genom n=26 ga teng. Bitta yoki har xil genomga taalluqli turlarni duragaylash chatishish xarakteriga, birinchi avlodning nasllik darajasiga, avlodlardagi ajralish xususiyatiga qarab bir-biridan ancha farq qiladi. Bitta genomning turlari, masalan, *G.hirsutum* L. va *G.barbadense* L. oson chatishadi, duragaylar butunlay naslli bo‘ladi, ammo ikkinchi va undan keyingi avlodlarda ajralish ko‘p beradi, ba’zi bir genlar bir turdan ikkinchi turga berilish mumkinligiga qaramay, populyasiya boshlang‘ich turlarga ajraladi.

Har xil genomli turlarni chatishtirishda ancha qiyinchiliklar ro‘y beradi, bularning eng asosiy turlarning qiyin chatishtirishi va birinchi avlodning pushtsizligidir. Demak, turli genomlarga mansub g‘o‘zalar yo chatishmaydi, yoki juda qiyinchilik bilan chatishadi. Tetraploid turlarni madaniy diploid va eski dunyo yovvoyi turlari bilan chatishtirish juda qiyin. Chatishtirish xususiyati hamma vaqt ham xromosomalar soniga bog‘liq bo‘lavermaydi. Ba’zi bir diploid osiyo turlari yangi dunyo diploid turlari bilan qiyin chatishadi. Masalan *G.stocksi* (osiyo turi), *G. harknesii*, *G. armourianum* (yangi dunyo turlari) bilan chatishmaydi. Osiyo madaniy diploilari *G. herbaceum*, *G. arboreum* amerika diploidlari *G.davtsonii*, *G. harknesii*, *G. armourianum* bilan chatishmaydi.

S.S.Kanashning ma’lumotiga ko‘ra *G.barbadense* x *G.arboreum* bilan chatishtirilganda changlatilgan 337 ta guldan ikkita chikiti bo‘lgan bitta ko‘sak olingan. L.G.Arutyunovaning ko‘rsatishicha har xil xromosomali turlar - *G.hirsutum* x *G.arboreum* dan olingan duragaylar asosan embrion davrida, murtagi 12-18 hujayrali yoshda nobud bo‘ladi.

Har xil genomga mansub turlarni chatishtirish natijasida olingan juda oz duragaylar, odatda, qisman yoki bo‘tunlay naslsiz bo‘ladi. Agar turlar genom doirasida chatishtirilsa, duragaylar odatda nasl beradi. Turlararo duragaylar naslsizligining sabablari bilan ko‘rchilik olimlar shug‘ullanganlar. Skovsted, Bisli, Stefens, Bebbet, Braun, Gerstel, Sarvella, L.G.Arutyunovalar sitogenetik tekshirishlar olib borganlar. Mazkur tiplarda:

1. Eski dunyo yovvoyi turlarini o‘zaro (B, E, C genomlari bilan);
2. Eski dunyo madaniy turlarini eski dunyo yovvoyi turlari (A genomini B, E va C genomi bilan);
3. Amerika yovvoyi turlarini o‘zaro (D genomi bilan);
4. Amerika diploidlarini eski dunyo diploidlari bilan (D genomini A, B, E va C genomlari bilan);
5. Tetraploidlarni amerika diploidlari bilan (AD genomini D genomi bilan);
6. Madaniy tetraploidlarni eski dunyo diploid turlari bilan (AD genomini A, B, E va C genomi bilan);
7. Tetraploidlarni o‘zaro chatishtirib turlararo duragaylar olish mumkin.

Eski dunyo yovvoyi g‘o‘zalarini chatishtirib olingan duragaylarning birinchi avlodini tekshirishlar E genomdagi g‘o‘zalar boshqa genomlardan aniq farq

qilishini ko'rsatdi. Har xil mualliflarning ma'lumotiga ko'ra *G.stocksi* va *G.anomalum* o'rtasidagi duragaylar butunlay naslsiz bo'lgan. F_1 meyozida 20 ga yaqin univalent hosil bo'lib, hammasi bo'lib 2,7% xromosoma kon'yugatsiyalanadi *G.stocksi* avstraliya g'o'zalari bilan qiyin chatishadi, duragaylari esa yo hayotga noqobil, yo butunlay naslsiz bo'ladi. Ekiladigan eski dunyo g'o'zalari genetik jihatdan B genomiga yaqin, C genomiga va ayniqsa E genomiga uzoqroq ekanligi ko'rsatilgan.

Yangi dunyo yovvoyi turlari o'zaro chatishtirilsa, ularning genetik jihatdan yaqinligi isbot etildi.

Eski dunyo yovvoyi va ekiladigan turlari bilan yangi dunyo yovvoyi diploid turlarining o'zaro yaqinligi kam. Mixaylova, Rajabli va boshqalarning ko'rsatishiga, barcha diploid eski dunyo g'o'zalarida xromosomalar yangi dunyo diploid g'o'zalarinikiga nisbatan yirikroq, bunda avstraliya turi *G.sturtii* ning xromosomasi eng yirik. Demak xromosomalari yirikligining o'ziyoq, bu turlar evolyusiya jarayonida kuchli farq qilganligini ko'rsatadi. F_1 duragaylarda meyoz juda ham buzilgan, xromosomalar yomon kon'yugatsiyalanadi, asosan univalentlar va multivalentlar hosil bo'ladi. Duragaylar naslsiz bo'ladi. Qizig'i shundaki, F_1 duragaylar meyozida o'z to'plamidagi xromosomalardan bivalentlar hosil bo'ladi, ya'ni gomolog bo'limgan yiriq xromosomalar yiriqlari bilan, gomolog bo'limgan mayda xromosomalar maydalari bilan kon'yugatsiyalanadi. Eski dunyo g'o'zalariga xos yiriq xromosomalar bilan D genomiga mansub mayda xromosomalar o'rtasida kon'yugatsiya deyarli ro'y bermaydi. Eski dunyo va yangi dunyo diploidlarining duragaylarida xromosomalarning bu tariqa birikishi ularning genetik jihatdan uzoq ekanligini ko'rsatadi. Har xil xromosomali turlar – amerika tetraploidlar bilan osiyo hamda amerika diploidlari o'rtasidagi duragaylash eng katta qiziqish uyg'otadi. Katta ekin maydonlarini egallagan tetraploid turlarining diploid turlarga oid ayrim qimmatli genlar bilan boyiganligi e'tiborga molik hodisa hisoblanadi. Har xil xromosomali turlarni chatishtirish natijasida duragaylar naslsiz bo'ladi. Duragaylar meyozining sitologik jihatdan buzilishiga xromosalarning genetik jihatdangina to'g'ri kelmasligina emas, balki ularning juft bo'lmasligi ham sabab bo'ladi, bu esa kon'yugatsiyaning buzilishini xromosalarning qutblarga ajralishini kuchaytirib yuboradi.

Tetraploidlarni diploidlar bilan chatishtirish natijasida olingan F_1 duragaylarning somatik hujayrasida xromosoma bo'ladi. Har xil xromosomali juda ko'p tahlil qilinganda, ko'pincha 13 ta juft va 13 ta toq xromosomalar hosil bo'lishi aniqlangan. Tetraploidlar bilan amerika diploidlari o'rtasida duragaylarda bivalentlar ko'p, osiyo turlari bilan chatishtirilganda, bivalentlar kam bo'ladi.

Tetraploid turlarda xromosomalar to'plamining yarmi yiriq xromosalardan iborat, tetraploidlarni eski dunyo diploid navlari bilan chatishtirib olingan duragaylarda 26 ta yiriq va 13 ta mayda xromosoma bo'ladi; duragaylar meyozining profazasida yiriq xromosomalar yiriqlari bilan kon'yugatsiyalanib, maydalari esa univalentlar holida qoladi. Tetraploidlar bilan amerika diploidlarini chatishtirib olingan duragaylar meyozida mayda

xromosomalar maydalari bilan konyugatsiyalanadi, univalentlar esa yirik xromosomalardan iborat. Xarakterlisi shundaki amerika yovvoiy diploidlari bilan chatishtirib olingan turli xromosomali duragaylarda ikkinchi ota-onalari osiyo diploidi bo‘lganidagi qaraganda meyoz kam buzilar ekan. Amerika teraploid va diploid turlarining ekologik jihatdan yaqinligi ularning genetik jihatdan ko‘proq yaqinligiga sabab bo‘ladi.

Shunday qilib, har xil genomga mansub turlarni chatishtirib olingan duragaylarda meyozning keskin buzilishi natijasida chala rivojlangan chang va tuxum hujayralar hosil bo‘lishi aniqlangan.

II-боб. G‘O‘ZANING KELIB CHIQISHI VA SISTEMATIKASI.

G‘o‘zaning barcha tur va formalari *Gossypium* turkumiga, gulxayridoshlar oilasi (*Malvaceae*) oilasiga kirib, Yer sharining tropik mintaqasidan kelib chiqqan. Bu xududlarda yilning eng salqin oyining xarorati +18°C dan kam emas.

G‘o‘za tabiatiga ko‘ra ko‘p yillik daraxtsimon o‘simlik. U o‘zining vatanida madaniy sharoitda o‘sishi bilan birga, yovvoyi xolda xam o‘sadi. Tabiiy sharoitda uning bo‘yi 6-7 m va undan xam ortiq, xatto 10 m bo‘lishi xam qayd etilgan. Madaning hollari iqlim sharoitini hisobga olgan holda ko‘pincha 1 yillik o‘simlik sifatida ekiladi. *Gossypium* turkumi juda qadimda paydo bo‘lgan. Uning ajdodlari bo‘lib shartli ravishda *Poleogossipium* deb atalgan turkumning bir necha turlari xisoblanadi (F.M.Mauer). Olimlarning taxminiga ko‘ra g‘o‘zaning turkumi bundan taxminan 70-100 million yil ilgari “Bor” davrining ikkinchi yarmida paydo bo‘lgan. P.M.Jukovskiy g‘o‘zaning kelib chiqishini quyi “Bor” davr bilan bog‘laydi.

Taxmin qilinishicha *Gossypium* turkumi Yer sharining bir necha xududida bitta ajdod turkum turlardan kelib chiqqan. Bu davrda Yer yuzida bir butun Pangeya materigi mavjud bo‘lgan. Bu materik “Bor” davrning oxiriga kelib geologik jarayonlar tufayli yaxlit materikdan, dastlab Avstraliya so‘ngra hozirgi zamon Amerika materigi ajralib chiqqan. Shu tariqa dunyo materiklari shakllangan. Materiklarning tropik mintaqalarda (Osiyo, Afrika, Amerika, Avstraliya) g‘o‘zaning ma’lum guruhlari mavjud edi.

Yaxlit materikning bir qancha yangi materiklarga parchalinishi va ularning bepayon suv sarxadlari bilan o‘ralganligi, bu materiklarda iqlimning turlicha bo‘lishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida ushbu matiriklarda o‘sayotgan g‘o‘za turlarini shu joylarning iqlim sharoitlariga moslanishiga olib keladi. Shunday qilib, g‘o‘za tur va shakllarining alohidalangan uchta yirik geografik guruhalining shakllanishiga

- I. Osiyo-Afrika (*Paleotropik – Eugossipium*).
- II. Amerika (*Neotropik – Karpas*).
- III. Avstraliya (*Sturtia*).

olib keldi.

Har bir katta guruuh o‘z navbatida kichikroq guruhlarga bo‘linadi.

Osiyo – Afrika katta guruhi ikkita kichik guruhlarga bo‘linadi:

- A) Osiyo (Janubiy va Janubiy – Sharqiy Osiyo).
- B) Afrika (Afrika va Janubiy – G‘arbiy Osiyo).

Amerika guruhi xam o‘z navbatida ikki kichik guruhga bo‘linadi:


- A) Markaziy Amerika
- B) Janubiy Amerika

2.1. Allopoliploid g‘o‘za turlarining kelib chiqishi.

Turlararo duragaylar nasllilagini oshirishning asosiy yo‘li ularni kolxitsin bilan ishlov berishdan iborat. Bu modda xromosomalar sinining ikki hissa ortishiga

ta'sir etadi. Kolxitsin ta'sirida ba'zan bo'linish vaqtida duk hosil bo'lmaydi, xromatidlarning hammasi bir qutbga yo'naladi.


Odatda, somatik hujayralarda 39 ta xromosoma bo'lgan F₁ duragaylar ko'p xromosomali ota-onalari changi bilan changlansa, 65 ta xromosomali duragaylar hosil bo'ladi, bordi-yu diploid ota-onalari changi bilan changlansa, 52 ta xromosomali duragay hosil bo'ladi, 65 ta xromosomali duragaylar ota chang hujayrasi (n=26) bilan duragayning reduksiyalanmagan (n=39) tuxum hujayrasining ko'shilishidan, 52 ta xromosomali duragaylar esa ota chang hujayrasi (n=13) bilan birinchi avloddagi duragayning reduksiyalanmagan tuxum hujayrasining ko'shilishidan hosil bo'ladi.



Uzoq turlar duragayning sitogenetikasini o'rganish g'o'za turlarining kelib chiqishini oydinlashtirdi. Yuqorida yangi dunyo madaniy turlarining allopoloid tabiatini to'g'risida 1937 yilda Skovstedning farazi bayon etilgan edi. Birinchi galda sitologik tekshirish yo'li bilan tetraploidlarda xromosomalar morfologiyasi va turli xromosomali duragaylar meyozida xromosomalarining holati o'rganildi. Yuqorida bayon etilganidek, tetraploidlarda xromosomalar to'plamining yarmi yirik bo'lib, A genomining xromosomalariga o'xshash, ikkinchi yarli esa mayda bo'lib, D genomining xromosomalariga o'xshash. Yangi dunyo tabiatining allopoloid ekanligini tasdiqlashda birdan-bir fakt shuki, tetraploidlar bilan osiyo diploidlarini chatishtirib olingan, turli xromosomali duragaylar meyozida bivalentlar o'ziga yaqin A genomining xromosomalarini hisobiga hosil bo'ladi, ya'ni yirik xromosomalar yiriklari bilan kon'yugatsiyalanadi, aksincha tetraploidlarni yangi dunyo diploidlari bilan chatishtirilib olingan duragaylarda D genomining mayda xromosomalarini kon'yugatsiyalanadi.

Yangi dunyo tetraploidlari allopoloid yo'l bilan kelib chiqqanligi to'g'risidagi farazni tasdiqlash uchun 1942 yili Bikslari sintetik yo'l bilan birinchi

allopolloid hosil qildi. Buning uchun u *G.arboreum* x *G. thuberii* ning naslsiz duragaylarida xromosomalar to‘plamini ikki hissa oshirgan. Bu sun’iy poliploid sitologiya jihatidan yangi dunyo madaniy turlariga gomolog bo‘lgan, biroq o‘simliklarning hammasi ham hosil bermagan.



Stefens 1947 yilda tetraploid turlarni har xil amerika diploid turlari bilan chatishtirib, avlodlarni genetik yo‘l bilan tekshirda va yovvoyi peru diploid turi *G.raimondii* har qanday amerika turi yoki *G. thuberii* ga nisbatan madaniy tetraploid turlarga ko‘proq qarindoshligini aniqladi. Gerstel *G.raimondii* x. *G.hirsutum* va *G. thuberii* x *G.hirsutum* va boshqa duragaylarni o‘rganib, holatini solishtirib ko‘rib, bu nuqtai nazarni tasdiqladi. Bundan tashqari, u turli xromosomali duragaylarni sitologik kuzatish natijasida translokatsiyalar sonini aniqlash yo‘li bilan tetraploid g‘o‘zalarning ikkinchi ota-onasi *G.arboreum* emas, balki *G. herbaceum* dir degan xulosaga keldi. Demak, 52 xromosomali tetraploid g‘o‘zalarning boshlangich diploid ota-onalari *G. herbaceum* va *G.raimondii* turlari bo‘lgan. 52 xromosomali yangi dunyo g‘o‘zalarining allopoliploid tabiatini to‘g‘risidagi farazni ko‘pchilik olimlar ma’qullaydilar, faqat bu turlar qachon, qaerda va qanday sharoitda chatishganlik masalasi hal qilingan emas.

2.2. *Gossypium* turkumining sistematikasi.

G‘o‘za eng qadimiy madaniy o‘simliklardan biri sifatida bundan 15-30 ming, balki undan ham oldingi yillarda qadimgi odamlar chigit tolasidan foydalana boshlaganlar. Yer yuzida dexqonchilikni paydo bo‘lishi bilan Eski va Yangi dunyoning har xil joylarida bu o‘simlikning endemik turlari va shakllaridan foydalanish yo‘lga qo‘ylган.

G‘o‘zaning dastlabki qisqacha tavsifi XVI asrga borib taqaladi. G‘o‘za sistematikasini tuzishga birinchi bo‘lib K.Bogen kirishgan edi. U barcha g‘o‘za haqidagi ma’lumotlarni to‘plib turib, g‘o‘za turkumini ajratdi va unga to‘rtta turni kiritdi. Keyinchalik botanik J.Turnefor 6 ta turni tasvirladi. Mashhur shved olimi K.Linney g‘o‘zaning morfologik belgilariga asoslanib turib 5 ta turni tasvirladi:

1. *G.hirsutum*
2. *G.barbadense*
3. *G.herbaceum*
4. *G.arboreum*
5. *G.religiosum*

Keyingi tadqiqotlar *G.religiosum* dan tashqari qolgan turlarning mavjudligini tasdiqladi.

1791 – yilda daniyalik olim I.Ror chigitning tuklanishiga asoslanib turib 29 ta navni ajratib, turkumni 4 ta guruhgaga ajratgan.

1863 – yili A.Todaro g‘o‘zaning birinchi klassifikatsiyasini ishlab chiqdi. Morfologik metodni qo‘llab 52 ta turni ajratdi. Ammo, olim bu o‘simlikni “haqiqiy

g‘o‘zalar” va “haqiqiy bo‘lmagan” (tolaga ega bo‘lmagan) g‘o‘zalar deb noto‘g‘ri ikki guruhga ajratdi.

1866 – yili italyan botanigi F.Parlitoroning klassifikatsiyasi e’lon qilindi. Uning klassifikatsiyasiga ko‘ra turkum hindi-xitoy, afrika-osiyo, meksika, peru g‘o‘zalaridan iborat. Eski dunyo madaniy formalarini barg plastinkasining shakli va xayotlarining davomiyligiga asoslanib turib ikkita turga kiritdi. Bunga muvofiq hindi-xitoy ko‘pgina ertapishar formalari noto‘g‘ri ravishda afrika – osiyo turiga kiritildi.

Ingliz olimi S.A.Gammining klassifikatsiyasi g‘o‘zaning shoxlanish tipiga asoslangan (1905).

1907-yilda G.Uottning klassifikatsiyasi e’lon qilindi. Olim chigit tuklanishining bor yoki yo‘qligiga asoslanib o‘z klassifikatsiyasini yaratdi.

G.S.Zaysev (1929) Eski va Yangi dunyo g‘o‘zalari deb atalgan ikkita katta guruhni yaratdi.

Amerikalik olim S.Harland (1939) turkumni ikkita seksiyaga ($2n=26$ va $n=13$) ajratdi. U o‘z klassifikatsiyasini tuzishda xromosomalarning soniga asoslandi.

Ingliz olimi J.Hutchinson (1947) o‘z klassifikatsiyasini asosiga xato tasavvurga asoslangan – madaniy va yovvoyi g‘o‘zalar evolyusiyasini qo‘yan.

N.N.Konstantinov (1939) g‘o‘zaning yashash hamda evolyusiyasiga qarab turkumni 5 ta garuhga ajratdi.

Hozirga kelib Gossypium turkumining 25 ta sistemasi yaratildi. Ammo sistemalar soni, ko‘plab yangi turlarning mavjudligi g‘o‘za sistematikasi soxasida tadqiqotlar o‘z payoniga etdi degani emas. Dunyo olimlar tomonidan 1954–yilda F.M.Mauer va 1969– yilda amerikalik olim P.Frixell tomonidan yaratilgan g‘o‘za sistematikalarini tan oladilar.

F.M.Mauer turkumning morfologik, biologik-ekologik xususiyatlarini, ularning geografiyasini va evolyusiyasiga doir dalillarda alohida e’tibor bergen.

F.M.Mauerning bu klassifikatsiyasi to‘liq, yaxshi ishlab chiqilgan. Klassifikatsiya o‘z ichiga 35 ta turni oladi. Ular alohidalangan 3 ta kenja turkumga (Eugossypium, Karpas, Styrtia) bo‘linadi. Kenja terkumlar o‘z navbatida seksiya va kenja seksiyalarga bo‘linadi (1-ilova).

Amerikalik P.Frixellning (1969–1992y.) sistemasi F.M.Mauerning sistemasiga ancha ancha yaqin. Ayrim farqlari quyidagicha:

F.M.Mauer bo‘yicha 1954y.

Ilova-1

| Kenja avlod A. | | Eugossypium Tod.Ampl.Mauer | |
|-----------------------|---|-----------------------------------|--|
| I seksiya | | Indica Tod. Ampl.Mauer | |
| | 1 | <i>G.arboreum L</i> | |
| | 2 | <i>G.herbaceum L</i> | |
| | 3 | <i>G.soudanense Watt</i> | |
| | 4 | <i>G.somalense Hutch</i> | |
| | 5 | <i>G.ellenbeckii Mauer</i> | |
| | 6 | <i>G.Bakeri Watt</i> | |

| | | |
|----------------------|---|--|
| | 7 | <i>G.anomalum Wawra et Peyr</i> |
| | 8 | <i>G.Capitis – Viridis Mauer</i> |
| | 9 | <i>G.triphyllum Hochr</i> |
| II seksiya | | Pseudopambahak Prokh. Ampl. Mauer |
| | | 10 <i>G.Stocksii Mast</i> |
| | | 11 <i>G.areysianum Defl</i> |
| Keja avlod B. | | Karpas Raf. Ampl. Mauer |
| III seksiya | | Integritolia Tod. Ampl. Mauer |
| | | 12 <i>G.Davitsonii Kell</i> |
| | | 13 <i>G.Klotzschianum Andtrss</i> |
| | | 14 <i>G.Raimondi Ulbr</i> |
| | | 15 <i>G.trilobum Skovsted</i> |
| | | 16 <i>G.aridum Skovsted</i> |
| | | 17 <i>G.gossipooides Standl</i> |
| | | 18 <i>G.Armourianum Kearney</i> |
| | | 19 <i>G.Harknessi Brendg</i> |
| | | 20 <i>G. kalifornikum Mauer</i> |
| IV seksiya | | Magnibrakteolata Tod. am. Mauer |
| | | 21 <i>G.hirsutum L</i> |
| | | 22 <i>G.tricuspidatum Lam</i> |
| | | 23 <i>G.mustelum Miers ex Watt</i> |
| | | 24 <i>G.tomentosum Nutt ex Seem</i> |
| | | 25 <i>G.bardadense L</i> |
| Keja avlod C. | | Sturtia Tod.ampl. Mauer |
| V seksiya | | Thespisiastra Tod |
| | | 26 <i>G.thespesioides F. Miill</i> |
| | | 27 <i>G.flaviflorum</i> |
| VI seksiya | | Hibiscoidea Tod |
| | | 28 <i>G.Sturti F. Miill</i> |
| | | 29 <i>G.costulatum Tod</i> |
| | | 30 <i>G.cunninghamii Tod</i> |
| | | 31 <i>G.populifolim F. Miill</i> |
| | | 32 <i>G.timorense Prokh</i> |
| | | 33 <i>G.australie F. Miill</i> |
| | | 34 <i>G.Robisonii F. Miill</i> |
| | | 35 <i>G. Bickii Prokh</i> |

F.M.Mauer tomonidan tur sifatida tavsiflangan ellenbeckii, kaliforniya g‘o‘zalarini Frixell tan olmaydi. *Thurberi*, *timorense* g‘o‘zalarini tan oladi. Frixell *G.bakeri*, *G.thespesioides*, *G.flaviflorum* turlarini Gossypium turkumdan chiqargan. Poliploid turlarni u mustaqil kenja turkum – Karpas qilib ajratadi. Qolgan turlarni materiklarga qarab 3 ta kenja turkumga ajratadi.

Chex olimi P.Valichek (1980) o‘z sistematikasining asosiga P.Frixellning sistemasini oladi, ammo uni yangi turlar – *pilosum*, *nelsonii*, *turneri* g‘o‘zalari bilan boyitadi.

O‘zbek olimlari A.A.Abdullayev, A.S.Dariev (1980)lar ham g‘o‘za sistematikasini rivojlanishiga o‘zlarini xissalarini qo‘sghan olimlardir. Ular Frixel

tomonidan *Erioxyba* kenja seksiyaga kiritilgan *G.aridum* g‘o‘zasini, *Psendopambak* kenja seksiyasiga kiritilgan *G.areysianum*, *G.somalense* turlarini alohida kenja seksiya qilib ajratishlikni taklif etadilar.

1985-yilda J.E.Endrizzi, E.L.Turcotte, R.J.Kohel larning klassifikatsiyasi e’lon qilindi. Ular o‘z klassifikatsiyasiga 39 turni kiritganlar (2 – ilova).

J.E.Endrizzi, E.L.Turcotte, R.J.Kohel bo‘yicha 1985y.

Ilova-2

| Nº | Turlar | Genom guruxi | Vatani |
|--------------------------------------|--------------------------------------|-------------------|--------------------|
| 1. Diploidlar (2n=2x26) | | | |
| 1 | <i>G.herbaceum L</i> | A ₁ | Old.World cultigen |
| 2 | <i>GARBOREUM L</i> | A ₂ | Old.World cultigen |
| 3 | <i>G.anomalum Wawr</i> | B ₁ | Africa |
| 4 | <i>G.triphyllum Hochr</i> | B ₂ | Africa |
| 5 | <i>G.capitis-viridis Mauer</i> | B ₃ | Cape Verde Islands |
| 6 | <i>G.sturtianum J.H.Willis</i> | C ₁ | Australia |
| 7 | <i>G.robinsonii F. Miell</i> | C ₂ | Australia |
| 8 | <i>G.australe F. Miell</i> | - | Australia |
| 9 | <i>G.coatulatum Tod</i> | - | Australia |
| 10 | <i>G.cunninghami Tod</i> | - | Australia |
| 11 | <i>G.nelsonii Fryx</i> | - | Australia |
| 12 | <i>G.pilosum Fryx</i> | - | Australia |
| 13 | <i>G.populifolium (benth)Tod</i> | - | Australia |
| 14 | <i>G.pulchellum (C.A.Gardn) Fryx</i> | - | Australia |
| 15 | <i>G.thurberi Tod</i> | D ₁ | Mexico, Arizona |
| 16 | <i>G.armorianum Kearn</i> | D ₂₋₁ | Mexico |
| 17 | <i>G.harknessii Brandg</i> | D ₂₋₂ | Mexico |
| 18 | <i>G.klotzschianum Anderss</i> | D _{3-k} | Galapagos Isl |
| 19 | <i>G.davidsonii Kell</i> | D _{3-d} | Mexico |
| 20 | <i>G.aridum (standl) Skov</i> | D ₄ | Mexico |
| 21 | <i>G.raimondii Ulbr</i> | D ₅ | Peru |
| 22 | <i>G.gossypioides (Ulbr) Standl</i> | D ₆ | Mexico |
| 23 | <i>G.globatum Gentry</i> | D ₇ | Mexico |
| 24 | <i>G.laxum Phillips</i> | D ₈ | Mexico |
| 25 | <i>G.trilobum (DS.) Skov</i> | D ₉ | Mexico |
| 26 | <i>G.turneri Fryx</i> | - | Mexico |
| 27 | <i>G.stocksi Mast.ex.Hook</i> | E ₁ | Arabia |
| 28 | <i>G.somalense (gurke) Hutch</i> | E ₂ | Arabia |
| 29 | <i>G.areysianum (D efl) Hutch</i> | E ₃ | Arabia |
| 30 | <i>G.incanum (Schwartz) Hillc</i> | E ₄ | Arabia |
| 31 | <i>G.ellenbeckii (Gurke) Mauer</i> | - | Africa |
| 32 | <i>G.longicalyx Hutch</i> | F ₁ | Africa |
| 33 | <i>G.bickii Prock</i> | G ₁ | Australia |
| 2.Allotetraploidlar (2n=4x52) | | | |
| 34 | <i>G.hirsutum L</i> | (AD) | Central America |
| 35 | <i>G.barbadense L</i> | (AD) ₁ | South America |
| 36 | <i>G.Tomentosum Nutt.ex.Seem</i> | (AD) ₂ | Hawaii |

| | | | |
|----|-----------------------------------|-------------------|---------------|
| 37 | <i>G.mustelinum</i> Miers.ex.Watt | (AD) ₃ | Brazil |
| 38 | <i>G.darwinii</i> Watt | (AD) ₄ | Galapagos Isl |
| 39 | <i>G.lanceolatum</i> Tod | (AD) | Mexico |

Klassifikatsiyada 33 ta diploid va 6 ta allotetraploid turlar o‘z ifodasini topgan. Bundan tashqari klassifikatsiyada turlarning genom guruhlari, turlarning tarqalgan xududlari ham keltirilgan.

7 ta genom (A,B,C,D,E,F,G) guruhlari ko‘rsatilgan.

Frixellning keyingi ochilgan yangi turlar ham o‘z aksini topgan klassifikatsiyasida *Gossypium* turkumiga kiruvchi 50 ta tur kiritilgan. Klassifikatsiyaga Avstraliya qit’asida aniqlangan ko‘plab turlar kiritilgan. Har bir turning tur sifatida tavsiflangan yo‘llari, Yer sharining qaysi xududida tarqalganligi ham o‘rin olgan. AD genomi 5 ta tetraploid g‘o‘za turlari keltirilgan (3-ilova).

P.Friksel bo‘yicha 1992y.

Ilova-3

| Nº | Turlar | Genom | Tarqalgan xududlari |
|-----|---------------------------------------|-------|---------------------|
| 1. | <i>G.hirsutum</i> L | AD | New World culti |
| 2. | <i>G.barbadense</i> | AD | New World culti |
| 3. | <i>G.tomentosum</i> Seem | AD | Hawaii |
| 4. | <i>G.darwinii</i> Watt | AD | Galapagos Isl |
| 5. | <i>G.mustelinum</i> Watt | AD | Brazil |
| 6. | <i>G.herbaceum</i> L | A | Old.World culti |
| 7. | <i>G.arboreum</i> L | A | Old.World culti |
| 8. | <i>G.anomalum</i> Wawr | B | Africa |
| 9. | <i>G.anomalum senarensse</i> Vollesen | B | Africa |
| 10. | <i>G.triphyllum</i> (Harv Sond)Hochr | B | Africa |
| 11. | <i>G.capitis – viridis</i> Mauer | B | Cape Verde Islands |
| 12. | <i>G.benadirensi</i> Mattei* | - | Africa |
| 13. | <i>G.bricchetti</i> (Ulbri) Vollesen* | - | Africa |
| 14. | <i>G.trifurcatum</i> Vollesen* | - | Africa |
| 15. | <i>G.vollesenii</i> Fryx* | - | Africa |
| 16. | <i>G.longicalyx</i> Hutch | G | Africa |
| 17. | <i>G.sturtianum</i> J.H Willis | C | Australia |
| 18. | <i>G.robinsonii</i> F.Muell | C | Australia |
| 19. | <i>G.nandevarense</i> (Derera) Fryx | C | Australia |
| 20. | <i>G.australe</i> F.Muell | - | Australia |
| 21. | <i>G.costulatum</i> Tod* | - | Australia |
| 22. | <i>G.populifolium</i> (Benth) Tod | - | Australia |
| 23. | <i>G.cunnibghami</i> Tod* | - | Australia |
| 24. | <i>G.pulchellum</i> (C.A.Gard) Fryx* | - | Australia |
| 25. | <i>G.pilosum</i> Fryx* | - | Australia |
| 26. | <i>G.nelsonii</i> Fryx* | - | Australia |
| 27. | <i>G.enthyle</i> Fryx* | - | Australia |
| 28. | <i>G.exiduum</i> Fryx* | - | Australia |
| 29. | <i>G.londonderriense</i> Fryx* | - | Australia |
| 30. | <i>G.marchanti</i> Fryx* | - | Australia |

| | | | | |
|-----|------|-------------------------------------|---|------------------|
| 31. | 1992 | <i>G.nobile Fryx</i> * | - | Australia |
| 32. | 1992 | <i>G.rotundifolium Fryx</i> * | - | Australia |
| 33. | 1910 | <i>G.bicki Prokh</i> | G | Australia |
| 34. | 1824 | <i>G.trilobum (DC) Skow</i> | D | Mexico |
| 35. | 1853 | <i>G.klodszchisnum Anderss</i> | D | Galapagos |
| 36. | 1854 | <i>G.thurberi Tod</i> | D | Mexico (Arizona) |
| 37. | 1873 | <i>G.davidsonii Kell</i> | D | Mexico |
| 38. | 1899 | <i>G.harknessii Brandg</i> | D | Mexico |
| 39. | 1911 | <i>G.aridum (Rose Standl) Skov</i> | D | Mexico |
| 40. | 1913 | <i>G.gossipooides (Ulbr) Standl</i> | D | Mexico |
| 41. | 1932 | <i>G.raimondi Ulbr</i> | D | Peru |
| 42. | 1933 | <i>G.armoirianum Kearn</i> | D | Mexico |
| 43. | 1956 | <i>G.lobatum Gentry</i> | D | Mexico |
| 44. | 1972 | <i>G.laxum Phillips</i> | D | Mexico |
| 45. | 1978 | <i>G.turneri Fryx</i> | - | Mexico |
| 46. | 1988 | <i>G.schwendimanii Fryx</i> | - | Mexico |
| 47. | 1874 | <i>G.stocksi Mast.in.Hook</i> | E | Arabia |
| 48. | 1895 | <i>G.areysianum (Detl) Hutch</i> | E | Arabia |
| 49. | 1904 | <i>G.somalense (Gurke) Hutch</i> | E | Arabia |
| 50. | 1935 | <i>G.incanum (Schwartz) Hillc</i> | E | Arabia |

* Genom strukturasi hali noaniq.

2004 yilda Rajendran, Jain larning taqdim etgan *Gossypium* turkumining sistemasiida guruhlarga ajratilgan turlar keltirilgan.

Birinchi guruhga 52 xromosomali AD genomli ikkita madaniy va 3 ta yovvoyi allotetraploid g‘o‘za turlari tarqalgan xududlari bilan keltirilgan.

Ikkinci guruhga madaniy ikkita diploid hamda asosan Yangi dunyoda tarqalgan diploid g‘o‘za turlari berilgan.

Uchinchi guruhda asosan Avstraliya, Arabiston yarim oroli va Sharqiy Afrikada tarqalgan yovvoyi diploid g‘o‘za turlari va ularning tarqalish areallari berilgan (4-ilova).

Rajendran, Jain 2004 y.

Ilova-4

| № | Turlar | Geno m | Boshqa ia'lumotlar | |
|-----------------------|---------------------|-----------------|--|---|
| | | | 1 | 2 |
| Birinchi gurux | | | | |
| 1 | <i>G.hirsutum</i> | AD ₁ | Madaniy navlari yovvoyi va yarim shakillarixam mavjud | |
| 2 | <i>G.barbadense</i> | AD ₂ | Madaniy navlari yovvoyi va yarim shakillarixam mavjud | |
| 3 | <i>G.tomentosum</i> | AD ₃ | Yovvoyi, Gavayya orollari | |
| 4 | <i>G.mustelinum</i> | AD ₄ | Yovvoyi, Shimoliy -G‘arbiy Braziliya | |
| 5 | <i>G.darwinii</i> | AD ₅ | Yovvoyi, Galapagoss orollari | |
| Ikkinci gurux | | | | |
| 6 | <i>G.herbaceum</i> | A ₁ | Madaniy, Afrika va kichik Osiyoda tarqalgan, maxalliy irqlari Janubiy Afrikada bir yovvoyi shakli bor | |
| 7 | <i>G.arboreum</i> | A ₂ | Kichik Osiyo, Janubiy-G‘arbiy Osiyo, Xitoy va Afrikada tarqalgan madaniylashtirilgan, maxalliy irqlari bor | |
| 8 | <i>G.anomalum</i> | B ₁ | Yovvoyi, Sahel, Janubiy-Sharqiy Afrikada ikki kenja turi bor | |

| | | | |
|----|----------------------------|------------------|--|
| 9 | <i>G.triphyllum r</i> | B ₂ | Yovvoyi, Cape Verde orollari |
| 10 | <i>G.capitis – viridis</i> | B ₃ | Yovvoyi, Cape Verde orollari |
| 11 | <i>G.trifurcatum</i> | (B) | Yovvoyi, Somali |
| 12 | <i>G.longicalyx</i> | F ₁ | Yovvoyi, yastanib o'suvchi, Markaziy Afrika |
| 13 | <i>G.thurberi</i> | D ₁ | Yovvoyi, Sanora cho'llari |
| 14 | <i>G.armorianum</i> | D ₂₋₁ | Yovvoyi, Kaliforniya |
| 15 | <i>G.harknessii</i> | D ₂₋₂ | Yovvoyi, Kaliforniya |
| 16 | <i>G.davidsonii Kell</i> | D _{3-d} | Yovvoyi, Kaliforniya |
| 17 | <i>G.klodszchisnum</i> | D _{3-k} | Yovvoyi, galapagoss orollari |
| 18 | <i>G.aridum</i> | D ₄ | Yovvoyi, meksikaning Tinch okeani qirg'oqlari |
| 19 | <i>G.raimondi</i> | D ₅ | Yovvoyi, peruning Tinch okeani qirg'oqlari |
| 20 | <i>G.gossipioides</i> | D ₆ | Yovvoyi, Markaziy Meksikaning janubi |
| 21 | <i>G.lobatum</i> | D ₇ | Yovvoyi, daraxisimon, Meksikaning janubiy-sharqi |
| 22 | <i>G.trilobum</i> | D ₈ | Yovvoyi, markaziy Meksika |
| 23 | <i>G.laxum</i> | D ₉ | Yovvoyi, daraxtsimon,Meksikaning janubiy-sharqi |
| 24 | <i>G.turneri</i> | D ₁₀ | Yovvoyi, meksikaning shimoliy-sharqi |
| 25 | <i>G.schwendimanii</i> | D ₁₁ | Yovvoyi, Meksikaning janubiy-sharqi |

Uchinchi gurux

| | | | |
|----|--------------------------|----------------|---|
| 26 | <i>G.sturtianum</i> | C ₁ | Yovvoyi,manzarali tur, Markaziy Avstraliya |
| 27 | <i>G.robinsonii</i> | C ₂ | Yovvoyi, sharqiy Avstraliya |
| 28 | <i>G.bicki</i> | (G) | Yovvoyi, Markaziy Avstraliya |
| 29 | <i>G.austrle</i> | (G) | Yovvoyi, Shimoliy Transavstraliya |
| 30 | <i>G.nelsonii</i> | (K) | Yovvoyi, Markaziy Avstraliya |
| 31 | <i>G.costulatum</i> | (K) | Yovvoyi, G'arbiy Avstraliya, North Kimberleys shtatida dominant tur |
| 32 | <i>G.cunnibghami</i> | (K) | Yovvoyi, Avstraliya, North Kimberleys shtati |
| 33 | <i>G.enthyle</i> | (K) | Yovvoyi, vertikal tarqalgan, North Kimberleys shtati |
| 34 | <i>G.exiguum</i> | (K) | Yovvoyi |
| 35 | <i>G.londonderriense</i> | (K) | Yovvoyi, rivojlanayotgan tur, Avstraliya, North Kimberleys shtati |
| 36 | <i>G.marchanti</i> | (K) | Yovvoyi |
| 37 | <i>G.nobile</i> | (K) | Yovvoyi, vertikal tarqalgan Avstraliya,, North Kimberleys shtati |
| 38 | <i>G.pilosum</i> | (K) | Yovvoyi, rivojlanayotgan tur, Avstraliya, North Kimberleys shtati |
| 39 | <i>G.populifolium</i> | (K) | Yovvoyi, rivojlanayotgan tur,Avstraliya, North Kimberleys shtati |
| 40 | <i>G.pulchellum</i> | (K) | Yovvoyi, vertikal tarqalgan Avstraliya,, North Kimberleys shtati |
| 41 | <i>G.rotundifolium</i> | (K) | Yovvoyi, kuchsiz tur, Avstraliya, North Kimberleys shtati |
| 42 | <i>G.anapoides</i> | (K) | Yovvoyi, vertikal tarqalgan Avstraliya,, North Kimberleys shtati |
| 43 | <i>G.stocksi</i> | E ₁ | Yovvoyi, Arabiston yarimoroli, Afrika |
| 44 | <i>G.somalense</i> | E ₂ | Yovvoyi, Afrika va Sudan |
| 45 | <i>G.areysianum</i> | E ₃ | Arabiston yarimoroli |
| 46 | <i>G.incanum</i> | E ₄ | Arabiston yarimoroli |
| 47 | <i>G.bricchetti</i> | (E) | Somali |
| 48 | <i>G.banadirens</i> | (E) | Somaliya, Efiopiya, Keniya |
| 49 | <i>G.vollesenii Fryx</i> | (E) | Somaliya |

() Genom strukturasi noaniq, tahminan shuday belgilangan.

Akademik A.A.Abdullayev g‘o‘za sistematikasiga oid manbalarni hamda so‘nggi yillarda g‘o‘za sistematikasiga doid adabiyot hamda o‘zining dalillarni tahlil qilib 2010 – yilda *Gossypium* turkumiiga kiruvchi g‘o‘zalarning turlarini aks ettirgan klassifikatsiyasini taklif qildi. Bu klassifikatsiya o‘z ichiga 50 ta turni oladi. Muallif turlarni tavsiyelashda dastlab Eski va Yangi dunyo g‘o‘zalari, Arabiston – Afrika g‘o‘zalari, Avstraliya g‘o‘zalari hamda tetraploid g‘o‘za turlari tariqasida berilishiga e’tibor bergen (Illova-5).

Hozirgi vaqtida akademik A.A.Abdullayev o‘z shogirdlari bilan xamkorlikda *Gossypium* turkumining filogeniyasi ustida tadqiqotlarni davom ettirmoqda.

A.A.Abdullayev bo‘yicha 2010 y.

Illova - 5

| № | TURLAR | Genom | Qaysi xudud g‘o‘zalari |
|----------|----------------------------|--------------|-------------------------------|
| 1 | <i>G.herbaceum</i> | A | MADANIY ESKI |
| 2 | <i>G.arboreum</i> | A | DUNYO TURLARI |
| 3 | <i>G.anomalum</i> | B | |
| 4 | <i>G.barbosanum</i> | B | |
| 5 | <i>G.triphyllum r</i> | B | |
| 6 | <i>G.capitis – viridis</i> | B | |
| 7 | <i>G.trifurcatum</i> | B | |
| 8 | <i>G.stockii</i> | E | |
| 9 | <i>G.somalense</i> | E | |
| 10 | <i>G.areysianum</i> | E | |
| 11 | <i>G.incanum</i> | E | |
| 12 | <i>G.banadirensse</i> | E | |
| 13 | <i>G.bricchetti</i> | E | |
| 14 | <i>G.vollesenii</i> | E | |
| 15 | <i>G.longicalyx</i> | F | |
| 16 | <i>G.robinsonii</i> | C | |
| 17 | <i>G.sturtianum</i> | C | |
| 18 | <i>G.nandevarensse</i> | C | |
| 19 | <i>G.australe</i> | G | |
| 20 | <i>G.bickii</i> | G | |
| 21 | <i>G.nelsonii</i> | G | |
| 22 | <i>G.costulatum</i> | K | |
| 23 | <i>G.cunnibghami</i> | K | |
| 24 | <i>G.enthyle</i> | K | |
| 25 | <i>G.exiguum</i> | K | |
| 26 | <i>G.londonderriense</i> | K | |
| 27 | <i>G.marchanti</i> | K | |
| 28 | <i>G.nobile</i> | K | |
| 29 | <i>G.pilosum</i> | K | |
| 30 | <i>G.populifolium</i> | K | |
| 31 | <i>G.pulchellum</i> | K | |
| 32 | <i>G.rotundifolium</i> | K | |
| 33 | <i>G.raimondi</i> | D | |

**ARABISTON VA
AFRIKA
TURLARI**

**AVSTRALIYA
TURLARI**

| | | | |
|----|-------------------------|----|---|
| 34 | <i>G.davidsonii</i> | D | MARKAZIY VA JANUBIY AMERIKA TURLARI TETRAPLOID |
| 35 | <i>G.klodszychisnum</i> | D | |
| 36 | <i>G.armoirianum</i> | D | |
| 37 | <i>G.harknessii</i> | D | |
| 38 | <i>G.turnebi</i> | D | |
| 39 | <i>G.turneri</i> | D | |
| 40 | <i>G.thurberi</i> | D | |
| 41 | <i>G.trilobum</i> | D | |
| 42 | <i>G.aridum</i> | D | |
| 43 | <i>G.gossipioides</i> | D | |
| 44 | <i>G.laxum</i> | D | |
| 45 | <i>G.hirsutum</i> | AD | |
| 46 | <i>G.barbadense</i> | AD | |
| 47 | <i>G.mustellum</i> | AD | |
| 48 | <i>G.tomentosum</i> | AD | |
| 49 | <i>G.darvini</i> | AD | |

Har qanday tirik organizmni o‘rganish uchun avvalo uning boshqa organizmlarga nisbatan o‘rnini va ular bilan filogenetik munosabatlarini aniklash lozim. O‘simpliklar dastlab ko‘zga oson tashlanadigan bir necha belgilariga binoan tasniflangan. Hozirda o‘simpliklar sistematikasida o‘simpliklarning anatomo-morfologik belgilari bilan birga ular o‘rtasidagi o‘zaro qarindoshlik (gomologik) bog‘lanishlar hisobga olinadi.

Demak o‘simpliklarni sistematikaga solish hozirgi va qirilib ketgan o‘simpliklarni tavsiflash, ularni har xil darajada taksonlar bo‘yicha tasnif qilishga imkon yaratadi.

Turlar o‘rtasidagi sistematik munosabatlari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish genetik va biokimyoiy tadqiqotlar uchun ham zarur. Sistematika ayniqsa bir vaqtning o‘zida ko‘plab turlar bilan tadqiqot olib boriladigan ekologiya va biogeografiya sohasidagi tadqiqotlarda muhim ahamiyatga ega.

2.3.G‘o‘zaning o‘sish va rivojlanish fazalari.

Vegetatsiya davri qishloq xo‘jalik ekinlarining to‘liq rivojlanish sikli uchun, ya’ni o‘simplik urug‘ining unib chiqishidan boshlab hosil yig‘ilgungacha bo‘lgan zaruriy davr.

G‘o‘za chigitning chiqishidan yangi chigit paydo bo‘lguncha ma’lum fazalarni o‘tkazadi. Bulardan o‘rganilgani yarovizatsiya va yorug‘lik stadiyalaridir. Yarovizatsiya stadiyasini o‘tish uchun chigitga nisbatan 70% namlik va unishga 20-25° issiq talab qiladi. U 6-7 kun davom etadi. Yorug‘lik stadiyasi to‘liq ko‘karib chiqqandan shonalashgacha ya’ni 2-3 xaftha davom qisqa kunni talab etadi.


G‘o‘za o‘zining vegetatsiya davrida 5 ta asosiy rivojlanish fazalarini o‘tkazadi.

1. Unib chiqish-urug‘barg fazasi-5-7 kun.
2. Chinbarg hosil bo‘lish fazasi-8-12 kun.
3. Shonalash-hosil shoxlarning paydo bo‘lish fazasi 25-30 kun.

4. Gullash fazasi-25-30 kun.

5. Ko'sakning etilish (ochilish) fazasi 50-60 kun.

O'simliklarda vegetatsiya davrining uzun-qisqaligini hisobga olib, sovuq erta tushadigan shimoliy xududlarda ertapishar navlar, sovuq kech tushadigan janubiy xududlarda kechpishar navlar ekiladi. Vegetatsiya davri tashqi sharoitga va navning irsiy xususiyatlariga ham bog'liq. Bir sharoitda ertapishar deb hisoblangan nav ikkinchi bir sharoitda kechpishar bo'lishi mumkin. Macalan, sug'oriladigan dehqonchilik sharoitlarida g'o'zaning vegetatsiya davri bahorda, havo haroratining o'simlik rivojlanishi uchun qulay doimiy biologik minimum darajadan (10°C) barqaror ko'tarilishidan to kuzgi, o'simlik barglarini nobud qiladigan qora-sovuq tushgunga qadar o'tadigan vaqtga to'g'ri keladi. Har yili paxtaning pishib etilishi $4000-4900^{\circ}\text{C}$ faol xarorat yig'indisi bilan ifodalangan termik resurslar evaziga amalga oshadi. Vegetatsiya davridagi o'rtacha oylik xarorat bahor va kuzda 15°C dan, yozda esa 30°C dan yuqori bo'lishi lozim. Har qanday ekinning muayyan rivojlanish fazasi o'tishi uchun ma'lum miqdorda samarali xarorat yig'indisi talab etiladi, shunga ko'ra turli g'o'za navlari uchun vegetatsiya davri ham har xil; g'o'zaning ertapishar navlari uchun 90—100 kun, kechpishar navlarida 140 kun va undan ham ko'proq (chigit unib chiqqandan boshlab to dastlabki ko'saklari etilgunga qadar bo'lgan davr).




Fo'zaning shoxlanish tiplari:
1- monopodial shoxlanish;
2- sympodial shoxlanish;
3- oralic tipda shoxlanish

2.4. G'o'zaning morfologik tuzilishi. Ildizi.

G'o'zaning ildizi o'q ildiz, ildizning o'qi ildiz bo'g'zidan boshlanadi. Ildiz bo'g'zi etuk o'simlikda uning turi va naviga qarab hamda o'sish sharoitiga qarab 1,5-3 sm yo'g'onlikda bo'ladi. Etilgan o'simlikning o'q ildizi erga kirib borgan sari keskin ingichkalashib boradi. 20-25 sm.da uning diametri 1-3 mm bo'lib qoladi. Keyinchalik uning yanada ingichkalashib borishi sekinlashadi. G'o'za ildizi tuproqqa 1,5-2 metrgacha chuqurlikka kirib boradi. G'o'za ildizining asosiy qismi tuproqning 40-50 sm chuqurlikdagi tuproq qatlamida joylashadi. Baland joylashgan yon ildizlardan ildizchalar chiqadi va ularni so'rvuchi ildizlar deyiladi. Sirti po'kak to'qima bilan qoplangan, dag'allashgan yon ildizlar ildiz sxemasining o'tkazuvchi qismini tashkil etadi (1-pacm).

Poyasi. Ildizning bosh o'qi o'zining yuqori qismi bilan ildiz bo'yni orqali poyaga aylanadi. Urug'bargning pastki qismi ildizning davomi hisoblanadi. U biroz ingichka bo'lib unda barg bo'lmaydi. Poyaning uzunligi o'rta tolali g'o'zalarda 1-1,2 metr, ingichka tolali g'o'zalarda 1-1,5 metr bo'ladi. Urug'barg bir - biriga qarama-qarshi

joylashib, chin barg esa navbatma-navbat joylashadi. Poya bo‘g‘imlardan iborat. Ko‘chat erdan chiqishi bilan uchki murtak o‘sib biroz vaqt o‘tgach barg murtak hosil bo‘ladi va undan barg paydo bo‘ladi. Birinchi chinbarg urug‘barg paydo bo‘lgandan 7-10 nchi kuni paydo bo‘ladi.




3-rasm.
Yrta tolali (1), ingichka tolali (2)
g‘o‘za navlari bargi

2-tadan 8 gacha kertikli barglarni topish mumkin. G‘o‘za bargi butun yoki kertikli bo‘lishidan qat’iy nazar u yuraksimon bo‘ladi. Bitta barg shonolog‘ining satxi 4 sm^2 dan 400 sm^2 gacha bo‘lishi mumkin.

Barg bandining yuqori qismidan tomir bo‘g‘imi deb ataluvchi joyidan har bir kertikli tomir o‘tadi, ulardan 2, 3 tartib tomirchalar chiqadi. Birinchi tartib tomirlar soni 7-9 ba’zan 11-12 ta bo‘ladi. Bir o‘simlikdagi barg satxining umumiyligi yig‘indisi 2,5 ming sm^2 dan 9 ming sm^2 gacha bo‘lishi mumkin. Bu holat g‘o‘za turi, cheklangan va cheklanmagan tipda va boshqalarga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bargning har 1 mm^2 sathida ustki tomonida 115-128 og‘izcha, orqa-pastki tomonida 245-250 tagacha og‘izcha bo‘lishi mumkin.

O‘suv va hosil shoxlarning paydo bo‘lishi.



4-rasm.
Cheklanmagan tipdag‘i hosil shoxlarining
kenja tiplari:

- I - bo‘g‘im orasi qisqa; II - bo‘g‘im orasi;
- III - orasi keng va IV - bo‘g‘im juda uzun

Bargi. G‘o‘za bargi barg shapalog‘i, barg bandi va barg bandi asosida joylashgan ikkita yonbargchadan iborat. Barg shapalog‘i g‘o‘zaning naviga, turiga va o‘simlikda joylanishiga qarab butun yoki kertikli bo‘lishi mumkin. Asosiy poyadagi dastlabki 2-3 barg butun keyingilari kertikli bo‘ladi.

Barg shapalog‘i 3, 5, 7 kertikli bo‘lganligidan ular simmetrik shaklda ko‘rinadi. Bazan bitta o‘simlikning o‘zida juft sonli 2, 4, 6, 8 kertikli barglar uchrashi mumkin. G‘o‘zaning istalgan tur va navidan

kurtaklari barg qo‘ltig‘idan shoxlar paydo bo‘ladi. Urug‘bargdan keyin 2-3 bo‘g‘imda shoxlar o‘sib chiqishga harakat bo‘ladi, lekin u rivojlanmaydi, aksincha soxta bo‘g‘im shaklida qoladi. 2-3 bo‘qindan so‘ng shoxlar barg qo‘ltig‘idan o‘sib chiqadi. Dastlab o‘suv shoxlar, so‘ngra hosil shoxlar paydo bo‘ladi. O‘suv shox (monopodial) bir yoki ikki dastlabki bo‘g‘indan o‘sadi. Keyingi bo‘g‘inlardan esa hosil shox (simpodial) paydo bo‘ladi. Hosil shox barg qo‘ltig‘ida birinchi shona paydo bo‘lishi bilan ko‘rina boshlaydi. Keyinchalik hosil shox yon kurtaklar hisobiga o‘sса boshlaydi. Tashqi


sharoit qulay kelsa hosil shoxlar soni 10-15 va undan ham ko'proq bo'lishi mumkin.

Hosil shox 2 xil bo'ladi: cheklangan va cheklanmagan. Agar ko'sak yoki meva bir necha bo'g'im hosil qilib asosiy poyaga birikadigan bo'lsa cheklanmagan hosil shox deyiladi, bir bo'g'imli bo'lib, unga shona bandi bilan biriksa cheklangan xosil shox deyiladi. Bundan tashqari «nul» tipli g'o'zalar bo'ladi. Bunda hosil organ bandi bilan bevosita g'o'zaning poya bo'g'imlariga birikadi. Bunday g'o'zalar xosildorligi past bo'lishi tufayli ishlab chiqarishda ekilmaydi. Cheklangan hosil shox cheklanmagan hosil shox bo'g'imlarining birinchi tipiga mansub bo'lib, qisqa bo'g'imli bo'lsa uni shartli ravishda «nul» tipli g'o'zalar deyiladi.

Hozirgi paytda ishlab chiqarishda ko'plab ekiladigan mashina terimiga mos g'o'zalar shunday g'o'zalardir.

O'suv shox bilan hosil shoxning o'zaro quyidagi farqlari mavjud.

1. o'suv shox 1 - 2 ta bo'lishi mumkin, hosil shox bir necha bo'ladi.
2. o'suv shoxning hosil bo'lish burchagi hosil shoxnikiga qaraganda birmuncha o'tkir burchakli.
3. o'suv shox avval paydo bo'ladi, hosil shox keyin paydo bo'ladi.
4. o'suv shox o'z navbatida shoxlanadi, hosil shox shoxlanmaydi.
5. o'suv shoxda xosil organlar unga hosil shoxlari orqali biriksa, hosil shoxda xosil organlar bevosita shu shoxga birikadi.



5 rasm - г'о'за гулининг диаграммаси.

6 rasm - г'о'за гулининг тузилиши. (ко'ndalang kesimi): 1- gulband;

2- shonabarg; 3-gulkosa; 4- gultojbarg; 5- changchi naychasi; 6-changchi; 7-tuguncha;

8- changchi ustunchasi; 9- onalik tumshuqchasi.

G'o'zada hosil shox va o'suv shoxlardan tashqari qo'shimcha yon hosil shoxlar bo'lib, ular bir bo'g'imli tirsakli bo'lib bo'g'implardagi barg qo'ltig'idan qo'shimcha paydo bo'ladi. Hosil organlar esa o'z bandi bilan ba'zan bo'g'implarda qo'shimcha holda barg qo'ltig'ida paydo bo'lishi mumkin.

Chegaralanmagan hosil shox bo'g'implarining qisqa yoki uzunligiga qarab uning 4 ta tipi bo'ladi: 1 tip 1-5 sm., 2 tip 6-10 sm., 3 tip 11-15 sm., 4 tip 16-20 sm.

G'o'za guli. G'o'za guli ikki jinsli, gul organlari beshta doira bo'yicha joylashib, quyidagi qismlardan iborat:

1. Gulbandi bitta bo'lib, u meva pishguncha turadi.
2. Gulyonbargi 3 ta bo'lib ingichka tolali g'o'zalarda 2 ta gulyonbarg bo'ladi. Uning tishi o'rta tolali g'o'zada 13-15, ingichka tolani g'o'zada 9-11 ta bo'ladi.
3. Gulkosacha o'zaro tutashgan beshta

kosabargdan iboratdir, rangi och yashil.

4. Gul toj asosi bir-biriga birikib ketgan 5 ta gulgardan iborat.

5. Otalik kolonkasi o‘zining otaliqlari bilan onalik pochasi o‘rab turadi otalik kolonkasida 80-150 otalik bo‘ladi. Har qaysi otalik-otalik ipidan va qo‘sh uyali erkin changdonlardan iborat.

6. Onalik-tumshuqcha, onalik pochasi va tugunchadan iborat.

G‘o‘zaning gullashi. Shonaning etilib gulga aylanishiga gullash deyiladi.

G‘o‘za guli ikki xil tartibda ya’ni yarus bo‘ylab, yoniga gullasa uni uzoq muddatli gullash deyiladi. Bunday gullash o‘rta pishar g‘o‘zalarda 6 kunga, tezpishar g‘o‘zalarda 5 kunga teng. Agar u pastdan yuqori qarab gullasa uni qisqa muddatli gullash deyiladi. Bunday gullashni konus bo‘ylab gullash ya’ni qisqa muddatli gullash deyiladi. Bunday gullash 2 kunga teng. Yarus bo‘ylab va konus bo‘ylab gullashning o‘zaro nisbatiga (6 : 2, 5 : 2) gullash sxemasi deyiladi. Shonalash ham gullashdan 25-30 kun oldin shu tartibda o‘tadi. Agar g‘o‘zada 15 hosil shoxi bo‘lsa pastdan yuqoriga qarab har bir 3 shox bitta yarusni tashkil etadi.

Masalan: 1 yarus-1, 2, 3 shoxlardan, 2 yarus-4, 5, 6 shoxlardan, 3 yarus-7, 8, 9 shoxlardan, 4 yarus-10, 11, 12 shoxlardan, 5 yarus-13,14,15 shoxlardan iborat bo‘ladi.

Shunga o‘xshash 1 konus-1,2,3 shoxning 1 bo‘g‘imlaridan, 2 konus-1, 2, 3 shoxning 2 va 4, 5, 6 shoxning 1 bo‘g‘imidam, 3 konus - 1, 2, 3 shoxning 3 bo‘g‘imidam, 4, 5, 6 shoxning 2 bo‘g‘imlaridan. 7, 8, 9 shoxning 1 bo‘g‘imlaridan iborat 4 konus-1, 2, 3 shoxning 4 bo‘g‘imidam, 4, 5, 6 shoxining 3 bo‘g‘imidam, 7, 8, 9 shoxning 2 bo‘g‘imidam 10, 11, 12 shoxning 1 bo‘g‘imidam iborat. 5 konus-1,2,3 shoxning 5 bo‘g‘imidam, 4, 5, 6 shoxning 4 bo‘g‘imidam, 7, 8, 9 shoxning 3 bo‘g‘imidam, 10, 11, 12 shoxning 2 bo‘g‘imidam 13,14,15 shoxning 1 bo‘g‘imlaridan iborat.

G‘o‘zaning gullash sxemasi laboratoriya darsida batafsil izohlanadi va o‘rganiladi.

Ko‘sagi. Changlanish natijasida gul tugunchalari urug‘lanib ko‘sakka aylanadi. G‘o‘zaning mevasi ko‘sak bo‘lib, u g‘o‘zaning ko‘pgina formalarida pishganda ochiladi. *G. herbaceum.L* ko‘sak to‘la ochilmaydi. Mevabandi 1 ta, uzunligi 10sm gacha bo‘ladi. Ko‘pchilik g‘o‘za navlarida 3-5 sm bo‘ladi. Etilgan, lekin ochilmagan ko‘sak tuxumsimon, sharsimon formada bo‘ladi. Uning uch qismi o‘tkir yoki o‘tmas bo‘lishi mumkin. Bir ko‘sak chigitli paxtasining og‘irligi o‘rta tolali g‘o‘zalarda 3-8 g, o‘rtacha 4-5 g, ingichka tolali g‘o‘zalarda 2-4 g, o‘rtacha 2-3 g atrofida bo‘ladi. Ko‘sakning katta-kichikligi uning turi, navidan tashqari, agrotexnika tadbirlariga ham bog‘liq. Ko‘sak asosan chanoq, chanoqlarning ajralish joyi, chigit, markaziy urug‘don, uyadan iborat.

O‘rta tolali g‘o‘zalarda ko‘sak 4-5 chanoqli, ingichka tolali g‘o‘zada 3-4 chanoqli bo‘ladi. O‘rta tolali g‘o‘zalarda ba’zan 6, 7, 8, 9 chanoqli ingichka tolali g‘o‘zalarda 6-7 chanoqli ko‘saklar uchrashi mumkin. Chanoqlar etilganda chanoqning ustki tomoni uning ichki seret qismiga nisbatan tezroq va ilgariroq quriydi, shuning uchun ham u bujmayib chanoqlar sirtiga ochiladi.

To‘liq pishib-etilmagan ko‘saklar sovuq urgandan so‘ng biroz ochiladi, ba’zan ochilmay qoladi. Buni ko‘rak deyiladi.

G‘o‘za o‘sish davrida hosil organlarining (shona, guli, tugunchasi) ko‘pgina qismi to‘kiladi. Hosilning to‘kilishi ichki konusdan tashqi konusga qarab ko‘payib boradi, pastdan yuqoriga qarab kamrok to‘kiladi. Hosil organlarining 60-70%, ba’zan 80-90% ham to‘kilishi mumkin. Ingichka tolali g‘o‘zalarda hosil organ o‘rtaliga qaraganda deyarli 2 barovar kam to‘kiladi.

Harbir ko‘sakda undagi chanoqlar soniga qarab 25-50 atrofida chigit bo‘ladi. Demak har bir chanoqda 5-10 ta chigit bo‘lishi mumkin. Ular markaziy chigitbanddan iborat to‘sinqing ikki tomoniga ikki qator bo‘lib joylashadi. Bir tup g‘o‘zada to‘liq ko‘saklar soni 10-12 dan 50-100 tagacha va undan ham ko‘proq ko‘sak bo‘lishi mumkin. Bu g‘o‘zaning turi, navi, agrotexnika sharoiti, eng muhimmi tup son qalinligiga bog‘liq.

Chigit. G‘o‘zaning ko‘sakda etilgan urug‘i chigit deyiladi. Chigitning keng tomoni xalaza qismi, qisqa uchli tomoni mikropil deyiladi. Chigitning formasi uzunchoq, sharsimon bo‘ladi. Chigitda uzun va qisqa tolalar bo‘ladi. Chigitning sirtida xujayralar bo‘lib, ularning soni 9-15 ming atrofida. Bu xujayralar faol xujayralar va nofaol xujayralar bo‘lib, faol xujayralardan tola, nofaollaridan linterlar olinadi. Chigitning og‘irligi muhim ko‘rsatgichlardan biri bo‘lib u urug‘ning yirikligiga bog‘liq. 1ta chigitning og‘irligi g‘o‘za navi, ekilish sharoitiga qarab 50-200 mg. o‘rtalagi g‘o‘zada 90-160 mgr ingichka tolali g‘o‘zalarda 120-150 mg. bo‘ladi. Chigitning massasi ya’ni 1000 donasining og‘irligi 100-160 g atrofida bo‘ladi.

Etilgan chigitning rangi to‘q jigar rangli, etilmagan chigitning rangi och jigar rangli bo‘ladi. Chigitning uzunligi 5-14 mm, diametri 3-8 mm bo‘ladi. Agar tolani olingandan so‘ng chigit usti tuki qolsa tukli chigit deyiladi, agar tuklari qolmasa yalong‘och chigit deyiladi. Chigitning unuvchanlik qobiliyati 6-7 yil saqlanishi mumkin. 10-15 hatto 30 yil saqlangan chigitlarni ham undirib olish holati amaliyoda uchraydi. (F.M.Mauer)

Urug‘ning yig‘ib-terib olgandan so‘ng etilish davri tinch davri deyiladi. Ekish uchun bir yil ilgari ekilgan g‘o‘za chigitidan foydalaniladi.

Tola va uning texnologik xususiyatlari. Tola chigit qattiq po‘sti qobig‘i faol xujayralarining uzunasiga o‘sishining natijasidir. Har bir tola bitta hujayradan iborat. G‘o‘za guli urug‘lanishi bilan bo‘rtib chiqqan xujayralar tez rivojiana boshlaydi. Tolaning o‘sib rivojlanishi ikki bosqichda amalga oshadi. Birinchi bosqichda tola asosan bo‘yiga o‘sib bu jarayon 25-30 kun davom etadi. Tola paydo bo‘lgan kundan boshlab 10-12 kungacha uning diametri kattalashadi.

Ikkinci bosqichda tolaning ichki qismi tashkil topadi. Ichki qatlamida selyuloza qatlami paydo bo‘lib u qalinlashadi.

Tola devorchalarida selyuloza bilan moy-mum moddalar paydo bo‘ladi.

Tolaning yupka devorchasiga kutikula deyiladi. Tola qat-qat joylashgan devorchalardan iborat bo‘ladi. Tola pishib etilganda undagi qat-qat devorchalar va selyuloza, moy-mum moddalarini tufayli u buralib eshiladi. Shuning uchun ham u

yaxshi yigirilish qobiliyatiga ega. Bu xususiy tolali ekinlar ichida faqat g'o'zaga xos xususiyatdir.

Tola ichida barcha o'simlik xujayralaridagi kabi protoplazma hujayra shirasini bo'ladi. Tolaning rivojlanish jarayonida hujayra shirasining kimyoviy tarkibi o'zgaradi. Masalan, uning 35 kunligida tarkibida shakar ko'payadi. U to'liq etishganida ham ma'lum miqdorda shakar qoladi. Tola rivojlanishidan to'xtaganidan so'ng chigit va ko'sak bilan birgalikda quriydi.

Ko'sak to'la etilganda tola quriydi, shakar asosan bug'lanib ketadi, devorlari pachaqlanganga o'xshab torayib, tola buraladi.

Buralish 3 xil bo'ladi. 1. Me'yoriy etilgan tola-yaltiraydi va simmetrik eshiladi-buraladi. 2. Etilmagan tola-kam yaltiraydi, nosimmetrik eshiladi-buraladi. 3. Xom tola - yaltiramaydi, eshilmaydi.

Har bir chigit o'zidagi tolachalari bilan birga yakka chigit deyiladi. Urug' kurtak urug'lanib tola rivojlanmay, mayda tuguncha hosil qilsa mayda o'lik, biroz rivojlanib urug' kurtagi o'lib qolishi, ya'ni rivojlanishdan qolib o'lgan tolalar yirik o'lik deyiladi.

Tolaning uzunligi, ingichkaligi, pishiqligi, elastikligi, buraluvchanligi, uzilish uzunligi, etilganligi uning texnologik xususiyatlari deyiladi.

Tolaning uzunligi. Tola uzunligi gazlamaning pishiqligida ahamiyatlidir. Uning uzunligiga qarab tola tiplari mavjud.

1 tip 40-41 mm

2 tip 38-39 mm ingichka tolali g'o'zalar.

3 tip 37-38 mm

4 tip 35-36 mm

5 tip 33-34 mm o'rta tolali g'o'zalar

6 tip 32-33 mm

Tolaning ingichkaligi. Tola eni 15-20 mikron atrofida bo'ladi. Tola ingichkaligi ko'pincha metrik nomer bilan ifodalanadi. 1 g. tolaning metr xisobidagi umumiy uzunligi metrik nomerdir. Tola qancha ingichka bo'lsa, uning metrik nomeri shuncha yuqori bo'ladi.

O'rta tolali g'o'za tolasining metrik nomeri 5000-5500 m, ingichka tolali g'o'za metrik- nomeri 6500-8000 m. bo'ladi.

Tolaning pishiqligi. Tolaning pishiqligi uning uzilishga qarshilik kuchidir ya'ni 1 ta tolaning yuk ko'tarish qobiliyati, tolaning pishiqligi ya'ni quvvati 4-7 g/teksga teng.

O'rta tolalilarda 4-4,5, ingichka tolalilarda -4,5-5 g/teks.

Tolaning elastikligi. Uning cho'ziluvchanligi bo'lib, pishiqligi bilan bog'liq.

Tolaning buraluvchanligi. Uning eng muhim xususiyatlaridan biri. Bu ko'rsatgich 1 mm tolada qancha buraluvchanligi bilan belgilanadi.

O'rta va ingichka tolsi g'o'zalarda buraluvchanlik 10-12 martaga, jaydari g'o'zada 6-8 martaga teng.

Tolaning uzilish uzunligi. Tolaning metrik nomerini pishiqligiga (g/teks) ko'paytirib 1000 ga taqsim qisinsa uning uzilish uzunligi kelib chiqadi. O'rta tolali

g‘o‘zalarning uzilish uzunligi 23-25 km, ingichka tolali g‘o‘zalarda 33-35 km, ba’zi navlarda 36-37 km bo‘ladi.

Bu ko‘rsatgich agar tolalarning uchini bir-biriga ulab tashqi sharoitda davom etilaversa uning o‘z og‘irligi kuchi bilan uzilib ketishini bildiradi.

Tolaning etilganligi. Tolaning etilganligi uning devorchalarida kletchatka qavatlarining paydo bo‘lish darajasini bildiradi. Shunga asosan etilish koeffitsienti aniqlanadi. 0 ko‘rsatgich o‘lik tolani, 5 o‘ta etilgan, natijada devor qalinlashib buraluvchanligi yomonlashadi, yaxshi etilgan g‘o‘zalarda etilganlik koeffitsienti 2-2,5 raqami bilan ifodalanadi.

2.5.Olingan dalillarning statistik yo‘l bilan qayta ishslash.

Tola chiqishi va tola uzunligi, 1000 ta urug‘ning og‘irligi qabul qilingan umumiy uslubda aniqlanadi.

Sifat belgilarning korrelyasiya koeffitsienti quyidagi Yula formulasi yordamida aniqlanadi:

$$r = \frac{n_1 n_4 - n_2 n_3}{\sqrt{N_1 x N_2 x N_3 x N_4}}$$

Bu yerda: n_1 va n_4 -bir xil ishorali kataklarning uchrash chastotasi (+ + yoki - -);
 n_2 va n_3 -har xil ishorali kataklarning uchrash chastotasi (+ - yoki - +);

N_1 va N_2 -gorizontal kataklar chastotasining yig‘indisi ;

N_3 va N_4 -vertikal kataklar chastotasining yig‘indisi;

r -korrelyasiya koeffitsienti;

Sr -korrelyasiya koeffitsientining xatosi.

Korrelyasiya koeffitsientining xatosi quyidagi formula hisobida aniqlanadi:

$$Sr = \sqrt{\frac{1 - r^2}{n - 2}}$$

Korrelyasiya koeffitsientining qat’iylik mezoni -tr quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$tr = \frac{r}{S_r}$$

n -o‘simliklar soni.

Agarda tr ning faktik qiymati nazariy t qiymatidan katta bo‘lsa, korrelyativ aloqa jiddiy muhim; agarda faktik tr ning qiymati nazariy t qiymatidan kichik bo‘lsa, u holda aloqaning jiddiylik muhimligi past hisoblanadi. t ning nazariy qiymati Styudent jadvali asosida aniqlanadi. Bunda ehtimollik $R = 0,05$ ga teng. Ozodlik darajasining soni $n = 2$ ga teng. $t_{05} = 1,96$.

Miqdoriy belgilarning irsiylanishini tahlil qilishda quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlanadi.

O‘rtacha arifmetik qiymat – X

O‘rtacha arifmetik xato – m

O‘rtacha arifmetik xatolikning aniqligi – $m\%$

O‘zgaruvchanlik koeffitsienti – V

Bu ko‘rsatkichlar quyidagi formulalar yordamida aniqlandi:

O‘rtacha arifmetik qiymat

$$\bar{X} = A \pm \frac{\sum f(X - A)}{n};$$

bu erda: f - chastota (uchrashish soni).

A - ixtiyoriy o‘rtacha qiymat.

n - o‘rganilayotgan o‘simglik soni.

Korrektorlovchi faktor (yordamchi formula)

$$C = \frac{[\sum f(X - A)]^2}{n};$$

O‘rtacha kvadratik xatolik

$$\delta^2 = \sqrt{\frac{\sum f(X - A)^2 C}{n-1}};$$

Variatsiya koeffitsienti;

$$V = \frac{\delta}{\bar{X}} \cdot 100\%;$$

O‘rtacha arifmetik xatolik;

$$m = \frac{\delta}{\sqrt{n}};$$

Foiz hisobidagi xatolik;

$$m\% = \frac{m}{\bar{X}} \cdot 100\%.$$

*F₁*duragaylarida dominantlik koeffitsienti G.M. Beil va R.E. Atkins (1965) ishlarida keltirilgan S. Wright formulasi bo‘yicha hisoblandi:

$$hp = \frac{F_1 - MP}{P - MP}$$

Bu yerda: hp–dominantlik koeffitsienti;

F_1 – duragayi belgisining o‘rtacha arifmetik ko‘rsatkichi;

MP – ikkala ota – ona shakl belgisining o‘rtacha arifmetik ko‘rsatkichi;

P – eng yaxshi ota yoki ona shakl belgisining o‘rtacha arifmetik ko‘rsatkichi.

III-бөл. Г‘О‘ЗА СИФАТ БЕЛГИЛАРИНИНГ ИРСИЯЛАНИШИ.

G‘о‘занинг морфологик-сифат белгиларининг генетик назорат qилинишини о‘рганиш ва унинг қонуниятларини аниqlash ва унинг асосида бу белгиларнинг изоген-гомозиготали генетик коллексиюнини юратиш мумкин о‘рин тутади.

Генетик коллексиюнини юратилиши klassik, mutatsion, sitologik, fiziologik, ekologik va molekulyar генетика бо‘йича fundamental tadqiqotlari olib borishlik uchun noyob modelli генетик ob‘ekt sifatida xizmat qiladi. Quyida генетик коллексиюнини юратилишини тавсифини кельтирмиз.

3.1.Генетик коллексиюнини юратилиши

L-452 линияси. Bu линия Almatov A.S томонидан L-15 (chigit tuklanishi – n-MS) линиясини L-44 (OS tip) mutant линия билан о‘заро чатиштириш натижасида олинган G₂ популусијаси ичидан юратим дурагай о‘симликларни ко‘п yillik о‘з-o‘zidan changlatish ва tanlash yo‘li bilan юратилган. Bu линия о‘симликларининг chigitlari quyuq OS - tip tuklanishli, yuqori tola chiqimi va indeksi, tola uzunligining kaltaligi kabi xususiyatlari bilan farqlanadi.

Tupi–konussimon shaklda. Barg qoplami o‘rtacha, simpodial shoxlari cheklanmagan I – II kenja tipli, 1-2 ta monopodial shoxlarga ega.

Poyasi – Tik turuvchi yashil, асосија poyaning bo‘yi 100 sm. Poyasi kuchsiz tuklangan.

Bargi– barg plastinkalari o‘rtacha kattalikda, panjasimon bo‘linma shaklda, rangi yashil, barg nektardonlariga ega.

Guli– yirik, gultojbargi och-sariq rangda, gultojbarglari asosida qizg‘ish dog‘i yo‘q, gulyonbarglari yuraksimon shaklda, tishchali. Och-sariq rangda.

Ko‘sagi – yirik tuhumsimon, 4-5 chanoqli. Ko‘saklarning yuzasi g‘adir-budur, yashil rangli.

L-453 линияси. Bu линия L-15 x L-44 mutant линия duragaylaridan ko‘п yillik о‘з-o‘ziga changlantirish ва tanlash yo‘li bilan олинган. Chigit tuklanishi OS tipda bo‘lib, oppoq tolaga ega. Kech pishar, kasalliklarga unchalik chidamli emas.

tola chiqimi - 37,0-38,75%,

tola indeksi – 9,0-10,0 g.,

tola uzunligi - 30,0-32,0 mm.,

1000 ta chigit massasi - 151,0-155,0 g.,

bitta ko‘sakdagи tola vazni – 9-10 g.

L-454 линияси. Bu линия L-15 x L-44 mutant линия duragaylaridan ko‘п yillik о‘з-o‘ziga changlantirish ва tanlash yo‘li bilan олинган. Chigit tuklanishi OS tipda bo‘lib, oppoq tolaga ega.

Tupi – kompakt, konussimon shaklda bo‘lib o‘rtacha qalinlikdagi barg qoplamiga ega.

Poyasi – tik turuvchi, o‘rta darajada tuklanishli yashil. Simpodial shoxlari cheklanmagan I-II kenja tipli, hs-7-9 bo‘g‘imlarga to‘g‘ri keladi. Monopodial shoxlari 1-2 ta. Асосија poyaning bo‘yi 90-100 sm.

Barglari – o‘rtacha kattalikda. Barg bosh bo‘lagining shakli gumbazsimon. Barg plastinkasining shakli panjasimon-bo‘linma shaklda, yashil. Barg nektardonlari va gossipol bezchalariga ega.

Guli – yirik, gultojibarglari besh bo‘lakli, och-sariq rangda, gultojibarglar asosida antotsian (qizg‘ish) dog‘i yo‘q. Changchilar ham och-sariq rangda.

Urug‘chingin tumshuqchasi ustunchada joylashgan changchilardan chiqib turmaydi. Gulyonbarglari yirik, yuraksimon, 9-10 tagacha tishchalarga ega.

Ko‘sagi – yirik, tuxumsimon shaklda, uchi o‘tkir. Ko‘saklarining yuzasi g‘adir-budir, yashil, gossipol bezchalariga ega.

Bitta ko‘sakda 30-35 tagacha urug‘kurtak shakllandi.

Tola chiqishi – 40-41%.

Tola indeksi – 9-10g.

Tola uzunligi – 22-24mm.

Bitta ko‘sakning og‘irligi – 7-8g.

1000 ta chigit og‘irligi – 110-115g.

Kechpishar, u qadar kasalga chidamli emas.

L-608 liniyasi. Bu liniya L-4110 x L-606 F₁ duragaylarini o‘z-o‘ziga changlantirish va ko‘p yillik tanlash natijasida chiqarilgan. Chigit to‘liq tuk bilan qoplanishligi vatolaning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Oq tolali

Tupi – kolonkasimon (ustunsimon), ko‘saklar asosiy poyaga tig‘iz joylashgan. Barg qoplami o‘rtacha, simpodial shoxlari cheklanmagan I -tipli.

Poyasi – tik turuvchi, yashil. Asosiy poyaning bo‘yi 90-100 sm. Poyada gossipol bezchalari bor.

Barglari – barg plastinkasi panjasimon bo‘linma, o‘rtacha kattalikda, yashil. Barg nektardonlariga ega.

Guli – o‘rtacha kattalikda, och sariq rangda. Gulyonbarglari yuraksimon shaklda, 10-11 tishchali. Changchilar och sariq rangda.

Ko‘sagi – tuxumsimon, 4-5 chanoqli, yashil rangda. Ko‘saklarning yuzasi silliq. gossipol bezchalari bor.

L-4112 liniyasi. Bu liniya F₃(L-4110 x L-606/1) duragay populyasiyasidan. o‘z - o‘zini changlantirish va tanlash yo‘li bilan olingan. Chigit tuklanishi OS tipida bo‘lib, qalin tolaga ega.

Tupi - tor piramidal shaklida. Barglanishi o‘rtacha, yashil, kam tuklangan, shoxlanishi simpodial, cheklanmagan, birinchi tip. Monopodial shoxlar bitta.

Poyasi - tik o‘suvchi, tuk yashil rangli, quyosh tomondan antotsian rang bor, kam tuklangan.

Barglari - yirik, panjasimon, yashil rangli, quyosh tomondan antotsian, kam kesilgan.

Guli - o‘rtacha kattalikda, och sariq rangda.

Kusagi - konussimon, tumshukchali, usti sillik, yashil, 4-5 chanoqli.

Tola chikishi -35,4 %.

Tola indeksi -6,5g.

Tola uzunligi -37,1mm.

Bir kusakdagi paxta vazni -6,1g.
1000 ta chigit vazni - 120g.

L-620 liniyasi. Bu liniya L-4110 x L -608/1 duragay populyasiyasidan o‘z-o‘zini changlash va tanlash yo‘li bilan olingan. Chigit tuklanishi OS tipda bo‘lib, oppoq tolaga ega.

Tupi – keng piramidal shaklda, barglanishi o‘rtacha.
Simpodial shoxlanishli, cheklanmagan I - III tipda.

Poyasi – tik o‘sadigan, tuklangan, yashil. Balandligi 80-95sm .

Bargi – kattaligi o‘rtacha, panjasimon, yashil.

Guli – och sariq rangda, o‘rtacha kattalikda.

Ko‘sagi – tuxumsimon va tumshuqchali, yashil, usti silliq, gossipol dog‘lari bor. 4-5 ta tavaqali.

Tola chiqishi -36-38%.

Tola indeksi -6-7g.

Tola uzunligi -33-34mm.

1000 ta chigit vazni -105 -115g.

Bir ko‘sakdagi paxta og‘irligi -6-7g.

L-38 liniyasi. Bu liniyaning chigit to‘liq tuk bilan qoplangan, yaxshi rivojlangan oq tolaga ega.

Tupi – konussimon shaklda. Barg qoplami, simpodial shoxlari cheklanmagan II kenja tipli, 1-2 ta monopodial shoxlarga ega.

Poyasi –tik turuvchi, antotsian rangda. Asosiy poyaning bo‘yi 100-110 sm. Kuchsiz tuklangan.

Barglari –barg plastinkasi yirik, panjasimon bo‘linma shaklda, antotsian rangda. Barg nektardonlariga ega.

Guli – yirik, gultojbarglari antotsian rangda, gultojbarg asosida qizg‘ish dog‘ yo‘q. Gulyonbarglari yuraksimon shaklda.

Ko‘sagi – yirik, tuxumsimon, rangi antotsian, 4-5 chanoqli, ko‘saklarning yuzasi bilinar bilinmas g‘adir-budur. Ko‘saklari gossipol bezchalarsiz.

L-39 liniyasi. Bu liniya L-4110 x L-38 duragay populyasiyasidan o‘z-o‘zini changlash va tanlash yo‘li bilan olingan. Chigit tuklanishi OS tipda bo‘lib, oq qalin tolaga ega.

Tupi – piramidal shaklda, barglanishi o‘rtachadan past. Simpodial shoxlanishi cheklanmagan I-II tipda.

Poyasi - tik o‘sadigan, antotsianli. Tuklanishi kam. Bosh poyaning balandligi 110-120 sm.

Barglari – o‘rtacha kattalikdagi panjasimon shaklda antotsion rangli.

Guli – o‘rtacha kattalikda, antotsion rangli.

Ko‘sagi – tuxumsimon, antotsian rangli, usti silliq, 4-5 ta chanoqli.

Tola chiqimi 35-38%.

Tola indeksi 7.0-7.5 g.

Tola uzunligi 34-35 mm

1000 ta chigit og‘irligi 110-115 g.

Bir ko'sakdagi paxta og'irligi 6-7 g.

Liniya tupining kompaktligi va bosh poyasining to'g'riliqi, tezpisharligi, tola chiqishining yuqoriligi va vilt hamda zararkunandalarga chidamliligi bilan ajralib turadi.

L-12-1 liniyasi. Bu liniya S-4550 navini o'z-o'ziga changlantirish va tanlash yo'li bilan olingan. Liniya chigitining to'liq tuklanishli bo'lishligi (OS tipli) bilan xarakterlanadi. Tolasi oq.

Tupi-tor silindrsimon, o'rtacha barg qoplamiga ega. Hosil shoxi cheklangan, hs=6-7.

Poyasi-biroz og'gan, antotsian rangli. Asosiy poyanining balandligi 150-170 sm.

Bargi- panjasimon bo'linma shaklli, o'rtacha kattalikda, antotsian rangli, o'rtacha tuklangan.

Guli – antotsian rangli, o'rtacha kattalikda, gultojbargi 5 bo'lakli, asosida antotsian dog'i yo'q. Gulyonbargi 12-14 tishchali.

Ko'sagi – antotsian rangli, shakli tuxumsimon, sirti tukis, 4-5 chanoqli.

Signal belgilari bo'yicha: $ssin^{in^l}O_lO_lR_p r_p r_{st}^v r_{st}^v br^{Fr} br^{Fr}$

L-662 liniyasi. F₂ (L-12-1 x L-477) duragay populyasiyasi ichidan ko'p yillik o'z-o'zini changlantirish va tanlash yo'li bilan olingan.

Tupi - konussimon, o'rtacha qalinlikdagi barg qoplamiga ega.

Poyasi - tik turuvchi. Asosiy poyanining bo'yi 110-115 sm. Hosil shoxlari cheklangan, I-II tipli. 1-2 ta monopodial shoxlarga ega. To'q antotsian rangli, poyasi deyarli tuksiz.

Barglari-panjasimon-kesilgan, mayda, markaziy bo'lagi lentasimon shaklda, to'q antotsian rangga ega, 2-4 qo'shimcha yon bo'lakchalarga ega. Bargning orqa tomonida barg tomirlarida rang kuchli rivojlangan.

Guli - to'q antotsian rangda, gultoj barglar asosi kulrangda bo'lib, antotsian dog'i yo'q. Shonasi to'q antotsian rangda. Urug'ching tumshuqchasi changchilar ustunchasidan chiqib turadi. Gulyon barglari rangli, yuraksimon shaklda, 9-11 tishchali. Changlari och sariq.

Ko'sagi - tuxumsimon, uchi o'tmas, antotsian rangda, 4-5 chanoqli, gossipol bezchalarga ega.

Signal belgilari bo'yicha genotip: $in^{in^l}O_lO_l ssRpRpR_{st}^v R_{st}^v p_ip_1 br^{Fr} br^{Fr}$

L-670 liniyasi. Bu liniya L-476 x L-475 kombinatsiyasining F₂ populyasiyasi ichidan o'z-o'zidan changlantirish va ko'p yillik tanlash yo'li bilan To'rabelev Sh tomonidan chiqarilgan. Chigiti to'liq tuk bilan qoplangan va tolaga egaligi bilan tavsiflanadi.

Tupi - konussimon, o'rtacha barg qoplamiga ega. Hosil shoxlari cheklanmagan, II-III kenja tipli. Monopodial shoxlari 1-2 ta.

Poyasi - tik turuvchi, kuchsiz tuklangan, yashil. Asosiy poyanining bo'yi 100-110 sm.

Barglari - o'rtacha kattalikda, barg plastinkasining shakli panjasimon-bo'linma. Rangi yashil. Barg nektardonlari bor.

Guli - o'rtacha kattalikda. Gultojibarglari to'q sariq. Gultojibarglar asosida qizg'ish dog'i bor. Gulyonbarglarining shakli yuraksimon, tishchali. Changlarning rangi to'q sariq.

Ko'sagi - tuxumsimon, 4-5 chanoqli, ko'sagining yuzasi silliq, rangi yashil, tolasi oq.

Tola chiqishi 35-36 %., 1 ta ko'sakning og'irligi 5-6 g., tola indeksi 5-5,5 g., 1000 ta chigit massasi 100-105 g.

L-481 liniyasi. Bu liniya O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutining kolleksion namunasini ko'p yillik o'z-o'zidan changlantirish va tanlash yo'li bilan Sh.To'rabekov tomonidan chiqarilgan.

Turi - piramidal shaklda, qalin barg qoplamiga ega.

Poyasi-erektoidli, o'rtacha tuklanishga ega. Simpodial shoxlari cheklanmagan II kenja tipli. 1-2 ta monopodial shoxlarga ega. Asosiy poyaning bo'yisi 80-90 sm.

Barglari-yirik, panjasimon-bo'linma shaklda. Barg bandlari uzun. Barglari sarg'ish-yashil rangda. Kuzga borib sarg'ish rang beruvchi pigmentning faoliyati sustlashib qoladi. Barg nektardonlarga ega.

Guli - o'rtacha kattalikda, gultojibarglari och-sarg'ish, asosida qizg'ish dog'i yo'q. Gulyonbarglari-yuraksimon shaklda, 8-11 tishchali.

Ko'sagi - tuxumsimon shaklda, 4-5 chanoqli. Ko'saklarining yuzasi silliq, yashil rangda. Tolasi to'q qo'ng'ir rangda.

L-77 liniyasi. Bu liniya L-77 x L-40 kombinatsiyasining F₂ populyasiyasi ichidan ko'p yillik o'z-o'zini changlantirish va tanlash yo'li bilan Sh.To'rabekov tomonidan chiqarilgan.

Tupi - konussimon, o'rtacha qalinlikdagi barg qoplamiga ega.

Poyasi - tik turuvchi, kuchsiz tuklangan, poyaning quyoshga qaragan tomoni qizg'ish rangda. Hosil shoxlari cheklanmagan II -III kenja tipli, monopodial shoxlari 2-3 ta. Asosiy poyaning bo'yisi 90-100 sm.

Barglari - o'rtacha kattalikda, barg plastinkasi panjasimon bo'linma. Rangi och yashil, kuchsiz tuklangan. Barg nektardonlariga ega.

Guli - o'rtacha kattalikda. Gultojibarglar kulrang tusda. Gultojibarglar asosida qizg'ish dog'i yo'q. Gulyonbarglari – yuraksimon shaklda, 10-12 ta tishchalarga ega. Changlari kulrang tusda.

Ko'sagi - tuxumsimon, uchli. Ko'sagining yuzasi tekis, 4-5 chanoqli, rangi yashil.

Vegetatsiya davri 135-140 kun. 1 ta ko'sakning og'irligi 2-3 g.

L-70 liniyasi. Bu liniya O'simlikshunoslik institutidan olingan L-720 namunasidan ko'p yil davomida o'z-o'ziga changlatish va tanlash yo'li bilan yaratilgan.

Tupi- keng piramidal shaklida bo'lib, o'rtacha bo'yili, asosiy poya uzunligi 100-110sm., II-III shoxlanish tipiga ega, cheklanmagan hosil shoxli.

Bargi - oddiy, besh bo'lakli. Barg bo'laklarining shakillari gumbazsimon. Barg hajmi o'rtacha kattalikda. Rangi ochroq yashil.

Gullari - o'rtacha kattalikda, gul tojibarglari-och sariq, gulyon barglari uncha yirik emas, tishchalari ingichka va mayda.

Ko'saklari - tuxumsimon, mayda (2,5-3gr) asosan 5 chanoqli. Ko'sak ochilganda urug'lari bir-biriga qattiq yopishgan, tuksiz-tolasiz chigitlari 2-3 kundan keyin to'kilib ketadi.

Chigitlari mayda (1000 chigit og'irligi 80-90g.). Yuqorida aytilgandek tuksiz-tolasiz, ya'ni yalong'och.

Signal belgilari bo'yicha genotipi $SS\ in^l in^l O_l O_p r_p r^v_{st} r^v_{st} br^{Li} br^{Li}$

Urug'larning tuklanish bo'yicha genotipi $II f_{t1} f_{t1} f_{t2} f_{t2} f_c f_c$

L-73 liniyasi - L- 72 x L- 13 duragay populyasiyalari ichidan o'z-o'ziga changlantirish va tanlash yo'li bilan olingan. Chigiti tuksiz bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Tupi - konussimon shaklda, o'rtacha barg qoplamiga ega. Hosil shoxi cheklanmagan, II-III tipli, hs=7-8.

Poyasi - yotib qolmaydigan, yashil, kuchsiz tuklangan. Asosiy poyaning balandligi 90-100 sm.

Bargi - o'rtacha kattalikda, yashil, bargi panjasimon kesilgan. Bargining asosiy bo'lagi lansetsimon shaklda., 2-4 ta qo'shimcha bargchalarga ega.

Guli - gultojbargi och sariq, gul toj bargaining asosida antotsian dog'i yo'q. Gulyonbargi yuraksimon shaklda, 12-14 ta tishchali.

Ko'sagi - tuxumsimon, yashil rangli, 4-5 chanoqli.

Signal belgilari bo'yicha genotipi: $in^l in^l O_l O_p SSrprpr_{st} r_{st}$

Urug' tuklanishi bo'yicha genotipi - $IIF_{t1} F_{t1} F_{t2} F_{t2} F_c F_c$

L-15 liniyasi. Bu liniya 153-F sortidan o'z-o'zini changlash va tanlash yo'llari bilan olingan. Urug'larining tuklari normal mikropilyar (n-ms) tipda. Tolasi oq.

Tupi - siqilgan (qisqa), tor konussimon shakilda. Barglanish o'rtachadan yuqori, cheklanmagan. I-II tipdagи simpodial shoxlar, hs=6-7.

Poyasi - tik o'sadigan, och yashil, quyoshli tomondan ozgina antotsian dog'lari bor. Poya tuklanishi o'rtacha, bosh poyasining balandligi 100-140 sm.

Barglari - yirik, ko'kimtir yashil rangda, tuklanishi o'rtacha, panjasimon shakilda , bosh pallacha gumbazsimon.

Guli - o'rtacha kattalikda, gulbarglari och sariq rangda, asosida antotsian dog'lari yo'q, changdonlari och sariq. Onalik tumshuqchasi ko'p hollarda, changchi kolonkasi ustidan chiqib turadi.

Ko'sagi - o'tkir tumshuqchali , tuxumsimon, usti mayda chuqurchali, 4-5 chanoqli.

Signal belgilari bo'yicha; $in^l in^l O_l O_p SSrprpr_{st} r_{st}$

Chigit tuklanisha bo'yicha; $iiF_{t1} F_{t1} F_{t2} F_{t2} fcf_c$

L-101 liniyasi. Bu liniya F₃L-12 x L-70 avlodida o'z-o'zini changlash va tanlash yo'li bilan olingan. Urug'lari yalong'och, ammo juda kam tolali.

Tupi – kompakt, tor piramidal, barglanishi o‘rtacha, cheklangan. Simpodial shohlanishi I tipda. Monopodial shoxlari 1-2 ta, hs-7.

Poyasi – tik o‘sadigan, yashil, kam tuklangan. Bosh poyaning balandligi 110-115 sm.

Barglari – o‘rtacha kattalikdagi, panjasimon shaklida, chetlari to‘lqinsimon qayrilgan. Bosh pallacha gumbazsimon shaklida.

Guli – och sariq, gul bargi asosida antotsian dog‘i yo‘q.

Ko‘sagi – sharsimon usti silliq, 4-5ta chanoqli.

Tola chiqimi – 31-33 %.

1000 ta chigit og‘irligi – 85-90 g.

Signal belgilari bo‘yicha genotipi: $IIf_1f_1f_2f_2fcfc$

L- 304 liniyasi. Bu liniya F_3L-70 va L-500 avlodida o‘z-o‘zini changlash va tanlash yo‘li bilan olingan. Urug‘ tuklari mikropilyar m-MS tipda va qalin oq tolali.

Tupi- konussimon shoh otib ketadigan, barglari bilan qoplanishi o‘rtacha, simpodial shoxlari cheklanmagan II va III tipdagи.

Poyasi – tik o‘sadigan, yashil, salgina antotsian dog‘li tukli. Bosh poyasining balandligi 75-80 sm.

Barglari – panjasimon, yashil, kam tukli, o‘rtacha kattalikda.

Guli – och sariq, gultojbarglari 5ta. Ostki gulkosachasi 12-13 tishchali va 0,2-0,4 mm.ga chiqib turadi.

Ko‘sagi - tuxumsimon 4-5 tavaqali, yashil, sal o‘tkir tumshuqchali, usti silliq.

Signal belgilari bo‘yicha genotipi: $Sin^lin^lo^l o^l r_p r_{st}^v r_{st}^v br^{Li} br^{Li}$

Urug‘ tuklanishi bo‘yicha: $iiF_{t1}F_{t1}f_{t2}f_{t2}ff_c$

L-305 liniyasi. Bu liniya ham F_3 L-70 x L-500 avlodida o‘z-o‘zini changlash va tanlash yo‘li bilan olingan. Urug‘ tuklari mikropilyar m-MS tipda va qalin oq tolali.

Tupi – silindrsimon, tarvaqaylagan va barglanishi o‘rtacha, simpodial shoxlari cheksiz I-II tipda.

Poyasi - tik o‘sadigan, yashil, ozgina antotsian dog‘lari bor. Bosh poyasining balandligi 75-80 sm.

Barglari - o‘rtacha kattalikda, panjasimon, yashil, tuklanishi kam.

Guli – och sariq, o‘rtacha kattalikda, tojbarglarning soni 5, ostki gulkosachasi 12-13 tishchali.

Ko‘sagi- tuxumsimon, 4-5 chanoqli, yashil, usti silliq.

Signal belgilari bo‘yicha genotipi: $SSin^lin^lo^l o^l r_p r_{st}^v r_{st}^v br^{Li} br^{Li}$

Chigitning tuklanishi bo‘yicha; $iiF_{t1}F_{t1}f_{t2}f_{t2}ff_c$

L-306 liniyasi. Bu liniya ham F_3 L-70 x L-500 avlodida o‘z-o‘zini changlash va tanlash yo‘li bilan olingan. Urug‘ tuklari mikropilyar m-MS tipda va qalin oq tolali.

Tupi –konussimon, barglanishi o‘rtacha, simpodial shoxlari I tipda.

Poyasi - tik o'sadigan, yashil, ozgina antotsian dog'lari bor. Bosh poyasining balandligi 100-105 sm.

Barglari - panjasimon, yashil, tuklanishi kam.

Guli – och sariq, o'rtacha kattalikda, ostki gulkosachaning og'izchasi 12-13 tishchali.

Ko'sagi- tuxumsimon, 4-5 chanoqli, yashil, usti silliq.

Bitta ko'sak og'irligi-4,5-5,5g.

1000 chigit og'irligi 4.5 - 5.5 g.

Tola chiqimi 15-16%, tola indeksi 2-3%.

Signal belgilari bo'yicha genotipi: $iif_1f_1f_{12}f_{12}ff_c$

L-500 liniyasi. Bu liniya Co^{60} gamma nurlari bilan indutsirlangan L-72 x L-47 duragaylarini o'z-o'zini changlash va tanlash yo'li bilan olingan. Urug' mikropilyar zonasida "qalpoqcha" shaklidagi tuklarning mavjudligi va butun yuzasi bo'yicha qalin tolasi borligi bilan ta'riflanadi.

Tupi - shox otib ketadigan, keng piramida shaklida, simpodil shoxlar III-IV-tipda.

Poyasi - sal yotib o'sadigan. Yashil, quyosh tomonidan sal antotsian dog'lari bor, kam tuklangan. Bosh poyasining balandligi 80-85 sm., hs-7.

Barglari - o'rtacha kattalikda, kam tuklangan, panjasimon shaklida, chetlari salgina ichki tomonga qayrilgan. Bosh pallacha gumbazsimon shaklida.

Guli - o'rtacha kattalikda, yaxshi ochiladi. Gulbarg va changdonlari och sariq rangda. Onalik tumshuqchasi changchi kolonkasidan 3-4 mm.ga chiqib turadi.

Ko'sagi - kichkina tumtoq tumshuqchali tuxumsimon shaklida, usti silliq, 5 chanoqli.

Signal belgilari bo'yicha genotipi: $SSin^l in^l o_l o_l r_p r_p r^v_{st} r^v_{st} br^{Li} br^{Li}$

L-525 liniyasi L-459 x L-501 duragay populyasiyalari ichidan o'z-o'ziga changlantirish va tanlash yo'li bilan olingan. Tolasi oq.

Tupi - kolonkasimon (tor silindrsimon) shaklli, karlik (past bo'yli), Hosil shoxlari cheklanmagan, I tip, 1-2 ta o'suv shoxlarga ega.

Poyasi - yashil, yotib qolmaydigan, o'rtacha tuklangan. Asosiy poyaning balandligi 50-60 sm.

Bargi- yashil, yaxlit, (lansetniksimon), kuchsiz tuklangan.

Guli - o'rtacha kattalikda, gultojbarg va changlari och chariq, gultojbarglari asosida antotsian dog'i yo'q. Onalik tumshuqchasi ko'p hollarda changchi kolonkasi ustidan chiqib turadi. Gulyonbargi yuraksimon, 3-4 tishchali.

Ko'sagi - yumoloq, o'tmas uchli, yulduzchali, yashil, gossipol bezchali, 5 chanoqli, sirti tekis.

Signal belgilari bo'yicha genotipi: $In^l ln^l O^s_l O^s_l SSrprpr^v_{st} r^v_{st} p_1 p_1 yy r_1 r_1 br^{Fr} br^{Fr}$

L-501-liniyasi. Bu liniya spontan mutant Az-50 navidan changlantirish va tanlash yo'li bilan olingan. Tolasi oq.

Tupi - kolonkasimon shaklda, karlik (past bo‘yli). Gullashdan oldin_ o‘suv nuqtasingin fassiatasiyasi tufayli 2-3 ta hosil shox bilan tugallanib, past bo‘yli bo‘ladi. Hosil shoxi cheklanmagan I-II tip. O‘suv shoxi 1-2 ta.

Poyasi - yashil, yotib qolmaydigan, o‘rtacha tuklangan. Asosiy poyaning balandligi 50-60 sm.

Bargi - mayda, yashil rangli, yaxlit (yumoloq), kuchsiz tuklangan.

Guli - o‘rtacha kattalikda, och sariq rangli, gultojbarg asosida antotsian dog‘i yo‘q, chang rangi och sariq. Onalik tumshuqchasi ko‘p hollarda, changchi kolonkasi ustidan chiqib turadi. Gulyonbargi yuraksimon 3-4 tishchali.

Ko‘sagi- yumoloq, uchi to‘mtoq, yuldizchali, yashil rangli, gossipol bezchaga ega, 4-5 chanoqli, ko‘sak sirti tekis.

Signal belgilari bo‘yicha genotipi: $In^lIn^lO_1O_1SSrprpr^v_{st}r^v_{st}p_1p_1yyr_2r_2br^{Fr}br^{Fr}$

L-803 liniyasi. Bu liniya M_3F_3 L-525 x L-29 kombinatsiyasining eksperimental mutagenez yo‘li bilan olingan. Chigit to‘liq tuklangan (OS), tolasi oq rangda;

Tupi - konussimon shaklda, barglanishi o‘rtacha. Simpodial shoxlari cheklanmagan II tipda, hs 6-7;

Poyasi – tik o‘sadigan, antotsian ranglanishda, o‘rtacha tuklangan, bosh poya balandligi 95-105 sm.;

Bargi - o‘rtacha kattalikda, antotsian ranglanishda, kam tuklangan, tuxumsimon shaklda;

Guli - o‘rtacha kattalikda, antotsian ranglanishda, chang rangi och sariq;

Ko‘sagi – tuxumsimon, tumtoq tumshuqchali, 4-5 chanoqli, yuzasi silliq;

Tola chiqishi - 33,0 - 34,0%

Tola indeksi - 4,5 - 5,0 g.

Bitta ko‘sak og‘irligi-3,0 - 4,0 g.

1000 chigit og‘irligi 95,0 - 100,0 g.

Signal belgilari bo‘yicha genotipi: $in^lin^lO_1O_1SSRpRpr_{st}r_{st}br^{li}br^{li}$

Urug‘ tuklanishi bo‘yicha genotipi; $iiF_{t1}F_{t1}F_{t2}F_{t2}F_cF_c$

Urug‘lari butun yuzasi bo‘ylab teng taqsimlangan tuklarga ega. (OS-tip).

L-477 liniyasi -SAFNII Rning №389103 raqamli kolleksion materiali namunasidan ko‘p yillik o‘z-o‘zini changlantirish va tanlash yo‘li bilan chiqarilgan.

Tupi - konussimon, o‘rtacha qalinlikdagi barg qoplamiga ega.

Poyasi - tik turuvchi. Bosh poyaning bo‘yi 100-110 sm. Hosil shoxlari cheklanmagan II-III tipli. 1-2 ta monopodial shoxlarga ega. Antotsian o‘simlikning poya va barg tomirlari, gulida intensiv ravishda tarqalgan.

Barglari-panjasimon-kesik, mayda, markaziy bo‘lagi lentasimon shaklda, antotsian rangga ega, kuchsiz tuklangan, barg nektardonlari yo‘q.

Guli - o‘rtacha kattalikda, antotsian rangda, gultoj barglar asosida antotsian dog‘i yo‘q. Shonasi to‘q antotsian rangda. Urug‘ching tumshuqchasi changchilar ustunchasidan chiqib turadi. Gulyon barglari ingichka (frego), 8-10 tishchali. Tashqi gul nektardonlari yo‘q.

Ko'sagi - tuxumsimon cho'zinchoq, ko'sakning yuzasi silliq, 4-5 chanoqli, mayda bezchalarga ega, antotsian rangda.

Tola chiqimi – 38,0-39,0 %

Tola indeksi – 4,5-5,5 g.

1000 ta chigitning massasi 75,0-80,0 g.

L-479 liniyasi - SAFNIIRning №390543 raqamli kolleksion materiali namunasidan ko'p yillik o'z-o'zini changlantirish va tanlash yo'li bilan ajratilgan.

Tupi - konussimon, o'rtacha qalinlikdagi barg qoplamiga ega.

Poyasi - tik turuvchi. Och-yashil rangda, siyrak tuklanishli. Bosh poyaning bo'yi 80-90 sm. Hosil shoxlari cheklanmagan I-II tipi. 1-2 ta monopodial shoxlarga ega. Poyada gossipol bezchalari yo'q.

Barglari-yirik, panjasimon bo'lakli (oddiy), barg bandlari uzun, och-yashil rangda, kuchsiz tuklangan. Barglarida gossipol bezchalari yo'q.

Guli - yirik, gultoj barglari och sariq rangda, gultoj barglar asosida antotsian dog'i yo'q. Gulyon barglari yirik, 12-13 tishchali.

Ko'sagi – yirik, tuxumsimon, ko'sakning yuzasi silliq, 4-5 chanoqli, gossipol bezchalarsiz, och-yashil rangda.

Tola chiqimi – 35-36 %

Tola indeksi – 8-9 g.

1000 ta chigitning massasi 150-160 g.

L-490 liniyasi. Bu liniya L-459 x L-650 duragay populyasiyalaridan o'z-o'ziga changlantirish va tanlash yo'li bilan olingan. Tolasi oq, chigitining to'liq tuklanishli (OS tip) bo'lishligi bilan xarakterlanadi.

Tupi – kompakt holatda, tor piramida shaklida, o'rtacha barg qoplamiga ega. Hosil shoxi cheklangan, hs=5-6.

Poyasi – yotib qolmaydigan, yashil, kuchsiz tuklangan. Asosiy poyaning balandligi 60 -75 sm.

Bargi – panjasimon kesik, yashil, kuchsiz tuklangan. Asosiy bo'lagi lansetsimon, 1-2 ta qo'shimcha bargchalariga ega.

Guli – o'rtacha kattalikda, gultojibargi och sariq, asosida antotsian dog'i yo'q. CHangrangi och sariq. Onalik tumshuqchasi ko'p hollarda, changchi kolonkasi ustidan chiqib turadi.Gulyonbargi yuraksimon, 8-10 tishchali.

Ko'sagi – tuxumsimon, sirti tekis, 4-5 chanoqli.

Signal belgilari bo'yicha; $in^lin^lO_lO_{ls}ssrprpr_{st}r_{st}br^{Fr}br^{Fr}$

Chigit tuklanisha bo'yicha; $iiF_{t1}F_{t1}F_{t2}F_{t2}F_cF_c$

L-16 liniyasi – Bu liniya S-1622 navi populyasiyasi ichida ko'p yillik o'z-o'ziga changlantirish va tanlash yo'li bilan olingan. Liniya chigit to'liq (OS tip) tuklanishli, tolasi oq.

Tupi- keng pramida shaklida, yashil rangli, o'rtacha barg qoplamiga ega. Hosil shoxi cheklanmagan, II tip. 1-2 ta o'suv shoxiga ega, hs=6-7.

Poyasi- yashil ammo quyoshga qaragan tomoni antotsian ragli,o'rtacha tuklangan, yotib qolmaydigan. Asosiy poyaning balandligi 80-90 sm.

Bargi-yashil, kuchsiz tuuklangan, shakli panjasimon bo'linma, o'rtacha kattalikda.

Guli-katta, och sariq rangli, asosida antotsian dog'i yo'q. Gulyonbargi yuraksimon shaklli, 8-10 tishchali. Onalik tumshuqchasi ko'p hollarda, changchi kolonkasi ustidan chiqib turadi.

Ko'sagi – yashil, tuxumsimon shaklli, sirtida kichik chuqurchalar bor, 5 chanoqli.

Tola chiqishi – 36,0-37,0%

Tola indeksi – 6,0-7,0 g.

Tola uzunligi – 32-33 mm.

1000 ta chigit og'irligi- 120,0-130,0 g.

Bitta ko'sakdag'i paxta vazni – 6,5-7,0 g.

Signal belgilari bo'yicha genotipi: $SSin^l in^l o_l o_l r_p r_p r_{st}^v r_{st}^v br^{Fr} br^{Fr}$

Chigitining tuklanishi bo'yicha genotipi: $iiF_{t1}F_{t1}F_{t2}F_{t2}F_cF_c$

L-463 liniyasi – Bu liniya Akstafa – 43 navini o'z-o'ziga changlantirish va tanlash yo'li bilan olingan. Tolasi oq, chigit to'liq (OS tipli) tuklanishli.

Tupi - konussimon, o'rtacha barg qoplamiga ega. Hosil shoxi cheklanmagan I-II tipli.

Poyasi - tik o'suvchi, yashil, poyasining quyoshga qaragan tomoni antotsian rangli. Asosiy poyaning balandligi 80-90 sm., hs=6-7.

Bargi - yashil, o'rtacha kattalikda, shakli panjasimon bo'linma, o'rtacha tuklangan.

Guli - o'rtacha kattalikda, och sariq rangli, gultojbarg asosida antotsian dog'i yo'q. Gulyonbargi 8-9 tishchali.

Ko'sagi - yashil, shakli tuxumsimon, yashil, tuxumsimon shaklda. Sirti tekis, 4-5 chanoqli.

Tola chiqishi – 32,0-34,0 %.

Tola indeksi – 3,25-4,75 g.

1000 ta chigit og'irligi – 102,0-106,0 g.

Bitta ko'sakdag'i paxta vazni – 3,0-5,0 g.

Signal belgilari bo'yicha genotipi: $SSin^l in^l o_l o_l r_p r_p r_{st}^v r_{st}^v br^{Fr} br^{Fr}$

Chigit tuklanishi bo'yicha genotipi: $iiF_{t1}F_{t1}F_{t2}F_{t2}F_cF_c$

L-607 liniyasi. Bu liniya L-606 x L-467 duragay populyasiyalaridan o'z - o'zini changlash va tanlash yo'li bilan oppoq tolaga ega.

Tupi – piramidal shaklli, barglanishi o'rtacha.

Shoxlanishi simpodial cheklanmagan I tipda.

Poyasi - tik o'suvchi yashil. O'rtacha tuklangan. Poyasining balandligi 80-90 sm.

Barglari - o'rtacha kattalikdagi, panjasimon, yashil, o'rtacha tuklangan.

Guli - och sariq rangli, o'rtacha kattalikda, antotsian dog'siz.

Ko'sagi - tuxumsimon, yashil, ubti silliq 4-5 tavaqali.

Tola chiqishi -41-42%.

Tola indeksi -7,0-7,5g.

Tola uzunligi -34-35mm.

1000 ta chigit og'irligi -100-115g.

Bir ko'sakdagi paxta og'irligi -6-7g.

Solishtirma uzilish kuchi - 31 - 33 gk\teks.

Mikroneyr ko'rsatkichi – 4,1 – 4,2

L-482 liniyasi. O'zbekiston G'o'za seleksiyasi va urug'chiligi ilmiytadqiqot instituti G'o'za kolleksiyasidan olingen namunani o'z-o'zidan changlantirish va ko'p yillik tanlash orqali chiqarilgan. L-482 o'simliklarining chigit to'liq tuk (OS) bilan qoplangan, tolsi oq.

L-482 liniya o'simliklarining chigit tuk bilan qoplangan, nisbatan o'rtacha tola qoplamiga ega. Bu laniyaning xarakterli hususiyati poyaning qalin tuk bilan qoplanganligidir.

Tipi - konussimon, bargqoplamio'rtacha – qalinlikda.

Poyasi - tik turuyachi, yashil rangda, kuchli tuklangan, hosil shoxi cheklanmagan. 2 tipli, 1-2 tadan monopodial shoxlariga ega. Asosi poyaning bo'yi 100 – 110 sm.

Barglari - o'rtacha kattalikda, panjasimon bo'linma, barglarining rangi yashil, barglari ham kuchli tuklangan, barg nektar donlariga ega.

Guli - o'rtacha kattalikda, gultojibarglari och - sariq rangda, ularning asosida qizg'ish (antatsion) dog'i yo'q. Gulyonbargi yuraksimon shaklda, tishchalarining soni 8 – 10 ta.

Ko'sagi - tuxumsimon shaklda, rangi yashil, ko'sagining yuzasi bilinar bilinmas g'adir - budir, 4 – 5 chanoqli.

L-489 liniyasi. Bu liniya AN-402 x L-472 duragay avlodlaridan tanlab olingen liniyali mutant namunasi.

Tupi - piramida shaklida, barglanishi o'rtacha, simpodial shohlari I-II tipda, cheklanmagan.

Poyasi - tik o'sadigan, och yashil, tuklanishi o'rtacha.

Ko'sagi - tuxumsimon, tumtoq tumshuqchali, 5-tavaqali, ko'sakdagi paxta xomashyosining og'irligi 7-8 g.

Urug'lari butun yuzasi bo'y lab teng taqsimlangan tuklariga ega.(OS-tip).

1000 chigit og'irligi 130-140 g.

L-489 o'ziga xos xususiyati tola chiqimi va indeks ko'rsatkichlarining yuqoriligidir: tola chiqimi 41-43%, tola indeksi 8-9 g.

Signal belgilari bo'yicha genotipi: $iiF_{t1}F_{t1}F_{t2}F_{t2}F_cF_c$

L-3 liniyasi - SAFNIIR №05231 kolleksion namunalaridan o'z-o'ziga changlantirish va tanlash yo'li bilan olingen.

Tupi – torpiramidasimon, o'rtacha barg qoplamiga ega, hosil shoxi cheklangan (ss).

Poyasi- antotsian rangli, o'rtacha tuklangan. Asosiy poyaning balandligi 150-155 sm.

Bargi- o'rtacha kattalikda, panjasimon kesilgan shaklli, antotsian rangli, bargning asosiy bo'lagi lansetniksimon shaklli.

Guli - o'rtacha kattalikda, gultojbargi och qizg'ish rangli, gulyonbargi 12-13 tishchali.

Ko'sagi- tuxumsimon ko'rinishda, uzunchoq uchli, sirti tekis, 4-5 chanoqli. Signal belgilari bo'yicha genotipi: $in^l in^l O_l O_l ss R_p R_p r^v_{st} r^v_{st} p_1 p_1 yy r_1 r_1 Br^{Fr} Br^{Fr}$

L-4110 liniyasi- Genetika va o'simliklar eksperimental biologiya institutida SL-296 x AN-14 duragay kombinatsiyasining ichidan o'z-o'ziga changlantirish va tanlash yo'li bilan olingan. Bu liniya chigitining to'liq tuklanishli va tolasining dag'alligi bilan xarakterlanadi. Tolasi oq.

Tupi - konussimon shaklda, o'rtacha barg qoplamiga ega. Hosil shoxi cheklanmagan, II-II tipi, hs=5-6.

Poyasi - yotib qolmaydigan, yashil, kuchsiz tuklangan. Asosiy poyaning balandligi 90-95 sm.

Bargi - o'rtacha kattalikda, och yashil, bargi panjasimon bo'linma shaklda. O'rtacha tuklangan

Guli – o'rtacha kattalikda, To'q sariq, gul toj bargining asosida antotsian dog'i yo'q. Chang rangi to'q sariq. Onalik tumshuqchasi changchi kolonkasi ustidan chiqib turadi. Gulyonbargi yuraksimon shaklda, 8-10 ta tishchali.

Ko'sagi – konussimon, sirti tekis, 4-5 chanoqli.

Signal belgilari bo'yicha genotipi: $in^l in^l o_l o_l SS r_p r_p r^v_{st} r^v_{st} br^{Fr} br^{Fr}$

Urug' tuklanishi bo'yicha genotipi - $ii F_{t1} F_{t1} F_{t2} F_{t2} F_c F_c$

Tola chiqishi – 37,0-39,0%

Tola indeksi – 6,0-6,5 g.

1000 ta chigit og'irligi – 115,0-125,0 g.

Bitta ko'sakdag'i paxta og'irligi – 5,0-6,5 g.

Tola uzunligi – 31-32 mm.

L-40 liniyasi - S-4018 navidan o'z-o'ziga changlantirish va tanlash yo'li bilan ajratib olingan. CHigit to'liq tuklanishli (OS tipi). Tolasi oq.

Tupi – piramida shaklda, barg qoplami kam. Hosil shoxi cheklanmagan tipi, 2-3 ta o'suv shoxlariga ega. hs=6-7.

Poyasi - yotib qolmaydigan, yashil rangli, kuchsiz tuklangan. Asosiy poyaning balandligi 90-100 sm.

Bargi- panjasimon bo'linma shaklli, kuchsiz tuklangan.

Guli – katta emas, gul toj bargi och sariq, asosida antotsian dog'i yo'q. Gulyonbargi yuraksimon, 10- 12 tishchali.

Ko'sagi – tuxumsimon shaklda, yashil rangli, 4-5 chanoqli.

Signal belgilari bo'yicha genotipi: $SS in^l in^l o_l o_l r_p r_p r^v_{st} r^v_{st} br^{Fr} br^{Fr}$

L-47 liniyasi - S-4727 navidan o'z-o'ziga changlantirish va tanlash yo'li bilan olingan. Bu liniya chigitining to'liq tuklanishli (OS tipi) bo'lishi bilan xarakterlanadi. Tolasi oq.

Tupi – konussimon shaklli, yashil rangda, kam barg qoplamiga ega. Simpodialnlie vetvi nepredelnogo Hosil shoxi cheklanmagan, I tipi, hs=6.

Poyasi – yashil rangli, quyoshga qaragan tomoni antotsian rangli, tipi yotib qolmaydi. Asosiy poyaning balandligi 70-90 sm.

Bargi- yashil, o'rtacha barg qoplamiga ega, panjasimon bo'linma shaklli, o'rtacha kattalikda. Bargining asosiy bo'lagi gumbazsimon shaklda.

Guli – och sariq rangli, o'rtacha kattalikda, gul toj barglari asosida antotsian dog'i yo'q, onalik tumshuqchasi changchi kolonkasi ustidan chiqib turadi. Gulyonbargi 3 ta yuraksimon shaklda, 13-14 ta tishchali.

Ko'sagi – yashil rangda, yumoloq, sirti tekis, 5 sanoqli.

Signal belgilari bo'yicha genotipi: $SSin^l in^l O_l O_l r_p r_p r_{st}^v r_{st}^v br^{Fr} br^{Fr}$

Urug' tuklanishi bo'yicha genotipi - $iiF_{t1}F_{t1}F_{t2}F_{t2}F_cF_c$

Tola chiqishi – 36-38%.

Tola indeksi – 6,00-7,00 g.

1000 ta chigit og'irligi – 120,0-124,0 g.

Bitta ko'sakdagi paxta og'irligi – 6,00-7,00 g.

Ilmiy tadqiqotlarda genlarning maxsus ramz (simvol) laridan foydalanilgan:

S-s, S- simpodia (hosil shoxi);

O_l-o_l-okra leaf (kesik barg);

In^l- in^l-integri leaf (yaxlit barg);

Br^{li} br^{li}, *Br^{li}* –brown lint (qo'ng'ir tola);

Rp- rp - Rp -red (antocian) plant – antotsian rangli o'simliklar;

R_{st}^v - r_{st}^v (poya va barg tomirlari qizil rangli);

Y_I- y_I - Y-yellow petals (sariq rangli gultojbarglar);

P_I- p_I - P-pollen color (chang donachalari sariq rangli);

R₂- r₂ -R-red petal spot (gultojbarglari asosidagi antotsian dog'lar).

I_i; Ft₁_ft₁; Ft₂_ft₂; F_c_f_c – chigit tuklanishini ta'minlovsi genlar majmuasi

OS-chigit tuliq tuk bilan qoplangan (опущенный семян)

PS - chigit kalsimon tuklanishli (плишистое семян)

MS- chigitning mikropilyar qismida tuklanish namoyon bo'ladi (микропилярное семян)

GS- chigit tuksiz (голая семян)

Endi g'o'za morfologik belgilarining irsiylanishi ustida to'xtalib o'taliz.

3.2.Hosil shoxlarining irsiylanishi.

G'o'zaning hosil-simpodial shoxlarining tip va kenja tiplari qiimatli-xo'jalik belgilariga kiradi, shu sababli g'o'za simpodial shoxlari tipining irsiylanishi va rivojlanishining qonuniyatlarini o'rganish katta ahamiyatga ega. Shu nuqtay nazardan bu belgining genetikasi qator tadqiqotchilar (Kearney, 1930; Kokuev, 1933; Harland, 1939; Avtonomov, 1948 va boshq.; Maksimenko 1958; Dadabaev, Simongulyan, 1960; Simongulyan, Arutyunova, 1968 va boshqalar) tomonidan o'rganilgan. Ularning dalillariga ko'ra *G.hirsutum L.* ga mansub g'o'zalari simpodial shoxlarining asosiy tiplari (cheklanmagan-cheklangan) bir gen tomonidan boshqarilishligi, shuningdek cheklanmagan shoxlanishning to'liq dominantlik qilishligi ko'rsatilgan.

F.Sagdullaev (1971), K.N.Kurtgeldiev (1971) ingichka tolali g‘o‘za navlarida shoxlanish tiplarining irsiylanishini o‘rganib shunday xulosaga keldilar: simpodial va nullinchi tipli navlarni o‘zaro chatishtirilganda F_2 da 3:1 nisbatda (simplodial: nullinchi) ajralishni kuzatganlar hamda shoxlanish tipi retsissiv belgi ekanligini ko‘rsatadilar. Turlararo chatishtirishda simpodial shoxlanishning cheklangan tipi shoxlanishining nullinchi tipi ustidan dominantlar qilib bir gen tomonidan boshqariladi (Uzaqov Yu., Kim 1981). Ayrim mualliflar (D.V.Ter-Avanesyan, 1973; Yu.F.Uzaqov, 1991 allotetraploidli g‘o‘za turlarida) simpodial shoxlanish tip va kenja tiplarining irsiylanishida noallel genlar o‘zaro ta’sirining komplementar va polimeriya tiplari yotadi degan fikrni bildiradilar.

G‘o‘za genetikasi laboratoriyasida o‘tkazilgan ko‘p yillik tadqiqotlar natijalari ham hosil shoxining asosiy tiplari to‘liq dominantlik qilish holatida monogen irsiylanishini ko‘rsatadi. L-47 va L-3, L-477 va L-110 liniyalarini o‘zaro chatishtirilishidan olingan g‘o‘za duragay o‘simliklarida hosil shoxining irsiylanishi o‘rganilgan. L-47 va L-477 liniyalari cheklanmagan, L-3 va L-110 liniyalari esa cheklangan tipdagisi hosil shoxlari bilan tavsiflanadilar.

F_1 o‘simliklari faqat cheklanmagan hosil shoxi bilan tavsiflanadilar.

F_2 o‘simliklari orasida cheklanmagan va cheklangan tipdagisi hosil shoxiga ega bo‘lgan o‘simliklar ikki fenotipik guruhga ajralish beradilar (1-jadval).


Olingan natijalar quyidagi jadvalda izohlangan.

1-jadval

G‘o‘zada hosil shoxlarning irsiylanishi

| Material | n | Shoxlanish tiplari | | Nisbat | χ^2 | P |
|-------------------------------|------|--------------------|------------|--------|----------|-----------|
| | | Cheklanmagan | Cheklangan | | | |
| L-47 | 100 | 100 | - | | | |
| F_1 L-47 x L-3 | 800 | 800 | - | | | |
| F_2 L-47 x L-3 | 2917 | 2206 | 711 | 3:01 | 0,6 | 0,50-0,20 |
| L-3 | 100 | - | 100 | | | |
| L-477 | 100 | 100 | - | | | |
| F_1 L-477 x L-110 | 90 | 90 | - | | | |
| F_2 L-477 x L-110 | 422 | 306 | 116 | 3:01 | 1,39 | 0,50-0,20 |
| F_b (L-477 x L-110) x L-110 | 312 | 176 | 136 | 1:01 | 5,12 | 0,05-0,01 |
| L-110 | 112 | - | 112 | | | |

Genlar o‘zaro ta’sirining chizmasini quyidagicha yozish mumkin.



| | | | |
|-----------------|----------------------|----------------------|----------------------|
| P | Ss cheklanmagan | x | Ss cheklanmagan |
| g. | S, s | | S, s |
| F_2 | SS cheklanmagan | Ss cheklanmagan | ss cheklangan |
| | | | cheklangan |
| P_\varnothing | Ss | x | ss |
| g. | S | | s |
| F_1 | Ss cheklanmagan | | ss cheklangan |
| | 1 | : | 1 |

Olingen natijalar adabiyot tahlillariga ko‘ra belgining murakkab genetik strukturaga ega ekanligidan dalolat beradi:

1. I, II va III kenja tip cheklanmagan hosil shoxiga ega o‘simliklar cheklangan hosil shoxiga ega o‘simliklarga nisbatan to‘liq dominantlik qiladi.

2. Cheklangan va I kenja tip hosil shoxiga ega liniyalarni o‘zaro chatishirilishidan hosil bo‘lgan F_2 duragay populyasiya o‘simliklari orasida II va III kenja tip hosil shoxiga ega bo‘lgan o‘simliklar ham ajralib chiqadi.

3. I va III kenja toifadagi hosil shoxiga ega liniyalarni o‘zaro chatishirilishidan hosil bo‘lgan duragaylarda, bu belgining polimer tavsifga ko‘ra irsiylanishi kuzatiladi.

Adabiyot va o‘z tajribalarining dalillariga asoslangan holda D.A.Musayev o‘z shogirdlari bilan shunday xulosaga keladi. Simpodial shoxlanishning asosiy toifalari (cheklanmagan - cheklangan) ning irsiylanishi bitta asosiy gen ($S-s$) bilan boshqariladi. Shoxlanishning I, II va III kenja toifalari qo‘srimcha polimer genlar tomonidan boshqariladi. Aftidan ularning soni taxminan uchta: S_1 , S_2 va S_3 . Bu genlar asosiy genning dominant alleli (S) ning gomo- va geterozigota holatida faoliyat ko‘rsatadilar. Asosiy genning retsessiv gomozigota holati shoxlanishning polimer genlari faoliyatini to‘xtatadi.

Demak, *G.hirsitum L.* g‘o‘za turida simpodial shoxlanishning irsiylanishida mustaqil kombinatsiyalanuvchi to‘rtta gen ($S-s$, S_1-s_1 , S_2-s_2 , S_3-s_3) ishtirok etadi. Bu genlar retsessiv epistaz va polimeriya tipida belgiga ta’sir ko‘rsatadilar.

3.3.Gultojbarglar rangining irsiylanishi.

Ushbu belgining irsiylanishini o‘rganishga ham ko‘p tadqiqotchilarning ishlari bag‘ishlangan.

Fyson P.F. (1908) gultoj barglari oq bo‘lgan Djori va Boni hind g‘o‘zalarini Djovari (sariq rangda) g‘o‘zasi bilan chatishirib birinchi avlodda gultoj barglari

sariq bo‘lgan o‘simliklar olgan. F_2 da ro‘y bergen ajralishga asoslanib Fyson P.F. hind g‘o‘zalarida gultoj barglar rangi bir omil tomonidan nazorat qilinishini ko‘rsatgan.

H.M.Leake (1911), H.M.Leake va R.Prasad (1914) gultoj barglari to‘q sariq va och sariq bo‘lgan eski dunyo g‘o‘zalarini o‘zaro chatishtirib olingan F_1 duragaylarida to‘q sariq rangning dominantlik qilganligini aniqladilar. Ikkinchi avlodda ajralish sodir bo‘lib, ikkita fenotipik sinf ajratilganligini va ularning nisbati 3:1 ga teng bo‘lganligini aniqladilar. Mualliflar gultoj barglari sariq bo‘lgan g‘o‘za formasini oq rangda bo‘lgan boshqa g‘o‘za bilan chatishtirib birinchi avlodda gultoj barglari sariq bo‘lgan duragaylar olganlar. Sariq rang oq rang ustidan dominantlik qilgan. F_2 da 3:1 nisbatda ajralishni kuzatganlar.

W.L.Balls (1912) tur doirasida misrning Afifi deb atalgan gultoj barglari oltinsimon rangda bo‘lgan navini gultoj barglari limon rangida bo‘lgan Sultoni degan nav bilan chatishtirib olingan F_1 duragaylarida oraliq rangning rivojlanganligini aniqladi. Ikkinchi avlodda u murakkab ajralishni kuzatgan. Olingan dalillarning taşlıliga asoslanib muallif gultoj barglar rangining irsiylanishi ikki juft allelomorf genlarga bog‘liq deb hisoblaydi.

To‘q sariq gultoj bargli misr navini och sariq amerika navi bilan chatishtirib F_2 da 1:2:1 nisbatda ajralishni kuzatgan. Bu nisbat belgining monogen xarakteridagi boshqarilishga ega ekanligini ko‘rsatadi.

C.A. Mc Lendon (1912) misr g‘o‘zasini Upland bilan chatishtirib olingan duragaylarda bu belgining irsiylanishini o‘rgandi. F_1 da belgining oraliq holatni egallaganligini, ikkinchi avlodda ajralish sodir bo‘lganligini, gultoj barglar rangning intensiv to‘q sariqdan to och sariq rangga qadar uzluksiz variatsiya qatorini hosil qilganligini qayd etadi.

S.C.Harland (1929) tur ichidagi chatishtirishda F_2 da to‘q sariq gultoj bargli o‘simliklarning och sariq gultoj bargli o‘simliklarga nisbati 3:1 ni tashkil etishligini aniqladi. Turlararo duragaylarda murakkab tarzda ajralish ro‘y berishligini ko‘rsatdi. Xarlandning fikricha amerika, shuningdek, misr g‘o‘zalarida gultoj barglarning to‘q sariq rangi nafaqat asosiy gen, balki bir qator gen modifikatorlarga ham bog‘liq.

T.H.Kearney (1931) misrning Pima navini amerika g‘o‘zasi-Upland bilan chatishtirib olingan F_1 , F_2 duragaylarda gultojbarglar rangining irsiylanishini o‘rganib F_2 avlodda sariq rangli individlar soni ko‘proq uchraganligini aytadi.

O‘zMU G‘o‘za genetik kolleksiyasi laboratoriyasida Sh.To‘rabekov va S. Musayevalar (1990) *G. hirsutum L.* turiga oid liniyalararo duragaylarda gultoj barglar rangining (sariq - och sariq) irsiylanishini o‘rganganlar.

Tajriba materiali sifatida O‘zMU g‘o‘za gen kolleksiyasi materiallaridan foydalanilgan.

Tadqiqotchilar gultojbarglari och sariq rangda bo‘lgan L-77 liniya gultojbarglari to‘q sariq rangda bo‘lgan L-670 liniya bilan ichatishtirib F_1 da gultojbarglari to‘q sariq rangda bo‘lgan duragaylar olgan. Binobarin,

gultojbarglarning to‘q sariq rangi och sariq rangi ustidan dominantlik qiladi. F₂ da o‘rganilayotgan belgi bo‘yicha ajralish kuzatilib, ikkita fenotipik sinf ajratilgan:

- gultojbarglari to‘q sariq rangda bo‘lgan o‘simliklar;
- gultojbarglari och sariq rangda bo‘lgan o‘simliklar.


Bu fenotipik sinflar o‘rtasidagi nisbat 3:1 (2-jadval).

2-jadval

F₂ duragaylarida gultojbar glar rangi bo‘yicha ajralish.

| Material | n | Gultojbarglar rangi | |
|---------------------------------------|-----|---------------------|-----------|
| | | To‘q sariq | Och sariq |
| Faktik olingan son | 441 | 326 | 115 |
| Nazariy kutilgan son (q) 3:1 nisbatda | 441 | 330,75 | 110,25 |
| Farq (d) | | -4,75 | 4,75 |
| d ² | | 22,5625 | 22,5625 |
| d ² /q | | 0,0682 | 0,2046 |
| $\Sigma \chi^2 = 0,2728;$ | | P= 0,80-0,50 | |

Genlar o‘zaro ta’sirining chizmasini quyidagicha yozish mumkin.



Olingan dalillarning genetik tahlili gultojbarglar rangi bir gen (Y_I - y_I) tomonidan nazorat qilinishini va adabiyot dalillariga mos kelishligini ko‘rsatadi. Ota-onada sifatida olingan liniyalar gultojbarglar rangi bo‘yicha quyidagi genotiplarga ega: L -77 liniya - $y_I y_I$; L-670 liniya - $Y_I Y_I$; F₁ - $Y_I y_I$.

3.4.Guljoj barglar asosidagi antotsian (qizg‘ish) dog‘ning irsiylanishi.

Gossypium turkumi (avlodi)ga kiruvchi ko‘pgina turlarda guljojbarglar asosida antotsian dog‘ mavjud. Bu belgining irsiylanishiga doir ko‘pgina tadqiqot ishlari bag‘ishlangan.

W.L.Balls (1912) guljoj barglar asosida antotsian dog‘ bo‘lgan misr g‘o‘zasini antotsian dog‘ bo‘lman upland g‘o‘zasi bilan chatishtirib olingan F₁ duragaylarida guljoj barglar asosida antotsian dog‘ning rivojlanganligini qayd etadi. F₂ da bu belgi bo‘yicha 23 ta guljoj barglar asosida dog‘i bo‘lgan; 42 ta oraliq; 31 ta qizg‘ish dog‘i bo‘lman o‘simliklar nisbatini oldi. Boshqa bir kombinatsiyada u 11:21:18 nisbatda duragaylar olgan. Antotsian dog‘ga ega bo‘lgan ham dog‘i bo‘lman o‘simliklar kelgusi avlodda ajralish bermagan. Oraliq holatda namoyon bo‘lgan o‘simliklar esa kelgusi yili huddi F₂ dagi kabi ajralish bergen. Olingan natijalarni tahlil qilib, muallif bu belgining ikki gen tomonidan boshqarilishini aytgan.

H.M.Leake va R.Prasad (1914) Osiyo g‘o‘zalarini o‘zaro chatishtirib birinchi avlodda antotsian dog‘li o‘simliklar oldilar. F₂ da esa mualliflar 29 ta dog‘li va 10 ta dog‘i bo‘lman o‘simliklar oldilar. Olingan dalillarga asoslanib, ular bu belgi bitta faktor (omil) tomonidan boshqariladi deb ko‘rsatdilar.

S.C.Harland (1929, 1932) g‘o‘za o‘simligi organlarida antotsian rangning taqsimlanishi genlar ko‘p allellik seriyalarining ta’siriga bog‘liq deb hisoblaydi. Bunda:

R-o‘simlikning qizg‘ish rangini boshqaradi.

R^L-barglarning qizg‘ish rangini.

R^C-kosacha barglarning qizil rangini.

R^S-guljoj barglar asosidagi qizg‘ish dog‘ni.

r⁰- guljoj barglar asosida qizg‘ish dog‘ning yo‘qligini.

r^s- guljoj barglar asosida kuchsiz namoyon bo‘luvchi antotsian dog‘.

Bundan tashqari S.C.Harland guljojbarg rangning intensivligi modifikator genlarga ham bog‘liq deb ko‘rsatadi.

N.A.Malinovskiy (1933) hind g‘o‘zalarini o‘zaro chatishtirib bir holatda F₂ da 63 ta dog‘li: bitta dog‘siz o‘simliklarni, boshqa holatda bu ikki fenotipli o‘simliklarning 3:1 nisbatini olishga muvaffaq bo‘lgan. Bundan tashqari Malinovskiy *G. herbaceum L.* va *G. arboreum L.* turlariga kiruvchi g‘o‘zalarni o‘zaro chatishtirib F₂ da 9 (dog‘li): 7 (dog‘siz) nisbatni olgan. Muallif yana dog‘siz g‘o‘zalar xilini o‘zaro chatishtirib birinchi avlodda guljoj barglar asosida qizg‘ish dog‘i bo‘lgan o‘simliklar olgan. Natijalar tahliliga suyangan holda muallif antotsian dog‘ning namoyon bo‘lishi ikki genetik omilga bog‘liq degan xulosaga keladi.

V.I.Kokuev (1935) *G. hirsutum L.* va *G. herbaceum L.* turlariga kiruvchi liniyalarni o‘zaro chatishtirishdan olingan F₁, F₂ duragaylarida guljojbarglar asosida qizg‘ish dog‘ning irsiylanishini o‘rgandi. F₁ duragaylari oraliq holatdagi antotsian dog‘ga ega bo‘lganlar. F₂ da bu belgi bo‘yicha ajralish sodir bo‘lib 2 ta antotsian dog‘ga ega bo‘lgan va antotsian dog‘ga ega bo‘lman sinflar ajratildi.

Sinflarning nisbati 3:1 ga tang bo‘lgan. Olingan dalillarning tahliliga asoslanib, muallif gultoj barglar asosida qizg‘ish dog‘ning bo‘lishligi I-omili (faktori) tomonidan boshqariladi deb ko‘rsatdi.

A.A.Abdullayev (1974), X.Bobomurotov (1976) lar turlar aro duragaylarda gultoj barglar asosida qizg‘ish dog‘ning irsiylanishi bo‘yicha F_2 da nazariy kutilgan nisbatdan chetga chiqish hollari kuzatilishi haqida aytib, bu holatni ota-onaga komponentlarining bir-biriga mos kelmasligi va xromosomalar eliminatsiyasi bilan tushuntiradilar.

N.G.Simongulyan (1980) turlararo va tur ichidagi duragaylashda gultoj barglar asosida qizg‘ish dog‘ dominant belgi sifatida namoyon bo‘ladi deb hisoblaydi. F_1 duragaylarida dog‘ning intensivligi dog‘li ota-onaga nisbatan kuchsizroq namoyon bo‘ladi va F_2 da bu belgi bo‘yicha ajralish sodir bo‘lganligini qayd etadi.

D.A.Musayev va boshq. (2005) *G. hirsutum L.* turiga oid genetik kolleksiyaning ayrim liniyalarini o‘zaro chatishtirishdan olingan F_1 va F_2 duragaylarida bu belgining irsiylanishini o‘rganib, ko‘pchilik kombinatsiyalarda F_2 da 3:1 nisbatda ajralish oldilar. Mualliflar bu belgining irsiylanishi bir gen tomonidan boshqarilishligini aniqladilar.

Bu belgining irsiylanishi L-662 va L-670 liniyalarni o‘zaro chatishtirishdan olingan F_1 , F_2 duragaylarida o‘rganilgan. L-662 liniya o‘simliklari gultoj barglarining asosida antotsian dog‘ yo‘q. L-670 liniya esa aksincha, gultoj barglarining asosida antotsian dog‘i bor. F_1 duragaylari gultoj barglarining asosida antotsian dog‘ning borligi bilan xarakterlanadilar. Ikkinci avlodda esa bu belgi bo‘yicha ajralish kuzatilib, ikkita fenotipik sinf belgilangan:


- gultoj barglarining asosida antotsian dog‘i bo‘lgan o‘simliklar;
 - gultoj barglarining asosida antotsian dog‘i bo‘ligan o‘simliklar;
- Bu sinflarning nisbati 3:1ga teng (3-jadval).

3-jadval

F_2 duragaylarida gultoj barglar asosida antotsian dog‘ning bor yoki yo‘qligi bo‘yicha ajralish

| Ko‘rsatkich | n | Gultoj barg asosida | |
|---------------------------------------|-----|---------------------|---------------------|
| | | Antotsian dog‘ bor | Antotsian dog‘ yo‘q |
| Olingan faktik son | 410 | 304 | 106 |
| Nazariy kutilgan son (q) 3:1 nisbatda | 410 | 307,5 | 102,5 |
| Farq (d) | | -3,5 | 3,5 |
| d^2 | | 12,25 | 12,25 |
| d^2/q | | 0,0398 | 0,1197 |
| $\chi^2 = 0,1595;$ | | $P = 0,80 - 0,50;$ | |

Genlar o‘zaro ta’sirining chizmasini quyidagicha yozish mumkin.



Olingen dalillar mazkur belgining bir gen tomonidan boshqarilishidan dalolat beradi.

Sh.Turabekov va S.Musaeyvalarning (1990) ham g^o‘zaning *G. hirsutum L.* turiga oid genetik kolleksiyaning ayrim liniyalarini o‘zaro chatishirishdan olingen F₁ va F₂ duragaylarida bu belgining irsiylanishini o‘rganlar.

Chatishirish uchun olingen ota-onaliniyalari gultojbarglar asosida qizg^{ish} dog^{ning} “bor-yo^qligi” belgisiga qarab o‘zaro keskin farqlanadilar.

L-77 liniya o‘simliklarida gultojbarglar asosida qizg^{ish} dog^{ning} yo^qligi bilan, L-670 liniya o‘simliklari dog^{ning} borligi bilan xarakterlanadilar.

L-77 x L-670 kombinatsiyasining F₁ duragaylarining gultojbarglari asosida qizg^{ish} dog^{ning} borligi bilan xarakterlanadilar. Binobarin, gultojbarglar asosida qizg^{ish} dog^{ning} bo‘lishligi dominant belgi hisoblanadi.

Ikkinchchi avlodda (F₂) o‘rganilayotgan belgi bo‘yicha ajralish sodir bo‘lib, ikkita fenotipik sindif ajralib chiqadi:

- gultojbarglar asosida qizg^{ish} dogⁱ bor bo‘lgan o‘simliklar;
- gultojbarglar asosida qizg^{ish} dogⁱ bo‘lmagan o‘simliklar.


Fenotipik sinflarning nisbati 3:1 ga teng (4-jadval).

4-jadval

F₂ duragaylarida gultojbarglar asosidagi qizg^{ish} dog^{ning} “bor-yo^qligi” belgisi bo‘yicha ajralishi.

| Material | n | antotsian dog ⁱ | |
|---------------------------------------|-----|----------------------------|-----------------|
| | | bor | yo ^q |
| Faktik olingen son | 441 | 320 | 121 |
| Nazariy kutilgan son (q) 3:1 nisbatda | 441 | 330,75 | 110,25 |
| Farq (d) | | -10,75 | -10,75 |
| d ² | | 115,5625 | 115,5625 |
| d ² /q | | 0,3493 | 1,0481 |
| $\Sigma \chi^2 = 1,3974;$ | | $P = 0,50-0,20$ | |

Genlar o‘zaro ta’sirining chizmasini quyidagicha yozish mumkin.



1. Olingan dalillar o‘rganilgan kombinatsiyada bu belgining bir gen R_2^r - r_2^r tomonidan nazorat qilinishini ko‘rsatadi. Ota-onas sifatida olingan liniyalar gultojbarglar asosida qizg‘ish dog‘ning bor yoki yo‘qligiga qarab quyidagicha genotiplarga ega bo‘lgan: L-662, L-77 liniya- $r_2^r r_2^r$; L-670 liniya - $R_2^r R_2^r$; F_1 - $R_2^r r_2^r$. (Sh.Turabekov, M.M.Ergashev va boshq. 2011 y.)

3.5.Changlar rangining irsiylanishi.

G‘o‘za changlari rangining irsiylanishini o‘rganishga qator mualliflarning tadqiqotlari bag‘ishlangan.

W.L.Balls (1912) *G. hirsutum L.* va *G. barbadense L.* turlarini o‘zaro chatishtirishdan olingan F_2 duragaylarda oraliq rangning rivojlanganligini, ikkinchi avlodda esa 1:2:1 nisbatda och sariq, oraliq va tillarang sariq changlarga ega bo‘lgan o‘simliklar olishga muvaffaq bo‘lgan.

Mc Lendon (1912) turlararo duragaylarda changlar rangining irsiylanishini o‘rganib, F_2 da murakkabroq bo‘lgan ajralishni kuzatgan, ammo u fenotipning sinflar nisbatini bergen emas.

S.C.Harland (1929) changlarning sariq va och sariq holatlari bir juft faktorga (R - r) bog‘liq deydi. Muallif *Upland* g‘o‘zalarini misr g‘o‘zalari bilan chatishtirib F_2 da 3:1 nisbat qayd qilgan.

V.I.Kokuev (1935) *G. hirsutum L.* doirasida changlar rangining irsiylanishini o‘rgandi. L-2107 liniyasini (changlari sariq rangda) L-1617, L-253, L-905, L-35 liniyalar (changlari och sariq rangda) bilan chatishtirib, F_1 duragaylar oldi. F_1 duragaylari changlarining sariq rangda bo‘lishligi bilan xarakterlanadi. F_2 da 3:1 (sariq:och sariq) nisbatda ajralish kuzatilgan.

S.G.Stephens (1954) ham o‘z tadqiqotlarida bu belgining bir juft gen tomonidan belgilanishi va to‘liq dominantlik tipida irsiylanishini qayd etadi.

A.A.Abdullayev (1974) *G. tomentosum L.* turini 108-F navi bilan chatishtirib, olgan F₁ duragaylarida yorqin-sariq rangning namoyon bo‘lganligini ta’kidlaydi. F₂ duragaylarda aksariyat o‘simliklarning changdon va changlari och sariq rangda, qolganlari (25%) sariq rangdaligi kuzatilgan. F₃ va undan keyingi avlodlarda changdonlar, changlar va gultoj barglarning sariq rangi yo‘qolib boradi. F₄ va F₅ avlodlarda faqat 25% o‘simliklarning changdonlari sariq rangda bo‘lgan. Gultojbarglar och sariq, changdon va changlar esa sariq rangda bo‘lgan. Katta yoshdagি avlodlarda och sariq rangdagi changlar, changdonlarning ortib borishini muallif *G. tomentosum L.* tipidagi formalardan chetga chiqqan barcha formalarning eliminatsiyasi bilan tushuntiradi. Bunday formalar bizning sharoitda ko‘sak tugmasidan yo‘qolib boradi.

Sh.M.Tolipov, Sh.To‘rabekov; (1986), Sh.To‘rabekov, Sh.M.Tolipov, S. Musayeva (1987), Sh.To‘rabekov, S.Musaeyva (1990) G‘o‘za genetik kolleksiyasining L-77, L-453, L-471, L-475, L-476 va L-477 liniyalarini o‘zaro chatishtirib olingan liniyalararo duragaylarda chang rangining irsiylanishiga doir natijalarni tahlil qilib, bu belgining monofaktoral boshqarilishligini qayd etdilar.

Sh.To‘rabekov, A.K.Rahimov, S.Musaeyva, G.N.Fatxullaeva (2000) g‘o‘za genetik kolleksiyasining yangi izogen liniyalarini o‘zaro chatishtirib, olingan F₁, F₂ duragaylarda changlar rangining irsiylanishini o‘rgandilar. F₂ da changlarning rangi sariq va och antotsian bo‘lgan ikkita sinfni ajratdilar. Bu fenotipik sinflarning nisbati 3:1 ga teng bo‘lgan.

D.A.Musayev va boshq. (2005) g‘o‘za genetik kolleksiyasi liniyalarini o‘zaro chatishtirishdan olingan F₁, F₂ duragaylarida bu belgining irsiylanishiga doir dalillarni tahlil qilish natijasida changlarning to‘q sariq rangi och sariq rangi ustidan dominantlik qilishligini va bu belgining bir gen tomonidan boshqarilishligini qayd etdilar.

Chatishtirish uchun olingan liniyalar bu belgi bo‘yicha o‘zaro keskin farqlanadilar. L-662 liniya o‘simliklarining changi och sariqda, L-670 liniyaniki esa to‘q sariq rangda. Bu liniyalarni o‘zaro chatishtirishdan olingan F₁ duragaylari changlarning rangi sariq rangda bo‘lishligi bilan xarakterlanganlar.


5-jadval

F₂ duragaylarida chang rangi bo‘yicha ajralish

| Ko‘rsatkich | n | Gultoj barg asosida | |
|---------------------------------------|-----|---------------------|---------------------|
| | | antotsian dog‘ bor | antotsian dog‘ yo‘q |
| Olingan faktik son | 410 | 291 | 119 |
| Nazariy kutilgan son (q) 3:1 nisbatda | 410 | 307,5 | 102,5 |
| Farq (d) | | -16,5 | 16,5 |
| d ² | | 272,25 | 272,25 |
| d ² /q | | 0,8853 | 2,656 |
| $\chi^2 = 3,5413;$ | | P= 0,20 – 0,05; | |

F_2 da chang rangi bo'yicha ajralish kuzatilib ikkita fenotipik sinf ajratildi. Sinflarning nisbati 3:1. Olingan sonlar nazariy kutilgan songa yaqin (5-jadval).

Genlar o'zaro ta'sirining chizmasini quyidagicha yozish mumkin.



Olingan dalillarning tahlili bu belgining monofaktoral boshqarilishga ega ekanligidan dalolat beradi.

Bu hulosa quyidagi kombinatsiyada ham o'z isbotini topadi.

Boshlang'ich ota-onalari changlarining rangi bo'yicha ham o'zaro farq qiladilar. L-77 liniya o'simliklarining changlari och sariq rangda. L-670 liniya o'simliklari esa to'q sariq rangdagi changlarga ega. Bu liniyalarni o'zaro chatishirishdan olingan F_1 duragaylari changlarining to'q sariq rangi bilan tavsiflanadilar. Ikkinci avlodda (F_2) bu belgi bo'yicha ajralish kuzatilib, ikkita fenotipik sinf hosil bo'lgan:

- changlari to'q sariq rangda bo'lgan o'simliklar;
- changlari och sariq rangda bo'lgan o'simliklar.


Bu fenotipik sinflarning nisbati 3:1 ga yaqin (6-jadval).

6-jadval

F_2 duragaylarida chang rangi bo'yicha ajralishi.

| Material | n | Changlari to'q sariq | Changlari och sariq |
|---|-----|----------------------|---------------------|
| Faktik olingan son | 441 | 343 | 98 |
| Nazariy kutilgan son (q) 3:1 nisbatda | 441 | 330,75 | 110,25 |
| Farq (d) | | 12,25 | -12,25 |
| d^2 | | 150,0625 | 150,0625 |
| d^2/q | | 0,4537 | 1,3611 |
| $\Sigma \chi^2 = 1,8148; \quad P = 0,20-0,05$ | | | |

Genlar o'zaro ta'sirining chizmasini quyidagicha yozish mumkin.



Olingen dalillarning genetik tahlili g‘o‘za guli changlari rangining irsiylanishi bir gen ($R_I - r_I$) tomonidan nazorat qilinishini ko‘rsatadi. Boshlang‘ich ota-onaliniyalari chang rangi bo‘yicha quyidagi genotiplarga ega: L-662, L-77 - r_I ; L-670 - $R_I R_I$; $F_1 - R_I r_I$.

Shunday qilib, g‘o‘za changlari rangining irsiylanishiga doir adabiyotlar sharxida bu belgining irsiylanishi haqida har xil dalillarning mavjudligini ko‘ramiz. Aksariyat mualliflar sariq, tillarang dominant belgi ekanligini qayd etadilar.

3.6.Gulyonbarglar shaklining irsiylanishi.

Ekiladigan g‘o‘za navlarida gulyon barglar keng, yurak shaklida bo‘lib, chetlari bir qadar tishchali bo‘ladi. Gulyon barglar ikkiyoqlama funksiyani bajaradilar: ular shona, gul va ko‘sakni tashqi muhitdagi noqulay sharoitdan saqlaydi, ular transpiratsiya va fotosintezni ham amalga oshiradi. Ikkinchisi tomonidan ular ba’zi hollarda o‘simlik uchun zarar keltiradi. Zararli hasharotlar - o‘simlik bitlari, kanalar, kapalak qurtlari unda jon saqlaydilar. Shu sababli, yovvoyi g‘o‘za turlarining gulyon barglari kichkina, rivojlanishning dastlabki davrlaridanoq shonani to‘liq yopib turadi.

Adabiyot dalillari bo‘yicha (Green 1955, Lewis 1957, Amalraj 1982) gulyon barglar shakli monogen tarzda irsiylanadi. Green I.M. (1955) birinchi marta G. hirsutum L. doirasida gulyon bargning ingichka shaklining irsiylanishini o‘rganib, uni – fg simvoli bilan belgiladi.

O‘zMU G‘o‘za genetik kolleksiya laboratoriyasida D.A.Musayev va uning shogird lari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasi ham bu belgining bir gen tomonidan boshqarilishini isbotlaydi.

Ota-onaliniyalardan olingan L-477 liniyaning gulyon barglari ingichka, bo‘yiga biroz cho‘zilgan, L-479 liniyaniki esa normal yuraksimon shaklda. Bu liniyalarni


o‘zaro chatishirishdan olingan F₁ normal yuraksimon shakldagi gulyon barglarga ega bo‘lganlar. Ikkinci avlodda bu belgi bo‘yicha ajralish kuzatilib, ikkita fenotipik sinflarga ajratiladi: normal yuraksimon shakldagi gulyon barglarga ega o‘simliklar, ingichka-frego deb nomlanuvchi shaklga ega o‘simliklar. Sinflar o‘rtasidagi nisbat 3:1 ga teng. Olingan dalillar bu nisbatni isbotlaydi (7-jadval).

7-jadval

F₂ duragaylarida gulyon barglar shakli bo‘yicha ajralish

| Ko‘rsatkich | O‘simliklar soni-334 | |
|---------------------------------------|-------------------------------------|-------------------------------|
| | Yuraksimon shakldagi gulyon barglar | Ingichka-frego tipidagi shakl |
| Olingan faktik son | 240 | 94 |
| Nazariy kutilgan son (q) 3:1 nisbatda | 250,5 | 83,5 |
| Farq (d) | -10,5 | 10,5 |
| d ² | 110,25 | 110,25 |
| d ² Fq | 0,4401 | 1,3203 |
| $\chi^2 = 1,7204;$ | $P = 0,20 - 0,05;$ | |

Genlar o‘zaro ta’sirining chizmasini quyidagicha yozish mumkin.



Olingan dalillar ota-onalarining o‘zaro bir gen allellarining holati bilan farqlanishini ko‘rsatadi. Boshlang‘ich liniya L-477-*fgfg* genotipiga, liniya L-479 esa-*FgFg* ga ega. F₁ duragaylarining genotipi – *Fgfg*.

3.7.Tola rangining irsiylanishi.

Chigit ustidagi tuk va tola oq, oqish, qo‘ngir, to‘q qo‘ngir, qizg‘ish qo‘ngir, yashil, ko‘k yashil, novvot va boshqa ranglarda bo‘ladi (F.M.Mauer, 1954).

Navlarda tola rangining irsiylanishini ko'plab chet el va vatanimiz tadqiqotchilari o'rganganlar.

W.L.Balls (1906, 1912) misrning qo'ng'ir rangli g'o'zasini oq tolali upland g'o'zalari bilan chatishtirilib olingan duragaylarda tola rangining irsiylanishini o'rgandi. Birinchi avlod duragaylarining tolalari oraliq rangda bo'lgan. F_2 da esa muallif 1: 2 : 1 nisbatda (qo'ng'ir: och qo'ng'ir: oq) ajralish olgan.

I.O.Ware (1932) amerika g'o'zalarining o'zaro chatishtirib, olingan natijalarni tahlil qilgan holda tolaning yashil va qo'ng'ir ranglari oq ustidan qisman dominantlik qilishligini aniqlagan.

Muallifning uqtirishicha, qayd etilgan g'o'zalarda tola ranglari oddiy belgi sifatida bitta genetik omil (faktor) tomonidan boshqariladi.

S.C.Harland (1935) jigarrang tolali misr g'o'zasini oq tolali *C-Aylend* g'o'zasi bilan chatishtirib, birinchi avlod (F_1) duragaylarida tolaning oraliq rangda bo'lganligini aniqlagan.

V.I.Kokuev (1935) amerika g'o'zalarini o'zaro chatishtirib tola rangining irsiylanishini o'rgandi. Olim birinchi avlodda qo'ng'ir tolaning oq tola ustidan to'liqsiz dominantlik qilishligini va F_2 da 1 : 2 : 1 nisbatda ajralish ketganligini kuzatgan.

V.I.Kokuev *G. herbaceum L* g'o'zalarini o'zaro chatishtirib F_2 da esa boshqacharoq, ya'ni 15:1 yoki 63:1 (qo'ng'ir: oq) nisbatlarni olgan. Muallif *G. herbaceum L* turida tola irsiylanishini 2 yoki 3 faktorga bog'liq deydi.

I.W. Nelly (1943) *G.hirsutum L* turiga mansub yashil va oq tolali liniyalarni o'zaro chatishtirib, F_1 da oraliq rangdagi tolaning rivojlanganligini, F_2 da esa 1: 2: 1 (yashil : oraliq : oq) nisbatda ajralish ketganligini aniqladi.

R.Balasubrahmanyam , V.R.Mudaliar va V.Santhanam (1950) g'o'zada tola rangining irsiylanishini o'rganib, tola rangi monofaktoral boshqarilishligini ko'rsatdilar.

S.A.Kamel, A.O.Omran (1962) leykometrdan foydalangan holda misr g'o'za navlarida oq rangning qoramtilroq rang ustidan to'liqsiz dominantlik qilishligini va ota –ona tolalarining ranglari o'rta sidagi farq uch yoki to'rt juft gen tomonidan boshqariladi deb hisoblaydilar.

D.V.Ter-Avanesyan (1973) boshqa tadqiqotchilardan farqli o'laroq rangli tola dominantlik qiladi deb aytadi.

N.G.Simongulyan va Muxamedjanov (1973,1981) *G.hirsutum L* turiga kiruvchi oq tolali 108- F, 149-F navlarini qo'ng'ir tolali meksikanum nervozium kenja turi bilan chatishtirdilar. Olingan F_1 duragaylari tola rangi bo'yicha oraliq rangga ega bo'lgan. F_2 da tola rangi bo'yicha ajralish kuzatilib, 9 qism rangli va 7 qism oq tolali o'simliklar olingan. Bu nisbat genlar o'zaro ta'sirining komplementar tipiga xos. Olingan dalillarning genetik tahliliga asoslangan mualliflar tola rangining uch gen - Lc , $-lc$, Lc_2-lc_2 , Lc_3-lc_3 tomonidan boshqarilishi fikr bildiradilar. Meksikanum kenja turda tolaning qo'ng'ir rangi 2 ta asosiy komplementar gen - Lc_3 tomonidan nazorat qilinadi. Genotipda asosiy

komplementar genlardan birortasining dominant holatda bo‘lmasligi,tolaning oq rangda bo‘lishligini ta’minlaydi.

D.A.Musayev (1979) G‘o‘za genetik kollksiyasining qo‘ngir tolali L-3 liniyasini oq tolali L-47 liniya bilan chatishtirib birinchi avlodda (F_1) tolasi novvot rangda bo‘lgan duragaylor olgan. Birinchi avlod duragaylarida oraliq rang rivojlangan. Tolaning qo‘ngir rangi oq rang ustidan to‘liqsiz dominantliq qilgan.

F_2 populyasiya duragaylarida tola rangi bo‘yicha ajralish sodir bo‘lib uchta fenotipik sinf ajratilgan:

- a) Qo‘ng‘ir tolali duragaylor – 438 ta;
- b) novvot rang tolali duragaylor – 928 ta;
- v) oq tolali duragaylor – 461 ta.

Fenotipik sinflarning nisbati 1:2:1 ga yaqin bo‘lgan.

Bu belgining genetik determinatsiyasi ustida to‘xtalgan muallif qo‘ngir tola dominant gomozigota holatdagi ($Fr^{Br}Fr^{Br}$) genlar,tolaning oq rangini retsessiv ($Fr^{br}Fr^{br}$) genlar belgilaydi. Bu gen geterozigota holatda ($Fr^{Br}Fr^{br}$) o‘rganilayotgan belgining oraliq fenotipini belgilaydi.

Sh.To‘rabekov (1974) mutlaq yalang‘och (tuksiz va tolasiz) urug‘li L-70 liniyasini qo‘ng‘ir tolali L-40 liniya bilan chatishtirib olingan F_1 , F_2 duragaylarda tola rangining irsiylanishini o‘rgandi. F_1 duragaylari novvot rang (oraliq) tolaga ega bo‘lganlar. F_2 da ajralib chiqqan tolali o‘simliklarni tahlil qilib 1: 2: 1 nisbatda (qo‘ng‘ir: novvot rang: oq) ajralish olgan. Muallif tolaning “qo‘ng‘ir-oq” belgisi bir gen tomonidan boshqarilishligini ko‘rsatib bergan. Shuningdek muallif yalang‘och urug‘li L-70 liniya genotipida yashirin gomozigota holda tola qo‘ng‘ir rangining retsessiv alleli joylashganligini isbotladi.

O‘zMU G‘o‘za genetik kolleksiyasi laboratoriyasi xodimlarining g‘o‘za o‘simligida tola rangining irsiylanishi bo‘yicha olib borgan ishlari bilan yaqindan tanishsak.

Tajriba uchun boshlang‘ich material sifatida O‘zMU G‘o‘za genetikasi va genetik kolleksiyasi laboratoriyasining Genetik kolleksiyasining izogen liniyalaridan foydalanilgan. Olingan liniyalar morfologik (sifat) belgilari bo‘yicha bir-birlaridan keskin farq qiladilar.

L-77 liniya. Mazkur liniya L-70 x L-40 kombinatsiyasining F_2 populyasiyasi ichidan ko‘p yillik o‘z-o‘zini changlantirish va tanlash yo‘li bilan chiqarilgan. L-77 liniya o‘simliklari absolyut yalang‘och urug‘li (tuksiz va tolasiz) bo‘lib, genotipida yashirin holda qo‘ng‘ir tolaning rivojlanishini nazorat qiluvchi genning dominant allelini gomozigota holda ($Fr^{Br}Fr^{Br}$) saqlaydilar.

L-670 liniya. Bu liniya (L-476 x L-475) kombinatsiyasining F_2 populyasiyasi ichidan ko‘p yillik o‘z-o‘zini changlantirish va tanlash yo‘li bilan chiqarilgan. Liniya o‘simliklarining chigitlari to‘liq tuk bilan qoplangan bo‘lib, tolasi oq rangda, genotipi - $Fr^{br}Fr^{br}$.

L-77 va L-670 liniyalarini o‘zaro chatishtirishdan olingan F_1 duragaylari tola rangi bo‘yicha oraliq rangga-novvot rangga ega bo‘lgan. Tolaning qo‘ng‘ir rangini rivojlantiruvchi gen oq tola geni ustidan to‘liqsiz dominantlik qilgan (8-jadval).

Ikkinchchi avlodda ham tola chiqishi, ham chigit tuklanishi bo'yicha ajralish kuzatilgan. F_2 da 471 ta o'simlik olingan bo'lib, shuning 441 tasi tolali, 30 tasi absolyut yalang'och urug'li bo'lga. F_2 da olingan 441 ta tolali o'simlikda tola rangi bo'yicha ajralish sodir bo'lib, 3 ta fenotipik sinflar ajratilgan:

- tolasi qo'ng'ir rangli F_2 o'simliklari;
- tolasi novvot rangli F_2 o'simliklari;
- tolasi oq tolali F_2 o'simliklari.

Fenotipik sinflarning nisbati 1 : 2 : 1 ga yaqin.

8-jadval

F_2 duragaylarida tola rangi bo'yicha ajralish.

| Material | n | Tola rangi | | |
|---|-----|-----------------|------------------|---------|
| | | qo'ng'ir tola | novvot rang tola | Oq tola |
| Faktik olingan son | 441 | 106 | 231 | 104 |
| Nazariy kutilgan son (q) 1:2:1 nisbatda | 441 | 110,25 | 220,5 | 110,25 |
| Farq (d) | | -4,25 | 10,5 | -6,25 |
| d^2 | | 18,0625 | 110,25 | 39,0625 |
| d^2/q | | 0,1638 | 0,5 | 0,3543 |
| $\chi^2 = 1,0181;$ | | $P = 0,80-0,50$ | | |


Agarda dastlabki 1 va 2-fenotipik sinflarni bitta rangli o'simliklar deb birlashtirsak, u holda fenotipik sinflar soni ikkiga teng bo'lib, ular orasidagi nisbat 3 : 1 ga teng bo'ladi (9-jadval).

9-jadval

F_2 duragaylarida tola rangi bo'yicha ajralish.

| Material | n | Tola rangi | |
|---------------------------------------|-----|-----------------|---------|
| | | Rangli tola | Oq tola |
| Faktik olingan son | 441 | 337 | 104 |
| Nazariy kutilgan son (q) 3:1 nisbatda | 441 | 330,75 | 110,25 |
| Farq (d) | | 6,25 | -6,25 |
| d^2 | | 39,0625 | 39,0625 |
| $\Sigma \chi^2 = 0,4724;$ | | $P = 0,50-0,20$ | |

Genlar o'zaro ta'sirining chizmasini quyidagicha yozish mumkin.



| | | | |
|-------------|---|------------------|--|
| P_φ | $Fr^{Br}Fr^{br}$ novvot tola Fr^{Br}, Fr^{br} | x | $\circlearrowleft Fr^{Br}Fr^{br}$ novvot tola Fr^{Br}, Fr^{br} |
| F_2 | $Fr^{Br}Fr^{Br}$ qo'ng'ir tola | $Fr^{Br}Fr^{br}$ | $Fr^{Br}Fr^{br}$ oq tola |

Olingan dalillarning genetik tahlili g'o'zada tola rangining irsiylanishi monogen (Fr^{Br} - Fr^{br}) boshqarilishga ega bo'lib, belgining to'liqsiz dominantlik holatda irsiylanishini ko'rsatadi. Boshlang'ich ota-onaliniyalari tola rangi bo'yicha quyidagicha genotipga ega:

L-77 liniya = $Fr^{Br} Fr^{Br}$; L-670 liniya = $Fr^{br} Fr^{br}$; $F_1 = Fr^{Br} Fr^{br}$.

Keyingi tajriba natijalari ham birinchi tajriba natijalarini takrorladi. Chatishirish uchun olingan ota-onaliniyalari tolasining rangi bo'yicha o'zaro keskin farqlanadilar. L-620 liniya o'simliklari tola rangi oq, L-481 liniya o'simliklari esa qo'ng'ir rangli tolaga ega.

Bu liniyalarni o'zaro chatishirishdan olingan F_1 duragaylari tolesi novvot rangli bo'lganlar. Binobarin, o'simlik tola rangining qo'ng'ir bo'lishligi oq rang tolaga nisbatan to'liqsiz dominantlik qiladi va F_1 da oraliq (novvot rang) holat kuzatiladi.

F_2 da o'rganilayotgan belgi bo'yicha ajralish sodir bo'lib 3 ta fenotipik sinf hosil bo'ladi:

- qo'ng'ir rang tolaga ega o'simliklar;
- novvot rang tolaga ega o'simliklar;
- oq tolali o'simliklar.

Fenotipik sinflarning nisbati 1:2:1

Agarda qo'ng'ir va novvot rangli tolalarni bir fenotipik guruhga birlashtirsak F_2 da fenotipik sinf quyidagicha bo'ladi:

- rangli tolaga ega o'simliklar;
- oq tolali o'simliklar.

Fenotipik sinflarning nisbati 3:1 (10-jadval).

10-jadval

F_2 duragaylarida tola rangi bo'yicha ajralish

| Material | n | Tola rangi | |
|---|-------------|------------------|-----------------|
| | | Rangli tola | Oq tolali |
| Olingan faktik son | 366 | 274 | 92 |
| Nazariy kutilgan son (q) 1:2:1 nisbatda | 366 | 274,5 | 91,5 |
| Farq (d) | 0 | 0,5 | -0,5 |
| d^2 | | 0,25 | 0,25 |
| d^2/q | | 0,25/274=0,00091 | 0,25/91,5=0,002 |
| $\Sigma \chi^2 = 0,0029$; | P=0,99-0,95 | | |

Olingan dalillarning tahlili L-620, L-481 kombinatsiyada o'simliklarida tola rangi monofaktoral – (Fr^{Br} - fr^{Br}) boshqarilishga ega ekanligini ko'rsatdi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tola rangining irsiylanishi olimlar tomonidan turlicha talqin qilinmoqda. Ammo aksariyat olimlar rangli tola to'liqsiz dominantlik xususiyatiga ega deb hisoblaydilar.

3.8.Barg plastinkasi rangining irsiylanishi.

Chatishirish uchun olingan ota-onalari liniyalari barg plastinkasi rangi bo'yicha o'zaro keskin farqlanadilar. L-620 liniyasi barg plastinkasi yashil rangga, L-481 liniya o'simliklarining barg plastinkasi esa sarg'ish-yashil rangga ega.

Bu liniyalarni o'zaro chatishirishdan olingan F_1 duragaylari o'simliklarining barg plastinkasi rangi yashil rangli bo'lganlar. Vaholangki, barg plastinka rangining yashil rangi sarg'ish-yashil rangi ustidan to'liq dominantlik qiladi.

F_2 o'rganilayotgan belgi bo'yicha ajralish sodir bo'lib, 2 ta fenotipik sinf hosil bo'ladi:

- yashil rangli o'simliklar;
- sarg'ish-yashil rangli o'simliklar.


Fenotipik sinflarning nisbati 3:1 (11-jadval).

11-jadval

F_2 duragaylarida barg plastinkasi rangi bo'yicha ajralish.

| Material | n | Barg plastinkasi rangi | |
|---------------------------------------|-----|------------------------|---------------|
| | | Yashil | Sarg'ish-shil |
| Olingan faktik son | 366 | 285 | 81 |
| Nazariy kutilgan son (q) 3:1 nisbatda | 366 | 274,5 | 91,5 |
| Farq (d) | 0 | 10,5 | -10,5 |
| d^2 | | 110,25 | 110,25 |
| d^2/q | | 0,4 | 1,2 |
| $\Sigma \chi^2 = 1,60; P=0,50-0,20$ | | | |

Genlar o'zaro ta'sirining chizmasini quyidagicha yozish mumkin.



Olingan dalillarning tahlili shuni ko'rsatadi-ki, L-620, L-481 kombinatsiyada barg plastinkasi rangi monofaktoral – (Y-y) boshqarilishga ega ekanligini ko'rsatdi.

3.9.Barg plastinkasining tuklanishi va uning irsiylanishi.

G‘o‘za nav va liniyalari namunalarining zararkunandalarga bo‘lgan chidamliligini o‘rganish asosan o‘simliklarning anatomik, marfologik tuzilishi bilan bog‘liq.

Boshlang‘ich ota ona materiali sifatida olingan L-4112 va L-490 liniyalari o‘zaro barg tuklanishi bo‘yicha bir biridan keskin farq qiladilar. L-490 liniya o‘simliklarining barglari qalin tuk bilan qoplangan, bargning old tomonida tuklanish kuchli, orqa tomonida nisbatan kuchsizroq. L-4112 liniya o‘simliklarining barglari esa tuksiz. Bu liniyalarni o‘zaro chatishirishdan olingan F_1 duragaylarida barg plastinkasining tuklanishi bo‘yicha ikkita fenotipik sinf ajratildi. Birinchisi barg plastinkalari tuklangan, ikkinchisi tuksiz. F_2 duragaylari fenotipik sinflar o‘rtasidagi nisbat 3:1 ga yaqin (12- jadval).

12- jadval

F_2 duragaylarida barg plastinkasi tuklanishining irsiylanishi.

| Material | n | Barg plastinkasi tuklanishi | |
|----------------------------------|-----|-----------------------------|--------|
| | | Tukli | Tuksiz |
| Olingen faktik son (P) | 443 | 335 | 108 |
| Nazariy kutilgan son (q) 3:1 | 443 | 332,25 | 110,75 |
| Farq (d) | 0 | -2,75 | 2,75 |
| d^2 | | 7,565 | 7,565 |
| d^2/q | | 0,02276 | 0,0683 |
| $\sum \chi^2 = 0,0911$ | | $P=0,95-0,80$ | |

2. Olingen dalillarning tahlili biz o‘rgangan kombinatsiya duragaylarida barg plastinkasi tukli va tuksiz belgisi bo‘yicha irsiylanishi bir gen tomonidan boshqarilishligini ko‘rsatadi (Ergashev M.M., Xamdullaev Sh.A., Boboxujaev Sh.U. 2014 y.).

3.10.Gossipol bezchalarining irsiylanishi

Gossipol (Gossypolum). Gossipol (o‘rtacha 1%) urug‘lar yadrosida va g‘o‘zaning boshqa qismlarida uchraydi, zaharli. Paxta yog‘i ishlab chiqarish jarayonida u zaharsiz, kuchli bo‘ylagan, yog‘ rafinatsiyasini qiyinlashtiruvchi moddaga aylanadi. Hozirgi paytda xorijda polimer materiallar, asosan laklar omili uchun ishlatiladi.

Gossipol go‘zaning barglarida, ildiz va poya asosida mavjudsir. Gossipol o‘zi sariq rangda bo‘lib, kristall tuzilishga ega va polimorf modifikatsiyasiga bogliq ravishda 184, 199 va 214°C da eriydi.

Gossipol oldiniga Xitoyda 1950-yillarda o‘tkazilgan epidimiologik tadqiqotlar natijasida tugishga qarshi agent sifatida aniqlangan. Tadqiqotlar o‘ziga xos geografik mintaqada tugish darajasining o‘ta pastligidan hayratda qolishgan. Erakkarda sperma miqdori juda past bo‘lgan, ayollarda esa amenoriya kuzatilgan. Oxir oqibatda paxta yogidan ovqat tayyorlash cheklandi. Keyingi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki gossipolning homila bo‘lishiga qarshilik qiluvchi komponenti

zaharli fenolik pigment bo‘lib chiqdi. Shuning uchun paxta yogini kamroq ishlatalish maqsadga muvofiqsir. Gossipol aslida polifenoldir.

G‘o‘zada u turli yirtqichlar, har-xil zamburuglar ta’siridan saqllovchi himoya qiluvchi agent sifatida rol o‘ynaydi. Ko‘pchilik hayvonlarda gossipol bepushtlikni keltirib chiqaradi, odamda ham u past dozalarda spermatogenez jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatib, spermatazoidlar etilishini tormozlab qo‘yadi. U jinsiy organlar, buyraklar, jigar faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Gossipol hujayraviy tomir va nervpatolitik zahar hisoblanadi. Qizig‘i shundaki, gossipol g‘o‘za o‘simgilining barcha yer ustki organlarida uchraydi, bu esa uni hashorotlardan himoya qilish uchun va kasalliklarga chidamlilagini oshirishda juda ahamiyatlidir.

Sh.Turabekov, S.Musayeva liniyalar aro duragaylarda g‘o‘za poyasidagi gossipol bezchalarining bor yoki yo‘q belgisining irsiylanishini o‘rgangan. Mualliflarning fikricha bu belgi monogen xarakterga ega.

D.S. Calhoun o‘simglikda gossipol bezchalarining borligi ularni zararkunanda hashorotlardan himoya qilishini aniqladi.

Genetik kolleksiyaning L-477 va L-479 liniyalarini o‘zaro chatishtirishdan olingan F_1 , F_2 , va F_b duragaylarida g‘o‘za poyasi va ko‘sagida gossipol bezchalarining “bor yoki yo‘q” ligi belgisining irsiylanishi o‘rganilgan.

L-477 liniyasi poyasi va ko‘sagida gossipol bezchalarining borligi bilan xarakterlansa, L-479 liniya o‘simgliklari poyasi va ko‘sagida gossipol ezchalari yo‘q.

Ushbu liniyalarni o‘zaro chatishtirishdan olingan F_1 duragay o‘simgliklari poyasi va ko‘sagida gossipol bezchalarini bor.

F_2 da gossipol bezchalarining “bor yoki yo‘q” belgisi bo‘yicha ikkita fenotipik sinfga ajratilgan:

- poyasi va ko‘sagida gossipol bezchalarini bor o‘simgliklar;

- poyasi va ko‘sagida gossipol bezchalarini yo‘q o‘simgliklar;

Fenotipik sinflar nisbati 3:1 ga teng bo‘lib, nazariy kutilgan nisbatga mos (13-jadval).

13-jadval

F_1 , F_2 va F_b da gossipol bezchalarining “bor yoki yo‘q” ligi belgisining irsiylanishi.

| Material | n | Gossipol bezchalarining “bor yoki yo‘q”ligi | | Nisbat | χ^2 | P |
|----------------------------|-----|---|------|--------|----------|-----------|
| | | bor | yo‘q | | | |
| L-477 | 100 | 100 | 0 | | | |
| F_1 L-477 x L-479 | 46 | 46 | 0 | | | |
| F_2 L-477 x L-479 | 360 | 263 | 97 | 3:1 | 0,7259 | 0,50-0,20 |
| F_b (L-477xL-479)x L-479 | 108 | 54 | 54 | 1:1 | 0,00 | 1,00 |
| L-479 | 51 | 0 | 51 | | | |

(L-477 x L-479) x L-479 kombinatsiyasining bekross duragaylarida gossipol bezchalarining “bor yoki yo‘q”ligi belgisi bo‘yicha ham ikkita fenotipik sinf hosil bo‘lgan. Bu sinflarning nisbati 1:1 ga teng (13- jadval).

O‘rganilgan adabiyotlarda bu belgining retsessiv gl_1 holati g‘o‘za o‘simligida gossipol bezchalarining yo‘q belishligini ta’minlaydi.

Shu nuqtai nazardan bu belgi bo‘yicha ota ona liniyalarining genotipini quyidagida belgilash mumkin:

| | | | |
|----------------------|---|-------------------------------------|--------------------------------------|
| | L-477 – Gl_1Gl_1 , L-479 – gl_1gl_1 . | F_1 - Gl_1gl_1 | |
| | Genlar o‘zaro ta’sirining chizmasini quyidagicha yozish mumkin. | | |
| | bor | | yo‘q |
| P _♀ | Gl_1Gl_1 | x | gl_1gl_1 |
| L-477 | | | L-479 |
| g. F ₁ | Gl_1 | | gl_1 |
| | | Gl_1gl_1 | |
| | | bor | |
| P | Gl_1gl_1 | x | Gl_1gl_1 |
| | bor | | bor |
| g. | Gl_1, gl_1 | | Gl_1, gl_1 |
| F ₂ | $\overbrace{Gl_1Gl_1}^{\text{bor}}$ | $\overbrace{Gl_1gl_1}^{\text{bor}}$ | $\overbrace{Gl_1gl_1}^{\text{yo‘q}}$ |
| P _♀ | Gl_1gl_1 | x | gl_1gl_1 |
| | bor | | yo‘q |
| g. | Gl_1, gl_1 | | gl_1 |
| F ₁ | Gl_1gl_1 | | gl_1gl_1 |
| | bor | | yo‘q |
| | 1 | : | 1 |

Olingan natijalarning tahlili g‘o‘za o‘simligida gossipol bezchelarining “bor yoki yo‘q”ligi belgisi to‘liq dominantlik holatida irsiylanib, bir gen tomonidan nazorat qilinadi.

IV-606.G‘O‘ZA BELGILARINING IRSIYLANISHIDA GENLARNING O‘ZARO TA’SIRI.

4.1.O‘simlik rangining irsiylanishi.

G`o`za o`simligida antosian rang bir tekisda taqsimlanmagan. Antosian (qizil) pigment gipokotilda, urug` pallada, chin barglarda, gultojbarglar va ko`saklarda uchraydi.

Diploid turlar uchun antosian pigmentini taqsimlovchi R genining 6 ta alleli aniqlangan: R , R^L , R^C , R^S , r^O va r^G . Bunda R alleli o`simlikda antosian rangni nazorat qiladi, R^L – barglarning qizil rangini, R^C – kosachabarglarning qizil rangini, R^S – gultojbarglar asosidagi antosian dog`ni boshqaradi, r^O - antosian dog`ning yo`qligini, r^G – gultojbarglar asosida kuchsiz antosian dog`ning rivojlanishini boshqaradi (Hutchinson, 1932, 1937).

Tetraploid *G.hirsutum L.* turida o`simlikda antosian rangni nazorat qiluvchi R_1 geni o`simlikning qismidagi antosian pigmentni boshqaradi va III-birikish guruhidagi joylashgan (Harland, 1935; 1939; Kohel, 1972).

Yangi dunyo g`o`zalarining vagitativ va generativ organlarida antosianning namoyon bo`lishi Stephens (1948, 1969, 1974) ning belgilashi bo`yicha R_1 va R_2 deb atalgan ikkita genetik lokuslarning ta`siri va o`zaro ta`siri tufayli amalga oshadi. R_1 geni *G.hirsutum L.* g`ozalari orasida, R_2 geni *G. barbadense L.* g`o`zalari orasida ma`lum. G`ozada „qizil barg“ va „qizil poya“ fenotiplarining namoyon bo`lishini nazorat etuvchi - R_2^h geni har ikki turga taalluqli hisoblanadi va bu belgining to`liqsiz dominantlik holatda irsiylanishi va bir gen tomonidan boshqarilishligini ko`rsatib berdilar.

Kohel (1972) o`simlik rangini boshqaruvchi R_1 genini III birikish guruhiga, gultoj barglar asosidagi antotsian dog`ni boshqaruvchi R_2 genini I birikish guruhiga kiritgan.

D.A.Musayev (1979) g`o`za genetik kolleksiyasi liniyalarida bu belgining irsiylanishini o`rganib, uning monofaktoral boshqarilishligini tasdiqladi va o`simlik rangini rivojlantiruvchi genni R_p - r_p bilan belgiladi.

Chatishtrish uchun olingan ota-onalari o`simlik rangi bo`yicha o`zaro keskin farqlanadilar. L-3, L-38 liniya o`simliklari antotsian rangga, L-47, L-452 liniya o`simliklari esa yashil rangda.

14-jadval

Liniyalararo F_2 duragaylarda o`simlik rangi bo`yicha ajralish

| Material | n | O`simlik rangi bo`yicha genotip | | | Nisbat | χ^2 | P |
|------------|------|------------------------------------|-----------|-----------|--------|----------|-----------|
| | | $R_P R_P$ | $R_P r_p$ | $r_p r_p$ | | | |
| L-3 x L-47 | 1827 | 438 | 928 | 461 | 1:2:1 | 1,39 | 0,50-0,20 |
| L-47 x L-3 | 2917 | 709 | 1488 | 720 | 1:2:1 | 1,27 | 0,80-0,50 |
| Jami | 4744 | 1147 | 2416 | 1181 | 1:2:1 | 2,11 | 0,50-0,20 |

L-3 x L-47 kombinatsiyasining F_1 duragaylari oraliq rangga ega bo`lganlar. F_2 da bu beggi bo`yicha ajralish sodir bo`lib, uchta fenotipik sinflar ajratilgan:

1) antosian rangli o`simliklar;

2) oraliq rangli o'simliklar;

3) yashil rangli o'simliklar;

Bu sinflarning nisbati 1:2:1 (14-jadval).

L-38 va L-452 liniyalar aro duragaylaning F₁ avlod o'simliklarida o'simlik rangi bo'yicha oraliq ranga ega bo'lganlar.

F₂ o'rganilayotgan belgi bo'yicha ajralish sodir bo'lib 3 ta fenotipik sinf hosil bo'ladi:

- antotsian rangli o'simliklar;
- oraliq rangli o'simliklar;
- yashil rangli o'simliklar.

Fenotipik sinflarning nisbati 1:2:1 (15-jadval).

15-jadval

F₂ duragaylarida o'simlik rangi bo'yicha ajralish

| Material | n | O'simlik rangi | | |
|---|-----|----------------|--------|--------|
| | | Antotsian | Oraliq | Yashil |
| Olingan faktik son | 427 | 85 | 234 | 108 |
| Nazariy kutilgan son (q) 1:2:1 nisbatda | 427 | 106,75 | 213,5 | 106,75 |
| Farq (d) | 0 | -21,75 | +20,5 | +1,25 |
| d ² | | 473,06 | 420,25 | |
| d ² Fq | | 4,4314 | 1,9683 | 0,0146 |
| $\Sigma \chi^2 = 6,3997;$ | | P=0,05 | | |


Agarda F₂ dagi antotsian va oraliq rangli o'simliklar bitta fenotipik sinfga birlashtirilsa, u holda F₂ da ikkita fenotipik sinf hosil bo'ladi: fenotipik sinflar nisbati 3:1 ga teng (16-jadval).

16-jadval

F₂ duragaylarida o'simlik rangi bo'yicha ajralish.

| Material | n | O'simlik rangi | |
|---------------------------------------|-----|----------------|--------|
| | | Antotsian | Yashil |
| Olingan faktik son | 427 | 319 | 108 |
| Nazariy kutilgan son (q) 3:1 nisbatda | 427 | 320,25 | 106,75 |
| Farq (d) | 0 | -1,25 | 1,25 |
| d ² | | 1,5625 | 1,5625 |
| d ² /q | | 0,0048 | 0,0146 |
| $\Sigma \chi^2 = 0,0194;$ | | P=0,80-0,50 | |

Genlar o'zaro ta'sirining chizmasini quyidagicha yozish mumkin.



Olingen dalillarning tahlili L-3 x L-38 va L-38 x L-452 kombinatsiyalarida o'simlik rangi monofaktoral – (R_P - r_P) boshqarilishga ega ekanligini ko'rsatdi.

D.A.Musayev (1979) tomonidan tahlil qilingan tadqiqotlarining yana birida antotsian rangli L-39 liniya o'simliklarini L-452 liniya o'simliklari va ularning kombinatsion duragaylari hizmat qilgan.

Bu liniyalarni o'zaro chatishtirishdan olingen F_1 duragaylari o'simlik rangi bo'yicha oraliq rangga ega bo'lganlar. Binobarin, o'simlik va barglarning antotsian rangi yashil rangi ustidan to'liqsiz dominantlik qiladi.

F_2 o'rganilayotgan belgi bo'yicha ajralish sodir bo'lib, 3 ta fenotipik sinflar hosil bo'ladi:

- antotsian rangli o'simliklar;
- oraliq rangli o'simliklar;
- yashil rangli o'simliklar.

Fenotipik sinflarning nisbati 1:2:1 (17-jadval).

17-jadval

F_2 duragaylarida o'simlik rangi bo'yicha ajralish

| Material | n | O'simlik rangi | | |
|---|-----|-------------------|--------|--------|
| | | Antotsian | Oraliq | Yashil |
| Olingen faktik son (p) | 542 | 111 | 293 | 138 |
| Nazariy kutilgan son (q) 1:2:1 nisbatda | 542 | 135,5 | 271 | 135,5 |
| Farq (d) | 0 | -24,5 | 22 | 2,5 |
| d^2 | | 600,25 | 484 | 6,25 |
| d^2/q | | 4,4298 | 1,3116 | 0,0461 |
| $\Sigma \chi^2 = 5,7875;$ | | $P = 0,20 - 0,05$ | | |

Agarda F_2 da hosil bo'lgan fenotipik sinflarning dastlabki ikkita sinfini bitta fenotipik sinfga birlashtirsak, u holda F_2 da ikkita fenotipik sind hosil bo'ladi: fenotipik sinflar nisbati 3:1 ga teng (18-jadval).

| Material | n | O'simlik rangi | |
|---------------------------------------|-----|----------------|--------|
| | | Antotsian | Yashil |
| Olingan faktik son (p) | 542 | 404 | 138 |
| Nazariy kutilgan son (q) 3:1 nisbatda | 542 | 406,5 | 135,5 |
| Farq (d) | 0 | -2,5 | 2,5 |
| d^2 | | 6,25 | 6,25 |
| d^2/q | | 0,0153 | 0,0461 |
| $\Sigma \chi^2 = 0,0614;$ | | P= 0,95 – 0,80 | |

Genlar o'zaro ta'sirining chizmasini yuqoridagi L-38 va L-452 kombinatsiyaning genetik chizmasi bilan analogik holatni yuzaga keltirdi.

Fenotipik sinflar nisbati shuni ko'rsatadi-ki, mazkur kombinatsiyada ham o'simlik rangi bir gen tomonidan boshqarilib, adabiyot dalillariga mos keladi.

Olingan dalillarning tahliliga asoslangan holda muallif o'simlikning antotsian rangi bir genning dominant gomozigotali holati ($R_P R_P$) bilan boshqariladi deb hisoblaydi. Bu genning retsessiv alleli gomozigota ($r_p r_p$) holatda o'simlikning yashil rangini rivojlantiradi. Bu gen geterozigota holatda ($R_P r_p$) oraliq rangni rivojlantiradi.

M.F.Abzalov, G.N.Fatxullaeva, Sh.X.Atabaeva (1986) genetik kolleksiya liniyalarida (L-12-1, L-35, L-477, L-501, L-12) o'simlik rangining irsiylanishini o'rgandilar. F_1 , F_2 duragaylarida olingan dalillarni tahlil qilgan holda ular L-477 liniyada o'simlik rangiga aloqador ikkinchi genni aniqladilar. R^v_{st} genini aniqladilar. Ko'p sondagi tadqiqotlar natijasida *G. hirsutum L.* g'o'za turiga kiruvchi nav va formalarda, liniyalarda g'o'za o'simligi antotsian rangining ikki gen tomonidan boshqarilishligi aniqlandi:

Birinchi gen – R_I (Kohel-1972, R_p - D.A.-Musayev 1979);

Ikkinci gen - R^v_{st} (M.F.Abzalov va boshq.-1986).

Quyidagicha chatishtirish kombinatsiyalari o'rganildi:

1) L-12-1 x L-501 2) L-501 x L- 477

L-12 x L-35 L-476 x L- 477

3) L-12-1 x L- 477

L-33 x L- 477

Birinchi guruh chatishtirishlaridan (L-12-1 x L-501; L-12 x L-35) olingan F_1 o'simliklari oraliq rangga ega bo`lganlar, (to`liqsiz dominantlik kuzatilgan).

Ikkinci avlodda (F_2) o'simlik rangi bo'yicha monoduragay chatishtirishdag'i singari ikkita fenotipik sinflar ajratilgan:

- antotsian rangli (antotsian + oraliq) o'simliklar,
- yashil rangli o'simliklar. Bu sinflar o'rtasidagi nisbat 3:1 ga teng (19-jadval).

Ikkinci guruh chatishtirishda (L-501 x L- 477; L-476 x L- 477) olingan F_1 duragaylari har ikki ota-onasi o'rtasidagi oraliq rangga ega bo'ldilar. F_2 birinchi

guruhda bo`lgani kabi ikkita fenotipik sinf: antosian + oraliq rangli o`simliklar va yashil rangli o`simliklar. Ular o`rtasidagi nisbat 3:1 (18-jadval).

Uchinchi guruh chatishirishda boshqacha natija olindi. Bu yerda ishtirok etuvchi ota-onaliniyalari antosian rangga ega bo`lsalar-da, o`zaro bu rangning namoyon bo`lishlik darajasi bilan farq qilar edi.

L-12-1 x L- 477, L-33 x L- 477 chatishirish kombinatsialarining F₁ duragaylari ota-onaliniyalari o`rtasida oraliq antosian rangga ega bo`lganlar. F₂ populyatsiyasi duragaylarida rang bo`yicha aniq farqlanuvchi fenotipik sinflar hosil bo`lgan: antosian rangli o`simliklar (belgining kuchli namoyon bo`lishidan kuchsiz darajada namoyon bo`lishigacha) va yashil rangli o`simliklar. Bu sinflarning nisbati 15:1 bo`lgan, bu hol esa ota-onaliniyalarining ikki gen bilan farqlanishdan darak beradi (19-jadval).

19-jadval

Genetik kolleksiya ayrim liniyalarining F₁, F₂ liniyalarida o`simlik rangining
irsylanishi

| Material | n | O'simlik rangi | | Nisbat | χ^2 | P |
|--------------------------------|------|-------------------------|--------|--------|----------|------------|
| | | Antosian + oraliq | yashil | | | |
| L-12-1 | 100 | 100 | - | - | - | - |
| F ₁ L-12-1 x L-501 | 100 | 100 | - | - | - | - |
| F ₂ L-12-1 x L-501 | 190 | 146 | 44 | 3:1 | 0,34 | 0,80– 0,50 |
| L-501 | 100 | - | 100 | - | - | - |
| L-12 | 100 | - | 100 | - | - | - |
| F ₁ L-12 x L-35 | 150 | 150 | - | - | - | - |
| F ₂ L-12 x L-35 | 482 | 369 | 113 | 3:1 | 0,63 | 0,50– 0,20 |
| L-35 | 100 | 100 | - | - | - | - |
| F ₁ L-501 x L- 477 | 50 | 50 | - | - | - | - |
| F ₂ L-501 x L- 477 | 290 | 224 | 66 | 3:1 | 0,78 | 0,50– 0,20 |
| F ₁ L-476 x L- 477 | 100 | 100 | - | - | - | - |
| F ₂ L-476 x L- 477 | 1143 | 855 | 288 | 3:1 | 0,02 | 0,99– 0,95 |
| L- 477 | 100 | 100 | - | - | - | - |
| L-476 | 100 | - | 100 | - | - | - |
| F ₁ L-12-1 x L- 477 | 100 | 100 | - | - | - | - |
| F ₂ L-12-1 x L- 477 | 594 | 554 | 40 | 15:1 | 0,23 | 0,80– 0,50 |
| L-33 | 100 | 100 | - | - | - | - |
| F ₁ L-33 x L- 477 | 100 | 100 | - | - | - | - |
| F ₂ L-33 x L- 477 | 550 | 512 | 38 | 15:1 | 0,49 | 0,80– 0,50 |

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan kombinatsiyalar duragaylarini tahlil qilish asosida birinchi ikki guruhda ota-onaliniyalari o`simlik rangi bo`yicha monogen ajralish, uchinchi guruh kombinatsiyasida esa digen ajralish holatlari aniqlangan.

Turabekov Sh., Musayeva S.T. (1990) lar g`o`za genetik kolleksiyasining L-477 liniyasi o`simlikni o`simlik rangi yashil bo`lishligi bilan xarakterlanadigan

L-479 liniyasi bilan chatishirish natijasida olingen duragay kombinatsiyalarda o'simlik rangi bo'yicha genetik tahlillar o'tkazdilar.

Unga ko'ra bu liniyalarni o'zaro chatishirishdan olingen F_1 duragaylari oraliq rangga ega bo'lganlar. Ikkinchchi avlodda o'simlik rangi bo'yicha ajralish sodir bo'lib, antotsian rangli, oraliq rangli va yashil rangli o'simliklar kuzatilgan. Antotsian rangli va oraliq rangi o'simliklar bitta fenotipik sinfga, yashil o'simliklar ikkinchi fenotipik sinfga birlashtirildi. Sinflar o'rtasidagi nisbat 3:1 ga teng.

20-jadvalda keltirilgan raqamlar olingen dalillarning nazariy kutilgan songa yaqin ekanligidan dalolat beradi.


20-jadval

F_2 duragaylarida o'simlik rangi bo'yicha ajralish

| Ko'rsatkich | O'simliklar soni-334 | |
|---------------------------------------|-----------------------------|---------------|
| | Rangli (antotsian + oraliq) | Yashil rangli |
| Olingen faktik son | 251 | 83 |
| Nazariy kutilgan son (q) 3:1 nisbatda | 250,5 | 83,5 |
| Farq (d) | 0,5 | -0,5 |
| d^2 | 0,25 | 0,25 |
| d^2/q | 0,0009 | 0,0029 |
| $\Sigma \chi^2 = 0,0038;$ | $P = 0,99 - 0,95;$ | |

Adabiyot dalillariga ko'ra (Abzalov M.F., Fatxullaeva T.N., Atabaeva Sh.X., 1986) L-477 liniya o'simlik rangi bo'yicha $r_p r_p R_{st}^v R_{st}^v$ genotipiga, L-479 liniya esa $r_p r_p R_{st}^v R_{st}^v$ genotipga ega. Ota-onaliniyalari faqat $R_{st}^v - R_{st}^v$ geni bo'yicha farq qiladilar, binobarin, F_2 dagi ajralish monofaktoral kabi boshqarilishga ega bo'lib, to'liqsiz dominantlik hodisasi kuzatiladi.

Genlar o'zaro ta'sirining chizmasini quyidagicha yozish mumkin.



L-12-1, L-33, L-35, L-3 liniyalar o'simliklarini L- 477 liniya o'simliklari bilan chatishtirishdagi genetik chizmasi quyidagicha.

| | | | |
|----------------|--|--|--|
| | Antotsian | | Antotsian |
| P ♀ | $R_p R_p R^v_{st} r^v_{st}$ L-12-1, L-35 | X | $r_p r_p R^v_{st} R^v_{st}$ L-477 |
| g. | $R_p R^v_{st}$ | | $r_p R^v_{st}$ |
| F ₁ | | $R_p r_p R^v_{st} R^v_{st}$ antotsian | |
| P | $R_p r_p R^v_{st} R^v_{st}$ antotsian | X | $R_p r_p R^v_{st} R^v_{st}$ antotsian |
| g. | $R_p R^v_{st}$ $R_p r^v_{st}$ $r_p R^v_{st}$ $r_p r^v_{st}$ | | $R_p R^v_{st}^2$ $R_p r^v_{st}$ $r_p R^v_{st}$ $r_p r^v_{st}$ |
| F ₂ | | | |
| | $R_p R_p R^v_{st} R^v_{st}$ -1- antotsian $R_p R_p R^v_{st} r^v_{st}$ -2 - antotsian $R_p R_p r^v_{st} R^v_{st}$ -1- antotsian $R_p r_p R^v_{st} R^v_{st}$ -2 - antotsian $R_p r_p R^v_{st} r^v_{st}$ -4- antotsian $R_p r_p r^v_{st} R^v_{st}$ -2- antotsian $r_p r_p R^v_{st} R^v_{st}$ -1- antotsian $r_p r_p R^v_{st} r^v_{st}$ -2- antotsian $r_p r_p R^v_{st} r^v_{st}$ -1- yashil | | |
| | | | Nisbat 15 : 1 |

O'simlik rangining irsiylanishi bo'yicha olingan natijalar shundan dalolat beradiki, L-12-1, L-33, L-35, L-3 liniyalarda antotsian rangni rivojlantiruvchi R_p geni (D.A.Musayev, 1979) L- 477 liniya o'simliklarida antotsian rangni nazorat qiluvchi gen bilan bir xil emas. Shu sababli aniqlangan bu yangi gen – R^v_{st} (Red stem and leaf's vanation) simvoli bilan belgilandi. Genetik kolleksianing o'r ganilgan liniyalar uchun o'simlik rangi bo'yicha quyidagi genotiplar xos:

L-12-1, L-33, L-35, L-3- $R_p R_p r^v_{st} r^v_{st}$; L- 477 – $r_p r_p R^v_{st} R^v_{st}$; L-12, L-501, L-476, L-479 liniyalar uchun $r_p r_p r^v_{st} r^v_{st}$.

4.2.Barg nektardonlari bor yoki yo'q belgisining irsiylanishi.

G'o'zada barg nektardonlarining "bor-yo'qligi" belgisining irsiylanishiga aloqador adabiyot dalillari u qadar ko'p emas.

T.R.Meyer va V.G.Meyer (1961) o‘z ishlarida nektardonlarning yo‘qligi xossasining *G. hirsutum L.* turiga o‘tkazilganligi haqidagi ma’lumotni beradilar. Ular o‘tkazilgan duplikat genlarning – ne_1ne_2 retsessiv ekanligini qayd etadilar.

D.S.Holder, T.N.Tenkins, hamda Fc.G.Maxwell (1968) nl_1 va gl_2 genlari bitta birikish guruhidagi joylashganligini aniqladilar.

Sh.Turabekov, S.Musayeva (1986). G‘o‘za o‘simligida barg nektardonlarining “bor-yo‘qligi” belgisi F_1 , F_2 duragaylarida tahlil qilib, bu belgining ikki gen tomonidan boshqarilishligini tasdiqladilar.

Tanlab olingan ota-onalari liniyalari bu belgi bo‘yicha o‘zaro keskin farqlanadilar. L-477 liniya barglarida nektardonlarning yo‘qligi bilan, L-479 liniya esa nektardonlarning borligi bilan xarakterlanadi. Bu liniyalarni o‘zaro chatishirishdan olingan F_1 duragaylari barglarida nektardonlarning mavjudligi bilan xarakterlanadilar. Ikkinci avlodda bu belgi bo‘yicha ajralish sodir bo‘lib, ikkita fenotipik sind hosil bo‘ladi:

- 1) barg nektardonlari bo‘lgan o‘simliklar;
- 2) barg nektardonlari yo‘q o‘simliklar.

Bu sinflarning nisbati 15:1. 21-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, olingan dalillar nazariy kutilgan songa yaqin.

21-jadval

F_2 duragaylarida «barg nektardonlarining bor yoki yo‘qligi» belgisi
bo‘yicha ajralish

| Ko‘rsatkich | n | Barg nektardonlari | |
|--|-----|--------------------|---------|
| | | bor | yo‘q |
| Olingan faktik son | 334 | 306 | 28 |
| Nazariy kutilgan son (q) 15:1 nisbatda | | 313,125 | 20,875 |
| Farq (d) | | -7,125 | 7,125 |
| d^2 | | 50,7656 | 50,7656 |
| d^2/q | | 0,1621 | 2,4318 |
| $\Sigma \chi^2 = 2,5939;$ | | $P = 0,20 - 0,05;$ | |

Olingan dalillarning tahlili barglarda nektardonlarning borligi ikki gen tomonidan boshqarishligini ko‘rsatadi.

A.K.Rahimov, Sh. Turabekov va b. (2007, 2008), L-477 liniyani (barg nektardonlari yo‘q) L-110, L-475 liniyalari (barg nektardonlari bor) bilan chatishirib olingan keyingi avlodlarida yuqoridagi natijalarni takrorladilar.

Birinchi avlod duragaylari (L-477 x L-110, L-477 x L-445) barg nektardonlarining borligi bilan xarakterlanganlar. F_2 da “bor-yo‘q” belgisi bo‘yicha ajralish sodir bo‘lib ikkita fenotipik sind ajratilgan: barg nektardonlariga ega bo‘lgan o‘simliklar va barg nektardonlariga ega bo‘lmagan o‘simliklar. Bu sinflarning nisbati 15:1 bo‘lgan (22-jadval).

22-jadval.

Barg nektardonlarining “bor-yo‘qligi” belgisining irsiylanishi.

| Material | n | Barg nektardonni | | nisbat | χ^2 | P |
|--|-----|------------------|------|--------|----------|-----------|
| | | bor | yo‘q | | | |
| L-477 | 100 | - | 100 | - | - | - |
| F ₁ L-477 x L-110 | 90 | 90 | - | - | - | - |
| F ₂ L-477 x L-110 | 422 | 395 | 27 | 15:1 | 0,015 | 0,99-0,95 |
| F _b (L-477 x L-110) x L-110 | 312 | 312 | - | 1:0 | 0,00 | 1,00 |
| L-110 | 90 | 90 | - | - | - | - |
| L-475 | 100 | 100 | - | - | - | - |
| F ₁ L-477 x L-475 | 100 | 100 | - | - | - | - |
| F ₂ L-477 x L-475 | 598 | 562 | 36 | 15:1 | 0,053 | 0,95-0,80 |
| F _b (L-477 x L-475) x L-477 | 66 | 52 | 14 | 3:1 | 0,520 | 0,50-0,20 |
| F _b (L-477 x L-475) x L-475 | 69 | 69 | - | 1:0 | 0,00 | 1,00 |

F₁ duragaylari (L-477 x L-475) retsessiv L-477 liniya bilan qayta chatishdirilsa F_b da ikkita fenotipik sinf ajratilgan: barg nektardonlariga ega o‘simliklar va barg nektardonlariga ega bo‘lmagan o‘simliklar. Bu sinflarning nisbati 3:1 ga teng (22-jadval).

F₂ va F_b duragaylarining dalillarini tahlil qilgan holda mualliflar ota-onaliniyalarining ikki gen allellari ($Ne_1 - ne_1$, $Ne_2 - ne_2$) bilan farq qilishligini qayd etdilar.

Ota-onaliniyalarini quyidagi genotiplarga ega: L-477 - $ne_1ne_1ne_2ne_2$; L-110, L-475 - $Ne_1Ne_1Ne_2Ne_2$, F₁ duragaylari digeterozigotali bo‘lib, quyidagi genotipga - $Ne_1 ne_1Ne_2ne_2$ ega.

Genlar o‘zaro ta’sirining chizmasini quyidagicha yozish mumkin.

| | | | |
|----------------|----------------------|--|-----------------------|
| | barg nektardonni bor | | barg nektardonni yo‘q |
| P ♀ | $Ne_1Ne_1Ne_2Ne_2$ | x | $ne_1ne_1ne_2ne_2$ |
| | L-110 va L-475 | | L-477 |
| g. | Ne_1Ne_2 | | ne_1ne_2 |
| F ₁ | | $Ne_1ne_1Ne_2ne_2$ | |
| | | barg nektardonni bor | |
| P ♀ | $Ne_1ne_1Ne_2ne_2$ | x | $Ne_1ne_1Ne_2ne_2$ |
| | barg nektardonni bor | | barg nektardonni bor |
| g. | Ne_1Ne_2 | | Ne_1Ne_2 |
| | Ne_1ne_2 | | Ne_1ne_2 |
| | ne_1Ne_2 | | ne_1Ne_2 |
| | ne_1ne_2 | | ne_1ne_2 |
| F ₂ | | $Ne_1Ne_1Ne_2Ne_2$ -1 - barg nektardonni bor | |
| | | $Ne_1Ne_1Ne_2ne_2$ -2 - barg nektardonni bor | |
| | | $Ne_1Ne_1ne_2ne_2$ -1 - barg nektardonni bor | |
| | | $Ne_1ne_1Ne_2Ne_2$ -2 - barg nektardonni bor | |

| | | | | | | |
|----------------|----|--|---|-----|---|--|
| | | | Ne ₁ ne ₁ Ne ₂ ne ₂ | -4- | barg nektardoni bor | |
| | | | Ne ₁ ne ₁ ne ₂ ne ₂ | -2- | barg nektardoni bor | |
| | | | ne ₁ ne ₁ Ne ₂ Ne ₂ | -1- | barg nektardoni bor | |
| | | | ne ₁ ne ₁ Ne ₂ Ne ₂ | -2- | barg nektardoni bor | |
| | | | ne ₁ ne ₁ ne ₂ ne ₂ | -1- | barg nektardoni yo‘q | |
| | | | | | Nisbat 15 : 1 | |
| | | | barg nektardoni bor | | barg nektardoni yo‘q | |
| P | ♀ | | Ne ₁ ne ₁ Ne ₂ ne ₂ | X | ♂ ne ₁ ne ₁ ne ₂ ne ₂ | |
| | | | (L-477 x L-110) | | L-110 | |
| | g. | | Ne ₁ Ne ₂ | | ne ₁ ne ₂ | |
| | | | Ne ₁ ne ₂ | | | |
| | | | ne ₁ Ne ₂ | | | |
| | | | ne ₁ ne ₂ | | | |
| F _b | | | Ne ₁ ne ₁ Ne ₂ ne ₂ | -1- | barg nektardoni bor | |
| | | | Ne ₁ ne ₁ ne ₂ ne ₂ | -1- | barg nektardoni bor | |
| | | | ne ₁ ne ₁ Ne ₂ ne ₂ | -1- | barg nektardoni bor | |
| | | | ne ₁ ne ₁ ne ₂ ne ₂ | -1- | barg nektardoni yo‘q | |
| | | | | | Nisbat 3 : 1 | |

F_b (L-477 x L-475) x L-477 va F_b (L-477 x L-475) x L-475 duragay kombinasiyalarida genlar o‘zaro ta’sirining chizmasini ham yuqoridagi F_b duragay kombinatsiyasi kabi analogik holat kuzatish mumkin.

Olingan dalillar g‘o‘zada barg nektardonlarining “bor-yo‘q” belgisi noallel genlar o‘zaro ta’sirining kumulyativ bo‘lmagan polimeriya tipining ta’sirida rivojlanadi.

4.3.Barg plastinkasi shaklining irsiylanishi.

Ma’lumki, barg plastinkasi o‘simliklarning asosiy organlaridan bo‘lib, unda fotosintez, nafas olish va transpiratsiya jarayonlari sodir bo‘ladi hamda o‘simliklarning biologik va xo‘jalik hosildorligi belgilanadi. Shu sababli barg plastinkasining strukturaviy morfologiysi va funksiyasining genetik nazorat qilinishini o‘rganish katta ahamiyatga ega. G‘o‘za barg plastinkasi shaklining genetikasini o‘rganish seleksiya hamda g‘o‘za filogeniyasi uchun muhim rol o‘ynaydi.

Gossypium avlodni (turkumi)ning turlari har xil shakldagi barg plastinkalariga ega. Yaxlit bargli, panjasimon-bo‘linma, panjasimon-bo‘lingan, panjasimon-qirqilgan barg shakllari kuzatiladi.

Barg plastinkasi shakllarining genetikasiga doir chet el hamda vatanimiz olimlarining qator ishlari mavjud.

P.F.Fusion g‘o‘zaning *G. arboreum* L. va *G. herbaceum* L. turlararo duragaylarida barg plastinkasi shaklining irsiylanishini o‘rgandi. Muallif F₁ da kesik bargli duragaylar olgan. F₂ da esa 3:1 nisbatda kesik bargli va keng bargli duragaylar olgan.

R.H.Peebles, T.H.Kearney (1928) kesik bargli Asalani oddiy bargli Asala bilan chatishtirish natijasida olingan F₁ duragaylarida oraliq barg shaklini

kuzatganlar. Ular F₂ da 1:2:1 (kesik: oraliq: oddiy) nisbatdagi duragaylarni olishgan. Analogik dalillar J. O. Ware (45) va Kokuev V. I. ishlarida ham olingan.

S. C.Harland, J. B Hutchinson, R. A.Silow, S.C.Stephens tadqiqotlari bargning kesiklik darajasini belgilashda qatnashuvchi genlarning ko‘p seriyali ekanligidan dalolat beradi.

S.C.Harlandning ta’kidlashicha, Upland g‘o‘zalarida barg shakli genining to‘rtta seriyasi – O^u, O^c, O^o, O^s qatnashib, har biri o‘ziga xos barg shaklini aniqlaydi.

S.C.Stephens amerika g‘o‘zasida barg shakllarining irsiylanishida L. genining to‘rt seriyadan iborat allellari – L^s, L^o, L^e, L ishtirok etadi deydi. Muallif dalillariga qaraganda *G. hirsutum* L turida bu genning to‘rtala seriyasi ham aniqlangan. *G. tomentosum* L. da – bitta, *G. barbadense* L. da – L^o va L^e seriyalari aniqlangan.

Dumaloq barg (round leaf), panjasimon kirtikli (bround leaf) barg shakllari H.B.Brown, J.R.Cotton, T.R.Richmond, R.E.Harpes larning ta’kidlashicha, bir gen orqali farqlanib, bir gen tizimida irsiylanadi.

D.A.Musayev *G. barbadense* L. x *G. trilobum* L. turlararo duragaylarda *G. trilobum*ning panjasimon-qirqilgan barg shakli to‘liqsiz ustunlik qilishini ta’kidlaydi.

Barg plastinkasi shaklining genetikasi g‘o‘za genetik kolleksiyasining izogen liniyalarida O‘zbekiston Milliy universitetida *G. hirsutum* g‘o‘za turida D.A.Musayev va uning shogirdlari Abzalov M. F. va Fatxullaeva G. N. lar tomonidan atroflicha o‘rganilgan.

D.A.Musayev (1979) genetik kolleksiya liniyalarini o‘zaro chatishirishdan olingan F₁, F₂ duragaylarida barg plastinkasi shaklining irsiylanishini o‘rganish asosida, bu genning irsiylanishi haqidagi boshqa tadqiqotchilarining xulosalarini tasdiqlovchi dalillarni oldi.

Adabiyotlar tahlilida osonroq bo‘lishligi uchun D.A.Musayev va M.F.Abzalov (2010) lar tomonidan barg plastinkasi shakllarining nomlanishlarini keltirib o‘tamiz.

- | | |
|--|-------------------------|
| .D. A. Musayev bo‘yicha: | M. F. Abzalov bo‘yicha: |
| - panjasimon-qirqilgan barg plastinka – panjasimon-qirqimli | |
| - panjasimon-bo‘lingan barg plastinka – panjasimon-qirqilgan | |
| - panjasimon-bo‘linma barg plastinka – panjasimon-kirtikli | |

Tajribalarning tahlili davomida biz Musayev D.A. tomonidan keltirilgan nomlarni ishlatajamiz.

Mualliflar dastlab panjasimon bo‘linma barg shakli L-15, L-463 liniyalarini L-13 va L-73 deb nomlangan panjasimon kesik barg shakli liniyalarini bilan chatishtirdilar.

F₁ duragaylari (L-13 x L-15) va (L-463 x L-73) panjasimon bo‘lakli barg shakli bilan tasiflandilar (23-jadval,).

F₂ duragaylarida barg shakli bo‘yicha ajralish kuzatilgan. O‘rganilayotgan belgi bo‘yicha F₂ duragaylari aniq uchta fenotipik sinflarga ajralgan:

- panjasimon - kesik barg shakliga ega bo'lgan o'simliklar,
- panjasimon – bo'lakli barg shakliga ega bo'lgan o'simliklar,
- panjasimon bo'linma barg shakliga ega bo'lgan o'simliklar.

23-jadval

Panjasimon bo'linma va panjasimon kesik barg shakllariga ega bo'lgan g'o'za liniyalarini o'zaro chatishirishda barg plastinkasi shaklining irsiylanishi.

| Material | n | Barg shakllari | | | Nisbat | X ² | P |
|-------------------------------------|-----|----------------|------------|------------|--------|----------------|-----------|
| | | P/kesik | P/bo'lakli | P/bo'linma | | | |
| L-15 | 100 | - | - | 100 | - | - | - |
| F ₁ L-13 x L-15 | 100 | - | 100 | - | - | - | - |
| F ₂ L-13 x L-15 | 320 | 83 | 155 | 82 | 1:2:1 | 0,32 | 0,95-0,80 |
| F _b (L-13 x L-15)xL-15 | 120 | - | 62 | 58 | 1:1 | 0,13 | 0,80-0,50 |
| L-13 | 100 | 100 | - | - | - | - | - |
| L-463 | 100 | - | - | 100 | - | - | - |
| F ₁ L-463 x L-73 | 100 | - | 100 | - | - | - | - |
| F ₂ L-463 x L-73 | 254 | 64 | 131 | 59 | 1:2:1 | 0,45 | 0,80-0,50 |
| F _b (L-463 x L-73)xL-463 | 93 | - | 44 | 49 | 1:1 | 0,27 | 0,80-0,50 |
| F _b (L-463 x L-73)xL-73 | 49 | 23 | 26 | - | 1:1 | 0,18 | 0,80-0,50 |
| L-73 | 100 | 100 | - | - | - | - | - |

Fenotipik sinflarning nisbati: 1:2:1. kuzatilayotgan ajralish nazariy kutilgan sonlarga mos kelgan holda, adabiyot dalillarining bu belgining monogen boshqarilishi haqidagi xulosalariga to'g'ri keladi

24-jadval.

Panjasimon bo'linma va yaxlit barg plastinkali g'o'za liniyalarini o'zaro chatishirishda barg plastinkasi shaklining irsiylanishi.

| Material | n | Barg shakllari | | | Nisbat | X ² | P |
|--|-----|----------------|-------------------------------------|------------------------|--------|----------------|-----------|
| | | Yaxlit | Kuchsiz kesilgan uch bo'lakli | Panjasimon bo'linma | | | |
| L-70 | 100 | - | - | 100 | - | - | - |
| F ₁ L-70 x L-501 | 100 | - | 100 | - | - | - | - |
| F ₂ L-70 x L-501 | 732 | 161 | 370 | 201 | 1:2:1 | 4,46 | 0,20-0,05 |
| F _v (L-70 x L-501)xL-70 | 145 | - | 77 | 68 | 1:1 | 0,56 | 0,50-0,20 |
| F _v (L-70 x L-501)xL-501 | 124 | 66 | 58 | - | 1:1 | 0,52 | 0,50-0,20 |
| L-501 | 100 | 100 | - | - | - | - | - |
| F ₁ L-501xL-463 | 100 | - | 100 | - | - | - | - |
| F ₁ L-463 x L-501 | 100 | - | 100 | - | - | - | - |
| F ₂ L-463 x L-501 | 415 | 86 | 216 | 113 | 1:2:1 | 4,21 | 0,50-0,20 |
| F _v (L-463 x L-501) x L-463 | 243 | - | 134 | 109 | 1:1 | 2,57 | 0,20-0,05 |
| L-463 | 100 | - | - | 100 | - | - | - |

M.F.Abzalov, G.N.Fatxullaeva (1979) Ozarbeyjon – 50 mutant vakilni o‘z-o‘ziga changlantirish va tanlash yo‘li bilan yaxlit barg plastinkasiga ega L-501 liniyasini ajratib olishga muvofiq bo‘ldilar. Bu liniya genetik kolleksiyaning panjasimon kesik va panjasimon bo‘linma barg plastinka shaklli liniyalari bilan chatishtirildi.

Mualliflarning keyingi tajribalarida panjasimon bo‘linma barg shakli L-70, L-463 liniyalari va yahlit barg shakli 1-501 liniyasi hizmat qildi.

Birinchi avlod F_1 duragay o'simliklari ($L-70 \times L-501$) va ($L-463 \times L-501$) barg plastinkasining kuchsiz kesilgan uch bo'lakli shakli bilan tavsiflanadilar. F_2 da har ikki chatishtirish kombinitsiyasida uchta fenotipik sinflar ajratilgan: yaxlit bargli o'simliklar, kuchsiz kesilgan uch bo'lakli o'simliklar, panjasimon bo'linma barg plastinkali o'simliklar. Ularning nisbati 1:2:1 ga yaqin (24-jadval).

Bekross o'simliklar avlodini tahlil qilish natijalari L-70, L-463 liniyalar L-501 ga nisbatan monogen farqlanishga ega ekanligini ko'rsatdi.

Birinchi ikki kombinatsiyada ota-onalari monogen farqqa ega bo'lganligi sababli ularda monogen tipdagi ajralish kuzatiladi. Genlar o'zaro ta'sirining chizmasini quyidagicha yozish mumkin.

| | | | |
|------|--|---|--|
| 1) P | $\begin{matrix} \text{♀} & \text{panjasimon} \\ & \text{bo'linma} \\ (\text{L-15, L-463}) & \end{matrix}$ | x | $\begin{matrix} \text{♂} & \text{panjasimon} \\ & \text{kesik} \\ (\text{L-73, L-13-1}) & \end{matrix}$ |
| | $\begin{matrix} \text{in}' & \text{in}' & \text{o}' & \text{o}' \\ \text{i} & \text{i} & \text{o} & \text{o} \end{matrix}$ | | $\begin{matrix} \text{in}' & \text{in}' & \text{O}' & \text{O}' \\ \text{i} & \text{i} & \text{O} & \text{O} \end{matrix}$ |

F₁ panjasimon bo‘lakli
in^l in^l O₁ o₁

$$\text{g.} \quad \begin{array}{c} in^l O_l \\ in^l o_l \end{array} \quad \begin{array}{c} in^l O_l \\ in^l o_l \end{array}$$

| | |
|-------|--|
| F_2 | $in^l in^l O_l O_l$ - panjasimon kesik – 1 $in^l in^l O_l o_l$ - panjasimon bo‘lakli – 2 $in^l in^l o_l o_l$ - panjasimon bo‘linma – 1 |
|-------|--|

| | | | | |
|----|-----|--|---|---|
| 2) | P ♀ | panjasimon bo ^č linma <i>in^l in^l o_l o_l</i> (L-70, L-463) | X | ♂ yaxlit bargli <i>In^l In^l o_l o_l</i> (L-501) |
| | g. | <i>in^l o_l</i> | | <i>In^l o_l</i> |

F₁ kuchsiz kesilgan uch bo‘lakli
In^l in^l o_l o_l

| | | |
|----------------|---|--|
| P ♀ | kuchsiz kesilgan uch bo'lakli $In^l in^l o_l o_l$ | ♂ kuchsiz kesilgan uch bo'lakli $In^l in^l o_l o_l$ |
| g. | $In^l o_l$ $In^l o_l$ | $In^l o_l$ $In^l o_l$ |
| F ₂ | $In^l In^l o_l o_l$ - yaxlit bargli – 1 $In^l in^l o_l o_l$ - kuchsiz kesilgan uch bo'lakli – 2 $in^l in^l o_l o_l$ - panjasimon bo'linma – 1 | |

Keyingi tajribalar panjasimon kesik va yaxlit barg plastinkali g'o'za liniyalarini o'zaro chatishtirish bilan davom ettirildi.

Bu tipdag'i chatishtirish o'tkazishda G'o'za genetik kolleksiyasining barg plastinkasining shakli panjasimon kesik bo'lgan L-73 va 13-1 liniyalari yaxlit bargli L-501 liniya bilan chatishtirildi.

F₁ duragay o'simliklari (L-73 x L-501), (L-13-1 x L-501) har ikki ota-onaliniyalariga xos bo'lmagan o'rtacha kesilgan uch bo'lakli barg shakliga ega bo'lganlar (24-jadval).

Ikkinci avlodda har ikki kombinatsiyada murakkab ajralish sodir bo'lib 7 ta fenotipik sinflar ajratildi: yaxlit barg plastinkali, kuchsiz kesilgan uch bo'lakli, o'rtacha kesilgan uch bo'lakli, kuchli bo'lingan uch bo'lakli, panjasimon kesik, panjasimon bo'lakli va panjasimon bo'linma barg plastinkali o'simliklar. 25-jadval dalillariga ko'ra bu fenotipik sinflarning nisbati 4:2:4:2:1:2:1. Bu xildagi ajralishni ikki allel bo'lmagan genlarning geterozigota holatlari belgining oraliq tipda namoyon bo'lishini, bir genning dominant gomozigota holati ikkinchi noallel gen allellarining faoliyatini bosib turgan hollardagina kuzatiladi.

Barg shakllarining namoyon bo'lishida qatnashuvchi genlarning sonini va o'zaro faoliyatlarini aniqlash uchun bekross duragaylar tahlil qilinadi.

25-jadval dalillariga ko'ra F₁ duragaylari panjasimon kesik barg plastinkali L-73, L-13-1 liniyalari bilan bekross qilinganda (L-73 x L-501) x L-73 va (L-13-1 x L-501) x L-13-1 esa to'rtta fenotipik sinflar – o'rtacha kesilgan uch bo'lakli, kuchli kesilgan uch bo'lakli, panjasimon kesik va panjasimon bo'lakli o'simliklar ajratilgan. Bu fenosinflarning nisbati 1:1:1:1.

F₁, F₂, F_b duragaylarining dalillarini o'rganish natijasida *G. hirsutum L.* turiga mansub g'o'zalarda In^l - in^l va O_l - o_l genlarning o'zaro ta'sirlari natijasida 7 xil barg plastinka shakllari vujudga kelishini ko'rsatish mumkin:

1. yaxlit bargli - $In^l In^l$ - -,
2. kuchsiz kesilgan uch bo'lakli - $In^l in^l o_l o_l$;
3. o'rtacha kesilgan uch bo'lakli - $In^l in^l O_l o_l$;
4. kuchli kesilgan uch bo'lakli - $In^l in^l O_l O_l$;
5. panjasimon kesik - $in^l in^l O_l O_l$;
6. panjasimon bo'lakli - $in^l in^l O_l o_l$;
7. panjasimon bo'linma - $in^l in^l o_l o_l$.

Panjasimon kesik va yaxlit barg plastinkali ota-onalari liniyalari digen farqlanishga ega.

Genlar o'zaro ta'sirining chizmasi quyidagicha ko'rinishga ega.

| | | | |
|----------------|--|---|---|
| 3) P ♀ | panjasimon kesik $in^l in^l O_l O_l$ (L-73, L-13-1) | x | ♂ yaxlit barg $In^l In^l o_l o_l$ (L-501) |
| g. | $in^l O_l$ | | $In^l o_l$ |
| F ₁ | | o'rtacha kesilgan uch bo'lakli $In^l in^l O_l o_l$ | |
| P | o'rtacha kesilgan uch bo'lakli $In^l in^l O_l o_l$ | | o'rtacha kesilgan uch bo'lakli $In^l in^l O_l o_l$ |
| g. | $In^l O_l$ $In^l o_l$ $in^l O_l$ $in^l o_l$ | | $In^l O_l$ $In^l o_l$ $in^l O_l$ $in^l o_l$ |
| F ₂ | $In^l In^l - -$ - yaxlit bargli – 4 $In^l in^l o_l o_l$ - kuchsiz kesilgan uch bo'lakli – 2 $In^l in^l O_l o_l$ - o'rtacha kesilgan uch bo'lakli – 4 $In^l in^l O_l O_l$ - kuchli kesilgan uch bo'lakli – 2 $in^l in^l O_l O_l$ - panjasimon kesik – 1 $in^l in^l O_l o_l$ - panjasimon bo'lakli – 2 $in^l in^l o_l o_l$ - panjasimon bo'linma – 1 | | |
| | | | Nisbat- 4 : 2 : 4 : 2 : 1 : 2 : 1 |

O'tkazilgan uch xil ko'rinishdagi chatishtirish kombinatsiyalarida F₁, F₂ va F₃ duragaylarining dalillarini tahlil qilgan holda M.F.Abzalov va G.N.Fatxullaevlar *G. hirsutum L.* g'o'za turida barg plastinkasining shakli kamida ikkita allel bo'limgan genlar o'zaro ta'siri natijasida boshqarilishini aniqladilar. Yaxlit barglilik - In^l ; kesilganlik (panjasimon kesik) geni - O_l - o_l . Ularning qo'sh retsessiv ($in^l in^l o_l o_l$) gomozigota holati panjasimon bo'linma barg shaklini belgilaydi.

Bu genlarning faol faoliyatida quyidagi ketma-ketlik kuzatiladi:
 In^l genining dominant gomozigota holati ikkinchi gen O_l allellarining har qanday holatiga qaramay ularni faoliyatini to'xtatadi. In^l genning retsessiv gomozigota ($in^l in^l$) holati O_l genining faoliyatiga yo'l ochadi.

O_l genining dominant gomozigota holati panjasimon kesik barg shaklini, geterozigota holati esa panjasimon bo'lakli barg shaklini rivojlantiradi.

Genlarning digeterozigota $In^l in^l O_l o_l$ holatida o'rtacha kesilgan uch bo'lakli barg shakli rivojlanadi. Agarda individlar genotipida O_l genining dominant

Panjasimon kesik va yaxlit barg plastinkali g‘o‘za liniyalarini o‘zaro chatishirishda
barg plastinkasi shaklining irsiylanishi

| Material | n | yaxlt | Barg shakllari | | | | | Nisbat | χ^2 | P | |
|---|-----|-------|--------------------------|---------------------|---------------------------|---------|------------|--------|---------------|---------------|------------------------|
| | | | kuchli.k/u 3 bo‘lakli | 0‘k/u 3 bo‘lakli | kuchsiz.k/u 3 bo‘lakli | p/kesik | p/bo‘lakli | | | | |
| L-73 | 100 | | | | 100 | | | - | - | - | |
| L-501 | 100 | 100 | | | | | | - | - | - | |
| F ₁ L-73x L-501 | 100 | | | 100 | | | | - | - | - | |
| F ₂ L-73x L-501 | 771 | 152 | 109 | 203 | 100 | 51 | 102 | 54 | 4:2:4:2:1:2:1 | 13,34 4,59 | 0,05-0,01 0,50-0,20 |
| F _b (L-73xL-501) xL-47 | 84 | | 24 | 14 | | | 24 | 22 | 1:1:1:1 | 3,23 | 0,50-0,20 |
| F _b (L-73x L -501) x L-501 | 120 | 60 | 35 | 25 | | | | | 2:1:1 | 1,67 | 0,50-0,20 |
| F _b (L-73x L -501) x L-73 | 206 | | | 51 | 52 | 44 | 59 | | 1:1:1:1 | 1,11 | 0,80-0,50 |
| L-47 | 100 | | | | | | | 100 | - | - | - |
| F ₁ L-13-1x L-501 | 100 | | | 100 | | | | | - | - | - |
| F ₂ L-13-1x L-501 | 379 | 98 | 45 | 107 | 35 | 24 | 41 | 29 | 4:2:4:2:1:2:1 | 7,10 2,06 | 0,50-0,20 0,80-0,50 |
| F _b (L-13-1x L-501) x L-47 | 39 | | 8 | 10 | | | 4 | 17 | 1:1:1:1 | 9,15 | 0,05-0,01 |
| F _b (L-13-1x L-501) x L-13-1 | 197 | | | 39 | 51 | 59 | 48 | | 1:1:1:1 | 4,33 | 0,50-0,20 |
| F _b (L-13-1x L-501) x L-501 | 190 | 52 | 50 | | | | | | 2:1:1 | 1,07 | 0,80-0,50 |
| L-13-1 | 100 | | | | 100 | | | | - | - | - |

gomozigotasi $In^l in^l O_l O_l$ kuchli qirqilgan uch bo'lakli barg plastinkasi shakllanadi.

Shunday qilib, g'o'za genetik kolleksiyasining yangi liniyasidan foydalangan holda M.F.Abzalov va G.N.Fatxullaeva *G. hirsutum L.* turi doirasida barg plastinkasi shaklining kamida ikkita allel bo'lмаган genlar tomonidan boshqarilishligini isbot etdilar. Bu genlar faoliyatida allel bo'lмаган genlar o'zaro ta'sirining epistatik tipi yotadi.

4.4.Tola chiqishining rivojlanishida genlarning polimer va pleyotrop effekti.

D.A.Musayev, Sh.Turabekov, S.Musayeva, G.N.Fatxullaeva (2008)lar tomonidan ko'p yillik tadqiqotlar natijasida tola chiqishi (hosildorligi) belgisi juda murakkab genetik boshqarilishga ega ekanligi ko'rsatildi. Tola chiqishi eng kamida ikki guruh genlar tomonidan boshqariladi:

1. Umumiyl tola chiqishining bir qismi bo'lган polimer tolanning genetik boshqarilishi polimer genlar tomonidan amalga oshirilib u o'z navbatida ikkita kichik guruhga bo'linadi:

a) Tolanning polimer oligogenlari – $Fr^A - fr^A$ va $Fr^D - fr^D$. Bu genlar polimeriya tipida faoliyat ko'rsatib tola rivojlanishiga kuchli fenotipik ta'sir qiladi. Bu genlarning dominant allellari har qanday birikmalarining fonida kumulyativ effektga ega bo'lган quyidagi polimer genlar guruhi faoliyat ko'rsatadi. Aftidan, tola oligogenlarining retsessiv allellari gomozigota holatda ($fr^A - fr^A$, $fr^D - fr^D$) polimer tolani rivojlantiruvchi polimer genlarning funksiyasini to'xtatib qo'yadi.

b) Kumulyativ effektga ega bo'lган odatdagи polimer genlar ($Fr_1 - fr_1$, $Fr_2 - fr_2$, $Fr_3 - fr_3$, ..., $Fr_n - fr_n$).

2. Tuklanish genlarning tola rivojiga bo'lган pleyotrop effekti. Ular o'zlarining funksiyasiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

a) Chigit tuklanishining asosiy strukturaviy genlari – $Ft_1 - ft_1$, $Ft_2 - ft_2$. Ular digen polimeriya tipida faoliyat ko'rsatadi. Bu genlarning dominant allellari umumiy tola hosildorligining 30 – 35 % ining rivojlanishiga ijobiy pleyotrop ta'sir ko'rsatadi.

b) Gen ingibitorning dominant alleli gomozigota (II) holatda chigit tuklanishining strukturaviy genlarining faoliyatini to'liq to'xtatib qo'yadi, natijada chigit tuklanishi genlarining tola rivojlanishiga bo'lган pleyotrop effekti olib tashlanadi.

Mana shu dalillarning tahlili asosida ilgari chop etilgan poligenlarning kombinirlangan tipdagи o'zaro ta'siri haqidagi nazariya quyidagi yangi talqinda rivojlantirildi.

Umumiyl tola chiqishining taxminan 65–70 foizini tashkil etuvchi polimer tolanning irsiylanishida quyidagi noyob qo'sh retsessiv epistaz deb nomlangan o'zaro ta'sir tipi ($fr^A fr^A fr^D fr^D$) yotadi. Ilgari "polimer tolanning oligogenlari ($Fr^A - fr^A$, $Fr^D - fr^D$)" deb nomlangan genlar retsessiv gomozigota holatda ($fr^A fr^A fr^D fr^D$) kumulyativ effektga ega bo'lган tola chiqishning polimer genlarining faoliyatini batamom to'xtatib qo'yadi. Bu genlarning dominant allellari har qanday sonda (1–

4) kumulyativ effektli polimer genlarning ishlashini ta'min etadi ($Fr_1 - fr_1$, $Fr_2 - fr_2$, $Fr_3 - fr_3$, ..., $Fr_n - fr_n$). Bu genlar tola chiqishining polimer tola qismini nazorat qiladilar.

Tola hosildorligi belgisining irsiylanishi bir tomondan sifat, ikkinchi tomondan esa miqdor xarakteriga egadir. Bu belgining sifat-alternativ sifatida namoyon bo'lishi gen ingibitorning dominant allellarining (II) dominant epistazligi, polimer tola oligogenlarining retsessiv gomozigotaliligi $fr^A fr^A fr^D fr^D$ (qo'sh retsessiv epistaz) holatlari bilan ifodalanadi. Uning miqdor belgi sifatida ifodalanishi esa odatdagি polimer genlarning kumulyativ effekti, chigit tuklanishi genlarining Ft_1 , Ft_2 pleyotrop ta'siri tufayli bo'ladigan pleyotrop tolasida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili *G.hirisutum L.* turiga mansub g'o'za nav va liniyalarida tola chiqishining murakkab irsiylanish xarakteriga ega ekanligining guvohi bo'ldik. Tola chiqishining rivojlanishini ta'min etuvchi genlar ham murakkab bo'lib, ular polimeriya va pleyotrop ta'sir ko'rsatish effektlariga egadirlar.

4.5.Poyada tuklarning «bor yoki yo'qligi» belgisining irsiylanishi

G'o'za genetik kolleksiyasining poyaning tuklanishi bo'yicha keskin farq qiluvchi L-70 va L-482 liniyalaridan foydalanildi. L-70 liniyasining o'simliklari poyasining deyarli tuksizligi bilan harakterlanadigan bo'lsa, L- 482 liniya o'simliklari esa aksincha poya tuklanishining qalinligi bilan farqlanadilar, bu liniyalarni o'zaro chatishtirishdan olingan F_1 duragaylari o'rtacha qalinlikdagi tuklanishga ega F_1 duragaylarini o'z-o'ziga changlatishdan olingan F_2 duragaylarida poyada tuklanishning "bor yoki yo'qligi" belgisi bo'yicha ajralish kuzatilib, ikkita fenotipik sinf ajratilgan.

– poyasi tukli o'simliklar. Shuni ham qayd etish kerakki F_2 da poyaning tuklanishi qalin tuklanishdan kuchsiz tuklanishga qadar tebranadi.

– poyasi tuksiz o'simliklar. Bu ikki fenotipik sinf o'rtasidagi nisbat 15:1 ga yaqin. (26- jadval).

26-jadval

F_2 duragaylarida poya tuklanishining "bor yoki yo'qligi" belgisi bo'yicha irsiylanishi.

| Material | n | Poyasi tukli | Poyasi tuksiz |
|--------------------------------------|-----|---------------|---------------|
| Faktik olingan son | 351 | 322 | 29 |
| Nazariy kutilgan son(q) 15:1nisbatta | 351 | 329,0625 | 21,9375 |
| Farq (d) | | -7,0625 | +7,0625 |
| d^2 | | 49,8789 | 49,8789 |
| d^2/q | | 0,1512 | 2,3681 |
| $\sum \chi^2 = 2,51913$ | | $P=0,20-0,05$ | |

Ajralishda 15:1 nisbatning kuzatilishi biz o'rgangan kombinatsiyada poyada tuklanishning "bor yoki yo'qligi" belgisining irsiylanishi ikki gen tomonidan boshqarilishlidan dalolat beradi.

4.6.Barg plastinkasi rangining irsiylanishida genlarning ko‘p allellik hodisasi.

Geterozigotali organizmlarda allellarning o‘zaro munosabatlari, ya’ni A genining a alleli ustidan dominant qilish holatining aniqlanishi individlar rivojlanishining jarayonlarida genlar o‘zaro ta’siri hodisasiga kirib borishning ilk qadami hisoblanadi. Allellar funksiyasi tabiatining keyingi tadqiqotlari nafaqat genlar faoliyatining tabiatini, balki genetik material tuzilmasining mohiyatini ham tushunishga yordam beradi.

Allellardagi farqlar mutatsiyalar tufayli yuzaga keladi. Agarda boshlang‘ich normal A alleli retsessiv a alleliga mutatsiya bergen bo‘lsa, bu to‘g‘ri mutatsiya deb, agarda a alleli boshlang‘ich normal A ga mutatsiya bergen bo‘lsa, buni teskari mutatsiya deb ataladi. Ammo, allellar genetikasi sohasidagi tadqiqotlar mutatsiyalar $A \rightarrow a$ ga yoki $a \rightarrow A$ ga aylanish jarayonlari bilan chegaralanib qolmasdan, balki nafaqat A, shuningdek retsessiv a alleli ham bu genning qator har hil holatlarini berishlari mumkin ekanligini isbotladi. Bunday mutatsiyalar tufayli ko‘p allellik hodisasi kelib chiqadi. Masalan - A , A^1 , A^2 , A^3 , A^4 , lardan iborat allellar seriyasi vujudga keladi. Bir ko‘rinishda normal allel, ikkinchisida mutatsiya ko‘rinishida xromosomaning malum bir lokusini egallagan aynan bir genning qatiy xilma-xil holatlariga ko‘p allellik hodisasi deyiladi. Bu hodisa organizmlarning irsiy o‘zgaruvchanlik jarayonida muhim o‘rin tutadi. Bu – har bir gen ko‘p marta o‘zgarib belgilarning rivojlanishiga har xil tasir ko‘rsatadi demakdir.

Adabiyot dalillariga ko‘ra, o‘simliklarda antotsian (qizil) pigment vegetativ va generativ organlar bo‘yicha har xil taqsimlangan. D.A.Musayev “Genetik kolleksiyasi” ning antotsian pigment barcha organlarda tekis taqsimlangan va barglari yashil bo‘lgan liniyalarini o‘zaro chatishtirib olingan F_1 va F_2 duragaylarda barg rangining irsiylanishini o‘rganib, bu belgi bitta gen – R_p – r_p tomonidan boshqarilishini isbotladi.

Tajriba materiali bo‘lib g‘o‘za genetik kolleksiyasining L-38, L-670, L-481 liniyalari xizmat qilgan. L-38 liniya F_3 duray populyasiyasining ayrim o‘simliklarini o‘z-o‘ziga changlantirish va ko‘p yillik tanlash yo‘li bilan chiqarilgan. Bu liniya o‘simliklarining vegetativ va generativ organlari antotsian rangga ega bo‘lib dominant- R_p R_p geni tomonidan boshqariladi. L-670 liniya L-476 x L-475 kombinatsiyasining uchinchi avlod duragaylarini o‘z-o‘ziga changlantirish va tanlash yo‘li bilan yaratilgan. Bu liniya o‘simliklarining barg plastinkasi yashil rangda bo‘lib, genotipi - r_p r_p .

L-481 liniyaning boshlang‘ich formasi O‘zRFA Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti kolleksiyasining namunasi bo‘lib, prof. M.F. Abzalov tomonidan taqdim etilgan. Namunani o‘z-o‘ziga changlantirilib va tanlash yo‘li bilan yuqoridaagi liniya yaratilgan. Bu liniya o‘simliklarining barglari sarg‘ish-yashil rangda. Tajriba natijalari statistik qayta ishlovdan o‘tkazilgan.

Antotsian rangli L-38 liniyani yashil rangli L-670 liniya o‘simliklari bilan o‘zaro chatishtirilib olingan F_1 duragaylari barg plastinkasining oraliq rangga ega

bo‘lishi bilan xarakterlangan. F_2 da o‘rganilayotgan belgi bo‘yicha ajralish kuzatilib, 3 ta fenotipik sinf qayd etilgan:

1. $R_p R_p$ -barg plastinkalari antotsian rangda bo‘lgan duragaylar;
2. $R_p r_p$ - barg plastinkalari oraliq rangda bo‘lgan duragaylar;
3. $r_p r_p$ - barg plastinkalari yashil rangda bo‘lgan duragaylar.

(nisbat 105 : 169; $\chi^2=3,8882$; $P=0,20-0,05$). Oldingi birinchi va ikkinchi fenotiplarni bitta sinfga birlashtirilgan holatda esa ikki fenotipik sinflar hosil bo‘lib, ularning nisbati 3:1 bo‘ladi (rangli: yashil; 274:102; $\chi^2=0,9077$; $P=0,50-0,20$). G‘o‘za barg plastinkasi rangi bir gen tomonidan boshqarilib, to‘liqsiz dominantlik holati kuzatiladi.

M. F. Abzalov, G. N. Fatxullaeva va boshqalar genetik kolleksiyaning boshqa antotsian rangli L-477 liniyasini yashil rangli bir qator boshqa liniyalar bilan chatishtirib, olingan duragaylarda antotsian pigmenti gul elementlarida, barg tomirlarida, asosiy poyada intensiv ravishda paydo bo‘lishligini aniqladilar. Bu liniya ishtirokidagi kombinatsiyalarda antotsian pigment boshqa bir gen – $R_{st}^v R_{st}^v$ tomonidan boshqarilishini ko‘rsatdilar. Demak: $R_{st}^v R_{st}^v$ antotsian rangni, $r_{st}^v r_{st}^v$ – yashil rangni rivojlantiradi.

M.F. Abzalov, G. N. Fatxullaeva antotsian rangli ikki xil genotipga ega bo‘lgan g‘o‘za liniyalarini o‘zaro chatishtirib, F_2 da 15:1 nisbatda rangli va yashil o‘simliklar olishga muyassar bo‘ldilar. Mualliflar F_2 da yashil rangli (shu jumladan, barg plastinkalari) o‘simliklarning kelib chiqishiga asosiy sabab antotsian rangli genotipga ega o‘simliklar birinchi gen bo‘yicha dominant gomozigota, ikkinchi gen bo‘yicha retsessiv gomozigota va aksincha holatga ($R_p R_p R_{st}^v R_{st}^v$ va $r_p r_p R_{st}^v R_{st}^v$) ega bo‘lganlar.

F_2 da ajralib chiqqan yashil o‘simliklar qo‘sh retsessiv genotipga ($r_p r_p R_{st}^v R_{st}^v$) ega bo‘lganlar. Bu qonuniyatga muvofiq bizning tajribada olingan barg plastinkasi yashil bo‘lgan L-670 liniya genotipini - $r_p r_p R_{st}^v R_{st}^v$ deb hisoblaymiz.

Tajribada barg plastinkasi yashil rangli L-670 liniya o‘simliklari barg plastinkasi sarg‘ish-yashil bo‘lgan L-481 liniya o‘simliklari bilan chatishtirilganda olingan F_1 duragaylarining rangi yashil bo‘lgan. Retsessiv yashil rang sarg‘ish-yashil rang ustidan dominantlik qilgan. F_1 duragaylari o‘z-o‘ziga changlantirilib F_2 da barg plastinkasining rangi bo‘yicha ajralish kuzatilib, ikkita fenotipik sinf ajratilgan:

- Yashil bargli o‘simliklar;
- Sarg‘ish-yashil bargli o‘simliklar.

(nisbat 649:48; $\chi^2=0,4821$; $P=0,50$). Bu ikkita fenotipik sinflarning nisbati 15:1 bo‘lgan. Bu nisbat ota-onaliniyalari o‘zaro ikki gen bilan farqlanishidan darak beradi. Barg plastinkasining sarg‘ish-yashil rangi yashil rangga nisbatan retsessiv hisoblanadi. Tajribada ishtirok etgan sarg‘ish-yashil rangni nazorat qiluvchi retsessiv genlarni $r_p^y r_p^y R_{st}^v R_{st}^v$ simvollari bilan belgilaymiz. Shunga ko‘ra ota-onaliniyalarining barg plastinkasi rangi bo‘yicha genotiplari quyidagicha.

| | | | |
|----------------|---|--|---|
| P | \varnothing L-670 $r_p r_p^v r_{st}^v r_{st}^v$ barg plastinkasi yashil | x | δ L-481 $r_p^y r_p^y r_{st}^v r_{st}^v$ barg plastinkasi sarg‘ish-yashil |
| g | $r_p r_{st}^v$ | | $r_p^y r_{st}^v$ |
| F ₁ | | $r_p r_p^y r_{st}^v r_{st}^v$ barg plastinkasi yashil | |
| P | \varnothing $r_p r_p^y r_{st}^v r_{st}^v$ barg plastinkasi yashil | x | δ $r_p r_p^y r_{st}^v r_{st}^v$ barg plastinkasi yashil |
| | $r_p r_{st}^v$ $r_p^y r_{st}^v$ $r_p^y r_{st}^v$ $r_p^y r_{st}^v$ | | $r_p r_{st}^v$ $r_p^y r_{st}^v$ $r_p^y r_{st}^v$ $r_p^y r_{st}^v$ |

F₂

| Genotipik sinflar | | | Fenotipik sinflar | |
|-------------------|---------------------------------|-------------------|----------------------------------|--------|
| No | Genotiplar | Takrorlanish soni | Fenotip | Nisbat |
| 1 | $r_p r_p r_{st}^v r_{st}^v$ | 1 | Barg plastinkasi yashil | 15 |
| 2 | $r_p r_p r_{st}^v r_{st}^v$ | 2 | | |
| 3 | $r_p r_p^y r_{st}^v r_{st}^v$ | 2 | | |
| 4 | $r_p r_p^y r_{st}^v r_{st}^v$ | 1 | | |
| 5 | $r_p^y r_p^y r_{st}^v r_{st}^v$ | 1 | | |
| 6 | $r_p r_p^y r_{st}^v r_{st}^v$ | 4 | | |
| 7 | $r_p r_p^y r_{st}^v r_{st}^v$ | 2 | | |
| 8 | $r_p r_p r_{st}^v r_{st}^v$ | 2 | | |
| 9 | $r_p^y r_p^y r_{st}^v r_{st}^v$ | 1 | Barg plastinkasi sarg‘ish-yashil | 1 |

Olingen dalillarning genetik tahlili shundan dalolat beradiki, g‘o‘za genetik kolleksiyasi liniyalarida barg plastinkasining antotsian rangi yashil rang ustidan, retsessiv yashil rang o‘z navbatida sarg‘ish-yashil rang ustidan dominantlik qiladi va ko‘p allellik hodisasining g‘o‘za barglarining irsiylanishiga ham aloqadorligini ko‘rsatdi (Sh.To‘rabekov va M.M.Ergashev 2012y.).

Barg plastinkasi rangining irsiylanishini nazorat qiluvchi genlarning faoliyatida quyidagi ketma-ketlik kuzatildi.

$$R_p R_{st}^v R_{st}^v > r_p r_{st}^v r_{st}^v > r_p^y r_p^y r_{st}^v r_{st}^v$$

antotsian rang yashil rang sarg‘ish-yashil rang

4.7.Chigit tuklanishining irsiylanishida noallel genlarning o‘zaro kombinirlangan ta’siri.

Chigit ustidagi tola qoplami (tuk va tola)ning rivojlanishida kuzatiladigan juda katta polimorfizm (xilma-xillik) bu o‘simlikning tabiiy evolyusiyasi, ayniqsa madaniy holdagi taraqqiyoti uzoq davom etgan evolyusion jarayoning natijasidir. Chigit ustidagi tola qoplami rivojlanishining genetik boshqarilishligini o‘rganish

katta ahamiyatga ega. Ma'lumki madaniy g'o'za turlarida chigit ustidagi tola qoplami ikki yarusdan iborat: quiyi yarus qisqa dag'al tolachalardan tuzilgan bo'lib ular tuk deb ataladi; yuqori yarusi esa uzun va ingichka sof toladan iborat. Chigit ustidagi tuk va tola anatomik umumiylar tuzilishga ega. Har ikkalasi urug'kurtak tashqi integumenti tashqi epidermisining alohida hujayralaridan paydo bo'ladi (Raykova, Kanash, 1936).

Chigit ustidagi tuklanishning irsiylanishi bilan chet el hamda vatanimiz olimlari shug'ullanib qelishgan, hozirda ham bu boradagi tadqiqotlar davom ettirilmoqda [Thadani, 1923, 1925; Kearney va Harrison, 1927 ; Carver, 1929; Harland, 1929; Afzal va Hutchinson, 1933; Kokuev, 1937; Richmond, 1939; Ware, 1941; Ter-Avanesyan va Sattarov, 1966; Simongulyan, 1968; va b.]

Aksariyat mualliflar chigit ustidagi tuklanishning irsiylanishi bir gen tomonidan amalga oshadi deb hisoblaydilar. Ware va uning shogurdilari bu belgining ikki gen tomonidan boshqarilishi haqida o'z fikrlarini bildirgan.

D.A.Musayev o'z shogurdilari bilan birgalikda ko'p yillik (1955-2000) tadqiqotlari natijasida chigit ustidagi tuklanishning irsiylanishi haqida ilmiy asoslangan nazariya yaratdi. Tadqiqotlar *G.hirsutum L.* turiga mansub g'o'za genetik kolleksiyasining izogen liniyalarida olib boriladi.

Yaratilgan nazariyaning asosiy mazmuni quyidagicha:

Chigit ustidagi tuklanish hamda tuksizlik (yalangoch chigit) to'rt juft allel bo'limgan genlarning o'zaro ta'sirlarining natijasi hisoblanadi. Bu genlar o'zlarining funksiyalariga qarab ikki guruhga bo'linadi:

1. Chigit ustidagi tuklanishnin rivojlanishini nazorat qiluvchi strukturaviy genlar. Ular o'zlarining funksiyalariga qarab o'z navbatida ikkita kichik guruhga bo'linadi (asosiy genlar-*Ft₁-f_{t₁}*, *Ft₂-f_{t₂}* qo'shimcha gen *Fc-fc*).


a. Asosiy genlar - *Ft₁-f_{t₁}* va *Ft₂-f_{t₂}*. Bu genlarning dominant allelari kumulyativ polimeriya tipida o'zaro ta'sir ko'rsatib chigitning mikropil qismida tuklanishning rivojlanishini nazorat qiladi. Mikropilyar tuklanishning namoyon bo'lishi dominant allelarning soniga bog'liq bo'ladi.

b. Qo'shimcha gen - *Fc-fc*. Bu genning dominant alleli asosiy genlar dominant allellarining gomozigota holatlari bilan faoliyat ko'rsatib, chigitning xalaza qismidagi tuklanishini ta'min etadi. *Fc* geni bиринчи asosiy genning dominant gomozigota (*Ft₁ Ft₁*) holati bilan o'zaro munosabatda bo'lib faoliyat ko'rsatadi. Ikkinchisi asosiy gen (*Ft₂-f_{t₂}*) bilan faoliyat ko'rsatmaydi. *FcFc* genotipda chigit ustida to'liq tuklanish rivojlanadi. *Fcfc* genotipda chigitning xalaza qismidagi tuklanish bir tekisda rivojlanmaydi. *fcfc* genotipda chigitning xalaza qismidagi tuklanish bir tekisda rivojlanmaydi.

2. Gen ingibitor – *I-i* . Bu genning dominant alleli dominant gomo- (*II*) va geterozigota (*Ii*) holatlarda strukturaviy genlarning faoliyatini bosib turadi, natijada chigit ustida to'liq tuklanish rivojlanmaydi, yalangg'och chigit hosil bo'ladi.


Chigitning mikropilyar qismida tuklanishning irsiylanishi. Bu jarayonni (o'rGANISH uchun G'o'za genetik kolleksiyasining L-15 (MS- mikropilyar tuklanishi) va L-110 (RGS-retsessiv yalangg'och urug') deb atalgan liniyalar o'zaro

G’O’ZADA CHIGIT USTIDAGI TUKLANISH



- 6 -rasm.**
1. GS-yalang'och urug' (chigit), tuksiz.
 2. nz-MS-juda oz mikropilyar tuklanishli
 3. m-MS-kam mikropilyar tuklanishli.
 4. p-MS-oraliq mikropilyar tuklanishli
 5. n-MS-normal mikropilyar tuklanishli
 6. PS-kalsimon tuklanishli
 - 7-OS – chigitning to'liq tuk bilan qoplanishi.

**G. HIRSUTUM L. TURIGA MANSUB G’O’ZADA CHIGIT TOLA
QOPLAMI BELGILARINING GENETIK NAZORAT QILINISH SXEMASI**



chatishtirilib, kelgusi avlodlarda chigit tuklanishining irsiylanishi o'rganildi. Bevosita chatishtirishga o'tishdan oldin asosiy strukturaviy genlarning faoliyatiga nazar tashlaymiz

Asosiy genlar 2 juft ($F_{t1}f_{t1}$ va $F_{t2}f_{t2}$) bo'lganligi sababli ularning 4 ta dominant ($F_{t1}F_{t1}F_{t2}F_{t2}$) holati chigitning mikropil qismida normal mikropilyar tuklanishi – n-MS rivojlantiradi.

Bu genlarning uchta dominant allellari ($F_{t1}F_{t1}F_{t2}f_{t2}$ yoki $F_{t1}f_{t1}F_{t2}F_{t2}$) oraliq mikropilyar (promejutochniy) tuklanishni - p-MS rivojlantiradi.

Bu genlarning ikkita dominant allellari - $F_{t1}F_{t1}f_{t2}f_{t2}$, $f_{t1}f_{t1}F_{t2}F_{t2}$, $F_{t1}f_{t1}F_{t2}f_{t2}$ kam mikropilyar tuklanishni -m-MSni rivojlantiradi.

Genotipda bir dona dominant allelning bo'lishligi- $F_{t1}f_{t1}f_{t2}f_{t2}$, $f_{t1}f_{t1}F_{t2}f_{t2}$ juda kichik mikropilyar tuklanishni – nz-MS ni rivojlantiradi. Chatishtirish kombinatsiya quyidagicha.

| | | | |
|--|---|---------------|--|
| P_{φ} | L-15 | x | δ L-110 |
| $ii F_{t1} F_{t1} F_{t2} F_{t2} f_c f_c$ n-MS | | | $ii f_{t1} f_{t1} f_{t2} f_{t2} f_c f_c$ prc |
| g $i F_{t1} F_{t2} f_c$ | | | $i f_{t1} f_{t2} f_c$ |
| F_1 | $ii F_{t1} f_{t1} F_{t2} f_{t2} f_c f_c$ m-MS | x | $ii F_{t1} f_{t1} F_{t2} f_{t2} f_c f_c$ m-MS |
| P_{φ} $ii F_{t1} f_{t1} F_{t2} f_{t2} f_c f_c$ m-MS | | | |
| g $i F_{t1} F_{t2} f_c$ $i F_{t1} f_{t2} f_c$ $i f_{t1} F_{t2} f_c$ $i f_{t1} f_{t2} f_c$ | | | $i F_{t1} F_{t2} f_c$ $i F_{t1} f_{t2} f_c$ $i f_{t1} F_{t2} f_c$ $i f_{t1} f_{t2} f_c$ |
| F_2 | 1. $ii F_{t1} F_{t1} F_{t2} F_{t2} f_c f_c$ -1- n-MS 2. $ii F_{t1} F_{t1} F_{t2} f_{t2} f_c f_c$ - 2 -p-MS 3. $ii F_{t1} f_{t1} F_{t2} F_{t2} f_c f_c$ - 2- p-MS 4. $ii F_{t1} F_{t1} f_{t2} f_{t2} f_c f_c$ - 1- m-MS 5. $ii f_{t1} f_{t1} F_{t2} F_{t2} f_c f_c$ - 1-m-MS 6. $ii F_{t1} f_{t1} F_{t2} f_{t2} f_c f_c$ -4 -m-MS 7. $ii F_{t1} f_{t1} f_{t2} f_{t2} f_c f_c$ - 2 -nz-MS 8. $ii f_{t1} f_{t1} F_{t2} f_{t2} f_c f_c$ - 2 -nz-MS 9. $ii f_{t1} f_{t1} f_{t2} f_{t2} f_c f_c$ - 1 -prc | | |
| 1 : 4 : 6 : 4 : 1 | | | |
| | 15 MC | | 1gs |
| | | Nisbat 15 : 1 | |

Gen ingibitor retsessiv gomoziggota (ii) holatga o‘tish bilan asosiy genlar faoliyat ko‘rsatib chigitning mikropillyar qismida tuklanish rivojlantiradi.

Endi gen ingibitorning (*I-i*) faoliyati bilan tanishamiz. Buning uchun genkolleksiyaning L-70 deb atalgan tuksiz va tolasiz DAGS (dominant absolyut yalang‘och) liniyasi L-15 –liniya (n-MS) bilan chatishtirildi.

| | | | |
|----------------|--|--|--|
| $P_{\text{♀}}$ | L-70 dags | x | ♂ L-15 n-MS |
| g | $II f_{t1} f_{t1} f_{t2} f_{t2} f_c f_c$ | | $ii F_{t1} F_{t1} F_{t2} F_{t2} f_c f_c$ |
| F_1 | $I f_{t1} f_{t2} f_c$ | | $F_{t1} F_{t2} f_c$ |
| | | $Ii F_{t1} f_{t1} F_{t2} f_{t2} f_c f_c$ | gs |
| $P_{\text{♀}}$ | $Ii F_{t1} f_{t1} F_{t2} f_{t2} f_c f_c$ | x | $\text{♂ } Ii F_{t1} f_{t1} F_{t2} f_{t2} f_c f_c - \text{L-15}$ |
| g | gs | | gs |
| | $I f_{t1} F_{t2} f_c$ | | $I f_{t1} F_{t2} f_c$ |
| | $I f_{t1} f_{t2} f_c$ | | $I f_{t1} f_{t2} f_c$ |
| | $I f_{t1} F_{t2} f_c$ | | $I f_{t1} F_{t2} f_c$ |
| | $i F_{t1} F_{t2} f_c$ | | $i F_{t1} F_{t2} f_c$ |
| | $I f_{t1} f_{t2} f_c$ | | $I f_{t1} f_{t2} f_c$ |
| | $i F_{t1} f_{t1} f_c$ | | $i F_{t1} f_{t1} f_c$ |
| | $i f_{t1} F_{t2} f_c$ | | $i f_{t1} F_{t2} f_c$ |
| | $i f_{t1} f_{t2} f_c$ | | $i f_{t1} f_{t2} f_c$ |
| F_2 | 1. $II F_{t1} F_{t1} F_{t2} F_{t2} f_c f_c - 1$ gs 2. $II F_{t1} F_{t1} F_{t2} f_{t2} f_c f_c - 2$ gs 3. $II F_{t1} f_{t1} F_{t2} F_{t2} f_c f_c - 2$ gs 4. $Ii F_{t1} f_{t1} F_{t2} f_{t2} f_c f_c - 2$ gs 5. $Ii F_{t1} f_{t1} f_{t2} f_{t2} f_c f_c - 4$ gs 6. $Ii f_{t1} f_{t1} F_{t2} f_{t2} f_c f_c - 4$ gs 7. $II F_{t1} f_{t1} F_{t2} f_{t2} f_c f_c - 4$ gs 8. $Ii F_{t1} f_{t1} F_{t2} f_{t2} f_c f_c - 8$ gs 9. $Ii F_{t1} F_{t1} f_{t2} f_{t2} f_c f_c - 4$ gs 10. $Ii F_{t1} F_{t1} f_{t2} f_{t2} f_c f_c - 2$ gs 11. $II F_{t1} F_{t1} f_{t2} f_{t2} f_c f_c - 2$ gs 12. $II F_{t1} F_{t1} f_{t2} f_{t2} f_c f_c - 1$ gs 13. $II f_{t1} f_{t1} F_{t2} F_{t2} f_c f_c - 1$ gs 14. $II f_{t1} f_{t1} F_{t2} f_{t2} f_c f_c - 2$ gs 15. $Ii f_{t1} f_{t1} F_{t2} F_{t2} f_c f_c - 2$ gs 16. $Ii f_{t1} f_{t1} F_{t2} f_{t2} f_c f_c - 4$ gs 17. $ii F_{t1} F_{t1} F_{t2} F_{t2} f_c f_c - 1$ n-MS 18. $ii F_{t1} F_{t1} F_{t2} f_{t2} f_c f_c - 2$ p-MS 19. $ii F_{t1} F_{t1} F_{t2} F_{t2} f_c f_c - 2$ p-MS | | |

20. $ii F_{tl} f_{tl} F_{t2} f_{t2} f_c f_c$ -4 m-MS
 21. $II f f_{tl} f_{t2} f_{t2} f_c f_c$ -1 gs
 22. $Ii f f_{tl} f_{t2} f_{t2} f_c f_c$ -2 gs
 23. $ii F_{tl} F_{tl} F_{t2} f_{t2} f_c f_c$ - 1 m-MS
 24. $ii F_{tl} f_{tl} f_{t2} f_{t2} f_c f_c$ - 2 nz-MS
 25. $ii f f_{tl} F_{t2} F_{t2} f_c f_c$ - 1 m-MS
 26. $ii f f_{tl} F_{t2} f_{t2} f_c f_c$ - 2 nz-MS
 27. $ii f f_{tl} f_{t2} f_{t2} f_c f_c$ - 1 gs

49 : 1 : 4 : 6 : 4
 gs n-ms p-ms m-ms nz-ms

Chigit ustidagi tuklanishning irsiylanishida allel bo‘lmagan genlar o‘zaro ta’sirining komplementar tipi: Bunga misol qilib (L-15 x L-47) kombinatsiyasida chigit tuklanishining irsiylanishini keltirish mumkin. Yuqorida qayd qilinganidek o‘simliklarining chigit normal mikropilyar (n-MS) tuklanishiga ega. L-47 liniya o‘simliklarining chigit to‘liq tuk bilan qoplangan - OS tip (sploshnoe opushenie). Ota-onaliniyalarining tuklanish bo‘yicha genotiplarini keltiramiz: L-15 liniya: $iiF_{tl}F_{tl}F_{t2}F_{t2}f_c f_c$; L-47 liniyaniki esa - $iiF_{tl}F_{tl}F_{t2}F_{t2}F_c F_c$.

| | | | |
|-------------|-------------------------------------|--|-------------------------------|
| P_φ | L-15 n-MS | x | $\♂ L-47$ OS |
| | $iiF_{tl}F_{tl}F_{t2}F_{t2}f_c f_c$ | | $iiF_{tl}F_{tl}F_{t2}F_c F_c$ |
| g | $i F_{tl} F_{t2} f_c$ | | $i F_{tl} F_{t2} F_c$ |
| F_1 | | $iiF_{tl}F_{tl}F_{t2}F_{t2}F_c f_c$ PS –tip | |
| | | kalsimon tuklanish | |

F_1 duragaylari chigitning mikropile qismi normal tuklanishga ega bo‘ladi, chigitning xalaza qismida tuklar notejis taqismlangan bo‘ladi.

| | | | |
|-------------|---|---|---|
| P_φ | $iiF_{tl}F_{tl}F_{t2}F_{t2}F_c f_c$ PS | x | $iiF_{tl}F_{tl}F_{t2}F_{t2}F_c f_c$ PS |
| g | $i F_{tl} F_{t2} F_c$ | | $i F_{tl} F_{t2} F_c$ |
| | $i F_{tl} F_{t2} f_c$ | | $i F_{tl} F_{t2} f_c$ |
| F_2 | 1. $iiF_{tl}F_{tl}F_{t2}F_{t2}F_c F_c$ - OS 2. $iiF_{tl}F_{tl}F_{t2}F_{t2}F_c f_c$ - PS 3. $iiF_{tl}F_{tl}F_{t2}F_{t2}f_c f_c$ - n-MS | | |

Bu fenotipik sinflarning nisbati 1 : 2 : 1. F_1 da har ikki ota-onada kuzatilmagan yangi tunlanish tipi – PS kuzatiladi.

Sh.Turabekov va M. Ergashevlarning (2012) genetik kolleksiya liniyalari ustida olib borgan tajribalari ham yuqoridagi fikrlarni dalilidir.

Tadqiqotchilar chatishirish uchun boshlag‘ich material sifatida genetik kolleksiyaning chigit tuk bilan qoplangan OS-tip tuklanishga ega L-454 liniyasi va chigit mo‘tloq yalang‘och tuksiz-tolasiz L-70 liniya o‘simliklarini tanlab olgan.

Bu liniyalarni o‘zaro chatishirish natijasida olingan F₁ duragaylari chigitining tuksiz, ammo ma’lum miqdorda rivojlangan tolaga ega bo‘lishliklari bilan harakterlanadilar. Birinchi avlod duragaylarida chigitning yalang‘och holati (GS – tip) chigit to‘liq tuk bilan qoplangan (OS-tip) li o‘simliklar ustidan to‘liq dominantlik qilganlar.

F₁ duragaylarini o‘z o‘ziga changlantirib olingan F₂ duragay o‘simliklarida chigit tuklanishi bo‘yicha ajralish kuzatilgan.

Chigit ustidagi tuklanishning rivojlanish darajasiga qarab F₂ duragay o‘simliklarini quyidagi fenotipik sinflarga ajratish mumkin:

1. Yalong‘och urug‘li “GS o‘simliklar”;
2. Chigit mikropilyar tuklanishli “MS o‘simliklar”;
3. Chigitning mikropilyar qismida normal tuklanish xalaza qismida tuklanish notekis taqsimlangan “PS o‘simliklar”;
4. Chigit to‘liq tuklanishli “OS o‘simliklar”.

F₂ GS o‘simliklarining chigitlari to‘liq tuksiz bo‘ladilar.

MS o‘simliklarining chigitlarining mikropile qismidagina tuklanish bo‘lib chigitning xalaza va yon qismlari tuksiz bo‘ladi. Chigit tuklanishning sathi va qalinligi bo‘yicha F₂ ning MS o‘simliklarini uchta kenja sinflarga bo‘lish mumkin:

- chigitning mikropile qismida normal rivojlangan tuklanishga ega n-MS o‘simliklar;

- chigitning mikropile qismida oraliq tuklanishga ega p-MS o‘simliklar;

- chigitning mikropile qismida o‘rtacha tuklanishga ega m-MS o‘simliklar;

-chigitning mikropile qismida juda kichik tuklanishga ega nz - MS

PS o‘simliklarning chigitlari mikropile qismida qalin tuklanishga ega bo‘lishliklari hamda xalaza qismida tuklanishning notekis taqsimlanganligi bilan ajralib turadi.

OS o‘simliklarning chigitlari to‘liq qalin tuklanishga ega bo‘lishliklari bilan ajralib turadi.

27-jadval

F₂ duragaylarining chigit tuklanishn bo‘yicha ajralishi

| Material | n | Tuklanish tiplari | | | |
|--------------------------------|-----|-------------------|--------|--------|-------|
| | | GS | MS | PS | OS |
| Faktik olingan son | 409 | 309 | 55 | 23 | 22 |
| Nazariy kutilgan son | 409 | 313,141 | 60,708 | 19,171 | 15,98 |
| farqlanish (d) | | -4,14 | -5,7 | +3.828 | 6,02 |
| d ² | | 17,13 | 32,598 | 14,66 | 36,24 |
| d ² /q | | 0,0547 | 0,5368 | 0,7646 | 2,26 |
| $\chi^2 = \sum d^2/q = 3,6161$ | | P=0,20-0,05 | | | |

F_2 duragaylarining chigit tuklanishi bo'yicha ajralishlarining tahlili barcha yalang'och urug'li GS o'simliklarning soni barcha tuklanishli (MS+PS+OS) o'simliklarning soniga nisbatan 196:60 nisbatni tashkil etadi. F_2 duragaylarida bu ikki guruh o'simliklar orasidagi chegara aniq va uni oson tasvirlash mumkin.

Barcha 4 ta fenotipik sinflarga (GS : MS: PS: OS) aloqador o'simliklar sonining nisbati 196:38:12:10 ga teng (27 jadval).

F_2 duragay o'simliklarida chigit tuklanishining ajralishiga doir Xi kvadrat dalilining tahlili chatishtirish uchun olingan ota ona liniyalari chigit tuklanishi bo'yicha uch juft gen bo'yicha farqlanishidan darak beradi. Chigit tuklanishi bo'yicha analizator L -70 liniyasining chigit tuklanishn bo'yicha genotipi ilgari aniqlangan edi: L -70 $IIf_{1f_1}f_{2f_2}fcfc$.

L 454 x L 70 kombinatsiyasining F_2 duragaylarida chigit tuklanishi bo'yicha kuzatilgan ajralishda juda kichik mikropilyar tipi (nz-MS) tuklanishga ega bo'lgan o'simliklarning ajralishniq genitik tahlili shundan dalolat beradiki chatishtirish uchun olingan ota – ona liniyalar chigit tuklanishi bo'yicha 4 ta gen o'zaro farqlanadilar. Shu sababli F_2 duragaylarida chigit tuklanishi bo'yicha 196:38:12:10 nisbatdagi ajralishni kuzatamiz. Olingan ajralish nisbatiga asoslanib ota – ona liniyalarining chigit tuklanishi bo'yicha genotiplarini quyidagicha yozamiz.

L -70 liniya – $IIf_{1f_1}f_{2f_2}fcfc$;

L -454 liniya – $iiF_{1F_{1F_{2F_{2FcFc}}}}$;

U holda F_1 duragaylari chigit tuklanishi bo'yicha 4 juft genlari bilan o'zaro farqlanadilar va ularning genotipi quyidagicha: F_1 - $IIf_{1f_1}f_{2f_2}Fcfc$.

Olingan F_1 duragaylari o'z- o'ziga changlantirilib F_2 duragaylari olingan. F_2 duragaylarida chigit tuklanishi bo'yicha genotipik va fenotipik sinflarning ko'rinishi quyidagicha bo'ladi.

| | | | |
|--------------------|---|----|---|
| $P \quad \text{♀}$ | L - 452 $ii F_{1F_{1F_{2F_{2FsFs}}}}$ OC – tip | x | $\text{♂} \quad \text{L} - 70$ $IIf_{1f_1}f_{2f_2}fcfc$ GS - tip Ift_{1f_2fs} |
| F_1 | $Ii \quad F_{1f_1}f_{2f_2}F_{2f_2Fsfs}$ GS – tip | | |
| | | GS | GS |
| $P \quad \text{♀}$ | $Ii F_{1f_1}f_{2f_2}F_{2f_2Fcfc}$ $IFt_{1F_{2Fc}}$ $IFt_{1F_{2fc}}$ IFt_{1f_2Fc} IFt_{1f_2fc} $Ift_{1F_{2Fc}}$ $Ift_{1F_{2fc}}$ Ift_{1f_2Fc} Ift_{1f_2fc} $iFt_{1F_{2Fc}}$ $iFt_{1F_{2fc}}$ | x | $Ii F_{1f_1}f_{2f_2}Fcfc$ $IFt_{1F_{2Fc}}$ $IFt_{1F_{2fc}}$ IFt_{1f_2Fc} IFt_{1f_2fc} $Ift_{1F_{2Fc}}$ $Ift_{1F_{2fc}}$ Ift_{1f_2Fc} Ift_{1f_2fc} $iFt_{1F_{2Fc}}$ $iFt_{1F_{2fc}}$ |
| g | | | |

| | |
|----------------|---------------|
| iFt_1ft_2Fc | iFt_1ft_2Fc |
| $iFt_1ft_2f_c$ | iFt_1ft_2fc |
| ift_1Ft_2Fc | ift_1Ft_2Fc |
| ift_1Ft_2fc | ift_1Ft_2fc |
| ift_1ft_2Fc | ift_1ft_2Fc |
| $ift_1ft_2f_c$ | ift_1ft_2fc |

F₂ da hosil bo'ladigan genotipik sinflar

| Nº | Geneotip | Takrorlanish soni | Fenotip. |
|-----|-----------------------------|-------------------|------------------------------------|
| 1. | $Ft_1 Ft_1Ft_2 Ft_2 fcfc$ | 1 | 16 ta dominant yalang' och urug'li |
| 2. | $Ft_1 Ft_1 Ft_2 ft_2 fcfc$ | 2 | |
| 3. | $Ft_1 ft_1Ft_2 Ft_2 fcfc$ | 2 | |
| 4. | $Ft_1 ft_1 Ft_2ft_2 fcfc$ | 4 | |
| 5. | $Ft_1 Ft_1ft_2 ft_2 fcfc$ | 1 | |
| 6. | $ft_1 ft_1Ft_2 Ft_2 fcfc$ | 1 | |
| 7. | $Ft_1 ft_1ft_2 ft_2 fcfc$ | 2 | |
| 8. | $ft_1 ft_1 Ft_2ft_2 fcfc$ | 2 | |
| 9. | $ft_1 ft_1ft_2 ft_2 fcfc$ | 1 | |
| 10. | $Ft_1 Ft_1Ft_2 Ft_2 Fcfc$ | 2 | |
| 11. | $Ft_1 Ft_1 Ft_2 ft_2 Fcfc$ | 4 | |
| 12. | $Ft_1 ft_1Ft_2 Ft_2 Fcfc$ | 4 | |
| 13. | $Ft_1 ft_1 Ft_2ft_2 Fcfc$ | 8 | |
| 14. | $Ft_1 Ft_1ft_2 ft_2 Fcfc$ | 2 | |
| 15. | $ft_1 ft_1Ft_2 Ft_2 Fcfc$ | 2 | |
| 16. | $Ft_1 ft_1ft_2 ft_2 Fcfc$ | 4 | |
| 17. | $ft_1 ft_1 Ft_2ft_2 Fcfc$ | 4 | |
| 18. | $ft_1 ft_1ft_2 ft_2 Fcfc$ | 2 | |
| 19. | $Ft_1 Ft_1Ft_2 Ft_2 Fc Fc$ | 1 | 32 ta dominant yalang' och urug'li |
| 20. | $Ft_1 Ft_1 Ft_2 ft_2 Fc Fc$ | 2 | |
| 21. | $Ft_1 ft_1Ft_2 Ft_2 Fc Fc$ | 2 | |
| 22. | $Ft_1 ft_1 Ft_2ft_2 Fc Fc$ | 4 | |
| 23. | $Ft_1 Ft_1ft_2 ft_2 Fc Fc$ | 1 | |
| 24. | $ft_1 ft_1Ft_2 Ft_2 Fc Fc$ | 1 | |
| 25. | $Ft_1 ft_1ft_2 ft_2 Fc Fc$ | 2 | |
| 26. | $ft_1 ft_1 Ft_2ft_2 Fc Fc$ | 2 | |
| 27. | $ft_1 ft_1ft_2 ft_2 Fc Fc$ | 1 | |
| 28. | $Ft_1 Ft_1Ft_2 Ft_2 fcfc$ | 2 | 32 ta dominant yalang' och urug'li |
| 29. | $Ft_1 Ft_1 Ft_2 ft_2 fcfc$ | 4 | |
| 30. | $Ft_1 ft_1Ft_2 Ft_2fcfc$ | 4 | |
| 31. | $Ft_1 ft_1 Ft_2ft_2 fcfc$ | 8 | |
| 32. | $Ft_1 Ft_1ft_2 ft_2 fcfc$ | 2 | |

| | | | | |
|------------|-----------|--|----|------------------------------------|
| 33. | <i>Ii</i> | <i>ft₁ ft₁ Ft₂ Ft₂ fcfc</i> | 2 | |
| 34. | | <i>Ft₁ ft₁ ft₂ ft₂ fcfc</i> | 4 | |
| 35. | | <i>ft₁ ft₁ Ft₂ ft₂ fcfc</i> | 4 | |
| 36. | | <i>ft₁ ft₁ ft₂ ft₂ fcfc</i> | 2 | |
| 37. | | <i>Ft₁ Ft₁ Ft₂ Ft₂ Fcfc</i> | 4 | |
| 38. | | <i>Ft₁ Ft₁ Ft₂ ft₂ Fcfc</i> | 8 | |
| 39. | | <i>Ft₁ ft₁ Ft₂ Ft₂ Fcfc</i> | 8 | |
| 40. | | <i>Ft₁ ft₁ Ft₂ ft₂ Fcfc</i> | 16 | 64 ta dominant yalang' och urug'li |
| 41. | | <i>Ft₁ Ft₁ ft₂ ft₂ Fcfc</i> | 4 | |
| 42. | | <i>ft₁ ft₁ Ft₂ Ft₂ Fcfc</i> | 4 | |
| 43. | | <i>Ft₁ ft₁ ft₂ ft₂ Fcfc</i> | 8 | |
| 44. | | <i>ft₁ ft₁ Ft₂ ft₂ Fcfc</i> | 8 | |
| 45. | | <i>ft₁ ft₁ ft₂ ft₂ Fcfc</i> | 2 | |
| 46. | | <i>Ft₁ Ft₁ Ft₂ Ft₂ Fc Fc</i> | 2 | |
| 47. | | <i>Ft₁ Ft₁ Ft₂ ft₂ Fc Fc</i> | 4 | |
| 48. | | <i>Ft₁ ft₁ Ft₂ Ft₂ Fc Fc</i> | 4 | |
| 49. | | <i>Ft₁ ft₁ Ft₂ ft₂ Fc Fc</i> | 8 | 32 ta dominant yalang' och urug'li |
| 50. | | <i>Ft₁ Ft₁ ft₂ ft₂ Fc Fc</i> | 2 | |
| 51. | | <i>ft₁ ft₁ Ft₂ Ft₂ Fc Fc</i> | 2 | |
| 52. | | <i>Ft₁ ft₁ ft₂ ft₂ Fc Fc</i> | 4 | |
| 53. | | <i>ft₁ ft₁ Ft₂ ft₂ Fc Fc</i> | 4 | |
| 54. | | <i>ft₁ ft₁ ft₂ ft₂ Fc Fc</i> | 2 | |
| 55. | <i>ii</i> | <i>Ft₁ Ft₁ Ft₂ Ft₂ fcfc</i> | 1 | n-MS |
| 56. | | <i>Ft₁ Ft₁ Ft₂ ft₂ fcfc</i> | 2 | p-MS |
| 57. | | <i>Ft₁ ft₁ Ft₂ Ft₂ fcfc</i> | 2 | p-MS |
| 58. | | <i>Ft₁ ft₁ Ft₂ ft₂ fcfc</i> | 4 | m-MS |
| 59. | | <i>Ft₁ Ft₁ ft₂ ft₂ fcfc</i> | 1 | m-MS |
| 60. | | <i>ft₁ ft₁ Ft₂ Ft₂ fcfc</i> | 1 | m-MS |
| 61. | | <i>Ft₁ ft₁ ft₂ ft₂ fcfc</i> | 2 | nz-MS |
| 62. | | <i>ft₁ ft₁ Ft₂ ft₂ fcfc</i> | 2 | nz-MS |
| 63. | | <i>ft₁ ft₁ ft₂ ft₂ fcfc</i> | 1 | GS (retsessiv yalang' och urug'li) |
| 64. | | <i>Ft₁ Ft₁ Ft₂ Ft₂ Fcfc</i> | 2 | PS |
| 65. | | <i>Ft₁ Ft₁ Ft₂ ft₂ Fcfc</i> | 4 | PS |
| 66. | | <i>Ft₁ ft₁ Ft₂ Ft₂ Fcfc</i> | 4 | PS |
| 67. | | <i>Ft₁ ft₁ Ft₂ ft₂ Fcfc</i> | 8 | m-MS |
| 68. | | <i>Ft₁ Ft₁ ft₂ ft₂ Fcfc</i> | 2 | PS |
| 69. | | <i>ft₁ ft₁ Ft₂ Ft₂ Fcfc</i> | 2 | m-MS |
| 70. | | <i>Ft₁ ft₁ ft₂ ft₂ Fcfc</i> | 4 | nz-MS |
| 71. | | <i>ft₁ ft₁ Ft₂ ft₂ Fcfc</i> | 4 | nz-MS |
| 72. | | <i>ft₁ ft₁ ft₂ ft₂ Fcfc</i> | 1 | GS (retsessiv yalang' och urug'li) |
| 73. | | <i>Ft₁ Ft₁ Ft₂ Ft₂ Fc Fc</i> | 1 | OS |
| 74. | | <i>Ft₁ Ft₁ Ft₂ ft₂ Fc Fc</i> | 2 | OS |

| | | | |
|------------|---|---|------------------------------------|
| 75. | <i>Ft₁ft₁Ft₂Ft₂FcFc</i> | 2 | OS |
| 76. | <i>Ft₁ft₁Ft₂ft₂FcFc</i> | 4 | OS |
| 77. | <i>Ft₁Ft₁ft₂ft₂FcFc</i> | 1 | OS |
| 78. | <i>ft₁ft₁Ft₂Ft₂FcFc</i> | 1 | m-MS |
| 79. | <i>Ft₁ft₁ft₂ft₂FcFc</i> | 2 | nz-MS |
| 80. | <i>ft₁ft₁Ft₂ft₂FcFc</i> | 2 | nz-MS |
| 81. | <i>ft₁ft₁ft₂ft₂FcFc</i> | 1 | GS (retsessiv yalang' och urug'li) |

| | | | |
|-----|----|----|----|
| GS | MS | PS | OS |
| 196 | 38 | 12 | 10 |

Fenotipik sinflar:

1. GS – o'simliklar -196
2. MS – o'simliklar-38
3. PS – o'simliklar-12
4. OS – o'simliklar-10

Fenotipik sinflar o'rtasidagi nisbat 196 : 38 : 12 : 10

V 606. MIQDORIY BELGILARNING IRSIYLANISHI

Tola chiqishi va indeksi, 1000 ta urug‘ (chigit) massasi kabi belgilar xo‘jalik nuqtai nazardan g‘o‘zaning qimmatli belgilari hisoblanadi. SHu nuqtai nazardan bu belgilarning irsiylanishini o‘rganish katta ahamiyatga ega. Bu belgilarning irsiylanishiga doir ko‘plab chet el va vatanimiz olimlarining ishlari chop etilgan.

X.Holmatov (1978) liniyalar aro chatishtirish natijasida olingan duragaylarda tola indeksi va chiqimini o‘rganib quyidagilarni aniqladi: “Yuqori tola indeksi” belgisi “past tola indeksi” belgisi ustidan to‘liq ustunlik qiladi. Bir xil yuqori indeksga ega bo‘lgan liniyalar o‘zaro chatishtirilganda. Har ikki ota-onalari liniyalar ko‘rsatkichlariga nisbatan F_1 duragaylarda bu belgining ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan. “Yuqori tola chiqimi” belgisi ustida o‘tkazilgan chatishtirishlarda to‘liqsiz dominantlik qilib, ko‘proq yuqori ko‘rsatkichli ota-onalari tamonga siljiganligini aniqladi.

X.Holmatov (1982) g‘o‘za genetik kolleksiyasining liniyalarini o‘zaro chatishtirishdan olingan F_1 va F_2 duragaylarida tola chiqimi va indeksining irsiylanishida genotipning ishtiroki qay darajada ekanligini o‘rgandi. Tuksiz va tolasiz bo‘lgan L-70 liniyani L-12, L-13, L-451, L-457 tukli va tolali liniyalar bilan chatishtirib olingan F_1 duragaylarda tola chiqimi va indeksi ota-onalari ko‘rsatkichi orasida oraliq holatni egallaganligini ko‘rsatdi. F_2 duragaylarida tola indeksining irsiylanishida genotipning ishtiroki $h^2 = 0,90-0,95$ birlikni yoki foizni tashkil etadi. Tola chiqimi bo‘yicha bu ko‘rsatkich 0,97-0,98 ga teng.

Tuk va tolaga ega bo‘lgan liniyalarni o‘zaro chatishtirishdan olingan F_1 duragaylarida L-454 liniyaning “yuqori tola chiqimi” belgisi barcha kombinatsiyalarda to‘liqsiz dominantlik qilgan yoki oraliq holatni egallagan F_2 duragaylarida tola chiqimi va indeksining yuzaga chiqishida genotipning ishtiroki tola indeksi bo‘yicha 0,47 dan 0,70 gacha, tola chiqimi bo‘yicha 0,40 dan 0,67 gacha birlikkacha tebranishi qayd etilgan. Miqdor belgilar bo‘yicha ota-onalari formalar bir-xil ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishlari mumkin, ammo bu belgilarning namoyon bo‘lishida genotipning roli turli darajada bo‘lishligini muallif alohida qayd etadi.

Sh.M.Tolipov, Sh.Turabekov (1982) genetik kolleksiya ayrim liniyalarini o‘zaro chatishtirishdan olingan F_1 duragaylarida tola chiqimi va indeksi, 1000 ta chigit og‘irligi kabi miqdor belgilarning irsiylanishini o‘rganib quyidagilarni aniqladilar:

F_1 duragaylarida tola chiqimi va indeksi ko‘rsatkichlari bo‘yicha oraliq holatni ko‘rsatganlar. 1000 ta chigit og‘irligiga ko‘ra esa F_1 duragaylari ota-onalari ko‘rsatkichlariga nisbatan oraliq ko‘rsatkichga ega bo‘lgan, ammo ayrim kombinatsiyalarda esa F_1 duragaylarning ko‘rsatkichlari har ikki ota-onalari kombinatsiyalaridan ham yuqori bo‘lgan, boshqa kombinatsiyalarda esa past bo‘lgan.

G. barbadense L. turiga mansub genetik kolleksiyasining L-4, L-8, L-10 liniyalarini o‘zaro chatishtirishdan olingan duragaylarda tola chiqimi va indeksi belgilarning irsiylanishini A.P.Bajanova va boshqalar (1990) o‘rganganlar.

Ularning ta'kidlashicha, F_1 duragaylari ota-onalik vakillariga nisbatan o'rganilayotgan belgi bo'yicha oraliq ko'rsatkichga ega bo'lганлар.

Sh. Turabekov va boshqalar (2001) genetik kolleksiyaning ayrim liniyalarida tola chiqimi, indeksi va 1000 ta chigitning og'irligi kabi belgilarning irsiylanishini o'rganish natijasida quyidagini ta'kidlaydalar: Ota-onalik liniyalarini yuqorida qayd etilgan belgilaringa ko'ra bir-biridan keskin farq qilganlari holda ularni o'zaro chatishirishdan olingan F_1 duragaylarida o'rganilayotgan belgilarning ko'rsatkichlari oraliq holatni egallagan.

5.1.G'o'zada tola chiqishining irsiylanishi.

Tadqiqot obekti sifatida olingan ota ona liniyalarini tola chiqishi bo'yicha keskin farq qiladilar. L-70 liniya absolyut yalang'och urug'li bo'lib chigitini to'liq tuksiz va tolasiz. Tola chiqishi 0 foiz. Ota – ona sifatida olingan ikkinchi komponet - L-454 chigitini to'liq tuk bilan qoplangan bo'lib, qalin uzun tolalar qoplamiga ega (tolu chiqishi $(43,04 \pm 0,28)$). Bu liniyalarni o'zaro chatishirishdan olingan birinchi avlod duragaylari (F_1) ning chigitini yalang'och chigitini (GS-tip) chigitining to'liq tuklanishi (OS-tip) ustidan to'liq dominanlik qiladi. F_1 duragaylarida tola chiqishi bo'yicha o'zgaruvchanlik u qadar katta bo'lmasdan o'rtacha 27 foizdan 45 foizgacha o'zgarib boradi. F_1 duragaylarida tola chiqishining o'rtacha qiymati $31,62 \pm 0,23$ ga teng (27-jadval).

F_1 duragaylari tola chiqishi ko'rsatkichi bo'yicha ota – ona liniyalarining o'rtacha ko'rsatkichlariga nisbatan oraliq holatni egallaganlari holda yuqori tola chiqishiga ega bo'lган L-454 tomon yon bosailar. F_1 duragaylari chiqishi bo'yicha dominanlik darajasining ko'rsatkichi hpq 0,46 ga teng. Bu belgi o'rtacha tipda dominantlik qilishini ko'rsatadi. Agarda F_1 duragaylar tola chiqishini akademik D.A.Musayev tomonidan 2008 yilda bayon etilgan *G.hirsutum L.* G'o'zalarida tola qoplami (tuk va tola) ning genitik boshqarilishi haqidagi yangi talqindagi nazariyaga binoan tahlil qiladigan bo'lsak, u holda biz F_1 duragaylarida asosan tolanning sof polimer genlarining faoliyatini kuzatiladi.


Chigit ustidagi tuklanishning irsiylanishda qatnashuvchi gen ingibitor II dominant geterazigota holata chigit ustidagi tuklanishni rivojlantiruvchi strukturaviy genlar – $Ft_1 ft_1$ va $Ft_2 ft_2$, $Fc fc$ ning faoliyatini bosib turadi, ammo tolani rivojlantiruvchi genlarning faoliyatiga passiv bo'lib ularning ishlashiga to'sqinlik qilmaydi. Shu sababli F_1 duragaylarida sof polimer genlar tomonidan boshqariladigan polimer tola rivojlanadi. Bu holatni akademik D.A.Musayev dunyo miqyosida birinchi bo'lib isbotlagan edilar. Bizning tadqiqotimizda D.A.Musayevning fikrlari yaqqol tasdiqlanmoqda. Bu kombinatsya F_1 duragaylarida boshqa analogik kombinatsyalarga nisbatan tola chiqishi 1-2 foizga yuqori. Bu holat aftidan L-454 liniya genotipida tolaga aloqador polimer genlar sonining ko'pligidan darak beradi. Analizator liniya L-70 yordami bilan har qanday boshlang'ich tadqiqot oldidan sinab ko'rish orqali uning sof polimer genlarining soni haqida fikr bildirish mumkin.

28-jadval

F₁, F₂ duragaylari va ularning ota-onaliniyalarida tola chiqishining irsiylanishi.

| Material | n | Sifatlarni o‘rtacha qiymati, % hisobida | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | x±m | V | | | |
|-----------------------------|-----|---|---|----|---|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|-----|----|------------|-----------|------|
| | | 0 | 1 | 3 | 5 | 7 | 9 | 11 | 13 | 15 | 17 | 19 | 21 | 23 | 25 | 27 | 29 | 31 | 33 | 35 | 37 | 39 | 41 | 43 | 45 | | | |
| L-454 | 42 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | 3 | 8 | 16 | 15 | 43,04±0,28 | 4,29 | |
| F ₁ L-454 x L-70 | 64 | | | | | | | | | | | | | | | | 1 | 11 | 25 | 21 | 6 | | | | | 31,62±0,23 | 5,84 | |
| F ₂ L-454 x L-70 | 409 | 27 | 7 | 25 | 9 | 13 | 12 | 10 | 15 | 8 | 11 | 9 | 11 | 12 | 12 | 18 | 28 | 31 | 29 | 26 | 35 | 33 | 18 | 7 | 3 | 24,16±0,66 | 55,86 | |
| Shu jumladan GS | 309 | 27 | 7 | 25 | 9 | 13 | 12 | 10 | 15 | 8 | 11 | 9 | 11 | 12 | 12 | 17 | 26 | 26 | 25 | 12 | 15 | 7 | | | | 19,46±0,70 | 64,11 | |
| MS-o‘simliklar | 55 | | | | | | | | | | | | | | | | 1 | 1 | 3 | 2 | 9 | 15 | 11 | 9 | 3 | 1 | 37,4±0,48 | 9,56 |
| PS-o‘simliklar | 23 | | | | | | | | | | | | | | | | | 1 | 1 | 3 | 2 | 6 | 8 | 1 | 1 | 38,83±0,68 | 8,49 | |
| OS-o‘simliklar | 22 | | | | | | | | | | | | | | | | 1 | 1 | 1 | 2 | 3 | 9 | 1 | 3 | 1 | 38,64±0,84 | 10,24 | |
| L-70 | 79 | 79 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | - | - | |

2-chizma



F_1 duragaylari o'ziga-o'zi changlantirib olingan F_2 duragaylarida tola chiqishi bo'yicha juda katta uzlucksiz o'zgaruvchanlik kuzatiladi.

F_2 duragaylarida tola chiqishining ko'lami 0 foizdan to 45 foizgacha tebranib boradi. O'rtacha qiymat $24,16 \pm 0,66$ foizni tashkil etadi (28-jadval).

Yuqorida qayd etilganidek F_2 duragaylarini chigit tuklanishi bo'yicha to'rtta fenotipik sinflarga ajratish mumkin:

- 1.Chigit tuksiz, yalang'och bo'lgan GS-o'simliklar;
- 2.Chigit mikropilyar tuklanishli MS-o'simliklar;
- 3.Chigit PS-tip tuklanishli o'simliklar;
- 4.Chigit to'liq OS-tip tuklanishli o'simliklar;

F_2 ning GS-o'simliklarida tola chiqishi bo'yicha o'zgaruvchanlik ko'lami 0 foizdan 39 foizgacha tebranadi. O'rtacha qiymat $19,46 \pm 0,70$ foizga teng. O'zgaruvchanlik ko'lamiga monand ravishda variatsiya koefitsienti ham juda yuqori (64,11%). GS-o'simliklarida tola chiqishi D.A.Musayev nazariyasiga muvofiq sof polimer tola genlarining hissasiga to'g'ri keladi.

F_2 ning MS-o'simliklarida tola chiqishi 27 foizdan 45 foizgacha tebranadi, o'zgaruvchanlik ko'lami GS-o'simliklariga qaraganda ancha kichik, shunga mos ravishda variatsiya koefitsienti ham pastroq (9,56%). O'rtacha qiymat $37,4 \pm 0,48$ foiz (28-jadval).

Analogik holatni PS va OS-o'simliklarida ham kuzatish mumkin. Ularda o'zgaruvchanlik 27-45 foizlar orasida tebranadi. O'rtacha qiymat mos ravishda $38,83 \pm 0,48$ va $38,64 \pm 0,84$ ga teng.

Shuni alohida qayd etish kerakligi chigitning tukli bo'lishi bilan tola chiqishining keskin ortganligining guvohi bo'lamiz. Chigit tuklangan (MS+PS+OS) o'simliklarda tola chiqishining 16-17 foizga ortgan. A.D.Musayev nazariyasiga binoan chigit tukli F_2 duragaylarida tola chiqishining yuqori ko'tarilishga asosiy sabab chigit tuklanishini nazorat qiluvchi strukturaviy genlar chigit tuklanishini nazorat qilish bilan bir vaqtida ma'lum miqdordagi tolanning rivojlanishiga pleyotrop ta'sir ko'rsatadilar.

Tukli chigitlarda qo'shimcha 16-17 foiz tola pleyotrop tola hisoblanib, chigit tuklanishi genlarining pleyotrop effekti tufayli vujudga keladi.

Shunday qilib, F_2 duragaylarida tola chiqishining genetik tahlili bu belgining murakkab irsiylanish xarakteriga ega ekanligini ko'rsatadi (Turabekov Sh., G.N.Fatxullaeva, S.T.Musayeva, S.U.Ibragimxodjaev, M.M.Ergashev, 2010y.).

5.2.G'o'zada tola indeksining irsiylanishi.

Tola chiqishiga ta'sir etuvchi omillardan biri bu tola indeksi (100 chigit tolasining og'irligi) hisoblanadi. Mazkur kombinatsiyaning boshlang'ich ota-onaliniyalari tola indeksi bo'yicha ham o'zaro keskin farq qiladilar.


L-454 liniya o'simliklarida tola indeksi bo'yicha o'rtacha qiymat $9,68 \pm 0,12$ gramnni tashkil etadi. L-70 liniya o'simliklari mutlaq tolasiz hisoblanadilar. Bu liniyalarni o'zaro chatishirishdan olingan F_1 duragaylarida tola indeksi o'rtacha

29-jadval

F₁, F₂ duragaylarida va ularning ota – ona liniyalarida tola indeksining irsiylanishi.

| Material | n | Sifatlarni o‘rtacha qiymati, g. | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | X±m | V | | |
|---------------------------|-----|---------------------------------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|-------|-------|-------|-----------|-------|
| | | 0 | 0,75 | 1,25 | 1,75 | 2,25 | 2,75 | 3,25 | 3,75 | 4,25 | 4,75 | 5,25 | 5,75 | 6,25 | 6,75 | 7,25 | 7,75 | 8,25 | 8,75 | 9,25 | 9,75 | 10,25 | 10,75 | 11,25 | | |
| L-454 | 42 | | | | | | | | | | | | | | | | | 3 | 7 | 9 | 5 | 12 | 4 | 2 | 9,68±0,12 | 8,42 |
| F ₁ L-454xLx70 | 64 | | | | | | | 1 | 8 | 20 | 29 | 5 | 1 | | | | | | | | | | | | 5,00±0,05 | 9,26 |
| F ₂ L-454xL-70 | 409 | 18 | 68 | 19 | 23 | 15 | 20 | 17 | 21 | 27 | 32 | 30 | 32 | 30 | 19 | 17 | 10 | 5 | 3 | 1 | 0 | 1 | | | 3,82±0,11 | 63,47 |
| L-70 | 79 | 79 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | - | - |

3-chizma



3,75 grammdan 6,25 grammgacha o'zgarib turgan, o'rtacha qiymat $5,00 \pm 0,05$ grammni tashkil etgan (29-jadval).

F_1 duragaylari tola indeksi bo'yicha ota-onalarning ko'rsatkichlariga nisbatan oraliq holatni egallaydilar hamda lo'proq yuqori ko'rsatkichli L-454 liniya o'simliklariga moyillik ko'rsatadilar. F_1 duragaylarida tola indeksi bo'yicha dominantlik darajasi $hp=0,033$ ga teng. Belgi bo'yicha juda past darajadagi dominantlik kuzatiladi.

F_1 duragaylarining variatsion qatorlari asosida tuzilgan variatsion egri chiziq yaqqol ifodalangan bir cho'qqili egri chiziq bilan xarakterlanadi.

Ikkinci avlod duragaylarida tola indeksi bo'yicha uzluksiz o'zgaruvchanlik kuzatiladi. O'zgaruvchanlik amlitudasi 0 grammdan 10,25 grammgacha tebranadi. F_2 duragaylarining tola indeksi bo'yicha o'rtacha qiymati $3,82 \pm 0,11$ g. ni tashkil etadi, variatsiya koeffitsienti esa $63,47$ foizga teng (29-jadval).

Bu tipdag'i variatsion egri chiziqlar belgining polimer genlar tomonidan boshqarilishligidan darak beradi.

5.3.G'o'zada 1000 ta chigit og'irligining irsiylanishi.

Boshlang'ich material sifatida olingan liniyalar 1000 ta chigit og'irligi belgisi bo'yicha o'zaro kuchli farqlanadilar. L-454 liniya o'simliklari 1000 ta chigit og'irligi bo'yicha $129,05 \pm 1,43$ ko'rsatkichga ega bo'lsalar ota sifatida olingan L-70 liniya o'simliklari $93,45 \pm 0,72$ g. ko'rsatkichlarga ega bo'lganlar.

Bu liniyalarni o'zaro chatishirishdan olingan F_1 duragaylari 1000 ta chigit og'irligi bo'yicha uzliksiz o'zgaruvchanlik hosil qilganlari holda o'zgaruvchanlik ko'lami 82 grammdan 127 g. gacha o'zgarib boradi. O'rtacha qiymat esa $109,22 \pm 1,28$ g. ni tashkil etadi. F_1 duragaylarining bu belgi bo'yicha ko'rsatkichlari har ikki ota - ona ko'satkichlari orasida oraliq holatni egallaydilar. F_1 duragaylarining 1000 ta chigit og'irligi bo'yicha variatsiya qatorlari yaqqol ifodalangan bir cho'qqili egri chiziqni hosil qiladi

F_2 duragaylari bu miqdor belgi bo'yicha juda keng o'zgaruvchanlikka ega bo'lib, o'zgaruvchanlik amplitudasi 62 - 152 grammalar orasida tebranadi.

Shuni alohida takidlash kerakki F_2 duragaylari ichida 1000 ta chigit og'irligi bo'yicha geterozisga uchragan o'simliklar anchagina qismini tashkil etadi. F_2 duragaylarida 1000 ta chigit og'irligi bo'yicha o'rtacha qiymat $105,96 \pm 0,73$ g ni tashkil etadi. F_2 duragaylarining 1000 ta chigit og'irligi bo'yicha variatsiya qatorlarining egri chizig'i yaqqol ifodalangan bir cho'qqiga ega ekanligi bilan xarakterlanadi.

F_2 duragaylarida 1000 ta chigit og'irligi belgisining chigit tuklanishi fonida irsiyanishining genetik tahlili qudagicha qonuniyatni aniqlashga imkon beradi:

Chigit tuklanishi fonida ajratilgan to'rtta fenotipik sinflarda tola chiqishi va tola indeksi bo'yicha chigit tuklanishli (MS + PS + OS) sinflarning o'simliklari GS - o'simliklariga nisbatan ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan. 1000 ta chigit og'irligi bo'yicha farq esa unchalik katta bo'lmasdan atiga 4 - 5 grammni


30-jadval

F₁ F₂ duragaylari va ularning ota – onalarida 1000 ta chigit og‘irligining irsiylanishi.

| Material | n | Sifatlarni o‘rtacha qiymati, g. | | | | | | | | | | | | | | | | | | x±m | σ | V | |
|-----------------------------|-----|---------------------------------|------|------|------|------|------|------|------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------------|-------|-------|
| | | 62,5 | 67,5 | 72,5 | 77,5 | 82,5 | 87,5 | 92,5 | 97,5 | 102,5 | 107,5 | 112,5 | 117,5 | 122,5 | 127,5 | 132,5 | 137,5 | 142,5 | 147,5 | 152,5 | | | |
| L-454 | 42 | | | | | | | | | | | | 7 | 9 | 9 | 8 | 4 | 2 | 1 | 2 | 129,05±1,43 | 9,27 | 7,18 |
| F ₁ L-454 x Lx70 | 64 | | | | | 3 | 1 | 2 | 7 | 5 | 6 | 19 | 17 | 3 | 1 | | | | | | 109,22±1,28 | 10,24 | 9,37 |
| F ₂ L-454 x L-70 | 409 | 1 | 2 | 4 | 6 | 18 | 26 | 37 | 57 | 49 | 46 | 44 | 54 | 24 | 20 | 12 | 3 | 2 | 2 | 2 | 105,96±0,73 | 14,95 | 14,41 |
| L – 70 | 79 | | | | 3 | 5 | 13 | 21 | 29 | 6 | 2 | | | | | | | | | | 93,45±0,72 | 6,40 | 6,85 |

4-chizma

1000 ta chigit og‘irligining irsiylanishi bo‘yicha variatsion egri chiziq



Tola chiqishi va tola indeksining rivojlanish va irsiylanish ikki xil xarakterdagi genetik boshqarilishiga (tolaning sof polimer genlari hamda chigit tuklanishi genlarining pleyotrop effektiga); 1000 ta chigit og'irligining irsiylanishi faqat rolimer genlargina ega ekanligidir.

1000 ta chigit og'irligining irsiylanishi polimer genlarga bog'liq.

Kombinatsiyaning F_1 , F_2 duragaylarida chigit tuklanishi hamda miqdor belgilarning irsiylanish qonuniyatlarini o'rganish natijasida olingan dalillarning genetik tahliliga asoslangan holda qudagicha idmiy xulosalarga kelish mumkin:

1.O'rganilgan kobilatsiyalarning F_1 duragaylarida chigitning tuksizlik (yalong'ochlik) belgisi chigitning tuklilik belgisi ustidan to'liq dominantlik qildi, ota - ona sifatida olingan liniyalardan L- 454 liniyasi chigit tuklanishi bo'yicha quyidagi genotipga ega: - $iiFt_1Ft_1Ft_2Ft_2FcFc$.

2.O'rganilayotgan miqdor belgilar bo'yicha ota - ona ko'rsatkichlari o'zaro kuchli farq qilsalar, u holda ularning F_1 duragaylari o'zlarining o'rtacha qiymatlari bilan har ikki ota - ona ko'rsatkichlariga nisbatan oraliq holatni egallaydilar.

3. F_2 duragaylarida miqdor belgilarning irsiylanishi qonuniyatları akademik D.A.Musayevning tuk va tolanning genetik boshqarilishi haqidagi yangi talqindagi nazariyasini amalda tasdiqlaydi.

4.O'rganilgan kombinatsiyada tola chiqishi va tola indeksi tolanning sof polimer genlari hamda chigit tuklanishi genlarining tola chiqishiga bo'ladigan pleyotrop effektiga bog'liq.

5. F_2 duragaylarida 1000 ta chigit og'irligining irsiylanishi polimer genlarga bog'liq.

5.4.G'o'zada tola uzunligi belgilarning irsiylanishi.

Ma'lumki hozirda yaratilgan navlarning tola chiqimi yuqori bo'lishi bilan birgalikda, to'qimachilik sanoati talablariga javob berishi, ya'ni yuqori tola sifatiga ega bo'lishi ham kerak. G'o'za navlarining tola sifati-uzunligi, pishiqligi, ingichkaligi (metrik raqami), tolanning uzulish kuchi va elastikligi bilan tavsiflanadi. Ko'pchilik ilmiy tadqiqotlarda duragay o'simliklarida tola uzunligi belgisi ota-onaliga nisbatan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lishligi aniqlangan. Uzun tolalik, kalta tolalik ustidan ustinklik qilishi to'g'risidagi ma'lumotlar ham mavjud, lekin ba'zi bir ma'lumotlarga qaraganda, bu belgi to'liq yoki to'liqsiz ustunlik qilgani holda yuqori ko'rsatkichli ota yoki ona namunalari tomon siljiganligi qayd etilgan. Ikkinci bo'g'im duragay avlodlarda esa murakkab ajralish kuzatilib, kamdan-kam hollardagina 3 : 1 nisbatda ajralish ro'y berishi ko'rsatiladi.

J.Singh, B.Sandular g'o'za miqdoriy belgilarning genetikasini o'rganib tola uzunligini irsiylanishida dominant genlar, shuningdek, polimer genlar ta'sir etishi mumkinligini ta'kidlaydilar.

M.F.Abzalovning ma'lumotlariga ko'ra *G. hirsutum L.* turida tolanning shakllanishi murakkab belgi bo'lib, bu belgi genlarning o'zaro ta'siri nazoratida bo'ladi. X.Ashurbekov, E.Muqimovlarning ma'lumotlariga ko'ra esa tola uzunligi

nav xususiyati va irsiy belgini avloddan – avlodga berilishi, hamda tajriba vaqtida olib borilgan agrotexnik faoliyatga ham ma'lum miqdorda bog'liqligi ta'kidlanadi.

Gossypium L. turkumining madaniy vakillarida chigitdatolaning bo'lishi dominant belgidir. Mutloq tuksizlik va tolasizlik ikkilamchi bo'lib, tola va tuklarni nazorat qiluvchi genlar mutatsiyasi sababli hosil bo'lgan. Hayotchan dominant mutloq tuksiz va tolasiz shakllar paydo bo'lishini gen ingibitorning paydo bo'lishi bilan tushintirish mumkin (Abzalov, 2010).

Jahon paxtachiligidagi *G. barbadense L.* navlarining salmog'i yuqori bo'lib, tolanning texnologik sifatlari – tolanning uzunligi, ingichkaligi va pishiqligi jihatdan eng qimmatli hisoblanib, tabiatdagi mavjud biomorfologik xilma-xilligi foydali genetik resurslarining boy manbaidir (Omonov B.X, Ernazarova Z.X, 2007).

Tola uzunligi belgisi paxta xom ashvosining asosiy sifat ko'rsatgichlaridan biri bo'lib, tolanning sanoat uchun qiymati aynan shu belgilar asosida belgilanadi: Olib borilgan izlanishlar natijasida, bu belgining irsiylanishi o'rganilib, 2006 yil h^2 -0,247, 2007 yil h^2 -0,883 qiymatdaga ko'rsatgich bilan tola uzunligining genlar asosida irsiylanish darajasini ortib borish imkoniyati mavjud ekanligini ko'rsatdi, ya'ni 2006 yilda 75% tashqi muhit sharoiti ta'sirida bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2007 yilda 12% ni tashkil etdi. Bunday holat belgilarning irsiylanishi tufayli vujudga kelib, ularning o'zgaruvchanligi esa agrotexnik sharoitlarga qarab ham belgilanishini X.Y To'ychiev (2010) o'z tajribalarida ko'rsatadi.

Chatish tirishda ishtirok etgan ota-onavakillarining har ikkisi ham turlar aro duragaylashda (*G. hirsutum L.* x *G. barbadense L.*) tolesi uzun va chiqimi yuqori bo'lishini taqozo qiladi, chunki shu asosda yaratilgan vakil, uzun tolali va tola chiqimi yuqori bo'lgan izogen liniya yoki noizogen navlarning yaratilishida poydevor bo'lib xizmat qilish mumkinligini T.L.Muxiddinov va A.G'. Abdullayev (2006) lar o'z ilmiy tadqiqotlarida ko'rsatib o'tadilar.

Tola uzunligi navlarda 39,8 mm.dan (Surxon-9) 41,7 mm. gacha (Diduragaylar x Surxon-10) bo'lishi va bu belgiga ko'ra duragaylarda asosan musbat yoki manfiy geterozisli ota ustunlik, ba'zi hollarda esa yuqori yoki past ko'rsatkichlarga ega ota-onavakillarining to'liq va oraliq irsiylanish yuzaga keladi. Ba'zi navlarda tola uzunligi bilan o'sish davri o'rtasida ota-onavakillar guruhi bo'yicha kuchli musbat korrelyasiya (S_r -0.64), F_1 duragaylari guruvida esa (S_r -0.001) korrelyasiya mavjud emasligi aniqlangan (N.E.Chorshanbiev, S.M Nabiev, 2007).

5.5. G'o'zaning zararkunandalarga bo'lgan chidamliliginin genetikasi

O'tgan asrning 70-yillaridan boshlab AQSh da g'o'zaning kasallik va zararkunandalarga immunitetini o'rganish maqsadida keng miqyosdagi ilmiy tadqiqotlar olib borila boshlandi.

Dariyev, Abdullayev (1985) dalillariga ko'ra madaniy g'o'za turlaridan faqat *G. barbadense L.* gina so'ruchchi zararkunandalardan o'rgimchakkana bilan birmuncha kam zararlanar ekan.

V.V.Yaxontovning ko'rsatishicha (1930), g'o'zaning shira va o'rgimchakkanaga chidamliligi bargning tuklanganligiga va hujayra shirasining osmotik bosimiga bog'liq.

I.N.Stepansev (1935) bir qator navlarning o'rgimchakkanaga chidamliligin o'rganib ushbu zararkunandaga chidamli bo'lган navlarning barg plastinkasi qalin va epidermis hujayralarining zichligi yuqori darajada bo'ladi, degan xulosaga kelgan

R.Paynternng (1953) qayd etishicha esa g'o'zaning o'rgimchakkanaga chidamli bo'lishida barg to'qimalarining qalinligi va ularning uzunligi muhim ahamiyatga ega.

S.A.Ketev va boshqalarning fikricha (1965), epidermis qavatining qalinligi va hujayra shirasining osmotik bosimi g'o'zaning shiraga chidamliligining asosiy belgilaridir.

G.N.Saunders (1961) o'z izlanishlarida *G.raimondii* turidagi zararkunandalarga chidamliligin ta'minlovchi tuklilik belgisini xromosomalar sonini oshirish yo'li bilan (avtopoliploidiya) *G. hirsutum L.* genomiga o'tkazishga erishgan. Muallifning qayd etishicha, o'simlik organlarining tuklanganlik belgisi tuksizlik geni allellariga nisbatan dominant yoki epistatik irsiylanishi tabiatiga ega.

Ko'pgina tadqiqotchilarining (Saunders, 1961; Kemel etall, 1965; Jawaad, Salimun, 1972; Talipov va boshqalar, 1976; Xodosevich, 1979; E.N.Dunnan and R.Shepherd, 1982; Dariyev, Abdullayev, 1985; Alimuhamedov va boshqalar 1990; Le Duyen Anx, 1994; Saydaliyev va boshqalar, 1995) ma'lumotlariga ko'ra g'o'zaning tuklangan bargli navlari shira yuqori darajada chidamli bo'lar ekan. Keyingi yillarda o'simliklarning chidamlilik omillarini o'rganish va tahlil qilish natijalari chidamlilikning o'simlikning nafaqat anatomik-morfologik xususiyatlariga, balki, ikkilamchi birikmalar va metabolitlarga ham bog'liq degan xulosalarga ham kelinmoqda. Bu birikmalar ozuqaviy attraktant yoki repellent rolni bajaradi (Zaxvatkin, Solomatin, 1982).

S.C.Chakrovorty va A.K.Rasu lar (1981) yuqori darajada chidamli bo'lган G-9 g'o'za naviga taninlarning konsentratsiyasi birmuncha yuqori ekanligi aniqlangan.

I.C.Varuntsyantsning (1971) qayd qilishicha juda kam gossipol miqdoriga ega bo'lган g'o'za o'simligi, zararkunandalar bilan kuchli zararlanadi. (Alimuhamedov va boshqalar 1990 bo'yicha)

F.C.Talipov va boshqalar (1976), V.V.Yaxontov (1957), F.M.Uspenskiy (1960) larning qayd etishlaricha, navlarning chidamlilik darjasini ularning nav jihatidan farqidan, xusan, o'simlik barglarining tuklanish tipi, gossipol bezchalarining miqdori bargning anatomik tuzilishi o'simlikning biokimyoviy va fiziologik jihatdan har xil bo'lishidan kelib chiqib, turlicha bo'ladi.

M.F.Shuster va boshqalar (1972) g'o'zaning 22 ta yovvoyi turining o'rgimchakkanaga chidamliligin o'rganib, gossipol bezchalarini miqdorining o'simlikning chidamliliga ta'sirini o'rganganlar va o'z tadqiqotlari natijasida bu ikkala belgi orasida bog'liqlik yo'q degan xulosaga keldi.

A.S.Dariyev va boshqalar A.A.Abdullayevlar (1974) bir qator yovvoyi turlar bargining tuzilishini o'rganib, g'o'zaning o'rgimchakkana va g'o'za shirasiga chidamliligi morfologik va anatomik tuzilishiga bog'liq degan xulosaga kelishgan.

D.K.Saidov (1950), V.V.Yaxontov (1956, 1964) va V.A.Lebedev (1958) larning fikricha shira bargning ikkala tomoniga, ko'p hollarda esa bargning ostki qismiga yopishadi va epidermis orqali hujayra shirasini so'rib oziqlanadi. O'rgimchakkana esa faqat bargning ostki tomoniga yopishadi va palisad qatlqidagi xlorofill donachalari bilan oziqlanadi. M.I.Kosobutskiy (1959), A.S.Dariyev, A.A.Abdullayev (1979) larning qayd etishlaricha, o'rgimchakkana palisad parenximasining eng yuqori qismidagi xloroplastlar bilan, shuningdek xolitseralari yetadigan pastki hujayra xlorofill donachalari bilan ham oziqlanadi. Bundan shu kelib chiqadiki, zararkunandalarning oziqlanishi barg xususiyatlari bilan birga ularning xolitseralarining uzunligi bilan ham bog'liq. Katta yoshdagi o'rgimchakkanalarda xolitsera 117-121 mkm, lichinkalarida 102-105 mkm bo'ladi.

G'o'zaning Gavaya orollarida tarqalgan yagona yovvoyi turi G. tomentosum zararkunandalarga chidamliligini ta'minlovchi tuklanishning ikkita dominant geniga ega bo'lib, so'ruvchi zararkunandalar bilan deyarli zararlanmaydi (Simongulyan va boshq., 1974; Dariyev, Abdullayev, 1985; Saydaliyev va boshq., 1995).

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'simliklarning, xususan g'o'zaning zararkunandalarga chidamliligini o'rganish muhim ahamiyatga ega. O'simliklarning chidamliligi uning uzoq vaqt zararkunanda bilan birgalikdagi koevolyutsiyasining natijasi bo'lib, moslanish sifatida yuzaga kelgan. Barcha o'simlik turlarida chidamlilikni belgilovchi bir qancha omillar mavjud. Lekin bunday omillarning irsiylanishi va namoyon bo'lishi, tabiatini ayrim turlaridagina yaxshi o'rganilgan.

Chidamlilikni nazariy jihatdan o'rganish natijasida ko'plab ma'lumotlar olingan. Ushbu ma'lumotlarni umumiylashtirilgan holda mavjud uslublarni takomillashtirish, chidamlilikni baholashning eng samarali usularini ishlab chiqishi muhim ahamiyatga ega. Qishloq xo'jaligidagi chidamli navlarning ahamiyatini nazarda tutib, bunday omillarni o'rganish, ularni madaniy formalarga o'tkazish imkoniyatlarini tahlil qilish, ushbu belgilarning irsiylanishi tabiatini o'rganish genetik va seleksioner olimlar oldida turgan muhim yo'naliishlardan biridir.

G'o'za o'simligida zararkunandalarga chidamliligi masalasiga doir adabiyotlarning tahlili shundan dalolat beradiki, bu o'simlikda zararkunandalarga chidamlilik masalasi asosan bu o'simlikning morfologik-anatomik tuzilishlaridagi o'ziga xos xususiyatlariga tayangan holda o'rganilganligining guvohi bo'ldik. Ammo, g'o'za o'simliklarini zararkunandalarga bo'lgan chidamlilikni olib keladigan belgilarining genetik boshqarilish masalasiga doir 2-3 ta tadqiqot ishlarinng borligigina ko'zga tashlanadi xolos.

Zararkunandalarga chidamlilik seleksiyasida qo'llaniladigan usullar. Madaniy ekinlarni, shu jumladan g'o'za o'simligiga zarar keltiruvchi organizmlardan himoya qilish qishloq xo'jalik mahsulotining sifati va umumiyl

miqdorini oshirishning muhim shartlaridan biridir. Bu borada dunyo miqyosida olib borilayotgan ishlar o'simliklarni himoya qilishning eng qulay, arzon va atrof-muhitga zarar keltirmaydigan usullarni ishlab chiqarishga qaratilgan. Bunday usullarning eng samarali va qulay turi o'simliklarning zararkunanda organizimlarga tabiiy chidamli bo'lgan, genetik imkoniyatli vakillaridan foydalananishdir.

Paxta mahsulotiga bo'lgan talabning ortishi bilan paxta yetishtirishning kengayishi va u bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar (ayniqsa almashlab ekishning buzilishi) o'simliklarning ko'plab zararkunandalar bilan zararlanishini ko'paytirib yuboradi, bu esa o'z navbatida kimyoviy kurash choralarini ortishiga olib keldi. Ammo bu kurashning ham o'ziga yarasha kamchiligi borligi (ularni doimiy ravishda qo'llash imkoniyatining cheklanganligi) paxta dalalarini zararkunandalardan himoya qilishning boshqa usullarini yaratish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Bu o'z navbatida g'o'zaning turli zararkunandalarga nisbatan immunitetiga qaratilgan seleksiya ishlarini jadallashtirish masalasini dolzarb qilib qo'yadi.

G'o'zaning asosiy zararkunandalarining biologiyasi, ekologiyasi va tabiatini o'rghanish natijalari, o'simlikning zararkunandani o'zidan uzoqlashtirish omiliga ega bo'lgan navlarni yaratishga imkoniyat yaratdi. Bu borada olib borilgan ilmiy tatqiqodlar natijasida g'o'zaning ko'pchilik zararkunandalarga chidamli bo'lgan navlari yaratildi va ishlab chiqarishga joriy etildi. Masalan *Toshkent-6*, *S-6030*, *Termiz-7* navlari g'o'za tunlamiga nisbatan chidamliligi, *S-6037*, *S-9063* navlari poliz shirasi bilan juda kam zararlanishi bilan ajralib turadi. Biroq g'o'zaning so'rvuchi zararkunandalarga chidamliligin o'rghanish bir qator sust darajada amalga oshirilgan

O'simliklarga zarar keltiruvchi zararkunandalarga qarshi bir qator kurash usullari ishlab chiqilib amaliyotda keng foydalilanadi:

Kimyoviy preparatlar yordamida kurash;

Biologik kurash;

Seleksion-genetik usul – immunli navlarni yaratish;

Uyg'unlashtirilgan kurash.

Birinchi usul g'ozirgi davirgacha dunyo tajribasida juda keng qullanilib kelingan usul bo'lib, mavjud kurash usullari ichida eng qimmat va ayrim salbiy ta'sirlari ham bor. Kimyoviy kurashda ishlatiladigan preparatlar tanlab ta'sir qilmasligi natijasida, u biologik agentlarni, entomofag-zararkunandalar, entomofag-qushlarni qirib yo'qotadi. Bundan tashqari ko'pchilik zararkunandalar pestitsidlarga chidamlilik hosil qilganligi sababli agrobiotsenozlarning fitosanitariya holati va qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirish iqtisodiyotiga ham salbiy tasir ko'rsatadi.

So'ngi malumotlarga qaraganda (Georghiou, Mellan, 1983), yer yuzida 428 turdag'i bo'g'imoyoqlilar, turli guruh pestitidlarga chidamlilik hosil qilgan bo'lib, ulardan 260 tasi qishloq xo'jaligi ekinlari zararkunandalaridir. Hozirgi kunda muayyan zararkunandalarga tanlab tasir qilish xususiyatiga ega bo'lgan, atrof-

muhitga, hayvonlar va insonlarga zarari kam bo‘lgan kimyoviy vositalardan foydalanilmoqda.

O‘simliklarni biologik himoyalash , keng ma’noda zararkunandalar zararini va ularning sonini kamaytirish maqsadida tirik organizimlar, ularning faoliyati natijasida hosil bo‘lgan moddalar yoki ularning sintetik analoglaridan foydalangan holda olib boriladigan tadbirlar samarasidir. Bu usulning mohiyati tabiyatdagi tirik mavjudotlar orasida mavjud bo‘lgan o‘zaro antogenetik munosabatlardan aniq maqsadlarda foydalanishdir.

O‘zbekistonda bu boradagi ishlar o‘tgan asrning 70 - yillariga kelib rivojlanadi. 1971 - yilda bu usul 2.6 milion hektar maydonga qo‘lanilgan bo‘lsa, 2000 yilga kelib 7.6 milion hektar maydonga qo‘lanildi. 1972-yilda 18 ta biolabaratoriya va biofabrikalar bo‘lgan bo‘lsa, 2000 -yilda 790 taga etdi. Keng miqyosda olib borilgan ishlar natijasida kanaxo‘r trips, oltinko‘z, yirtqich qandala, bit qo‘ng‘izi, vizillovchi pashsha, yetti nuqtali xon qizi, oltinko‘z, gallitsa gabrobrokon, anapteles, oltinko‘z , taxin pashshasi va trixogramma kabi zararkunandalarning ta’biyi kushandalari paxtachilik dalalarida qo‘llanilmoqda.

Zararkunandalarga qarshi kurashning uchinchi usuli – bu tabiiy chidamli bo‘lgan navlarni yaratish va joriy qilishdir. Bu usul tabiatda uzoq yillar mobaynida tarkib topgan immunitet o‘choqlarini topish, immunli o‘simliklar shakillarini o‘rganish, chidamlilik genlarini madaniy formalarga o‘tkazishdan iborat.

Tabiiy bardoshli bo‘lgan navlarni yaratish va ularni ishlab chiqarishga joriy qilish zararkunandalar sonini va ular keltiradigan zararini kamaytirish yo‘li bilan katta miqdordagi mablag‘ning tejab qolinishiga olib keladi.

Zararkunandalarga qarshi kurashning ilmiy asoslangan uyg‘unlashtirilgan usuli - bu barcha kurash usullaridan muvofiqlashgan holda foydalanishdir. Bunda o‘simliklarni zararkunandalardan himoya qilishda zarurati bo‘lganda biologik agentlardan, muayyan miqdordagi kimyoviy preparatlardan foydalaniladi va agrotexnik tadbirlarning qabul me’yorlariga amal qilinadi. Bularning barchasi zararkunanda, kasallik va begona o‘tlar riaojlanishini ularning miqdoriga biotik va abiotik omillar ta’sirini hamda o‘simliklarning rivojlanishini ham oldindan bilishga asoslangan bo‘lishi kerak.

Qishloq xo‘jalik ekinlarini zararkunandalardan himoya qilishning eng samarali va qulay yo‘llaridan biri bu – ushbu zararkunandalarga chidamli navlarni yaratilishi va ishlab chiqarishga joriy etilishidir.

O‘simliklarning zararkunandalar ta’siriga javob reaksiyasi.
O‘simliklarning zararkunandalarga chidamliligini o‘rganishda nav va formalarning zararkunandalar tasiriga javob reaksiyasining xususiyatlarini, bu reaksiyaning o‘simlikning yoshi, holati va tashqi muhitga bog‘liq ravishda o‘zgaruvchanlik darajasini aniqlash zarur.

O‘simliklarning zararkunandalar ta’siriga nisbatan reaksiyasi zararlangan organlarning zararlanish shakliga ko‘ra aniqlanadi.

Sanchib so‘ruvchi og‘iz aparatiga ega bo‘lgan qishloq xo‘jalik zararkunandalari o‘simlik organlaridagi ozuqa moddalarni so‘rib oziqlanadi. Bu zararkunandalarning

o'simlik qisimlarini teshish usuli turlicha bo'ladi. Masalan, shira bitlarining aksariyati sanchuvchi hartumini o'simlik to'qimasiga hujayralararo bo'shliq orqali kiritadilar va bunda hujayra butunlay buzilmaydi.

Sikadka, kana va shiraning bir necha turlari sanchuvchi hartumini o'simlik to'qimasiga hujayra devori orqali kiritadi va bu bilan to'qimani birmuncha kuchli zararlaydi.

G'o'zaning asosiy so'ruvchi zararkunandalar. G'o'za o'simligi ko'plab zararkunandalar bilan zararlanadi. Bu zararkunandalarga uzoq yillar davom etgan kimyoviy kurash usuli mutloq ijobiy natijalarga olib kelmasligini ko'rsatdi. Pestetsid moddalarning ishlab chiqarilishi va qo'llanilishi jarayonida ularning ko'plab atmosferaga chiqarilishi insonlar, hayvonot olami va o'simliklar dunyosining hayot faoliyati uchun xaflidir.

Tatqiqodchilar tomonidan atmosferada 55000 xil turli kimyoviy birikmalar borligi aniqlangan bo'lib, shundan 0.9% pestetsidlar va ularning metobolitlari hissasiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari ilmiy asoslangan holda ishlatiluvchi pestetsidlar ayrim turdag'i foydali hashorotlarning qirilib ketishi va ularning ozig'i bo'lgan zararkunandalarning ko'payib ketishiga olib keladi. Natijada ko'plab shu kabi hodisalarning uzluksiz davom etishi biotsenozdagi tabiiy muvozanatning buzilishiga olib keladi.

G'o'zada turli zararkunandalar, kanalar, mikroorganizimlar o'zaro aloqadorlikda yashaydilar va o'ziga xos populyasiyalarni hosil qiladilar.

O'rta Osiyo paxtachilik mintaqalari bo'yicha g'o'zada yashaydigan, oziqlanadigan va unga zarar keltiradigan umurtqasiz hayvonlarning 214 turi hisobga olingan. G'o'zada keng tarqalgan zararkunandalar Turkiston o'rgimchakkanasi, beda, poliz va katta g'o'za shirasi, kuzgi tunlam, karadrina, ko'sak qurti, bazis, bahorikor suvaraklar, Osiyo va Marokko chigirtkalari, tamaki tripsi, o'tloq va beda qandalalari, chirildoqlarning ayrim turlari va boshqalar kiradi.

Respublikamiz ekin maydonlarida Turkiston o'rgimchakkanasi, beda, poliz va katta g'o'za biti (shirasi), kuzgi tunlami kabi zararkunandalar sezilarli darajala zarar keltiradi. Respublikada o'rgimchakkana bilan o'rtacha 920 ming, shira biti bilan 440 ming, g'o'za tunlami bilan 640 ming hektar maydondagi ekinlar zararlanadi. Agar tegishli kurash tadbirlari qo'llanilmasa, umumiy ekinlar bo'yicha bir yilda 1 mln 100 ming tonna hosil yo'qotilar ekan. Bu raqamlarning 700 ming tonna so'ruvchi zararkunandalardan o'rgimchakkana, 175 ming tonnaga yaqini esa shira biti keltiradigan zarar hisobiga to'g'ri keladi. (Alimuhammedov va boshqalar, 1990).

Og'iz aparatining tuzilishi va oziqlanish usuliga ko'ra zararkunandalar ikki guruhga bo'linadi:

Kemiruvchi zararkunandalar – ular kemiruvchi og'iz aparatiga ega bo'lib, o'simlik organlarini kemiradilar va ko'p hollarda o'simlikning yosh, shiraga boy qisimlari bilan oziqlanadilar.

So'ruvchi zararkunandalar – ular o'simlik to'qimasini teshib hujayra shirasi bilan oziqlanishga moslashgan sanchib so'ruvchi og'iz aparati – xelitseraga ega.

So‘rvuchi zararkunandalar paxta dalalarida sezilarli darajada iqtisodiy zarar keltiradilar va ularga – o‘rgimchakkana, tamaki tripsi, shiralar, oqqanot, beda qandalsi, sariq chirildoq kabilar kiradi.

O‘rgimchakkana g‘o‘zaning eng mayda zararkunandi. U g‘o‘zadan tashqari yana 250 dan ortiq o‘simplik turlarini zararlaydi. 37 xil madaniy dala ekinlari: g‘o‘za, tut, poliz ekinlari, sabzavot ekinlari, loviya, soya, no‘xat, beda, olma va hokazolarga zarar etkazadi. Respublikaning deyarli barcha viloyatlarida, ayniqsa, Farg‘ona, Xorazim viloyati, Surxandaryoning shimoli, Qashqadaryoning sharqida va Qoraqalpog‘istonning janubiy qisimlarida g‘o‘zani kuchli zararlaydi.

O‘rgimchakkana g‘o‘zaga iyunda tushsa 50–60 %, iyulda tushsa 35–40 %, avgustda tushsa 2–6% hosilni nobud qiladi. Bu zararkunandalar dastlab g‘o‘za barglarining ostki tomonida ko‘payib yuzlab o‘rgimchakkanalardan iborat kaloniyalarni hosil qiladi va barg ostini ingichka o‘rgimchak to‘ri bilan qoplab oladi

Ular barg hujayralari shirasini xlorofill donachalari bilan birgalikda so‘rib oladi.

Bargning zararlangan joylarida qizg‘ish dog‘lar paydo bo‘ladi va o‘simplik qattiq shikastlanganda bnrday dog‘lar qo‘shilib, bargning ustki qismi qizg‘ish tusga kiradi, keyin qorayadi va to‘kilib ketadi.

O‘rgimchakkana ko‘pchilik kushandalarning (kanaxo‘r trips, stetorus, yirtqich qandala–orius, oddiy oltinko‘z lichinkalari) asosiy ozig‘i hisoblanadi. Ular bir kecha–kunduzda 45, 110, 112, 350, tagacha tuxum, lichinkasi va katta yoshdag‘i o‘rgimchakkanalarni qirib bitiradi.

G‘o‘zaning o‘rgimchakkanaga chidamliligi xususan, barg xususiyatlari, asosan pastki epidermis va po‘kak parenximaning umumiyligi qalinligi bilan bog‘liq. Ularning qalinligi qanchalik katta bo‘lsa, zararkunanda xelitseralarining ustunsimon parenxemaga – uning oziqasiga yetish shunchalik qiyin bo‘ladi.

G‘o‘za navlarini o‘rgimchakkanaga bardoshlilik darajasiga ko‘ra bir necha guruhga birlashtirish mumkin:

Epidermis va bulutsimon parenxima qavatlarning qalinligi o‘rgimchakkana xelitserasining uzunligidan katta bo‘lgan navlar. Bunday navlarda o‘rgimchakkana yashay olmaydi, tushib ketadi, o‘ladi, urg‘ochilarini tuxum qo‘yishni to‘xtatadi;

Barg plastinkasining pastki qavat to‘qimalarining qalinligi xelitseralar uzunligi bilan teng yoki kamroq bo‘lgan navlar. Bunday navlar o‘rtacha bardoshli bo‘lib, ularda o‘rgimchakkanalar soni kam, urg‘ochilarining tuxum qo‘yishi va lichinkalarning o‘sishi sust bo‘ladi;

Barg plastinkasining umumiyligi xelitseralar uzunligiga teng yoki kam bo‘lgan navlar. Bunday navlarda etuk zararkunanda va uning lichinkalari bemalol rivojlanadi;

Epidermis va bulutsimon parenxima qavatarining qalinligi xelitseralar uzunligidan ancha kam. Bunday navlar o‘ta kuchli zararlanadi.

F.S Talipovning qayd etishicha (1976, 1979), “*Lakshmi-2*”, “*Lakshmi-3*”, C-3206, navlari o‘rgimchakkanaga chidamli bo‘lib, ularning umumiyligi barg qalinligi

150,7 –166,9 mkm ga teng; S-4811, S –4297, 108 –F, Toshkent –2 navlari chidamsiz bo‘lib, ularda barg qalinligi 79,5 –134,8 mkm ga tengligi aniqlangan.

G‘o‘zaning S –6030, “2 I 3”, 153-F, Toshkent –4 navlari o‘rgimchakkanaga nisbatan chidamliligi aniqlangan (Paviva, Atlanova, 1979).

G‘o‘zada parazitlik bilan yashab, hayot kechiruvchi yana bir zararkunanda o‘simplik bitlariga (shira) mansub bo‘lib, g‘o‘zaning butun o‘sish davri davomida shiraning 7 turi bilan zararlanadi. Bulardan poliz biti akatsiya yoki beda biti va katta g‘o‘za biti kabilar ko‘plab zarar keltiradi.

Poliz bitining yalpi ko‘payishi bahor iliq va nam kelgan yillari kuzatilmaydi. Respublikamizning Toshkent, Andijon, Namangan, Farg‘ona viloyatlarida katta g‘o‘za biti keng tarqalgan.

Shira, odatda o‘simplik novdasining uchlari va yosh barg to‘qimalariga so‘lagini yuboradi, natijada to‘qima parchalanadi va bitlar ushbu ozuqaga boy bo‘lgan suyuqlikni so‘rib oziqlanadilar. Nihollar shikastlanganda kurtak uchi quriydi, keyinchalik barglar burushadi va ko‘pincha to‘kilib ketadi.

Shira bitlari barg plastinkasining ostki tomonidagi tomirchalarni teshib oziqlanadi. Bu jarayonda ustunsimon va bulutsimon barg hujayralari, shuningdek, o‘tkazuvchi to‘qima hujayralarining butunligi buzuladi, natajada uning shakli o‘zgaradi .

G‘o‘za o‘simpligiga zarar keltiruvchi yana bir zararkunanda trips bo‘lib ,u asosan yangi unib chiqqan yosh nihollarga zarar keltiradi, nihollarning uchki qismidagi yumshoq to‘qimalardan hujayra shirasini so‘rib oziqlanadi. Bunday zararlanishdan keyin o‘simplik rivojlanishdan ortda qolib, bo‘g‘in oraliqlari qisqa, barglari burishgan o‘simpliklar paydo bo‘ladi .

VI 6o6. SPONTAN VA EKSPERIMENTAL MUTAGENEZ.

Mutatsion o‘zgaruvchanlik irsiy xilma-xillikning boshlang‘ich manbai, o‘simlik dunyosidagi evolyusion jarayonning asosi sifatida xizmat qiladi.

Mutatsiyalarni eksperimental yo‘l bilan olish usullarini ishlab chiqish o‘simlik va o‘simlikshunoslik tarixidagi tabiiy mutatsion o‘zgaruvchanlikdan madaniy o‘simliklarning kelib chiqishida asosiy mezon sifatida foydalanilgan.

Akad. N.P. Dubininning fikriga ko‘ra, spontan mutatsiyalar juda kam uchragani bilan ulardan seleksiyada samarali foydalanish mumkin.

Eksperimental mutagenez yordamida gen va xromosoma mutatsiyalariga erishish yo‘li bilan seleksion jarayonni samaradorligini oshiruvchi qimmatli boshlang‘ich materiallarni yaratish mumkin.

Mamlakatimizda va horijda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning natijalari ham yuqorida aytilganlarini isbotlaydi (Delone, 1936; Gustafsson, 1947; Chaudhuri, 1948; Mc Key, 1954; Kohel, Lewis, 1962; Mojaeva 1965; Kuliev, 1965; Valeva, 1966; Dubinin, 1971; Nazirov, 1970; Egamberdiev, Abdullayev, 1972; Musayev va boshqalar, 1979).

Ilmiy manbalarning natijalari shuni ko‘rsatdiki, indutsirlangan mutagenlar yordamida turli xil o‘zgargan poya strukturalariga ega, yirik ko‘sak va chigitli, kasalliklarga yoki noqulay sharoitlarga chidamli mutant vakillarni olish mumkin. Lekin ko‘pchilik hollarda ham mutant vakillar ijobjiy tavsiflanavermaydi. Chunki ularning aksariyati yarim pushtli, hosildorligi past, o‘sish va rivojlanishidagi turli xil nuqsonlarga ham ega bo‘lishi mumkin. Shunga ko‘ra, mutant o‘simliklar vegetativ va generativ a’zolarda yuzaga keluvchi o‘zgarishlarning yuzaga kelishi, tanlash jarayoniga ta’sir qiladi.

Mutant vakillardan seleksion jarayonda duragaylash maqsadida, boshlang‘ich material sifatida foydalanish, mutatsiya sodir bo‘lgan o‘simlikning belgilar genetikasini qay darajada o‘rganilganligiga bog‘liqligi ma’lum. G‘o‘za o‘simligida ro‘y bergen spontan va inditsurlangan mutatsiyalardan samarali foydalanishning asosida ham aynan shu masala muhimdir.

6.1.G‘o‘za o‘simligida spontan mutagenez.

G‘o‘za o‘simligida spontan mutagenezni o‘rganish maqsadida genetik kolleksiyaning izogen liniyalarida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilgan bo‘lib, genetik tahlil natijalariga ko‘ra, o‘rganilgan belgining genotiplari aniqlangan. Spontan mutagenezni o‘rganish uchun qulay belgi sifatida “yalang‘och chigit - tukli chigit” dan foydalanilgan.

Gen ingibitorni spontan tarzda to‘g‘ri mutatsiyaga ($I \rightarrow i$) uchrashi genetik jihatdan asoslangan. To‘liq yalang‘och chigit (DAGS) L-70 izogen liniyasi bilan normal mikropil tuklanishli (n-MS) L-15 izogen liniyalarini o‘zaro chatishirilishidan hosil bo‘lgan duragay avloddan spontan mutatsiyani olishga muvofiq bo‘lingan.

F_1 duragay o‘simliklarining chigitlari butun yuzasi tuksiz bo‘lganligi tufayli ularni fenotipik yalang‘och chigit deb nomlangan (GS). Lekin F_1 duragay

o'simliklari orasida GS toifa chigitli o'simliklar bilan bir qatorda chigitning mikropilyar (uchki) qismida qisman tuklangan (m-MS) chigitli o'simliklar ham fenotipik aniqlangan.

GS toifa chigitli o'simliklarni o'z-o'ziga changlantirish natijasida olingen F_2 o'simliklari GS va MS toifa chigitlariga ega o'simliklarga ajralish berib, ularning nisbati 49 : 15 ga teng bo'lган. G^2 da retsessiv MS-toifaga ega o'simlik chigitlari doirasida yana to'rt kenja toifa: nz-MS, m-MS, p-MS va n-MS fenotiplarga ega o'simliklar ajratilgan. Demak, bu holatda "yalang'och chigitlilik" to'liq dominant belgi sifatida o'zini namoyon qilgan.

| | | | |
|---|--|--|--|
| P_φ | L-70 DAGS | x | $\textcircled{♂}$ L-15 n-MS |
| g | II $f_{t1} f_{t1} f_{t2} f_{t2} f_c f_c$ I $f_{t1} f_{t2} f_c$ i $f_{t1} f_{t2} f_c$ | | ii $F_{t1} F_{t1} F_{t2} F_{t2} f_c f_c$ i $F_{t1} F_{t2} f_c$ i $F_{t1} F_{t2} f_c$ |
| F_1 | | II $F_{t1} f_{t1} F_{t2} f_{t2} f_c f_c$ -gs ii $F_{t1} f_{t1} F_{t2} f_{t2} f_c f_c$ -gs | |
| F_2 | I----- 48 DGS | | |
| | ii $f_t f_{t1} f_{t2} f_{t2} f_c f_c$ -1 RGS | | |
| | ii $F_{t1} f_{t1} f_{t2} f_{t2} f_c f_c$ -2 nz-ms | | |
| | ii $f_t f_{t1} F_{t2} f_{t2} f_c f_c$ -2 nz-ms | | |
| | ii $F_{t1} F_{t1} f_{t2} f_{t2} f_c f_c$ -1 m-ms | | |
| | ii $f_t f_{t1} F_{t2} f_{t2} f_c f_c$ -1 m-ms | | |
| | ii $F_{t1} f_{t1} F_{t2} f_{t2} f_c f_c$ -4 m-ms | | |
| | ii $F_{t1} F_{t1} F_{t2} f_{t2} f_c f_c$ -2 p-ms | | |
| | ii $F_{t1} f_{t1} F_{t2} F_{t2} f_c f_c$ -2 p-MS | | |
| | ii $F_{t1} F_{t1} F_{t2} F_{t2} f_c f_c$ -1 n-ms | | |
| | ii $f_t f_{t1} f_{t2} f_{t2} f_c f_c$ -1 RGS | | |
| | ii $F_{t1} f_{t1} f_{t2} f_{t2} f_c f_c$ -2 nz-ms | | |
| | ii $f_t f_{t1} F_{t2} f_{t2} f_c f_c$ -2 nz-ms | | |
| | ii $F_{t1} F_{t1} f_{t2} f_{t2} f_c f_c$ -1 m-ms | | |
| | ii $f_t f_{t1} F_{t2} f_{t2} f_c f_c$ -1 m-ms | | |
| | ii $F_{t1} f_{t1} F_{t2} f_{t2} f_c f_c$ -4 m-ms | | |
| | ii $F_{t1} F_{t1} F_{t2} f_{t2} f_c f_c$ -2 p-ms | | |
| | ii $F_{t1} f_{t1} F_{t2} F_{t2} f_c f_c$ -2 p-MS | | |
| | ii $F_{t1} F_{t1} F_{t2} F_{t2} f_c f_c$ -1 n-ms | | |
| 49-GS : 15-MS : 15-MS : 1-GS | | | |
| 49 : 4 : 6 : 4 : 1 : 1 : 4 : 6 : 4 : 1 | | | |
| GS nz-MS m-MS p-MS n-MS GS nz-MS m-MS p-MS n-MS | | | |

F_1 o'simliklari orasida qayd etilgan g'ayri toifa MS fenotipga ega o'simliklar F_2 da boshqa bir ko'rinish bilan ajralish berdilar. F_2 dagi fenotipik guruhlar nisbati ham o'zgacha bo'lган. Bunda F_2 populyasiyadagi yalang'och chigitli o'simliklarning umumiy soniga nisbatan chigitning mikropilyar qismida tukli o'simliklar soni 15 : 1 (GS : MS), kenja toifa – nz-MS, m-MS, p-MS va n-MS fenotipik guruhlarning nisbati 1 : 4 : 6 : 4 : 1 ni tashkil etgan.

Kelgusida o'z-o'ziga changlantirish va tanlash asosida "g'ayri toifa" chigitli duragay o'simliklar orasidan o'rganilayotgan belgilarga ko'ra mutloq yalang'och chigitli (RAGS) gomozigot o'simliklar bilan birga, gen-ingibitorni genotipda gomozigot holatda saqlab mutant allelni tashuvchi yalang'och chigit (RGS) o'simliklar ham ajratib olingan.

Spontan mutatsiyalarni ro'y berishi mumkinligini DAGS-toifa L-70 liniyasini OS-toifa liniyalar bilan chatishdirish natijasida ham isbotlangan. Takidlash joizki, bu xil mutatsiyalar asosan DAGS L-70 liniyasidan ota forma sifatida foydalanilganda ro'y bergen. Shunga ko'ra, mualliflar (D.A.Musayev va boshqalar 1979) takidlashicha gen ingibitorning mutatsiyasi asosan mikrosporogenez jarayonida ro'y bergenligi tufayli, L-70 DAGS-toifa liniyasi mutant allelni tashuvchi sifatida xizmat qiladi. Olingan natijalar quyidagi 31-jadvalda izohlangan.

Gen-ingibitorda ro'y bergen spontan tarzdagi to'g'ri mutatsiyalar ($I \rightarrow i$) ilmiy tadqiqotlar natijasida asoslansada, lekin ularning aksi bo'lgan teskari mutatsiyalar ($i \rightarrow I$) tadqiqotlarda kuzatilmagan.

31-jadval.

| № | Kombinatsiyalar | F_1 dagi o'simliklar soni | Shulardan: | | |
|---|---------------------|-----------------------------|------------|------|------|
| | | | GS | m-MS | |
| | | | | soni | % |
| 1 | MS L-15 x DAGS L-70 | 50 | 50 | 0 | 0,00 |
| 2 | OS L-47 x DAGS L-70 | 141 | 136 | 5 | 3,55 |
| 3 | OS L-14 x DAGS L-70 | 145 | 144 | 1 | 0,69 |
| 4 | OS L-40 x DAGS L-70 | 65 | 65 | 0 | 0,00 |
| 5 | OS L-12 x DAGS L-70 | 50 | 48 | 2 | 4,00 |
| 6 | OS L-13 x DAGS L-70 | 44 | 43 | 1 | 2,27 |

Demak, spontan mutatsiyalar tabiiy sharoitlarda ro'y berishi bilan birga, ular asosan to'g'ri yo'nalishda teskari yo'nalishga nisbatan ko'proq sodir bo'ladi. Uning asosida mutatsion jarayonning mikrosporogenezda makrosporogenezga nisbatan ko'proq ro'y berishi mumkinligini alohida ta'kidlash lozim.

6.2.G'o'za o'simligida eksperimental mutagenez.

G'o'za o'simligining genetik koleksiyasiga ta'lqli izogen liniyalariga fizik va kimyoviy mutagen omillarni ta'sir ettirish usuli bilan madaniy vakilning belgilarini o'zgaruvchanligi o'rganilgan. Ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra, poyaning tuzilishi, barg shakli, o'simlikning va tolaning rangi, gultojbarglar rangi, xlorofilning boryo'qligi, tuklanish toifalari singari belgilarni nazorat etuvchi genlarning

mutatsiyaga uchrashi mumkinligi aniqlangan. Ko‘p yillik ilmiy izlanishlar natijasida “G‘o‘za genetikasi” ilmiy tadqiqot laboratoriyasida 30 dan ortiq noyob mutant izogen liniyalar olingan bo‘lib, ulardan genetik tadqiqotlardagi nazariy muammolarni xal etishda, hamda amaliy seleksiyada boshlang‘ich material sifatida samarali foydalanib kelinmoqda. Ular orasida ko‘saklari tez ochiluvchi ertapishar xususiyatga ega L-460 liniyasi, ko‘sagi va chigit yirik, yuqori tola chiqimi va indeksiga ega L-44, L-69 liniyalari, o‘zgargan tola tuklanishiga ega L-500 liniyasi, xlorofil tanqis mutant liniyalar L-711; L-712; L-718, yaxlit barg plastinkasiga ega, asosiy poyaning o‘suvchi nuqtasi normal, baland bo‘yli L-801 va L-803 liniyalari o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, ko‘pchilik genetik, sitogenetik, fiziologik, biokimyoviy va molekulyar darajadagi, hamda seleksion tajribalarda boshlang‘ich material sifatida mufaqqiyatli foydalanilgan.

L-44 radiomutant liniyasi ko‘p sonli belgilariga ko‘ra o‘zgargan irsiyatga ega. Ularga: tik poya, shoxlanishning ixchamligi, o‘simlikning ser tukligi, yirik barg va ko‘sakka ega bo‘lishi, gul a’zosida ko‘p sonli changchilarning bo‘lishi, yuqori ko‘rsatkichli bitta ko‘sakdagi paxta vazni va 1000 ta chigitning og‘irligiga, hamda yuqori tola indeksiga ega.

L-69 radiomutant liniyasi irsiyati o‘zgargan belgilar to‘plamiga ega bo‘lishi bilan tavsiflangani holda, uning bitta ko‘sakdagi paxta vazni (7-8g.) boshlang‘ich L-18 liniyasiga nisbatan (3-4g.) ikki xissa ortiq. Shuningdek baland bo‘yli, yirik barg, yirik chigit, yuqori hosildor va bir qancha belgilariga ko‘ra oddiy liniyalardan farqlanadi.

L-500 radiomutant liniyasi chigitning mikropilyar qismida o‘ta quyuq tuklanishga ega bo‘lgani holda (b-MS), chigitning qolgan qismida siyrak tuklanishga ega bo‘lishi bilan tavsiflanadi.

L-711, L-712, L-718 xlorofil tanqis mutant liniyalari genetik tahlillar uchun qulay ob‘ekt hisoblanib, ularda bu belgining monogen va digen tarzda irsiylanishini o‘rganish bilan birgalikda mutatsiyaga uchragan genlarning qaytadan tiklanish hususiyatiga ega bo‘lishini ham aniqlash mumkin. Bundan tashqari ulardan muhim sitogenetik va fiziologik ob‘ekt sifatida foydalaniladi.

L-801 va L-803 radiomutant liniyalari strukruraviy va marker belgilariga ko‘ra irsiyati o‘zgargan hisoblanib, yaxlit barg shakliga ega L-501 va L-525 liniyalardan farqli ravishda baland va ixcham poyaga ega bo‘lishi, mutant liniyalarning barg plastinkasini boshqaruvchi *In'* genining pleytrop ta’siridan holi ekanligi bilan tavsiflanadilar.

Fizik va kimyoviy mutagenlar ta’sirida belgilarning o‘zgaruvchanligi va mutatsion jarayonda genotipning rolini aniqlash maqsadida, boshlang‘iya material sifatida nafaqat genetik kolleksianing gomozigot izogen liniyalardan, balki ularni o‘zaro chatishtilishidan hosil bo‘lgan duragay o‘simliklardan ham foydalanilgan. Co⁶⁰ gamma-nurlarining g‘uza o‘simligi belgilarning o‘zgaruvchanligiga ta’sirini o‘rganish uchun L-73 x L-453 kombinatsiyasidagi duragaylardan foydalanilgan. L-73liniyasi panjasimon-kesik barg mutloq yalang‘och chigitga (GS) ega bo‘lsa, L-453 liniyasi panjasimon-bo‘linma (oddiy) barg shakli, to‘liq tuklangan (OS)

chigitga va yuqori tola chiqimiga ega bo'lishi bilan tavsiflanadi. Bu liniyalarni chatishirilishidan hosil bo'lgan F_1 duragay o'simliklari barg shakli bo'yicha (panjasimon-bo'lakli) oraliq va yalang'och chigit, kam miqdordagi tola chiqimiga ega bo'lganlar.

Gamma nurlari bilan indutsirlangan $M_1 F_1(L-73 \times L-453)$ o'simliklari orasida bitta o'simlik ajratib olingan bo'lib, u ikkita hosil shoxiga egaligi, hosil shoxlarining biridagi ko'sakda rivojlangan chigitlar bir tekis tuklangan bo'lsa, ikkinchi hosil shoxidagi ko'saklarda rivojlangan chigitlar nurlanmagan nazorat o'simliklari singari yalang'och chigitli va kam tola chiqimiga ega bo'lganlar.

O'z-o'ziga changlatib kelgusi avlodda har ikkala hosil shoxidan olib o'rganilgan o'simliklar quyidagi natijani ko'rsatdilar:

1. $M_1 F_1$ dagi o'zgargan hosil shoxda bir tekis tuklangan chigit va yuqori tola chiqimiga ega bo'lgan o'simliklarning yuzaga kelishi gen-ingibitorning mutatsiyasi hisoblanadi ($I \rightarrow i$). Buning natijasida chigitning har uchchala struktur genlari (F_{t1}, F_{t2}, F_s) funksional (ishchi) holatga o'tib pleyotrop ta'sirni kuchaytirgan holda yuqori tola chiqimi va bir tekis tola tuklanishiga ega bo'lgan.

2. $M_1 F_1$ dagi o'zgargan o'simlikning ikkinchi hosil shoxida gen-ingibitorning mutatsiyaga uchramasligi, chigitning tuklanish va tola chiqimini nazorat etuvchi genlarning dominant I-geni ta'sirida nofunksional (ishsiz) holatda ekanligidan dalolat beradi. Shunga ko'ra chigit ustida tuk rivojlanmay tola chiqimi ham juda past bo'lishiga sabab bo'lgan.

Retsissiv mutatsiyalarini o'rganish maqsadida, $M_1 F_1(L-73 \times L-453)$ o'simliklari alohida oilalar sifatida $M_2 F_2$ da o'rganildi. $M_2 F_2$ dagi bir oilada o'simlik rangi bo'yicha ajralish ro'y bergen. Bunga ko'ra yangi unib chiqqan nihollar yashil va sariq rangli bo'lib, ularning fenotipik nisbati 3:1 ga yaqin edi. Sariq rangli nihollar 10-15 kun mobaynida urug'chibargli davridayoq nobud bo'ldilar.

Xlorofil mutatsiyalarini tabiatini aniqlash maqsadida, $M_2 F_2$ da olingan yashil rangli oila vakillari $M_3 F_3$ va $M_4 F_4$ sifatida kelgusi avlodlarda o'rganildi. Kutilganidek bu oila vakillari $M_3 F_3$ va $M_4 F_4$ da ham jami o'simliklarning 2/3 qismi yashil rangli nihollarga ega bo'lган bo'lsa, qolgan qismi sariq rangli nihollar bilan tavsiflanib, fenotipik jihatdan 3 : 1 nisbatga yaqin bo'lgan. Olingan mutant formalardagi xlorofil sinteziga javobgar genlarni geterozigota holatida saqlash uchun ularni o'z-o'ziga changlatib markerlangan bo'g'in sifatida saqlaniladi.

Ko'p marotaba o'z-o'ziga changlatish va tanlash natijasida xlorofil mutatsiyalarini bo'yicha, sifat va miqdoriy belgilar zaminida, yangi izogen liniyalar yaratilgan bo'lib, ular turli-xil chigit tuklanishiga va barg shakli turlicha bo'lgan, o'zida xlorofil sintezi uchun javobgar gen allelini genotipda retsessiv holatda tutishlariga ko'ra tavsiflanadilar. Olingan xlorofil tanqis mutant liniyalar fiziologik tadqiqotlar uchun noyob ob'ekt hisoblanadi. Shuningdek aniqlanishicha, xlorofil mutantlari butunlay xlorofildan holi bo'lganlarida ham fotomorfogenez reaksiyalarini saqlab qoladilar.

Ilmiy manbalardagi ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, turli xil mutagen omillar ta'sirida yangi formalar hosil bo'lish jarayonini turli toifa (gen yoki xromosoma) mutatsiyalari hisobiga tezlatish mumkin. Lekin aksariyat hollarda mutant vakillar to'liq yoki qisman pushtsiz, kech pishar yoki kam hosil bo'ladi.

Mutant - liniyalı duragaylar orasida tanlash orqali bir qator xo'jalik jihatdan ahamiyatli, o'zida mutant va nomutant ota-onalarni vakillaridagi ijobiy tamonlarni mujassamlashtirgan liniyalarni ajratib olishga muvofaq bo'lingan. Bularga L-452 va L-453 liniyalari -ko'sagi va chigitlari yirik, yuqori indeks (9-10g.) va tola chiqimiga (38-40%), hamda L-454 – o'ta yuqori tola chiqimiga (42-44%) ega liniyalar ta'luqlidir.

Genetik kolleksiyaning yuqorida qayd etilgan liniyalari chigitining tola chiqimiga ko'ra ma'lumotlar quyidagi rasmda izohlangan (rasm).

L-501 mutant liniyaning (yaxlit barg shaklli, pakana bo'y-50-55 sm.) gullarini nurlantirish orqali (nurlanish dozasi 10 G., quvvati 0,25 Gr/sek.), avvalroq gullari changchilaridan holi bo'lgan (kastratsiyalargan) L-461 liniyasi (panjasimon-kesik barg shaklli, o'simlikning bo'yi 100-110 sm.) chatishdirilib duragay o'simliklar olingen. M_2F_2 o'simliklari orasidan yaxlit barg shakliga ega, baland bo'yli mutant vakil ajratib olingen.

Alohiba ta'kidlash lozimki, avvalgi farazlarga qaraganda, pakana bo'y L-501 yaxlit bargli liniyalar shu barg shaklini idora qiluvchi In^1 genining pleyotrop ta'siri ostida bo'lganligi uchun o'sish davrining gullah bosqichida asosiy poyaning uchki o'suvchi nuqtasini rivojlanishdan to'xtab, qo'shimcha mayda shoxchalar hosil qiladilar.

L-501 mutant liniyasini har xil genotipik va fenotipik guruhgaga ega boshqa liniyalar bilan o'zaro chatishdirilib olingen duragay o'simliklarda normal bo'y va o'suvchi nuqtaga ega o'simliklar olinsada, huddi shunday tavsiflanuvchi yaxlit barg shakliga ega bo'lgan o'simliklar olinmagan. Eksperimental mutagenez yo'li bilan yaxlit barg, baland bo'yli va asosiy poyaning o'suvchi nuqtasi normal holatdagi mutant o'simliklarning olinishi, bu belgilarning dominant In^1 genining pleyotrop ta'sirida emaslididan, balki ular genetik turli genlar faoliyatiga bog'liq bo'lib, bitta xromosomada joylashganligadan dalolat beradi.

Ko'p marotaba o'z-o'ziga changlatish va tanlash asosida duragay o'simliklar orasidan baland bo'yli (100-110sm.), yaxlit barg shakliga, yirik ko'sakli va yaxshi urug'lanuvchi chigitlarga ega, yangi L-801 mutant liniyasi ajratib olingen.

O'zMUGa qarashli "G'o'za genetikasi" ilmiy laboratoriyasida akad. D.A. Musayev va uning shogirdlari tomonidan olib borilgan ko'p yillik ilmiy tadqiqotlar natijasida, g'o'za o'simligining *G. hirsutum L* turiga mansub vakillarining belgilar genetikasiga ta'luqli izlanishlari nihoyasi sifatida quyidagi xulosalarga kelindi:

G'o'zaning *G. hirsutum L* turiga mansub izogen liniyalariga sifat belgilaridan hosil shoxining toifasi, barg plastinkasining plastinkasining shakli, gulyonbarglar shakli, o'simlikning rangi, tolanning rangi, gultojbarglar rangi, gultojbarglar asosidagi antotsian dog'larning bor-yo'qligi kabi belgilarning genetik tabaqlananish (determinatsiyalanish) qonuniyatları aniqlangan. Yuqorida qayd etilgan belgilarga

ko'ra gomozigot allel genlarga ega genetik kolleksiyaning izogen liniyalari yaratildi.

Qayd etilgan belgilarning dominant yoki retsessiv holatiga ko'ra mutatsion va rekombinatsion o'zgaruvchanlikning yangi qonuniyatlarini ochishga muvofiq bo'lingan.

Duragaylash va mutatsion usullarni, genetik tahlilni qo'llash yordamida sifat belgilarning genetik nazorat qilinishiga ta'luqli ilmiy izlanishlarning natijasi quyidagicha:

1. G'o'zaning *G. hirsutum* L. (2n=52, AADD genom) allotetraploid turiga mansub vakillari diploid *G. herbaceum* L. (2n=26, AA genom) turiga mansub vakillardan farqli ravishda bir xil nomlanishga ega belgilarga ko'ra monogen irsiylanish emas balki, poligen tarzda irsiylanish ro'y berib, genlarning o'zaro soddarroq tarzdagi kombinirlangan ta'sirida ro'y beradi.

2. Gen ingibitorlar qudratli genetik potensial mexanizm sifatida – poligen belgilarning struktur genlarini ishlatilmagan holatda saqlab beradi.

3. Yuqorida qayd etilgan belgilarning genlarini genetik marker sifatida molekulyar genetik tadqiqotlarda qo'llash mumkin. Bu genlarning fenotipik yuzaga chiqishi marker belgining genetik ogohlantirishidan dalolat beradi.

Izogen liniyalardan shu o'simlik seleksiyasida sifat va miqdoriy belgilarning irsiyanishidagi o'zaro bog'liklarni o'rghanishda foydalanish mumkin.

G'o'zaning kasallik va zararkunandalarga qarshi chidamlilik genetikasi

O'tgan asrning 70-yillaridan boshlab Respublikamizda va boshqa xorijiy mamlakatlarda g'o'zaning kasallik va zararkunandalarga qarshi immunitetni o'rghanish maqsadida keng miqyosidagi ilmiy tatqiqodlar olib borila boshlandi.

A.S.Dariev, A.A.Abdullayev (1985) dalillariga ko'ra madaniy g'o'za turlaridan faqat *G. barbadense* L. gina so'ruvchi zararkunandalardan o'rgimchakkana bilan birmuncha kam zararlanar ekan.

V.V.Yaxontovning ko'rsatishicha (1930), g'o'zaning shira va o'rgimchakkanaga chidamliligi bargning tuklanganligiga va hujayra shirasining osmotik bosimiga bog'liq.

I.N.Stepansev (1935), bir qator navlarning o'rgimchakkanaga chidamliligin o'rganib ushbu zararkunandaga chidamli bo'lgan navlarning barg plastinkasi qalin va epidermis hujayralarining zichligi yuqori darajada bo'ladi, degan xulosaga kelgan.

R..Paynterning qayd etishicha esa (1953), g'o'zaning o'rgimchakkanaga chidamli bo'lishida barg tukchalarining qalinligi va ularning uzunligi muhim ahamiyatga ega.

S.A.Kemel va boshqalarning fikriga ko'ra (1965), epidermis qavatining qalinligi va hujayra shirasining osmotik bosimi g'o'zaning shiraga chidamliligining asosiy belgilaridir.

G.H.Saunders (1961) o'z izlanishlarida *G.raimondii* turidagi zararkunandalarga chidamlilikni taminlovchi tuklilik belgisini xromosomalar sonini oshirish bilan (avtopoliploidiya) *G.hirsutum* L. genomiga o'tkazishga

erishgan. Mualifning qayd etishicha, o'simlik organlarining tuklanganlik belgisi tuksizlik geni alellariga nisbatan dominant yoki epistatik irlisanish tabiatiga ega.

Ko'pgina tatqiqodchilarning (G.H Saunders, 1961; Kemel etall, 1965; Jawaad, Saliman, 1972; E.N Dinnan and R. Shepherd, 1982; A.S.Dariev, A.A.Abdullayev, 1985; Alimuhammedov va boshqalar, 1990; Le Diun Anx, 1994; Saydaliev va boshqalar, 1995) malumotlariga qaraganda g'o'zaning tuklangan bargli navlari shiraga yuqori darajada chidamlilik bilan ajralib turadi..

Keyingi yillarda o'simliklarning chidamlilik omillarini o'rganish va tahlil qilish natijalari chidamlilikning o'simlikning nafaqat anotomik-morfologik xususiyatlariga, balki, ikkilamchi birikmalar va metabolitlarga ham bog'liq degan xulosalarga ham kelinmoqda. Bu birikmalar ozuqaviy attraktant yoki repellent rolini bajaradi (Zaxvatkin, Solomatin, 1982).

S.C.Chakrovorty and A.K Rasi (1981) yuqori darajada chidamli bo'lган G-9 g'o'za navida taninlarning konsentratsiasi birmuncha yuqori ekanligi aniqlangan. I.S.Varunsyansning (1971) qayd qilishicha, juda kam gossipol miqdoriga ega bo'lган g'o'za o'simligi zararkunandalar bilan kuchli zararlanadi (Alimuhammedov va boshqalar, 1990).

F.S.Talipov va boshqalar (1976), V.V Yaxontov (1957), F.M.Uspenski (1960) larning qayd etishlaricha, navlarning chidamlilik darajasi ularning nav jixatidan farqlanishi, xususan, o'simlik barglarining tuklanish tipi, gossipol bezchalarining miqdori, bargning anatomik tuzilishi, o'simlikning biokimyoviy va fiziologik jihatdan har xil bo'lishidan kelib chiqib, chidamlilik turlicha tavsiflanadi.

Gossypium L. turkumiga kiruvchi yovvoyi g'o'za turlarida zararkunandalarga chidamlilik juda kam o'rganilgan .

M.F.Shuster va boshqalar (1972) g'o'zaning 22 ta yovvoyi turining o'rgimchakkanaga chidamliliginini o'rganib, gossipol bezlari miqdorining o'simlikning chidamliligiga ta'sirini o'rganganlar va o'z tatqiqodlari natijasida bu ikkala belgi orasida bog'liqlik yo'q degan xulosaga keldilar.

A.S.Dariev va A.A.Abdullayev, (1974) bir qator yovvoyi turlar bargining tuzilishini o'rganib, g'o'zaning o'rgamchakkana va g'o'za shirasiga chidamliliği morfologik va anatomik tuzilishiga bog'liq degan xulosaga kelishgan.

D.K.Saidov (1950), V.V.Yaxontov (1956, 1964), va V.A.Lebedev (1958) larning fikricha, shira bargning ikkala tomoniga, ko'p hollarda esa bargning ostki qismiga yopishadi va epidermis orqali hujayra shirasini so'rib oziqlanadi. O'rgamchakkana esa faqat bargning ostki qismiga yopishadi va palisad qatlamdagи xlorofill donachalari bilin oziqlanadi.

M.I.Kosobutskiy (1959). A.S.Dariev, A.A.Abdullayev (1979) larning qayd etishlaricha, o'rgamchakkana palisad parenximasining eng yuqori qismidagi xloroplastlar bilan, shuningdek xeletseralari etadigan pastki hujayra xlorofil donachalari bilan ham oziqlanadi. Bunning sababi, zararkunandalarning oziqlanishi barg xususiyatlari bilan birga ularning xeletseralarining uzunligiga ham bog'liq. Katta yoshdagi o'rgamchakkanalarda xeletsera 117-121 mkm, lichinkalarida 102-105 mkm bo'ladi.

G‘o‘zaning Gavayya orollarida tarqalgan yagona yovvoyi turi G. Tomentosumning zararkunandalarga chidamliligi tuklanishni taminlovchi ikkita dominant genga bog‘liq bo‘lib, so‘ruvchi zararkunandalar bilan derli zararlanmaydi. (Simongulyan va boshqalar, 1974; A.S.Dariev, A.A.Abdullayev, 1985; Saydaliev va boshqalar, 1995).

Demak, o‘simpliklarning, xususan g‘o‘zaning zararkunandalarga chidamliligini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. O‘simpliklarning chidamliligi uning o‘zoq vaqt zararkunanda bilan birgalikdagi koevolyusiyasining natijasi bo‘lib, moslanish sifatida yuzaga kelgan. Barcha o‘simplik turlarida chidamlilikni belgilovchi bir qancha omilar mavjud, lekin bunday omillarning irsiylanish va namoyon bo‘lish tabiatli ayrim turlardagina yaxshi o‘rganilgan.

Chidamlilikni nazariy jihatdan o‘rganish natijasida ko‘plab ma’lumotlar olingan. Ushbu ma’lumotlarni umumiylashtirgan holda mavjud uslublarni takomillashtirish, chidamlilikni baholashning eng samarali usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Qishloq xo‘jaligida chidamli navlarning ahamiyatini nazarda tutib, bunday omillarni o‘rganish, ularni madaniy formalarga o‘tkazish imkoniyatlarini tahlil qilish, ushbu belgilarning irsiylanish tabiatini o‘rganish genetik – seleksion tadqiqotlarnig eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

G‘o‘za o‘simpligining zararkunandalarga chidamlilik masalasi asosan bu o‘simplikning morfo-anatomik tuzilishlaridagi o‘ziga xos xususiyatlarga tayangan holda o‘rganilganligidan dalolat beradi. Madaniy vakilning genetik-seleksion jihatdan zarakunandalarga chidamliligini belgilashda bir qancha masalalarga e’tibor qaratish zarur bo‘ladi.

VII-bob. G‘O‘ZA O‘SIMLIGIDA TURLARARO DURAGAYLASH METODI.

Turlararo duragaylash g‘o‘za ekini seleksiyasida katta ahamiyatga ega, chunki *Gossypium* turkumida juda ko‘p miqdorda belgi va xususiyatlari, xillari va shakllari mavjud. Masalan, *Gossypium arboreum* turidagi ko‘p shakllar bakterioz kasalligiga o‘ta chidamli, *Gossypium anomalum* va *Gossypium stocksii* turlarining shakllari gommoz va viltga deyarli chalinmaydi hamda kana va shirincha bilan kam zararlanadi; *Gossypium armoorianum* tur o‘simliklari qurg‘oqchilikka chidamli, *Gossypium davitsonii* – qurg‘oqchilikka va sho‘rlangan erlarga chidamli, *Gossypium trilobum*, ayniqsa *Gossypium sturtianum* – past haroratga o‘ta chidamli (-7-10 °S sovuqqacha chidab, barglarini saqlab qoladi) va boshqalar. Bu xususiyatlarning madaniy o‘simliklar - navlar uchun juda qimmatli (kerak) bo‘lganligi ravshan bo‘lib turibdi. G‘o‘zaning *Gossypium hirsutum* turi bilan *Gossypium barbadense* turi o‘simliklarini chatishtirish yuqori sifatli tolali, tezpishar navlarni yaratishga yo‘l ochib beradi.

Duragaylarni pushtsizligini engish. Duragay urug‘lari ekilib, duragay o‘simliklar hosil qilinadi, lekin ko‘p hollarda bu duragay o‘simliklar yaxshi o‘sib gullahiga qaramay, hosili shakllanmaydi, ya’ni duragaylar hosil bermaydi – pushtsiz bo‘ladi.

Uzoq shakllar duragaylarining pushtsiz bo‘lish sabablari bir necha:

- jinsiy hujayralarning hosil bo‘lishi jarayonida hujayra bo‘linishining (meyozning) buzilishiga sabab bo‘ladigan yadro va sitoplazmaning nomuvofiqligi;
- guldag‘i jinsiy organlarning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi genning mavjudligi;
- meyozda xromosomalarning kon‘yugatsiyalanishiga to‘sqinlik qiluvchi xromosomalar tuzilishidagi farqlar.

Duragaylarning pushtsizligini bartaraf etishning bir necha usullari mavjud:

1. *I.V.Michurin ishlab chiqqan tarbiyalash (mentor) usuli.* Pushtsiz duragay qalamchasi ota yoki ona o‘simlik shoxiga payvand qilib o‘stirish usuli. Bu usul qo‘llanilganda pushtsiz duragay payvandtag ta’siri ostida meva berish xususiyatiga ega bo‘ladi.

2. *Bekkross chatishtirish usuli.* Duragay gulini ota-onal o‘simligining changi bilan changlash. Ko‘pincha birinchi bo‘g‘in duragaylar naslsizligining sababi ularning gulidagi changlarning samarasiz bo‘lishidir. SHuning uchun bunday o‘simliklarda yaxshi rivojlangan tuxum hujayra urug‘lanish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi. Bunday hollarda I.V.Michurin duragay gulini ota-onasining changi bilan changlashni tavsiya etgan. Bunda ota-onal shakllarning qaysisi ko‘proq qimmatga ega bo‘lsa, o‘shanisining changi olinishi lozim. Masalan, madaniy tur bilan yovvoyi turni chatishtirib olingan duragayni aksariyat hollarda madaniy turning changi bilan changlantiradilar.

3. *Amfidiploidiya usuli.* Kolxitsin eritmasi bilan urug‘larni ishlab xromosom sonlarini ikki marta ko‘paytirish. Bu usulda hosil beradigan yuqori sifatli alloploid yoki amfidiploidlarni yaratish mumkin. Duragaylarning pushtsizligi

boshqa usullar bilan ham bartaraf etish mumkin, masalan o'simliklarning gullash davrida qulay sharoitlar yaratish, fiziologik-aktiv moddalar, ximiyaviy mutagen va boshqa omillarni qo'llash bilan.

Uzoq shakllarni duragaylash qishloq xo'jalik o'simliklarning seleksiyasida keng qo'llanmoqda. Ayniqsa bug'doy, kartoshka, g'o'za kabi ekinlar seleksiyasida katta yutuqlarga erishilgan.

Uzoq shakllarni duragaylash sohasida O'zbekistonda S.S.Kanashning xizmatlari katta. Uning ishlari natijasida g'o'zaning birinchi turlararo duragaylari hosil qilingan. U *G.herbaceum L.* bilan *G.hirsutum L.*ni chatishtirib (bekross qo'llab) gommozga chidamli 8802 navini yaratadi. Kelajakda bu nav asosida bir necha tez pishar, gommozga chidamli S-3381, 147-F, S-1579 va boshqa navlar yaratiladi. Seleksioner olim K.K.Maksimenko *G.hirsutum L.* bilan *G.Trikuspidatum* turlarini chatishtirib tolasi har xil rangli (pushti, yashil, ko'k) navlarini yaratadi.

Uzoq shakllarni duragaylash asosida akademik S.M.Miraxmedov va YU.Xutornoy bir necha tez pishar, viltga chidamli, serhosil navlarni yaratganlar.

S-4727 navini meksikanum yarim yovvoyi g'o'za bilan chatishtirib (bekkross usulini qo'llab) g'o'zaning viltga chidamli *Toshkent-1*, 3, 4, 6 navlari yaratiladi. G'o'zaning *Toshkent-1* navi Respublikamizning katta maydonlarida ekilib kelmoqda va shu bilan birga g'o'za seleksiyasida qimmatbaho boshlang'ich material sifatida keng qo'llanmoqda. Uning asosida bir necha qimmathi, yuqori hosilli *Oktyabr-60*, *AN-Bayavut-2*, *Andijon-2* kabi navlar yaratilgan.

VIII 606. G‘O‘ZA MORFOLOGIK-SIFAT BELGILARINING BIRGALIKDA IRSIYLANISHIDAGI KORRELYASIYA.

Morfologik belgilarning birgalikda irsiylanishidagi o‘zaro aloqadorlikni o‘rganishdan asosiy maqsad g‘o‘zaning o‘rganilayotgan morfologik-sifat belgilarining irsiylanish xarakterini aniqlashdan iborat. Agarda ma’lum belgilarning fenotipda namoyon bo‘lishligini nazorat qiluvchi genlar bitta xromosomada joylashgan bo‘lsalar, u holda bu belgilarning rivojlanishini ta’min etuvchi genlar birikkan holda irsiylanadilar. Krossingover yordami bilan birikish guruhlari va ularda joylashgan genlar aniqlanadi. Bu masalani o‘rganishga vatanimiz hamda chet el olimlarining qator tadqiqotlari qaratilgan.

I.B.Hutchinson (1932) o‘simglikning antotsian rangi, barglari va gultojbarglarining rangi, gultojbarglar asosidagi antotsian dog‘ning borligi bilan o‘zaro bog‘liq emas.

Yu.F.Uzakov, X. Xaljigitov (1976) larning dalillari bo‘yicha cheklangan hosil shoxli duragay o‘simgliklarning ertapisharligi cheklanmagan hosil shoxli o‘simgliklarnikiga nisbatan birmuncha ertapishar hisoblanadi.

D.A.Musayev (1979) g‘o‘za genetik kolleksiyasining fenotip bo‘yicha keskin farqlanuvchi liniyalarini o‘zaro chatishirishdan olingan liniyalraro duragaylarda shoxlanish tipi, barg plastinkasining shakli, tolanning rangi, o‘simglik rangi kabi morfologik-sifat belgilarning o‘zaro birgalikda irsiylanishidan olingan dalillarning genetik tahliliga asoslanib turib o‘rganilgan belgilar mustaqil taqsimlanishini, shuningdek, bu belgilarning rivojlanishini boshqaruvchi genlar (*S-s*, *O_l-o_l*, *Br^{Li}-br^{Li}*, *Rp-rp*) turli xil birikish guruhlarida joylashgan degan xulosaga keldi.

N.G. Simongulyan, U.X.Muxamedjanov (1981) larning ma’lumoti bo‘yicha o‘simglikning tuklanishi, gultojbarglar asosidagi antotsian dog‘, gultojbarglar rangi, shoxlanish tiplari tolanning rangi bilan bevosita korrelyativ aloqadorlikda emas, ya’ni ular mustaqil irsiylanadilar.

S.A.Zakirov (1982) g‘o‘za genetik kollksiyasining ayrim liniyalarini o‘zaro chatishirishdan olingan duragaylarda shoxlanish tipi, barg plastinkasining shakli va “yalang‘och urug‘lilik” kabi belgilarning birgalikda irsiylanishlaridagi o‘zaro bog‘liqlikni tadqiq etganlari holda bu belgilarning mustaqil irsiylanishlarining guvohi bo‘lgan.

M.F.Abzalov, G.N.Fatxullaeva (1993) o‘simgliklar antotsian rangining genetikasini hamda uning *G. hirsutum L* turida barg plastinkasining shakli bilan hamkorlikda irsiylanishini o‘rgandilar. Ularning tadqiqotlarida shunday xulosa qilindi:barg plastinkasi shaklining rivojlanishini nazorat qiluvchi *O_l* va *In_l* genlari o‘simglik rangini boshqaruvchi *Rp* va *Rst* genlari boshqa-boshqa birikish guruhlarida joylashgan.

M.S.Miraxmedov (1994) olingan dalillarning tahliliga asoslangan holda barg plastinkasi shaklining genlari (*In_l-in_l*, *O_l-o_l*), hosil shoxlari geni (*S-s*), poya tipi (*Intⁿ-intⁿ*) genlarining har xil birikish guruhlarida joylashganlar deb ko‘rsatadi.

F.X.Jumaev (1997) dalili bo'yicha g'o'zaning "paxtaabad" poya tipi (*Int*"), hosil shoxlari tipi (*S*), o'simlik rangi (*R_p, R^v_{st}*) genlarining pakanalikning *Let^{dw}* letal geni bilan bog'liq emasligi, ular mustaqil irsiylanishlari mumkin.

7.1.O'simliklar rangi va gulyon barglar shaklining birgalikda irsiylanishi.

Sifat belgilarning birgalikda irsiylanishidagi o'zaro aloqadorlik L-477 (o'simlik rangi antotsian, gulyon bargi ingichka) va L-479 (o'simlik rangi yashil, gulyon bargi yuraksimon) liniyalarini o'zaro chatishtirishdan olingan F₁, F₂ duragaylarida o'rganildi.

F₁ duragaylarida o'simlik rangi bo'yicha to'liqsiz, gulyon barg shakli bo'yicha to'liq dominantlik sholati kuzatilgan.

F₂ duragaylari fenotip bo'yicha to'rtta sinfga ajratildi: bunda antotsian va oraliq rangli duragaylar bitta sinfga biriktirilganligini xam qayd etib o'tish lozim.

- antotsian rangli, yuraksimon shaklli gulyon bargli o'simliklar,
- antotsian rangli, ingichka shaklli gulyon bargli o'simliklar,
- yashil rangli, yuraksimon shaklli gulyon bargli o'simliklar,
- yashil rangli, ingichka shaklli gulyon bargli o'simliklar.

Sinflar o'rtaqidagi nisbat 9:3:3:1.

32-jadvalda keltirilgan sonlar olingan dalillarning nazariy kutilgan songa yaqinligidan dalolat beradi.

Olingan 9:3:3:1 nisbat bu erda ikki gen bo'yicha boshqarilish mavjudligini ko'rsatadi (31-jadval).

Adabiyot daliliga ko'ra L-477 liniya xar ikki belgi bo'yicha- *r_pr_pR^v_{st}R^v_{st}f_{gf}fg* genotipga, L-479 liniya esa- *r_pr_pr^v_{st}r^v_{st}FgFg* genotipga ega ekanligini qayd etamiz.

F₁ duragaylarining genotipi- *r_pr_pR^v_{st}r^v_{st}FgFg*.

32-jadval

F₂ (L-477 x L-479) duragaylarining «o'simlik rangi» va «gulyon barglar shakli» belgilari bo'yicha ajralishi

| Ko'rsatkich | n | O'simliklarning antotsian + oraliq rangi | | O'simliklarning yashil rangi | |
|--|-----|--|------------------------------------|--------------------------------------|------------------------------------|
| | | Gulyon barglarning yuraksimon shakli | Gulyon barglarning ingichka shakli | Gulyon barglarning yuraksimon shakli | Gulyon barglarning ingichka shakli |
| Olingan faktik son | 334 | 181 | 70 | 59 | 24 |
| Nazariy kutilgan son (q) 9:3:3:1 nisbatda | 334 | 187,875 | 62,625 | 62,625 | 20,875 |
| Farq (d) | | -6,875 | 7,375 | -3,625 | 3,125 |
| d ² | | 47,2657 | 54,391 | 13,141 | 9,7656 |
| d ² /q | | 0,2515 | 0,8685 | 0,2098 | 0,4678 |
| $\chi^2 = 1,7976$ | | P= 0,80-0,50 | | | |

F_2 da esa genotip va fenotip bo'yicha quyidagicha ajralish kuzatiladi:

- | | | |
|--|---|----------------------|
| 1. $r_p r_p R^v_{st} R^v_{st} Fg Fg - 1$ | } | 9 rangli, yuraksimon |
| 2. $r_p r_p R^v_{st} R^v_{st} Fg f g - 2$ | | |
| 3. $r_p r_p R^v_{st} r^v_{st} Fg Fg - 2$ | | |
| 4. $r_p r_p R^v_{st} r^v_{st} Fg f g - 4$ | | |
| 5. $r_p r_p R^v_{st} R^v_{st} f g f g - 1$ | } | 3 rangli, ingichka |
| 6. $r_p r_p R^v_{st} r^v_{st} f g f g - 2$ | | |
| 7. $r_p r_p r^v_{st} r^v_{st} Fg Fg - 1$ | } | 3 yashil, yuraksimon |
| 8. $r_p r_p r^v_{st} r^v_{st} Fg f g - 2$ | | |
| 9. $r_p r_p r^v_{st} r^v_{st} f g f g - 1$ | } | 1 yashil, ingichka |

Har ikki belgining irsiylanishidagi o'zaro aloqadorlik korrelyasiya koeffitsientini aniqlash yo'li bilan ham tekshiriladi (33-jadval).

33 -jadval

| O'simliklar | Rangli | Yashil | Gorizontal qiymatlar yig'indisi |
|-------------------------------|--------------|-------------|---------------------------------|
| Gulyon barglar yuraksimon | 181(n_1) | 59(n_2) | 240(N_1) |
| Gulyon barglar ingichka | 70(n_3) | 24(n_4) | 94(N_2) |
| Vertikal qiymatlar yig'indisi | 251(N_3) | 83(N_4) | 334(n) |

$$r = \frac{n_1 \times n_4 - n_2 \times n_3}{\sqrt{N_1 \times N_2 \times N_3 \times N_4}} = \frac{181 \times 24 - 59 \times 70}{\sqrt{240 \times 94 \times 251 \times 83}} = \frac{4344 - 4130}{\sqrt{469992480}} = \frac{214}{21679} = 0,009871$$

$$r = 0,009871;$$

$$Sr = \sqrt{\frac{1-r^2}{n-2}} = \sqrt{\frac{1-0,009871^2}{334-2}} = \sqrt{\frac{1-0,00000097}{332}} = \sqrt{\frac{0,999999}{332}} = \sqrt{0,00301} q0,0548;$$

$$Sr = 0,0548.$$

$$tr = \frac{r}{Sr} = \frac{0,009871}{0,0548} = 0,1801; tr = 0,1801; tr < t_{05}; 0,1801 < 1,96.$$

χ^2 (xi-kvadrat) va korrelyasiya koeffitsienti dalillariga asoslangan sholda o'simlikning antotsian rangi va gulyonbarglarning yuraksimon shaklini rivojlantiruvchi genlar bir-birlaridan mustaqil ravishda irsiylanadilar va boshqa-boshqa birikish guruvida joylashgan deb shisoblaymiz.

7.2.G'o'zada tola rangi va gultojbarglar rangining birgalikda irsiylanishidagi korrelyasiya.

Tola va gultojbarglar ranglarining birgalikda irsiylanishidagi o'zaro bog'liqlik L-77 x L-670 kombinatsiyasining F_2 duray populyasiyasida o'rGANildi.

L-77 liniya o'simliklarining gultojbarglari och sariq rangda bo'lib, genotiplarida qo'ng'ir tola geni bor.

L-670 liniya o'simliklari oq tolali hamda gultojbarglari to'q sariq rangga ega.

Bu liniyalarni o'zaro chatishtirilib olingan F_1 duragaylari tolasining oraliq-novvot rangda, gultojbarglari to'q sariq rangdaligi bilan ajralib turadi. Binobarin, gultojbarglarning to'q sariq rangi och sariq rangi ustidan to'liq dominantlik qiladi.

F_2 da o'rganilayotgan belgilar bo'yicha ajralish kuzatilib, to'rtta fenotipik sinf kuzatilgan:

- tolasi rangli (qo'ng'ir + novvot rang) va gultojbarglari to'q sariq rangda bo'lган o'simliklar;
- tolasi oq va gultojbarglari to'q sariq rangda bo'lган o'simliklar;
- tolasi rangli va gultojbarglari och sariq rangda bo'lган o'simliklar;
- tolasi oq va gultojbarglari och sariq rangda bo'lган o'simliklar.

Fenotipik sinflarning nisbati 9 : 3 : 3 : 1. Olingan dalillar nazariy kutilgan sonlarga yaqin (34-jadval).

Fenotipik sinflarning 9 : 3 : 3 : 1 nisbati ota-onalari liniyalarining ikki gen bo'yicha farqlanishini ko'rsatadi.

Ota-onalari liniyalarini o'rganilayotgan belgilar bo'yicha quyidagi genotiplarga ega: L-77 = $Fr^{Br} Fr^{Br} y_1 y_1$; L-670 liniya = $Fr^{br} Fr^{br} Y_1 Y_1$; $F_1 = Fr^{Br} Fr^{br} Y_1 y_1$.

F_2 da $Fr^{Br} Fr^{br}$ va Y_1-y_1 genlari bo'yicha ajralish ketadi.

34-jadval

"Tola rangi" va "gultojbarglar rangi" belgilari bo'yicha F_2 dagi ajralish.

| Material | n | Rangli tola | | Oq tola | |
|--|-----|------------------------|-----------------------|------------------------|-----------------------|
| | | Changlar to'q sariq | Changlar och sariq | Changlar to'q sariq | Changlar och sariq |
| Faktik olingan son | 441 | 252 | 85 | 74 | 30 |
| Nazariy kutilgan son (q) 9:3:3:1 nisbatda | 441 | 248,0625 | 82,6875 | 82,6875 | 27,5625 |
| Farq (d) | 0 | 3,9375 | -2,3125 | -8,6875 | 2,4375 |
| d^2 | | 15,504 | 5,3476 | 75,4726 | 5,9414 |
| d^2/q | | 0,0625 | 0,0625 | 0,9127 | 0,2155 |
| $\Sigma \chi = 1,2553$; | | $P = 0,50 - 0,20$ | | | |

F_2 da bu genlarning o'zaro ta'sirini quyidagi sxema bo'yicha ko'rsatish mumkin.

| Genotipik sinflar | | | Fenotipik sinflar | | |
|-------------------|---------------------------|-----------------------|----------------------|--|--------------------------------|
| No | Genotip | takrorlan ish soni | Fenotipik radikal | Fenotip | takrorlan ish soni ssoni |
| son1 | $Fr^{Br} Fr^{Br} Y_1 Y_1$ | 1 | $Fr^{Br} - Y_1 -$ | Rangli tola va gultojbarglar to'q sariq rangda | 9 |
| 2 | $Fr^{Br} Fr^{Br} Y_1 y_1$ | 2 | | | |
| 3 | $Fr^{Br} Fr^{br} Y_1 Y_1$ | 2 | | | |
| 4 | $Fr^{Br} Fr^{br} Y_1 y_1$ | 4 | | | |

| | | | | | |
|---|---------------------------|---|---------------------------|---|---|
| 5 | $Fr^{Br} Fr^{Br} y_1 y_1$ | 1 | $Fr^{Br} - y_1 y_1$ | Rangli tola vaguljobarglar och sariq rangda | 3 |
| 6 | $Fr^{Br} Fr^{br} y_1 y_1$ | 2 | | | |
| 7 | $Fr^{br} Fr^{br} Y_1 Y_1$ | 1 | $Fr^{br} Fr^{br} Y_{I-}$ | Oq tola va guljobarglar to'q sariq rangda | 3 |
| 8 | $Fr^{br} Fr^{br} Y_1 y_1$ | 2 | | | |
| 9 | $Fr^{br} Fr^{br} y_1 y_1$ | 1 | $Fr^{br} Fr^{br} y_1 y_1$ | Oq tola va guljobarglar och sariq | 1 |

Olingan dalillar tola rangi va guljobarglarning rangi mustaqil ravishda irsiylanishini ko'rsatadi. Buni korrelyasiya dalillari ham tasdiqlaydi.

35-jadval
Tola va guljobarglar ranglari o'rtasidagi korrelyasiya koeffitsientini aniqlash.

| O'simliklar | Guljobarglarning to'q sariq rangi (+) | Guljobarglarning och sariq rangi (-) | Gorizontal qatorlar yig'indisi |
|------------------------------|--|---|--------------------------------------|
| Rangli tola (+) | 252 (n_1) | 85 (n_2) | 337 (N_1) |
| Oq tola (-) | 74 (n_3) | 30 (n_4) | 104 (N_2) |
| Vertikal qatorlar yig'indisi | 326 (N_3) | 115 (N_4) | 441 (n) |

$$r = \frac{n_1 \times n_4 - n_2 \times n_3}{\sqrt{N_1 \times N_2 \times N_3 \times N_4}} = \frac{252 \times 30 - 85 \times 74}{\sqrt{337 \times 104 \times 326 \times 113}} = \frac{7560 - 6290}{\sqrt{1291098224}} = \frac{1270}{35931,8552} = 0,0353$$

$$r = 0,0353;$$

$$Sr = \sqrt{\frac{1-r^2}{n-2}} = \sqrt{\frac{1-0,0353^2}{441-2}} = \sqrt{\frac{1-0,001246}{439}} = \sqrt{\frac{0,998754}{439}} = \sqrt{0,00227} = 0,0476;$$

$$Sr = 0,0476.$$

$$tr = \frac{r}{Sr} = \frac{0,0353}{0,0476} = 0,7352; tr = 0,7352; tr < t_{05}; 0,7352 < 1,96.$$

Korrelyasiya dalillari ($r \pm Sr = 0,035 \pm 0,0476$) "tolu rangi" bilan "guljobarglar rangi" belgilari o'rtasida korrelyativ aloqa yo'qligini ko'rsatadi.

1. χ^2 va korrelyasiya dalillari tola rangining geni - $Fr^{Br} Fr^{br}$ va guljobarglar rangining geni - $Y_1 y_1$ har xil gomologik bo'limgan xromosomalarda joylashganligini ko'rsatadi (Turabekov Sh., Ergashev M.M., va boshq. 2011y.)

7.3.G'o'zada tola rangi va guljobarglar asosidagi qizg'ish dog'ning birgalikda irsiylanishidagi korrelyasiya.

Tola rangi va guljobarglar asosidagi qizg'ish dog'ning irsiylanishidagi o'zaro bog'liqlik L-77 x L-670 kombinatsiyasining F_2 duragaylarida o'rGANildi.

L-77 liniya o'simliklarining guljobarglar asosida qizg'ish dog'i bo'lmasdan, genotiplarida qo'ng'ir tola geni bor.

L-670 liniya o'simliklari oq tolali hamda gultojbarglar asosida qizg'ish dog'i bor. Bu liniyalarni o'zaro chatishtirilib olingan F_1 duragaylari tolasining oraliq-novvot rangda, gultojbarglari asosida qizg'ish dog'i borligi bilan tavsiflanadi. Binobarin, gultojbarglar asosida qizg'ish dog'ning bo'lishligi dog'ning bo'lmasligi ustidan to'liq dominantlik qiladi. F_2 duragaylarida har ikki belgi bo'yicha ajralish sodir bo'lib, to'rtta fenotipik sinf belgilangan:

- tolasi rangli (qo'ng'ir + novvot rang) va gultojbarglar asosida qizg'ish dog'i bor o'simliklar;
- tolasi rangli va gultojbarglar asosida qizg'ish dog'i yo'q o'simliklar;
- tolasi oq va gultojbarglar asosida qizg'ish dog'i bor o'simliklar;
- tolasi oq va gultojbarglar asosida dog'i yo'q o'simliklar.

Fenotipik sinflarning nisbati 9 : 3 : 3 : 1. Olingan dalillar nazariy kutilgan sonlarga yaqin (36-jadval).

Bu nisbat belgilar irsiylanishining ikki gen tomonidan boshqarilish holatlarida kuzatiladi.

36-jadval
“Tola rangii” va gultojbarglar asosida “qizg'ish dog” ning bor-yo'qligi belgisi
bo'yicha F_2 dagi ajralish.

| Material | n | Rangli tola | | Oq tola | |
|---|-----|-------------------|------------|-----------|------------|
| | | Dog'i bor | Dog'i yo'q | Dog'i bor | Dog'i yo'q |
| Faktik olingan son | 441 | 244 | 93 | 76 | 28 |
| Nazariy kutilgan son (q) 9:3:3:1 nisbatda | 441 | 248,0625 | 82,6875 | 82,6875 | 27,5625 |
| Farq (d) | | -4,0625 | 10,3125 | -6,6875 | 0,4375 |
| d^2 | | 16,504 | 106,3476 | 44,7226 | 0,1914 |
| d^2/q | | 0,0665 | 1,2861 | 0,5408 | 0,0069 |
| $\Sigma \chi^2 = 1,9003 ;$ | | $P = 0,80 - 0,50$ | | | |

Ota-onaliniyalari o'rganilayotgan belgilar bo'yicha quyidagicha genotipiga ega ekanligi aniqlandi:

$$L-77 = Fr^{Br} Fr^{Br} r_2^r r_2^r; L-670 = Fr^{br} Fr^{br} R_2^r R_2^r. F_1 = Fr^{Br} Fr^{br} R_2^r r_2^r.$$

F_2 da ikki gen bo'yicha - Fr^{Br} - Fr^{br} va R_2^r - r_2^r genlari bo'yicha ajralish ketadi. Genlar o'rtasidagi munosabatni quyidagi sxema bilan ko'rsaktish mumkin.

| Nº | Genotip | Takrorlanish soni | Fenotip |
|----|-------------------------------|-------------------|---------------------------------------|
| 1 | $Fr^{Br} Fr^{Br} R_2^r R_2^r$ | 1 | 9 ta rangli tola, antotsian dog'i bor |
| 2 | $Fr^{Br} Fr^{Br} R_2^r r_2^r$ | 2 | |
| 3 | $Fr^{Br} Fr^{br} R_2^r R_2^r$ | 2 | |
| 4 | $Fr^{Br} Fr^{br} R_2^r r_2^r$ | 4 | |
| 5 | $Fr^{Br} Fr^{Br} r_2^r r_2^r$ | 1 | 3 ta rangli tola, dog'i yo'q |
| 6 | $Fr^{Br} Fr^{br} r_2^r r_2^r$ | 2 | |

| | | | |
|---|-------------------------------|---|--------------------------|
| 7 | $Fr^{br} Fr^{br} R_2^r R_2^r$ | 1 | 3 ta oq tola, dog‘i bor |
| 8 | $Fr^{br} Fr^{br} R_2^r r_2^r$ | 2 | |
| 9 | $Fr^{br} Fr^{br} r_2^r r_2^r$ | 1 | 1 ta oq tola, dog‘i yo‘q |

Olingan dalillar tola rangi va gultojbarglar asosidagi qizg‘ish dog‘ning mustaqil irsiylanishini ko‘rsatadi. Bu holatni korrelyasiya dalillari ham tasdiqlaydi (37-jadval).

37-jadval

| Material | Qizg‘ish dog‘ bor (+) | Qizg‘ish dog‘ yo‘q (-) | gorizontal qatorlar yig‘indisi |
|------------------------------|-----------------------|------------------------|--------------------------------|
| Rangli tola (+) | 244 (n ₁) | 93 (n ₂) | 337 (N ₁) |
| Oq tola (-) | 76 (n ₃) | 28 (n ₄) | 104 (N ₂) |
| Vertikal qatorlar yig‘indisi | 320 (N ₃) | 121 (N ₄) | 441(n) |

$$r = \frac{n_1 \times n_4 - n_2 \times n_3}{\sqrt{N_1 \times N_2 \times N_3 \times N_4}} = \frac{244 \times 28 - 93 \times 76}{\sqrt{337 \times 104 \times 320 \times 121}} = \frac{6832 - 7068}{\sqrt{1357058560}} = \frac{-236}{36838,2757} = -0,0064;$$

$$r = -0,0064$$

$$Sr = \frac{1 - r^2}{n - 2} = \sqrt{\frac{1 - 0,0064^2}{441 - 2}} = \sqrt{\frac{1 - 0,000041}{439}} = \sqrt{\frac{0,999959}{439}} = \sqrt{0,002278} = 0,04772$$

$$Sr = 0,04772$$

$$tr = \frac{r}{Sr} = \frac{0,0064}{0,04772} = 0,13411;$$

$$tr < t_{05}; \quad tr = 0,13411 < 1,96$$

χ^2 va korrelyasiya dalillari ($r \pm Sr = 0,0064 \pm 0,04772$) “tolu rangi” va gultojbarglar asosidagi “qizg‘ish dog‘” belgilari o‘rtasida korrelyativ aloqa yo‘qligini ko‘rsatadi. Tola rangining geni Fr^{Br} - Fr^{br} va gultojbarglar asosidagi qizg‘ish dog‘ning “bor yo yo‘qligi” belgisining R_2^r - r_2^r geni gomologik bo‘lmagan har xil xromosomalarda joylashgan.

7.4.G‘o‘zala tolu rangi va changlar rangining birgalikda irsiylanishidagi korrelyasiya.

Bu belgilarning birgalikda irsiylanishi F_2 da olingan duragaylarda o‘rganildi. L-77 liniya o‘simliklarining changlari och sariq rangda, genotiplarida qo‘ng‘ir tolaning geni bor. L-670 liniya o‘simliklari oq tolali hamda changlari to‘q sariq rangda. Bu liniyalarni o‘zaro chatishtirilib olingan F_1 duragaylari tolasining oraliq- novvot rangda, changlari to‘q sariq rangda bo‘lishligi bilan tavsiflanadi. Tolu rangi bo‘yicha to‘liqsiz, changlar rangi bo‘yicha to‘liq dominantlik hodisalari kuzatiladi.

Ikkinchı avlodda o‘rganilayotgan belgilar bo‘yicha ajralish sodir bo‘lib,to‘rtta fenotipik sinflar kuzatilgan:

- tolasi rangli (qo‘ng‘ir + novvot rang) va changlari to‘q sariq rangli o‘simliklar;
- tolasi rangli va changlari och sariq rangli o‘simliklar;
- tolasi oq va changlari to‘q sariq rangli o‘simliklar;
- tolasi oq va changlari och sariq rangli o‘simliklar.

Fenotipik sinflarning nisbati 9 : 3 : 3 : 1.Olingan dalillar nazariy kutilgan sonlarga yaqin (38-jadval).

Fenotipik sinflarning 9:3:3:1 nisbati ota-onaliniyaning ikki gen bilan farqlanishini ko‘rsatadi.

38-jadval

“Tola rangi” va “changlar rangi” belgilari bo‘yicha F_2 dagi ajralish.

| Material | Rangli tola | | Oq tola | |
|--|---------------------|--------------------|---------------------|--------------------|
| | Changlar to‘q sariq | Changlar och sariq | Changlar to‘q sariq | Changlar och sariq |
| Faktik olingan son | 261 | 76 | 82 | 22 |
| Nazariy kutilgan son (q) 9:3:3:1 nisbatda | 248,063 | 82,6875 | 82,6875 | 27,5625 |
| Farq (d) | 12,9375 | -6,6875 | -0,6875 | -5,5625 |
| d^2 | 167,379 | 44,7226 | 0,4726 | 30,9414 |
| d^2/q | 0,6747 | 0,5408 | 0,0057 | 1,1225 |
| $\chi^2 = 2,3437;$ | | $P = 0,50-0,20$ | | |

Ota-onaliniyaning bo‘yicha quyidagi genotiplarga ega: $L-77 = Fr^{Br} Fr^{Br} r_I r_I$; $L-670 = Fr^{br} Fr^{br} R_I R_I$.

F_1 duragaylari digeterozigota bo‘lib, $Fr^{Br} Fr^{br}$ $R_I r_I$ genotipga ega.

F_2 da $Fr^{Br} - Fr^{br}$ va $R_I r_I$ genlari bo‘yicha ajralish ketadi.

F_2 da bu genlarning o‘zaro ta’sirini quyidagi sxemada keltiramiz:

| Genotipik sinflar | | | Fenotipik sinflar | |
|---------------------------|-------------------|---------------------------|------------------------------------|-------------------|
| Genotip | Takrorlanish soni | Fenotipik radikal | Fenotip | Takrorlanish soni |
| $Fr^{Br} Fr^{Br} R_I R_I$ | 1 | $Fr^{Br} - R_I -$ | Rangli tola va changlar to‘q sariq | 9 |
| $Fr^{Br} Fr^{Br} R_I r_I$ | 2 | | | |
| $Fr^{Br} Fr^{br} r_I r_I$ | 2 | | | |
| $Fr^{Br} Fr^{br} R_I r_I$ | 4 | | | |
| $Fr^{Br} Fr^{Br} r_I r_I$ | 1 | $Fr^{Br} - r_I r_I$ | Rangli tola va och sariq | 3 |
| $Fr^{Br} Fr^{br} r_I r_I$ | 2 | | | |
| $Fr^{br} Fr^{br} R_I R_I$ | 1 | $Fr^{br} Fr^{br} R_I -$ | Oq tola va changlar to‘q sariq | 3 |
| $Fr^{br} Fr^{br} R_I r_I$ | 2 | | | |
| $Fr^{br} Fr^{br} r_I r_I$ | 1 | $Fr^{br} Fr^{br} r_I r_I$ | Oq tola va changlar och sariq | 1 |

Olingen dalillar tola rangi va changlar ranglarining mustaqil irsiylanishini ko'rsatadi. Bu holatni korrelyasiya koeffitsienti dalillari ham tasdiqlaydi (39-jadval).

39-jadval

Tola rangi va changlar rangi o'rtasidagi korrelyasiya koeffitsientini aniqlash.

| O'simliklar | Changlarning to'q sariq rangi (+) | Changlarning och sariq rangi (-) | Gorizontal qatorlar yig'indisi |
|------------------------------|-----------------------------------|----------------------------------|--------------------------------|
| Rangli tola (+) | 261 (n ₁) | 76 (n ₂) | 337 (N ₁) |
| Oq tola (-) | 82 (n ₃) | 22 (n ₄) | 104 (N ₂) |
| Vertikal qatorlar yig'indisi | 343 (N ₃) | 98 (N ₄) | 441(n) |

